

Z. M. AKROMOV, P. G'. MUSAYEV

# **O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi  
vazirligi 8- sinf uchun darslik sifatida  
tasdiqlagan*

2-nashri

**TOSHKENT — „MEHNAT“ — 2002**

ББК 65.04ya 721  
A43

*Taqrizchilar: geografiya fanlari doktori A. Soliyev,  
geografiya fanlari nomzodi E. Safarov,  
oliy toifali o'qituvchi M. Xolmatov.*

Diagramma va ayrim xaritalar geografiya fanlari doktori *T. Mirzaliyev*  
tahriri ostida berildi.

Mualliflar darslikni qayta ishlab nashrga tayyorlashda yaqindan yordam bergan va uni Toshkent tumanidagi 2-o'rtta maktabda tajriba-sinovdan o'tkazgan oliy toifali geografiya o'qituvchisi, geografiya fanlari nomzodi *Jahongir Musayevga* o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

**Ushbu nashrga doir huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir.  
Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to'liq yoki qisman ko'chirib  
bosish taqiqlanadi.**

A 4306021000—02 Buyurt.var. — 2002  
M359(04)—2002

ISBN 5-8244-1491-2

© „Mehnat“ nashriyoti, qayta  
bezatilgan, 2001 y.

© „Mehnat“ nashriyoti, 2002 y.

---

---

## KIRISH

### 1- §. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nimani o'rgatadi

Siz tabiiy geografiya kurslarida butun Yer yuzi, qolaversa Vatanimiz tabiati bilan tanishib chiqdingiz, undan tabiiy boyliklar qanchalik ko'p va xilma-xil ekanligini bilib oldingiz. Siz endigina o'rganishga kirishayotgan o'quv fani, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya deb ataladi. U uzoq yillar iqtisodiy geografiya nomi bilan yuritilib, tabiiy sharoit va resurslarning turli mamlakat va rayonlardagi holati hamda bularni xo'jalikning joylanishiga ta'siri masalalarini tadqiq qilib kelgan. So'nggi vaqtlarda uning vazifasi kengayib mamlakat turli qismlaridagi kishilarning hayoti, mehnat qilishi, dam olishi, davolanishi singari aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini, ya'ni sotsial hayot masalalarini ham o'rganmoqda. Shu sababli bu fan „iqtisodiy va ijtimoiy geografiya“ degan yangicha nom oldi. Uning tadqiqotlari iqtisodiyot va aholini mamlakatimizning ilgari o'zlashtirilgan rayonlarida ham, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarida ham hududiy joylashuvini asoslashga imkon beradi.

**Korxonalar\*** va aholi manzilgohlari iqtisodiy samaradorlik hamda tabiiy muhitni avaylashni ko'zlab joylashtirilishi tufayli odamlarning mehnat va mablag'i behuda sarflanmaydi — barakali bo'ladi. Eng muhimi, vaqt tejaladi.

Darhaqiqat, zavod, fabrikalarni, tibbiyot maskanlarini, ilmiy muassasa yoki maishiy xizmat korxonalarini joylashtirishdagi shuningdek, shahar va shaharchalar tarkib topishidagi turli xatoliklar tufayli ortiqcha kuch va mablag' sarflashga majbur bo'linadi. Bular pirovard oqibat ijtimoiy mehnat unumdorligi\*ning o'sishiga salbiy ta'sir etadi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat unumdorligi faqat mashinalarning miqdori va mukammalligiga, ishchilarning malakasiga, elektr energiya, transport, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligigagina bog'liq emas. Mehnat unumdorligi yuqoridagilar bilan bir qatorda yana korxonalar milliy iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari bilan uyg'unlikda ishlashi va bu korxonalarda mehnat qiluvchi kishilarning

yashash sharoitlari, dam olish hamda madaniy, maishiy xizmat qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilganligiga ham bog'liq.

Agar xomashyo, yoqilg'i, energiya manbalari va ishchilar o'zaro yonma-yon joylashsa, yuqori ishlab chiqarish samaradorligi ta'minlanadi. Biroq, bunday qulay joylashish kamdan-kam uchraydi. Ba'zi joylarda xomashyo yetishmasa, boshqa joyda yoqilg'i, energiya tanqisligi kuzatiladi.

Ana shuning uchun ham mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirishning milliy dasturlarida ishlab chiqarishni, aholini joylashtirishni va tabiatdan foydalanishni hududiy tashkil etishga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini aholi va tabiiy sharoit bilan o'zaro aloqador holda o'rganib, uni hududiy tashkil etishning umumiy tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslaydi. Kurs Sizni mamlakatimizda ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ko'paytirishga va umuman kishilar turmushining farovonlashuviga yordam beruvchi geografik bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, geografik bilimingizni oshirishda turli, yangi va dolzarb manbalardan mustaqil foydalanish usullarini tarkib toptiradi.

Bu fan xulosalari tabiiy muhit ifloslanishining oldini olish va umuman tabiatdagi muvozanatni saqlashga qaratilgan tadbirlarni belgilashda ham qo'l keladi. Shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy shuningdek, siyosiy jabhalardagi miqdor va sifat o'zgarishlar oqibatida bu fanga taalluqli ma'lumotlar, daliliy ashyolar eskira boshlaydi. Natijada darslikdagi raqamli ma'lumotlar, rasm, xarita va hatto joy nomlari ham voqelikdan farqlanishi mumkin. Hech bir fanda kuzatilmaydigan bu holat mazkur darslik mualliflari qatori undan foydalanuvchi (o'qituvchi bilan o'quvchi)larni ham kundalik voqea, jarayonlardan xabardor bo'lib turishlarini taqozo etadi. Mana o'n yilki, yurtimizda istiqlolni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tuzumga o'tishdek murakkab, keng qamrovli jarayon kechmoqda. Bu jarayon nafaqat mamlakat ko'lamida, balki har bir shahar va qishloqda turli muammolar keltirib chiqarmoqda.

Darslik Sizni ana shu muammolar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ular yechimi bo'yicha shaxsiy fikringizni ham biladi. Binobarin olim yoki mas'ul lavozimdagi rahbar misol ishlashga Sizni da'vat etadi.

Buning uchun esa, bunyodkorlik ishlarimizga asos bo'ladigan imkoniyatlarni, ya'ni mamlakatimizning tabiiy sharoitlarini, tabiiy boyliklarini, aholisini va bularning dunyodagi o'rnini hamda o'tmishdagi holatini bilib olishimiz kerak.

Mamlakat rayonlarining ishlab chiqarish aloqasi ularning barchasiga naf keltiruvchi umumiy maqsad taqozosidir. Shu maqsad yo'lida har bir rayon muayyan xomashyo, yoqilg'i-energetika, yordamchi material va hokazolar ishlab chiqaradi hamda o'zaro ta'minlanadi. Bunday tadrijiy aloqalar O'zbekiston iqtisodiyotini takomillashtirib, yaxlit ulkan majmuaga, „**kelajagi buyuk davlat**“ ga aylantiradi. Vatanimizni buyuk davlatga aylantirishdek ulkan vazifalarni hal qilishga Siz aziz o'quvchilar o'z hissalaringsizni qo'shishingiz kerak. Buning uchun Sizlarning mehnatingiz yuqori unumli bo'lishi zarur, chunki mehnat unumdorligi bozor munosabatlariga o'tishda eng muhim va eng asosiy omildir. Mehnat unumdorligini oshirmasdan turib mahsulotlarni mo'l-ko'l qilish, xalqning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun sharoit yaratish mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish bu vazifaning muhimligi va uni hal qilishning aniq yo'llarini tushunishingizga, ixtisos tanlashingizga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishdek fuqarolik burchingizni ado etishga yordam beradi.

Siz V—VII sinflarda tabiiy geografiyani o'rganganingizda turli xaritalar bilan ishladingiz va bu xaritalarda geografik obyekt hamda hodisalarni tasvirlashning asosiy usullarini bilasiz. Bular: belgilar, areallar, sifatiy fon, egri chiziqlar, harakat chiziqlari bilan tasvirlash usullari bo'lib, ular iqtisodiy xaritalarni tuzishda ham qo'llaniladi.

Darslikdagi va atlasdagi iqtisodiy xaritalarda tasvirlashning bundan boshqa usullaridan, masalan, nuqtalar, kartodiagramma, kartogramma usullaridan ham foydalaniladi.

---

---

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING UMUMGEOGRAFIK TA‘RIFI

## GEOGRAFIK O‘RNI

### 2-§. O‘zbekistonning tabiiy va iqtisodiy-geografik o‘rni

! *O‘zbekiston hududining kattaligi jihatidan jahonda qanday o‘rin tutadi? Xaritadan uning chegaralarini ko‘rsating.*

**1991-yil 1-sentabr** kuni dunyo siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. **1992-yil 2-martda** O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan **1992-yilning 8-dekabr** kuni ham tarixiy sanaga aylandi. Bugungi kunda respublikamiz Davlat mustaqilligining ramzi hisoblangan bayrog‘i, tamg‘asi va madhiyasiga ega.

Endilikda mustaqillikka erishgan O‘zbekiston o‘zining tabiiy boyliklaridan, geografik o‘rniga xos qulayliklaridan to‘la foydalanish orqali ishlab chiqarish kuchlarini tez rivojlantirish va jahondagi rivojlangan mamlakatlar safidan o‘rin olish imkoniyatlariga ega bo‘ldi.

**1. Geografik o‘rin nima?** Ma‘lumki, har qanday obyekt — oddiy bir uydan tortib mahalla, rayon, shahar, viloyat to mamlakatgacha Yer sharida muayyan betakror makonga ega. Obyektlarning ana shu betakror makoni — *geografik o‘rin* deyiladi. Har qanday obyektning boshqa obyektlar bilan aloqadorlik darajasiga hamohang, *m i k r o \**, *m e z o \**, *m a k r o \** geografik o‘rinlar ham namoyon bo‘ladi.

Geografik o‘rin uni belgilovchi omillar asosida **tabiiy, iqtisodiy va siyosiy-geografik o‘rin** tarzida guruhlanadi.

Tabiiy- geografik o‘rin asosan okeanlar, tog‘lar, cho‘llar singari ulkan tabiiy obyektlarga ko‘ra belgilansa, iqtisodiy-geografik o‘rin esa jahonning erkin iqtisodiy mintaqalari, jahon savdo yo‘llari, yirik savdo-sanoat markazlari, tabiiy boyliklar kabi obyektlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari aniqlanadi.

Siyosiy-geografik o‘rin esa insoniyatning muayyan rivojlanish bosqichida alohida davlatning davlatlar turkumiga nisbatan joylashuvi, harbiy mojarolar ro‘y berayotgan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hudud va davlatlardan naqadar xoli, xavfsiz joydaligiga ko‘ra baholanadi.

Mana aziz o‘quvchilar, biz geografik o‘rin tushunchasining mohiyatini bir qadar bilib oldik. Hech mubolag‘asiz aytsak bo‘ladiki, geografiyaning har bir darsida geografik o‘rin tushunchasiga murojaat qilmay o‘ta olmaymiz. Ayni vaqtda geografik o‘rin tushunchasi darsdan-darsga chuqurlashib, ma‘nosi teranlashib boraveradi.

Aytilganlarga asoslanib, Vatanimiz O‘zbekistonning geografik o‘rnidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqamiz.


**2. Tabiiy-geografik o‘rin.** Dunyo Yarimsharlar xaritasiga nazar tashlasak, O‘zbekiston Shimoliy yarimsharda, O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligini ko‘ramiz. U dunyo okeanlari ichida eng iliq hisoblangan Hind okeaniga birmuncha yaqin, ammo u baland tog‘lar bilan to‘silgan (qaysi tog‘lar, o‘ylab ko‘ring!). Shu bois o‘lkamiz bu okeanning issiq namga to‘yingan havosidan mutlaqo bebahra. Aksincha, Shimoliy Muz okeani birmuncha olisda bo‘lsa-da, oraliqda to‘siq bo‘la oladigan tog‘lar yo‘qligidan uning quruq va sovuq havosi ayniqsa qish faslida mamlakatimizga kirib kelaveradi. Respublikamizdan juda olis (4 ming km. dan ortiq masofa)dagi Atlantika okeani ham o‘rtada deyarli to‘siq bo‘lmaganidan o‘lkamiz tabiatiga ancha kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Ayni shu omillar o‘lkamizda bulutli kunlarning ham, yog‘inli kunlarning ham bosh sababchisidir (1-rangli rasmga qarang).

Tinch okean bilan O‘zbekiston hududi oralig‘ida baland tog‘lar joylashgani, ustiga-ustak bu okean respublikamizdan nihoyatda olisdaligidan Tinch okeanning ham Hind okeani singari o‘lkamiz tabiatiga ta‘siri sezilarli emas.

**!** *Mamlakatimiz bilan okeanlar oralig‘i necha km ekanligini dunyo xaritasidan aniqlang.*

*Mamlakatimiz iqlimiy xususiyatlarida Yerning o‘z o‘qi tevaragida g‘arbdan sharqqa aylanishining ham ta‘siri bor. Buni qanday izohlaysiz?*

O‘zbekiston geografik o‘rniga xos yuqoridagidek xususiyatlar bois yilning ko‘p qismi sovuqsiz hamda osmoni bulutsiz musaffo bo‘ladi. Bulutsiz kunlarning ko‘pligi — serquyoshlik esa nafaqat Quyosh energiyasidan foydalanishga, balki koinotga doir ilmiy-tadqiqot ishlariga, xususan astronomik tadqiqotlarda ham qo‘l keladi. Darhaqiqat, Beruniy, Farg‘oniy, Ulug‘bekdek koinotning buyuk tadqiqotchilari bizning yurtдан yetishib chiqqani bejiz emas. Yuqoridagidek xususiyatlar ziroatchilik uchun ham qo‘l keladi, maishiy hayot vositalariga sarf-xarajatlarni, mehnatni tejashga imkon beradi.



1- rasm. O‘zbekistonning geografik o‘rni.

E‘tibor bergan bo‘lsangiz, O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi „Serquyosh hur o‘lkam...“ deya boshlangan.

Biz yuqorida mamlakatimizning tabiiy-geografik o‘rniga xos jihatlarning iqtisodiy ahamiyati xususida fikr yuritdik. Mamlakat-



ning va hatto uning alohida hududining xo‘jalik jihatidan rivojlanishida uning iqtisodiy-geografik o‘rni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**3. Iqtisodiy-geografik o‘rin.** Hozirgi davrda har qanday davlatning rivojlanishini xalqaro iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Umuman iqtisodiy-geografik o‘ringa baho berishda mazkur hududning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish imkoniyatlari muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish imkoniyatlari tarixiy xarakterga ega. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida bunday imkoniyatlar yirik xalqaro savdo yo‘llarida joylashgan mamlakatlar uchun qulay bo‘lgan. Masalan, qadimda O‘zbekiston ana shunday qulay imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Hozirgi mustaqillik davrida esa xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish imkoniyatlari ko‘proq geografik (qo‘shnichilik) va siyosiy omillar bilan bog‘liq.

Iqtisodiy-geografik o‘rin beqaror bo‘lib, davr o‘tishi bilan, voqea va obyektlar o‘zgarishiga hamohang u ham o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarga turli siyosiy voqealar, yirik tabiiy resurslarning topilishi va ishga solinishi, muhim transport yo‘llarining qurilishi va boshqalar sabab bo‘ladi. Respublika iqtisodiy-geografik o‘rnining o‘zgarishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan ayrim omillarni ko‘rib chiqamiz.

Ma‘lumki, qadim davrlardan boshlab (miloddan avvalgi II asrdan) to XVI asrgacha Sharqni (Hindiston, Xitoy) G‘arb (Yevropa mamlakatlari) bilan bog‘lab turgan asosiy savdo yo‘li — „*Buyuk Ipak yo‘li*“ O‘rta Osiyo orqali o‘tgan. Tabiiyki, bunday savdo yo‘lida joylashish joyning iqtisodiy-geografik o‘rniga faqat ijobiy ta‘sir etishi mumkin. Buning bevosita oqibati sifatida o‘sha davrda O‘rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi kuchlar (hunarmandchilik, dehqonchilik) taraqqiy etgan, shaharlar, fan, madaniyat ancha ravnaq topgan edi.

Keyinchalik Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llari quruqlikdan dengiz-okeanlarga ko‘chgach, O‘rta Osiyoning iqtisodiy-geografik o‘rnidagi qulaylik kamaydi.

Oradan 3—4 asr vaqt o‘tib respublikamiz iqtisodiy-geografik o‘rni bir qadar yaxshilandi. Bu O‘rta Osiyoga temir yo‘l qurilishi va u Rossiya orqali xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish imkoniyatida namoyon bo‘ldi. Kaspiy dengizidan boshlab qurila boshlangan temir yo‘lning respublikamizning eng yirik shaharlari

bo'lgan Samarqand (1888) va Toshkentgacha (1899) keltirilishi, keyinchalik Orenburg — Toshkent temir yo'lining ishga tushirilishi (1906-yil) natijasida hozirgi O'zbekiston hududining iqtisodiy-geografik o'rni yanada yaxshilandi. Ammo iqtisodiy-geografik o'rin qulayliklaridan mustamlaka sharoitida O'zbekiston manfaati yo'lida foydalanish mumkin bo'lmadi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan erkin aloqa o'rnatish huquqini qo'lga kiritdi. Uni azaliy janubiy qo'shnilari — Afg'oniston, Pokiston, Eron hamda g'arbdan Turkiya va sharqdan Xitoy bilan bog'lovchi quruqlik hamda havo yo'llari ochildi, natijada O'zbekistonning jahon bilan aloqasi har tomonlama kuchaydi.

**O'zbekistonning hududiy-strategik imkoniyatlari xususida fikr yuritib, Prezident I. A. Karimov shunday degan edi:**

„Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jug'rofiy strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan „Buyuk Ipak yo'li“ O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo — Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi.“

*! Atlas — xaritadan yuqoridagi davlatlarning joylashgan o'rnini aniqlang.*

Ba'zan qo'shni davlatlar hududida sodir bo'ladigan imkoniyatlar ham O'zbekistonning iqtisodiy-geografik o'rniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, Turkmaniston bilan Eron oralig'idagi temir yo'l aloqasining yo'lga qo'yilishidan O'zbekiston ham bahramand bo'la boshladi. Demak, iqtisodiy-geografik o'rin yanada yaxshilandi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har qanday hudud iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligiga baho berishda, uning metallurgiya bazalariga, o'rmon resurslariga, yirik transport tugunlariga (shu jumladan, dengiz yo'llariga), fan-texnika markazlariga nisbatan joylashganligi muhim ko'rsatkich ekan. Shu jihatdan O'zbekistonning iqtisodiy-geografik o'rni tobora yaxshilanib bormoqda.

- ❓ 1. *Iqtisodiy-geografik o‘rin tabiiy-geografik o‘rindan qanday jihatga ko‘ra farqlanadi?*
2. *Qanday omillar iqtisodiy-geografik o‘ringa belgilovchi ta‘sir ko‘rsatadi?*
3. *Yurtimiz geografik o‘rnida qachon va qanday omillar tufayli noqulaylik kuchaydi?*
4. *O‘zbekiston chegaralarining qaysi jihatlari iqtisodiy aloqalarga qulayliklar yaratadi?*

### **3- §. Siyosiy-ma‘muriy bo‘linishi**

Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishida umuman, milliy iqtisodiyotning yuksalishida mamlakat sarhadining shakli va qanday siyosiy-ma‘muriy bo‘laklarga ajratilgani ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining hududi 447,4 ming kv.km.dir. U maydonning kattaligi bo‘yicha jahondagi 165 dan ortiq mamlakatdan oldinda turadi. Poytaxti Toshkent shahri. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 ta viloyat — Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlariga ajratilgan.

! *Darslik ilovasidagi 1-jadvalga qarang.*

Viloyatlar har birining maydoni 4 ming kv.km.dan 111 ming kv.km.gacha kattalikka ega. Aholisining soni esa 650 ming kishidan 2,6 mln. kishiga qadar yetadi.

Mamlakatimiz viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarkibida 8 tadan 16 tagacha qishloq rayonlari bo‘lib, ularning umumiy soni 163 taga teng. Shaharlar maqomiga ko‘ra: Respublikaga bo‘ysunuvchi, viloyatga bo‘ysunuvchi, tumanga bo‘ysunuvchi va nihoyat shahar kengashiga bo‘ysunuvchi shaharchadan iborat bo‘ladi.

Qadrlil o‘quvchilar! Ushbu mavzudan mamlakat rivojida uning tabiiy-geografik o‘rni ham, iqtisodiy-geografik o‘rni ham muayyan ahamiyat kasb etishini bilib oldingiz.

Geografik o‘rinning mamlakat rivojida yuqoridagidek ahamiyat kasb etishligi ko‘pgina olimlar va davlat arboblari e‘tiborini o‘ziga tortgan. Hatto unga asoslanib jamiyat rivojining tamoyillari ishlab

chiqilgan. Shunday tamoyillardan biri geografik determinizm\* deb yuritiladi. Bu tamoyilga ko'ra jamiyat taraqqiyotini asosan geografik muhit, jumladan, geografik o'rin belgilaydi.

- ? 1. 8-sinf atlasidan ma'muriy viloyatlarni toping. So'ngra ularning qaysi birida aholi eng ko'p va qaysi birida eng kam, qaysinisining maydoni eng katta va qaysinisiniki eng kichikligini darslik ilovasidagi 1-jadvaldan aniqlang.
2. Sizningcha, respublika viloyatlaridan qaysi birining iqtisodiy-geografik o'rni eng qulay? Javobingizni asoslang.
3. Maktabingiz joylashgan ma'muriy rayonning iqtisodiy-geografik o'rnini quyidagi reja asosida ta'riflab yozing:
- a) rayon chegarasining xususiyatlari;
  - b) qo'shni rayondagi omillarning rayoningiz xo'jaligini yuksaltirishga yordam berishi;
  - d) rayon transportning qaysi turi vositasida boshqa rayonlar bilan aloqada bo'ladi?
  - e) rayon temir yo'l bilan qanday ta'minlangan?
4. Yozuvsiz xaritada O'zbekiston Respublikasining siyosiy-ma'muriy bo'linishiga doir topshiriqlarni bajaring.
5. Maktabingiz joylashgan manzil ma'muriy jihatdan respublikaga, viloyatga yoki shaharga bo'ysunishi, (maqomi)ni bilib oling.
-

---

## TABIIY SHAROIT VA TABIIY BOYLIKLAR

### 4- §. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari

Mamlakatimiz tabiiy sharoiti bilan xilma-xil boyliklari xo‘jalikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

**!** *Tabiiy sharoit tabiiy boyliklardan nima bilan farq qiladi (VII sinf geografiya darsligidan eslang)?*

Tabiiy sharoit ijtimoiy ishlab chiqarishni yengillashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin. Tabiiy sharoit qishloq xo‘jaligiga, foydali qazilmalar qazib chiqarishga, transportning ayrim turlarini rivojlantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Baland tog‘ relyefi, sho‘rxoklar, cho‘llar, taqirlar hududni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Qurg‘oqchil, yog‘insiz kelgan yillar daryo suvlarini kamaytirib yuboradi, ekinzorlarni suv bilan yetarli ta‘minlanmasligiga sabab bo‘ladi.


Ishlab chiqarish rivojlangan sari uning tabiatga ta‘siri kuchayib boradi.

**Ana shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish va qayta o‘zgartirish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni tiklash hozirgi vaqtning muhim vazifasidir.**

Tabiatni muhofaza qilish uchun korxonalarda tozalash inshootlari qurilmoqda, ular zararli chiqindi va oqindilarni tozalab so‘ng tabiatga qaytaradi. Kelajakda bir korxonaning chiqindisini ikkinchi korxonaga xomashyo sifatida ishlatadi, ifloslangan suv tozalanib, qayta ishlatiladi. Chiqindi chiqarmaydigan, suvdan foydalanishning aylanma tizimiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bunyod etiladi.

Shu bilan birga tabiatni kelajak avlodga asl holda yetkazish uchun qo‘riqxonalar tashkil etilgan (2-rasm).

Tabiiy boyliklar tabiiy sharoitdan farq qilib, ishlab chiqarishga bevosita jalb qilinadi va uning xomashyo hamda energetika bazasini tashkil etadi.



2-rasm. Davlat qo'riqxonalari.

## Tabiiy boyliklarni guruhlash

Tabiiy boyliklarning qay maqsadda ishlatilishi	Tabiiy boyliklarning turlari		Tugamaydigan boyliklar
	Tugaydigan boyliklar		
	tiklanmaydigan	tiklanadigan	
I. Ko'p maqsadli boyliklar II. Sanoatda ishlatiladigan boyliklar: Energetika boyliklari  Kimyo sanoati boyliklari	Mineral, yoqilg'i boyliklar: (ko' mir, neft, gaz, torf, slanetslar) Tuzlar, oltingugurt, fosforit va hokazolar	Yer, suv, havo, o'rmon  Gidroenergetika boyliklari  Tuproq, o'simlik, hayvonot boyliklari	Yadro energiyasi, Quyosh energiyasi, geotermal energiya, sharmol energiyasi dengiz suvining qalqish energiyasi, oqimlar energiyasi Iqlim boyliklari
III. Qishloq xo'jaligi boyliklari	Muhofaza qilish, majmuai foydalanish, chiqitlarni utilitatsiya qilish va qayta ishlash. Boyliklardan foydalanishda yerlarni rekul'tivatsiya qilish	Ifloslanishdan muhofaza qilish, tozalash, meliorat-siya, tiklash	Texnikaviy hal qilishning murakkabligi. Insoniyatni salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish

**Mineral** boyliklardan, ya'ni foydali qazilmalardan og'ir sanoatda, **suv** boyliklaridan sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy ehtiyojlarda, **yer** (tuproq) unumdorligidan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Shuningdek, **o'simlik** (ayniqsa, o'rmon) va **hayvonot** (baliq, yovvoyi hayvonlar) boyliklaridan ham foydalaniladi. Biz kattagina hududga va Quyosh energiyasi boyliklariga ham egamiz.

O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi — bu yerda Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Umumiy mineral xomashyo potentsiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotir.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0—7,0 milliard dollarlik yangi zaxiralar qo'shilmoqda.

Ammo xo'jaliklarning xomashyoga va yoqilg'iga bo'lgan ehtiyoji to'xtovsiz oshib bormoqda.

Ko'pgina korxonalar har yili eng katta shaharlar aholisi iste'mol qiladigan suvdan ko'proq suvni „ichib“ qo'yadi. Qishloq xo'jaligi ham suvga muhtoj. Ayrim sanoat rayonlari va hatto Toshkent, Farg'ona, Navoiy kabi shaharlar ehtiyojiga sarflanayotgan atmosfera kislorodi esa shu hududdagi o'simliklar hosil qiladigan kisloroddan ortib ketmoqda. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, kislorod manbai bo'lgan o'rmonlarning tiklanishi uchun o'nlab yillar kutishga to'g'ri keladi. Tuproq boyliklari esa undan ham sekin tiklanadi.

Tugamaydigan tabiat boyliklari (1-jadval)dan foydalanish imkoniyatlari deyarli cheksizdir, lekin bu imkoniyatlardan texnikaning hozirgi taraqqiyoti darajasida juda oz foydalanilmoqda.

Tiklanmaydigan boyliklardan oqilona foydalanishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: a) o'rganilgan konlardan qazilmalarni to'liq qazib olish, bunda atrof muhitning buzilishiga yo'l qo'ymaslik; b) barcha qimmatli moddalardan majmualar-mukammal foydalanish; d) geologik qidiruv ishlarini kuchaytirish; e) mahsulot birligiga sarf bo'ladigan xomashyo va yoqilg'i miqdorini keskin kamaytiruvchi yangi texnikani, texnologiyani qo'llash.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun ularni iqtisodiy jihatdan baholash, ya'ni fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasida ularni xo'jalikka jalb etishning imkoniyatlarini va maqsadga muvofiqligini aniqlash lozim.



Tabiiy boyliklarni bunday baholaganda quyidagilar hisobga olinadi: 1) miqdori va konsentratsiyasi (maydon birligiga to'g'ri keluvchi miqdori); 2) foydali elementlarning sifati, tarkibi va salmog'i; 3) joylanishi va foydalanish sharoiti (qatlamlarning chuqurligi, qalinligi va boshqalar); 4) olinadigan mahsulot birligiga ketadigan sarf; 5) hududning o'zlashtirilganlik darajasi va aholi bor-yo'qligi; 6) transport sharoiti, shu jumladan, xomashyoni iste'molchilarga olib borish uchun ketadigan xarajatlar; 7) atrof tabiiy muhitini saqlash imkoniyati; 8) shu joyda boshqa xil boyliklarning bor-yo'qligi va ulardan ham bir yo'la foydalanish imkoniyati kabilar e'tiborga olinishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganish, Vatanimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va joylashtirishda tabiiy sharoit va boyliklarning o'rnini tushunishga yordam beradi.


- ?
1. *Tabiiy sharoit va boyliklar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega? Tabiiy boyliklarning qanday turlarini bilasiz?*
  2. *Tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan baholash nimadan iborat?*
  3. *Tabiiy boyliklarni o'zlashtirishga, iqtisodiyotni rivojlantirishga tabiiy sharoit mamlakatimizning qayerlarida qulaylik tug'dirishi va qayerlarida to'sqinlik qilishini xaritadan aniqlang.*
  4. *O'z viloyatingiz (tumaningiz)ning tabiiy boyliklarini aytib bering. Xo'jalikda ulardan qanday foydalaniladi?*

## **5- §. Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati**

- !
1. *O'zbekiston hududida qanday tabiat mintaqalari bor? Ular to'g'risida nimalar bilasiz?*
  2. *O'zbekistondagi foydali qazilmalar haqida nimalarni bilasiz?*
  3. *Maktabingiz joylashgan joyda yil davomida qancha yog'in yog'adi va o'simliklarning o'sish (vegetatsiya) davri necha kun davom etadi?*
  4. *Respublika maydonining kattaligi hamda geografik o'rni xususiyatlaridan tashqari uning qaysi tabiiy sharoiti va boyliklari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish hamda joylashtirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi?*

O'zbekiston asosan Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Uning maydonini tabiiy sharoiti va boyliklariga ko'ra, shuningdek xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l (tekislik), adir (tog' oldi), tog' va yaylov (baland tog')ga bo'lish mumkin. Ular iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot olami hamda foydali qazilmalar turi va ko'lami jihatidan bir-biriga o'xshamaydi.

Tekislik (cho'l)lar maydoni mamlakatimiz hududining 75 foizini



3-rasm. O'zbekistonda yillik Quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi.

tashkil etadi. Cho'llar dengiz sathidan 100—400 metr balandda joylashgan. Iqlimi keskin kontinental. Iyul oyining o'rtacha harorati +26° — +32°C issiq, yanvarniki esa +3°dan —10°C gacha sovuq bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 100—300 mm atrofida. Ayni shu oz miqdordagi yog'in ham sug'orishga zaruriyat katta bo'lgan yoz oylarida emas, balki kuz, qish va bahor oylarida yog'adi. Shu tufayli o'simlik qoplami siyrak, turi kam. O'simlik kamligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni ancha sust kechadi, binobarin, tuproqda chirindi oz. Tekisliklarning katta qismidan yaylov chorvachiligida, ozroq qismidan esa obikor dehqonchilikda foydalaniladi. Tekisliklarda tog'li yerlarga qaraganda transport va boshqa texnika vositalaridan foydalanish qulay. Shu sababli bu yerlarda ishlab chiqarishni tashkil qilish tog'lardagiga nisbatan 2—3 marotaba arzoniga tushadi. Obikor yerlarda o'simlik rivojlanish (vegetatsiya) davrining (210—240 kun) uzunligi, yozgi haroratning yuqoriligi (iyulning o'rtacha harorati +28° — +32°C) hamda havoning quruqligi (havo namligi 10—25 foiz) tufayli paxta, sholi, kanop kabi issiqsevar ekinlar hamda xurmo, limon, apelsin kabi subtropik o'simliklar yetishtirilmoqda.

Makkajo'xori, sabzavot, kartoshka va turli poliz ekinlaridan yiliga ikki martadan hosil olinadi. Biroq, tabiiy sharoitning bunday qulayliklari qatori yog'inning yetishmasligi, bug'lanishning ko'pligi bois yerlarni sun'iy sug'orish, sho'rini yuvishdek qo'shimcha ishlov talab etiladi. *Meliorsiya* \* tadbirlariga talay mehnat va mablag' sarflanadi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekistonda har bir gektar obikor yer Rossiyaning o'rta mintaqasidagi bir gektar yerdan 10—15 barobar ko'p daromad keltiradi.

O'zbekistonning ko'p qismida, xususan, tekisliklarida kuchli shamol esadi. Inson shamol kuchidan qadim zamonlardan beri foydalanib kelmoqda. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston cho'llarida esadigan shamoldan har m/kv maydon hisobiga 240 kVt elektr quvvati olish mumkin. Cho'l-yaylov chorvachiligida bu quvvatdan xo'jalik maqsadlari uchun foydalansa bo'ladi. Ammo, issiq va chang-to'zonli „Afg'on“, „Garmsel“, „Bekobod“ kabi shamollar ham borki, ular tuproq namini qochirib, ekinlarni qovjiratib yuboradi. Buning oldini olish chorasi sifatida ihota daraxtzorlari barpo etilmoqda.

O'zbekistonning serquyosh o'lka ekanligi Quyosh quvvatidan foydalanish istiqbollari ham cheksizligini ko'rsatadi (3-rasm).

**Cho'l mintaqasi** dengiz sathidan 400 metr balandlikkacha bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi. Yoz bu yerda juda issiq bo'lib, yog'inlar deyarli yog'maydi. Cho'lda tekis maydonlar bilan bir qatorda soysimon joylar ham, „orolsimon“ ko'tarilib turgan balandliklar ham ko'zga tashlanadi. Shunga muvofiq sur-qo'ng'ir, qumli, taqir va bo'z tuproqlar uchraydi. Jumladan, Ustyurt platosida va Qizilqumdagi past tog'larda hamda Nurotada sur-qo'ng'ir tuproq ko'p tarqalgan. Unda chirindi salmog'i ko'pi bilan 1 foizga yetadi.


Qizilqumda, Zarafshon daryosi etaklarida va Markaziy Far-g'onadagi qumli tuproqlarda chirindi salmog'i yanada oz. Suv yer betiga yaqin joylarda sho'rxoklar vujudga kelgan. Bu yerlarda dehqonchilik qilish ayniqsa qiyin.

Cho'llarda o'simlik siyrak, u bahor faslidagina barq urib o'sa oladi. May oyining o'rtalarida jazirama yoz boshlanib, o'tlar sarg'ayadi va quriydi. *Shuvoq, juzg'un, qora qandim, cherkez, quyonsuyak* va *iloq* cho'lning o'ziga xos o'simliklari hisoblanadi. Cho'l o'simliklaridan *qorako'l qo'ylari, tuya* boqishda foydalaniladi. Biroq, cho'lning ozuqa boyligi juda kam. Bitta qorako'l qo'yni boqish uchun 2—3 gektar o'tloq talab etiladi. Shu hisobdan O'zbekiston cho'llarida 10 mln. boshgacha qorako'l qo'y boqsa bo'ladi. Cho'l yaylovlarini yaxshilash va kengaytirish hisobiga qorako'l qo'ylarining sonini 10—12 mln. boshga yetkazish mumkin. Hozircha yaylov sifatida cho'llarning har gektar hisobidagi samarasi obikor yerlardagidan 100 marta kam.

Cho'lga xos o'simlik bo'lgan saksovul yaqin vaqtgacha yoqilg'i sifatida qadrlanar edi. Endilikda u asosan cho'lda shamol eroziyasi oldini olish vositasi va qisman cho'l aholisi uchun yoqilg'i sifatida ahamiyatlidir. Cho'l o'simliklari orasida dorivorlari ham bor. *Cherkez, isiriq, sassiqkavrak* shular jumlasidandir.

Cho'lda *jayron, bo'ri, sayg'oq, tulki* kabi sutemizuvchi hayvonlar bilan birga *qo'shoyoq, sichqon, yumronqoziq* kabi kemiruvchilar, *ilon, kaltakesak* kabi sudralib yuruvchi hayvonlar yashaydi. Qumlarda *bo'g'ma ilonlar, o'qilonlar, toshbaqalar* ko'p uchraydi. Shuningdek *efa, chipor ilon, ko'zoynakli ilon* (kobra) yashaydi. Ular zahari uchun ovlanadi. Ilonlarni hisobga olmaganda cho'l hayvonlarining ahamiyati unchalik katta emas.

# TUPROQ XARITASI



4-rasm. Tuproq xaritasi.

Daryo vodiylari va to‘qaylarda *chiyabo‘ri*, *bo‘ri*, *tulki*, *to‘qay mushugi*, *to‘ng‘iz*, *qirg‘ovul* uchraydi. Amudaryo mansabida qimmatbaho mo‘ynali *ondatra* boqib ko‘paytirilmoqda.

Cho‘llar mintaqasida xilma-xil foydali qazilmalar topilgan. Jumladan, 50 dan ziyod neft koni, gaz, ozakerit, oltingugurt, oltin, uranning sanoatbop zaxiralari aniqlangan. Gazning aniqlangan zaxirasi 2 trillion m/kub. dan ziyod. Zarafshon etagidagi Dengizko‘l va To‘ybekatonda kaliy tuzlarining yirik zaxiralari mavjud. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Sulton Uvays tog‘larida, Surxondaryo vodiysida va Qizilqumda fosforit konlari bor. Oltingugurt, natriyli va magniyli tuz konlari kimyo sanoatining muhim xomashyosidir. Shag‘al, qum singari binokorlik materiallari cho‘lda juda ko‘p uchraydi.


**Adir mintaqasi.** Mamlakatimiz hududining dengiz sathidan 400—1200 metrgacha baland bo‘lgan qismi adir mintaqasini tashkil etadi. Adir iqlimi cho‘l iqlimiga nisbatan mo‘tadilroq bo‘ladi. Yog‘in bu yerlarga cho‘ldagiga nisbatan ko‘proq (300—450 mm) yog‘adi. Yoz uzoq davom etadi. Shularga muvofiq o‘simlik turi ko‘p va zich. Bularning oqibati o‘laroq, tarkibida chirindisi ko‘p to‘q tusli bo‘z tuproqlar hosil bo‘lgan. Adirlarning asosiy qismida (400—600 m) va qisman baland (1000 m) yerlarida oddiy bo‘z tuproq tarqalgan. Unda chirindi miqdori 1,5—2,5 foizni tashkil etadi. Bu yerlar asosan obikor va qisman lalmikor dehqonchilikda foydalaniladi.

To‘q tusli bo‘z tuproqlar dengiz sathidan 1000—1600 m balandlikkacha tarqalgan. Bunday tuproq tarkibida chirindi yana ham ko‘p (3—4 foiz). Undan asosan bahorikor (lalmikor) dehqonchilikda foydalaniladi (4-rasm).

Adir O‘zbekiston Respublikasi hududining tabiiy sharoiti eng qulay qismi bo‘lganidan odamlar dehqonchilik bilan qadimdan shu yerlarda shug‘ullanganlar. Uzoq davr mobaynida inson adirlarga muntazam ta‘sir etaverib, uning yer yuzasinigina emas, balki o‘simlik va hayvonot dunyosini ham o‘zgartirib yubordi.

Adirda o‘simliklar cho‘ldagiga nisbatan ancha ko‘p. O‘simlik qoplami asosan *loladan* va *chuchmomalardan* iborat. Shuningdek, bu yerda *qo‘ng‘irbosh*, *yantoq*, *kovrak*, *gulxayri* va *shuvoq* o‘sadi.

Adirning hayvonot dunyosi cho‘lning hayvonot dunyosiga nisbatan kamroq. Adirda sudralib yuruvchilardan *kaltakesak* va *ilon*, hasharotlardan *o‘rgimchak*, *qoraqurt* va *chayon* uchraydi. *Toshbaqa*,



5-rasm. Qazilma boyliklari.

*yumronqoziqlar* ko'p. Yirtqich hayvonlardan *tulki*, *bo'rilar* yashaydi. *Chug'urchuq*, *ko'k qarg'a*, *zag'cha*, *kaptar*, *kalxat*, *burgut* adirga xos qushlardir.

Adirlardan oltin, neft, gaz, ko'mir singari foydali qazilmalar topilgan. Namangan, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi neft konlarining aksariyati adirlarda joylashgan (O'zbekiston Respublikasi Atlasining foydali qazilmalar xaritasiga va 5-rasmga qarang).

**Tog' mintaqasi** dengiz sathidan 1000—2800 m baland joylarga to'g'ri keladi. Tog'larda cho'ldagiga nisbatan yoz qisqa va salqin. Yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Qish izg'irinli bo'lib, uzoq davom etadi. Tog' mintaqasining nam iqlimi va qalin o'simlik qoplami tuproq tarkibida chirindi ko'p to'planishiga (4—6 foiz) imkon beradi. Tog' mintaqasiga qo'ng'ir va jigar rang tuproq xosdir. Tog' etaklari, daryo vodiylari hamda qayirilarida o'tloq va botqoq tuproqlar tarqalgan (4-rasm).

Tog'larda *betaga*, *ravoch*, *zira*, *tog' yalpizi*, yuqoriroqda *na'matak*, *zirk*, *dukcho'p* kabi butalar, undan ham yuqoriroqda *bodom*, *pista*, *do'landa*, *zarang*, *olma*, *yong'oq*, *nok*, *olcha* kabi mevali daraxtlarning yovvoyi turlari o'sadi. *Ravoch*, *tog' yalpizi*, *zirk* kabilar ovqatga ishlatiladi. Bodom va pista terib olinadi. So'nggi yillarda yovvoyi mevali daraxtlarga madaniy mevalar payvand qilinishi natijasida tog'larning xo'jalikdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Olimlarning hisoblashicha, tog' va tog' etaklarida kelgusida har yili 400 ming tonna atrofida uzum, 350 ming tonna meva olish, tirik vaznda 200 ming tonna go'sht yetishtirish mumkin. Bu ko'rsatkichlar hozirda butun O'zbekistonda yil davomida yetishtirilayotgan shunday mahsulotlar miqdorining yarmiga tenglashadi.

1400—2500 m balandda *archa* uchraydi. Mamlakatimizda archazorlar 500 ming gektardan ortiq yerni egallaydi. Archa yog'ochi pishiqligi va uzoq vaqt chirimasligi bilan binokorlik materiali sifatida va ayrim ro'zg'or buyumlari yasashda mahalliy aholi ehtiyojini qondiradi. O'rmonlar suv oqimini tartibga soladi, sellarning oldini oladi.

Tog' mintaqasining hayvonot dunyosi ham, qushlari ham xilma-xil va ko'p bo'lsa-da, lekin xo'jalik maqsadlarida ahamiyati kam. Baland tog'larda yashaydigan *sug'ur*, o'rmon va butazorlarda



yashaydigan *ayiq* va *bo'rsiq* tibbiyot uchun ahamiyatlidir. *Jayra*, *olmaxon*, *kalamush*, *o'rmon sichqoni*, *boltatumshuq*, *kaklik*, *mayna*, *zarg'aldoq*, *qizilishon*, *sa'va*, *bulbullar* tog' mintaqasiga xosdir. Tog' mintaqasining shifobaxsh iqlimi hamda beqiyos go'zal tabiati turli sport musobaqalari o'tkazish, dam olish va umuman hordiq chiqarishda foydalaniladigan muhim boylik hisoblanadi. Farg'ona viloyatida **Shohimardon**, Samarqand viloyatidagi **Og'aliq**, Toshkent viloyatidagi **Chimyon**, Jizzax viloyatidagi **Zomin** O'zbekistonning tog'li joylaridagi eng mashhur shifoxonalardan hisoblanadi.

Tog'lardan ko'plab foydali qazilmalar topilgan. Ohangaron vodiysi atrofidagi tog'larda o'tga chidamli loy, toshko'mir, mis rudasi, oltin konlari aniqlangan. Nurota tog'larida marmar (G'ozg'on marmari), volfram konlari bor (5-rasm).

**Yaylov mintaqasi** tog'larning 2800 metrdan baland qismida joylashgan. U yerda havo sovuq, yer ustini qor qoplab yotadi, hatto yozda ham yog'in yog'adi. O'sish davri qisqaligidan bunday yerlarda yovvoyi arpa, suli, betaga kabi har xil o'tlar o'sadigan alp, subalp o'tloqlari uchraydi. Och qo'ng'ir va o'tloq tuproqlar ko'p tarqalgan. Alp o'tloqlarining maydoni u qadar katta emas. Shuning uchun baland tog' o'tloqlaridan yaylov sifatida foydalanayotgan xo'jaliklar o'tmishda chorvasini Qirg'iziston, Tojikiston tog'laridagi yaylovlarda boqardi. Bu esa O'rta Osiyo xalqlarining qardoshlarcha azaliy hamkorligining ifodasidir.

Qishloq xo'jaligini, sanoat va aholini suv bilan ta'minlashda tog'lardagi doimiy qor va muzliklar asosiy suv manbai xizmatini o'taydi. Tog'lardagi doimiy qor va muzliklar bo'lmasa, tekisliklarda obikor dehqonchilikni yuritish ancha qiyin. Tog'larga yoqqan yog'inlar qor va muz shaklida to'plana boradi va yozda erib, xuddi suv ombori singari daryolarga muntazam chuchuk suv berib turadi. Daryolarning suv bilan uzluksiz ta'minlanishi GESlarni to'la quvvat bilan va bir maromda ishlashi uchun ham ahamiyatlidir.

**Yer boyliklari.** O'zbekistonning umumiy yer maydoni 44740 ming gektarni tashkil etdi. Buning 2/3 qismiga yaqini qishloq xo'jaligiga tegishli maydonlardir. Qishloq xo'jaligi tasarrufidagi yerlarning 4452,5 ming gektari haydaladigan yerlar, 112,5 ming gektari pichanzor va qolgan 22878,8 ming gektari yaylovlardan iborat. Yaylovlarning deyarli yarmi sug'orishga yaroqli yerlardir.

Sug'oriladigan madaniy tuproqlar alohida turni tashkil etadi. Respublika umumiy yer maydonining 5 mln. gektardan ortiqrog'idan dehqonchilikda foydalaniladi. Bu asosan sug'oriladigan va lalmi yerlardir. Qolgani yaylov va ozroq qismi tog' o'rmonlaridan iborat.

Sug'oriladigan yerlar 4 mln gektardan ziyod bo'lib, shulardan 1,6 mln. gektari dasht zonalarda, qolganlari bo'z yerlarda. Sug'oriladigan yerlarning 60 foizini avtomorf\* tuproqlar tashkil etadi. Ular yirik daryolarning deltalari va o'zlashtirilgan vodiylar, shuningdek, tog' oldi tekisliklaridan iborat. Mirzacho'l va boshqa zonalarda sug'orish natijasida yer osti suvlari ko'tarilib, tuproq endilikda gidromorf\* holatidadir.

Sug'oriladigan yerlarning katta qismi Farg'ona, Zarafshon vodiylari va Amudaryoning quyi oqimini egallaydi. Lalmi yerlarning katta maydonlari Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlaridadir.

**Suv boyliklari.** So'nggi yillarda yer ostida 1 mln. gektar maydonni sug'orishga yetadigan hajmda suv borligi ma'lum bo'ldi. Hozir bu suvning 1/10 qismidangina foydalanilmoqda. Xullas, daryolar va yer osti suvlari butunlay sug'orishga sarflansa, jami 5 mln. gektar yerni sug'orish mumkin. Demak, obikor yerlar maydonini yanada kengaytirsa bo'ladi. Ammo, Orol dengizi taqdirini ko'zlab, suvni tejash hamda suvdan foydalanganda uni ifloslamalik va yerni qayta sho'rlatmaslik choralarini ko'rish zarur. Buning uchun daryolar suv sarfini tartibga solish, suv ombori, gidrotexnik inshootlar qurish, dalalarga suv keltirishda suvning behuda shimilib, bug'lanmasligi choralarini ko'rish talab etiladi. Sanoat hamda maishiy-kommunal xo'jaliklarda foydalaniladigan suvlarning bir qismini tozalab chiqariladi, aks holda, bu suvlar oqar suvlarnigina emas, hatto yer osti suvlarini ham ifloslantirib yuborishi mumkin.

O'zbekiston daryolarining deyarli hammasi Tojikiston va Qirg'izistondagi tog'lardan boshlanadi (atlas-xaritadan daryolarni toping). Bu daryolar sug'orishdan tashqari, elektr quvvati manbai sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Daryolarning umumiy elektr quvvati imkoniyati (12 mln. kVt dan ortiq) Ukrainadagidan 2 marta ko'pdir. Agar bu quvvat resurslaridan to'la foydalanilsa, yiliga 107 mlrd. kVt/soat elektr quvvati olsa bo'ladi. O'zbekiston sharoitida GES qurilishi, ishlab chiqarishni elektr quvvati bilan ta'min-

lashdan tashqari, sug'orishga zarurat bo'lmaganida, suvni sun'iy omborga to'plash va daryo oqimini tartibga solish imkoniyatini yaratish bilan ham iqtisodiy samara beradi.

Garchi, yer boyliklari suvga nisbatan ko'proq bo'lsa-da, undan ham omilkorlik bilan foydalanish lozim, aks holda yer sho'rxokka va jarlikka aylanishi mumkin. Zovur qazib, yer osti suvlarini qochirish, vaqt-vaqti bilan tuproqni yuvib turish, almashlab ekishga rioya qilish kabi melioratsiya va agrotexnika choralari yerdan to'g'ri foydalanish, uni muhofaza etishning muhim tadbirlaridir.

**Xulosa.** Umuman olganda, O'zbekistonning tabiiy sharoiti inson faoliyati uchun bir talay qulayliklar yaratadi. Jumladan, qulay iqlimiy sharoit tufayli yerni tekislash, shudgorlash, sug'orish inshootlari qurish kabi melioratsiya ishlarini qish faslida ham davom ettirish mumkin. Tabiiy sharoitdagi qulayliklar qishloq xo'jaligidan tashqari sanoat, qurilish va transport uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Chunonchi, yog'inning kamligi va qattiq sovuq bo'lmasligi sababli qurilish ishlari yil bo'yi davom etaveradi.

Issiqlik elektr stansiyalarini ochiq maydonlarda barpo etish, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish kabi infratuzilma inshootlarini yengil konstruksiyali binolarga joylashtirsa bo'ladi. Shular bois mablag' ham, mehnat ham tejalib, qurilish ancha arzonga tushadi.

Endi biz respublikamiz tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari haqida umumiy ma'lumotlarga ham ega bo'ldik. Kelasi darsdan tabiiy-moddiy imkoniyatlardan foydalanuvchi, ayni vaqtda uni o'zgartiruvchi — aholining umumiy soni, joylashuvi, tabiiy ko'payish va ishga yaroqlilar salmog'i bilan tanishib chiqamiz.

- ? 1. *Tabiiy sharoitning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushuntiring.*
2. O'zbekistonning tabiiy boyliklariga iqtisodiy baho bering. Bunda darslikka qo'shimcha holda Islom Karimovning „O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari“ asari (227—252-betlar)dan ham foydalaning.
  3. *Darslik ilovasidagi 8- jadvaldan foydalanib, qaysi viloyatda obikor dehqonchilikni rivojlantirishning imkoniyatlari kengroq ekanini tushuntirib bering.*
  4. *Maktabingiz joylashgan ma'muriy rayonni quyidagi reja asosida geografik ta'riflang:*

- a) *geografik o'rnining xususiyatlari;*
  - b) *yer sathi (dehqonchilik va chorvachilikda foydalanish mumkin bo'lgan zaxira yerlar) yetarlimi?*
  - d) *siz yashab turgan rayonda qo'shimcha yerlarni o'zlashtirishning istiqboli qanday?*
  - e) *mavjud yem-xashaklar chorvachilik ehtiyojlarini qondira oladimi?*
  - f) *suv quvvatidan qanday foydalaniladi?*
  - g) *rayoningizdagi tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish yuzasidan qanday tadbirlar ko'rilmoqda?*
5. *Adirlarda joylashgan oltin, neft, gaz, ko'mir va tuz konlarini yozuvsiz xaritaga belgilang.*
-

## O'ZBEKISTON AHOLISI

### 6- §. Aholi soni va zichligi

Aholi — mahsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchidir. Taraqqiyot aholi soniga, mehnatga yaroqli kishilar miqdoriga va ularning hudud bo'ylab qanday joylashganligiga bog'liqdir.


O'zbekiston aholi va inson omili (ya'ni mehnat resurslari)ni takror ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston aholisining ko'payishi (ming kishi)

Yillar	Aholining soni	Yillar	Aholining soni
1865	3320	1970	11799
1897	3730	1975	13778
1913	4366	1980	15757
1924	4258	1986	18423
1939	6440	1990	20322
1950	6264	1995	22703
1959	8119	2000	24407

O'tgan asrning oxirida O'zbekiston aholisi bor-yo'g'i 3730 ming kishi edi. Demografik vaziyatga urushlar, ocharchilik va boshqa sabablar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, 1913-yildan 1924-yilgacha O'zbekiston aholisining soni deyarli o'zgarmadi. 1939-yil darajasiga esa faqat 50-yillarning o'rtalaridagina erishildi. Aholi tabiiy o'sishining urushgacha bo'lgan sur'atlari (yiliga 2,5 foiz) saqlanib turganda uning soni 50-yillarda 10 mln. kishiga yetishi kerak edi. Ammo bunga 60-yillarning ikkinchi yarmida erishildi. Aholi soni 1959—1970-yillarda 15,3 foizga o'sdi. O'sishning o'rtacha yillik sur'ati bu davrda 3,5 foizni tashkil etdi. 1970—1979-yillarda respublika aholisining o'sishi 30,4 foiz, o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 3,0 foizdan iborat bo'ldi.




6- rasm. Aholi soni dinamikasi

Bunday sur'at o'tgan o'n yillikda ham to'la saqlandi. Endilikda aholi sonining o'rtacha o'sish sur'atlari yiliga 2,0 foizni tashkil etmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 25 mln.dan ortiq kishi yashaydi. O'zbekiston aholi soni bo'yicha Osiyoda 14, jahonda esa 38-o'rinda turadi. Aholi soni o'zgarib turadi. Aholi, asosan, o'lganlar soniga nisbatan, tug'ilganlar sonining ortiqligi hisobiga doimo ko'payib turadi. Bunday ko'payish aholining **mutlaq tabiiy ko'payishi** deyiladi. O'zbekistonda mutlaq tabiiy ko'payish yiliga taxminan yarim mln. kishini tashkil etadi (6-rasm).

Aholining soni odamlarning doimiy yashash joyidan boshqa joylarga ko'chib borishi natijasida ham o'zgaradi. Aholi sonining bunday o'zgarishi **mechanik o'zgarish**, aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib borishi esa **migratsiya\*** deyiladi.

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga ko'payib bormoqda. Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi demografiya va




7- rasm. Aholining tabiiy ko'payishi

ekologiya Markazi bilan Fransiya demografik tadqiqotlar instituti tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra 2025-yilga borib, O'zbekiston aholisining soni 42 mln. kishidan ortadi (7-rasm).

O'lkada aholi tabiiy ko'payishining yuqori sur'atlari aholi zichligi (1 kv.km. hududga to'g'ri keladigan aholi soni) ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda aholi zichligining o'sishi uning barcha ma'muriy-hududiy birliklarida kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Farg'ona vodiysi viloyatlarida, Xorazm va Toshkent viloyatlarida ancha yuqori. Chunki obikor dehqonchilik asosan qo'l mehnatiga tayanishi sababli vodiylarda aholi azaldan zich, tog' va cho'llarda esa noqulay sharoit tufayli siyrak o'rnatilgan (8-rangli rasm). Agar mamlakatimiz bo'yicha aholining zichligi har 1 kv.km.ga 2000-yilda o'rtacha 54 kishini (1926-yilda — 11 kishi, 1970-yilda — 26,4 kishi) tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 514, Farg'ona viloyatida 394, Xorazm viloyatida 213 kishiga teng bo'lgan. Umuman respublikamizda keyingi 30 yilda aholi zichligi 2 marta oshdi.

**!** *Ilovadagi 1-jadvaldan foydalanib, o'z viloyatingizdagi aholi zichligini aniqlang.*

O'zbekiston aholisining yuqori sur'atlarda ko'payishi qator omillar bilan belgilanadi. Tug'ilishning yuqoriligi, o'limning nisbatan pasaygani, nikohning ko'p va ajralishning kamligi, respublikalararo migratsiya va boshqalar shu omillar jumlasiga kiradi. O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payishi ijtimoiy-iqtisodiy va




8- rasm. Aholi sonining o'sishi.



demografik xarakterdagi qator tadbirlar bilan rag‘batlantirib kelindi, albatta.

9-rasmda yillar bo‘yicha har 1000 kishi hisobiga tug‘ilish, o‘lim va aholining tabiiy ko‘payishi berilgan.

Demografik vaziyatga ta‘sir ko‘rsatadigan omillardan yana biri aholi orasida o‘lim darajasidir. O‘zbekistonda o‘limning umumiy koeffitsiyenti har ming aholi hisobiga 5—6 kishi. Bu nafaqat O‘rta Osiyo davlatlari orasida, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo regionidagi eng past ko‘rsatkichdir. Solishtirish uchun oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonga chegaradosh Afg‘onistonda 22, Tojikiston va Qozog‘istonda 9, Turkmaniston va Qirg‘izistonda 8 kishini tashkil etadi. Agar 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi jiddiy kamaytirilsa, bu ko‘rsatkich yanada yaxshilanadi.



9-rasm. 1000 kishi hisobiga tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish.

Aholining tabiiy ko'payishini har ming kishi hisobidan tug'ilganlardan o'lganlar sonini ayirib aniqlanadi. Bu ko'rsatkich hozir 17—18 promillega teng.

Aholi ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan yana biri oila munosabatlarining mustahkamligidir. Bu omil xalqimizning bebaho qadriyatlaridan hisoblanadi. O'zbekistonda sakkiz nikohga bir ajralish to'g'ri kelmoqda. Bu rivojlangan mamlakatlarga nisbatan olganda eng past ko'rsatkichdir. Ammo bu ham tashvishlidir. Nikohlar umumiy sonining ko'payishiga hamohang ajralishlar sonining ham ko'payayotganligi afsuslanarlidir.

Aholi sonining ko'payishiga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham bor. Bu emigratsiya\*dir. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ketganlar soni 1990- yilda 41,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa (eng yuqori nuqta), 1992- yilda 16,3 ming kishiga tushdi. Ammo bu omil aholi sonining umumiy o'sishiga jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Mahalliy aholi kindik qoni to'kilgan joyga mehri kuchliligi bois o'zga yurtlarga ko'chib borishga moyil emas.


**Shunday qilib, aholining takror barpo qilinishi tabiiy hamda mexanik o'sish hisobiga ro'y berar ekan. Tabiiy o'sish tug'ilish va o'lim hisobiga, mexanik o'sish esa immigratsiya hisobiga sodir bo'ladi (10-rasm).**

Xalqning turmush darajasini ko'tarish faol demografik siyosatsiz mumkin emas. Bunday siyosat respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishni, aholi sifat xarakteristikasini yaxshilashni, sog'lom hayot tarzini rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Demografik siyosatning amalga oshirilishi aholi salomatligini tubdan yaxshilash, oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, respublika ichida mahalliy aholining migratsion harakatchanligini oshirish, inson omilidan foydalanishni yaxshilash, ish bilan bandlikning ijtimoiy-demografik tomonlarini shakllantirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash, salomatlik dasturining qabul qilinishi va boshqa tadbirlar ana shu maqsadlarni ko'zda tutadi.

tug'ilish



immigratsiya



o'lim



emigratsiya

10-rasm. Aholi dinamikasining sabablari.

- ? 1. Ilovadagi 1-jadvaldan foydalanib aholi qaysi viloyatda zich va qaysinisida siyrak joylashganligini aniqlang hamda sababini tushuntiring.
2. O'zbekistonda aholi zichligi hududlar bo'yicha nima uchun bir xil emas?
3. Mamlakatimizning qaysi qismida ish kuchiga talab katta? Sababini tushuntiring.
4. Mamlakatimiz aholisi qanday manbalar hisobiga ko'paymoqda? Rayoningizda aholi qanday ko'payotganligini o'ylab ko'ring.

## 7- §. Aholi tarkibi

Aholining tarkibi yoshi, jinsi, ijtimoiy-sinfy mansubligi, millati, ma'lumoti bo'yicha o'rganiladi.


1. **Aholining jinsiy tarkibiga** urushlar jiddiy o'zgarishlar kiritadi. 1917-yil arafasida O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar — 52,9, ayollar — 47,1 foiz edi. Deyarli shunday nisbat to Ikkinchi jahon urushigacha saqlandi. Urush yillarida erkaklar va ayollar nisbati bo'yicha nomutanosiblik boshqa tomonga o'zgardi. Urushning asorati u tugagandan keyin ham davom etdi. 1959-yilga kelib respublika aholisi tarkibida ayollarning ulushi 52,0, erkaklarniki esa 48,0 foizni tashkil etdi. Keyingi yillarda aholi tarkibida erkaklar va ayollar nisbatining barobarlashuvi jarayoni bormoqda. Hozirgi

vaqtda aholi tarkibida erkaklar — 49,6, ayollar — 50,4 foizni tashkil etmoqda.

2. **Aholining yosh tarkibi.** Mamlakat aholisi tarkibida 14 yoshgacha bo‘lgan (14 yosh ham shunga kiradi) o‘smir va qiz bolalar soni va ulushi o‘smoqda. Agar 1926- yilda shu yoshdagi guruhning aholi tarkibidagi ulushi 34,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 1980-yilga kelib 45 foizga yetdi. Bu holat O‘zbekiston aholisining yosharayotganligidan dalolat beradi. O‘rtacha umr ko‘rishning uzayishi bilan o‘rta yashar aholining hissasi ham pasaydi.

Aholi tarkibiga jins va yosh jihatidan yondashish katta ahamiyatga ega. Chunki aholini va inson omilini takror ishlab chiqarish xuddi ana shu jihatlarga bog‘liq (11-rasm).

3. **Aholi tarkibini manzilgohlar bo‘yicha o‘rganish** ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda deyarli 40 foiz aholi shaharlarda istiqomat qiladi. Bu ko‘rsatkich, ayniqsa, Toshkent



11-rasm. Aholining yoshi va jinsi tarkibi

viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuqori. Keyingi yillarda respublikada bu ko‘rsatkich ancha barqarorlashdi. Aholining asosiy qismi tarixan qishloqda yashab kelmoqda. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Qishloqda tug‘ilish sur‘atining yuqoriligi ham uning sabablaridan biridir. 1979—1991-yillarda qishloq aholisi 36,7 foizga o‘sgan bo‘lsa, shahar aholisi 31,4 foizga o‘ydi. Agar aholining tabiiy ko‘payishi 1000 aholi hisobiga shaharda 19,5 bo‘lsa, qishloqda 33,2 kishini tashkil etdi.

**Iqtisodiy faol aholi va ularning mulk shakllari bo'yicha bandligi  
(1997-y., ming kishi)**

Jami aholi	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda band bo'lganlar	Shu jumladan	
				davlat sektori, foiz	nodavlat sektori, foiz
23563,0	11826,0	8715,4	8680,0	28,7	71,3

4. **Aholining ijtimoiy tarkibi** va ish bilan ta'minlanish muammosi o'rtasida yaqin bog'liqlik bor. 1917-yil arafasida O'zbekiston hududida aholi umumiy miqdorida ishchi va xizmatchilar — 5 foiz, dehqonlar — 74,6 foiz, qolgan ijtimoiy guruhlar — 20,4 foiz edi.

Agar 1940-yili xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 34,5 foizini ishchi va xizmatchilar tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilga kelib bu ko'rsatkich 81,8 foizga yetdi. Shunga muvofiq ravishda qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushi 65,8 foizdan 18,2 foizga tushdi.

5. **Aholining ta'lim (ma'lumot) bo'yicha tarkibi** ham takomillashmoqda. Milliy iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning umumta'lim darajasi o'smoqda. Hozirda ishlayotgan har to'rt kishidan biri oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega. 1991-yilda xalq xo'jaligida band bo'lgan 1678 ming mutaxassisdan 790 mingi oliy, 888 mingi o'rta maxsus ma'lumotli edi. Mutaxassislarning yarmidan ko'prog'i ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko'rsatmoqda.



6. Agar **aholining milliy tarkibini** tahlil qiladigan bo'lsak, uning asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Undan keyingi o'rinlarda ruslar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar turadi (12-rasm).

O'zbeklar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar O'zbekistonda qadimdan yashab kelayotgan tub joy aholi hisoblanadi.


O'zbeklar mamlakatimizning butun hududida yashasa, boshqa millat vakillari aksariyat hollarda ayrim qismlaridagina istiqomat qilishadi.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin O'zbekistonga ruslar ko'chib kela boshladilar. Sobiq Ittifoq barcha qismlarining madaniy taraqqiyot darajasini baravarlash niqobi ostida mamlakatning g'arbiy rayonlaridan ko'plab aholi O'zbekistonga ko'chirib keltirildi.

# 1989



# 1999



12-rasm. O'zbekiston aholisining milliy tarkibi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida esa urush harakatlari ketayotgan hududlardan talay aholi Sharqqa, jumladan O'zbekistonga ko'chirildi. Natijada O'zbekistonda o'zga millat va elat vakillarining soni keskin ko'paydi.

**!** *Darslik ilovasidagi 2-jadvaldan foydalanib respublikamizda yashayotgan millat vakillarining qaysilari ko'payayotganini, qaysilari kamayayotganini aniqlang.*

1991- yilda sobiq Ittifoq parchalanib, uning o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi sharofati bilan aholining ixtiyoriy migratsiyasi kuchaydi.

Jumladan, O'zbekistonda yashayotgan ukrain, rus, nemis, yahudiy, qrim tatar, mesxeti turklari millatiga mansub xalqlar o'z vatanlariga qaytayotgan bo'lsalar, xorijda yashayotgan o'zbeklar, tojiklar, qoraqalpoqlar O'zbekistonda yashashni ixtiyor qilmoqdalar. Endilikda mamlakatimiz aholisining 90 foizga yaqinini turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, tarixi va tilida umumiylik bo'lgan turkiy xalqlar tashkil etmoqda.

So'nggi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'rta Osiyoning barcha tub joy xalqlari genetik yaxlit bo'lib, yevrosiyo irqiga mansubdir. Holbuki, sho'rolar turkiy xalqlarni mongoloid, tojiklarni esa yevropeoid irqiga mansub deya uqtirar edi. Mamlakatimizda har kim millatidan qat'i nazar teng huquqlidir. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining 18-moddasida „O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar“ deyiladi.

- ?
1. Aholi tarkibi qanday guruhlariga ajratiladi?
  2. 1959-yildagi aholi ro'yxati o'tkazilganida O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida jiddiy o'zgarish bo'lgani sezildi. Aytinchi, buning sababi nima edi?
  3. Nima sababdan milliy iqtisodiyotda band bo'lganlar, ishlayotganlar tarkibida dehqonlar salmog'i kamayib bormoqda?
  4. Rayoningizda qanday millat vakillari yashaydi? Ular asosan qaysi sohalarda mehnat qilishadi?

## 8- §. Inson omili va undan foydalanish

Aholi hamda inson omili bir xil tushuncha emas. Ular miqdor jihatidan ham, sifat jihatidan ham bir-biriga muvofiq kelmaydi. Inson omili mehnatga layoqatli aholini o'z ichiga oladi. Jamiyat a'zolarining hammasi esa ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirok etish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ham aholining qancha qismini **mehnatga yaroqli kishilar** tashkil qilishini, **inson omili** nimaligini va ulardan qanday foydalanishni bilish lozim. Mamlakatimiz qonuniga ko'ra **16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnatga yaroqli hisoblanadi.**

Mamlakatdagi inson omilining umumiy miqdori aniqlanganda muayyan yoshdagilarning salmog‘i ham hisobga olinadi. Jumladan, **25 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lganlar mehnatga eng yaroqli kishilar hisoblanadi.**

1999-yilda O‘zbekistonning mehnat resurslari 12,3 mln kishini tashkil etdi. Bu umumiy aholining salkam yarmi demakdir. Aholining tez sur‘atlarda o‘shishi inson omilining o‘shishini ta‘minlamoqda. Ular yiliga 200—250 ming kishiga o‘smoqda. Mehnatga yaroqli kishilarning mutlaq sonining bunday oshishi, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish va undan oqilona foydalanish muammosini keltirib chiqarmoqda. Qo‘shimcha ish joyi yaratish sur‘ati mehnatga yaroqlilarning ko‘payish sur‘atidan ortda qolayotganligi yuqoridagi muammoni tobora murakkablashtirmoqda.

Mehnatga layoqatli aholi turli sohalarda ishlaydi va tabiiyki, mehnat natijalari ham har xil bo‘ladi. Sanoatda, qishloq xo‘jaligida, qurilishda band kishilar mashinalar, oziq-ovqat mahsulotlari, binolar, ya‘ni moddiy boylik yaratishadi. Maorif, fan, madaniyat xodimlarining mehnat natijalari boshqacharoq. Bularning mehnat natijalari ham foydali va zaruriydir. Shu munosabat bilan **kishilarning mehnat faoliyati ikki sohaga — moddiy ne‘mat ishlab chiqaruvchi va moddiy ne‘mat ishlab chiqarmaydigan sohalarga bo‘linadi.**

Jamiyat hayotining asosini moddiy ne‘mat ishlab chiqaruvchi soha tashkil etgan va shunday bo‘lib qoladi. Lekin fan va texnikaning rivojlanishi bilan ishlab chiqarmaydigan sohaning roli va bu sohada ishlovchi kishilar soni ortib boradi.

Ishlab chiqarish takomillashgan sari yuqori malakali mutaxassislar ko‘proq talab qilinadi. Zavodlar loyahasini tuzish, yangi mashinalar yaratish uchun konstruktorlik byurolari, ilmiy muassasalar kerak bo‘ladi. Binobarin, xo‘jalikdagi taraqqiyot maorif va fan sohasida ishlovchi xodimlar sonining ko‘payishiga bog‘liqdir.

Xo‘jalikning rivojlanishi bilan aholining madaniy va maishiy ehtiyoji ortadi, uning sog‘lig‘ini saqlash imkoni ko‘payadi. Bu ham ishlab chiqarmaydigan sohada band kishilar sonini oshiradi. Lekin fan, maorif, sog‘liqni saqlash xodimlarining soni ortib borishi uchun ishlab chiqaruvchi sohada mehnat unumdorligi o‘shishi zarur. Faqat shundagina ishlab chiqaruvchi sohadagi mehnatga yaroqli aholining bir qismi ishlab chiqarmaydigan sohaga o‘tishi mumkin.



|| Binobarin, bu ikki sohaning rivojlanishi bir-biri bilan o‘zaro juda bog‘langan.

! *Turli tarmoqlarda band bo‘lgan aholi foiz hisobida qanday o‘zgar-yapti? Bunday o‘zgarishga sabab nima?*

Milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarning asosiy qismini moddiy ne‘mat ishlab chiqaruvchilar tashkil etadi. Bu nisbatan anchadan beri o‘zgarmasdan kelmoqda.

Mehnatga yaroqlilar soniga baho berganda ularning soni va malakasidan tashqari ruhiy xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. **Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov „Respublikamiz boshqa mintaqalar havas qilsa arziydigan ming-minglab ishchi kuchlariga, qadimdan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan mehnatsevarlik, insonparvarlik, bag‘ri kenglik, bardoshlilik singari ma’naviy boylklarga egadir“ degan edi.**

Mehnatga yaroqlilar sobiq Ittifoqda respublikalararo ayir-boshlanardi. Jumladan, kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, binokorlik va kon sanoati korxonalariga asosan Rossiya Federatsiyasi va Ukrainadan kadrlar jalb etildi. O‘zbekistonning tub joy aholisi ikkinchi darajali ishlar bilan band bo‘lib qolaverdi. Natijada respublika aholisi tarkibida o‘zbeklar ulushi 73 foiz bo‘lishiga qaramasdan milliy iqtisodiyotda band bo‘lgan o‘zbek ishchi va xizmatchilarning ulushi 61,4 foiz edi. Ular sanoatda — 52,5, qurilishda — 50,2, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, savdo, umumiy ovqatlanish va xalq ta‘limida 64—68 foiz edi. Endilikda bu nomaqbul jarayonga barham berish uchun tub joy aholidan zamonaviy kasb-korlik bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishtirishni ko‘paytirish, ayniqsa industrial tarmoqlarda malakali milliy kadrlarni shakllantirish muhim vazifaga aylantirildi va buning chorasi ko‘rilmoqda.

Hozir iqtisodiyotning barcha sohaları, shuningdek fan va madaniyat uchun zarur kadrlarni 62 ta oliy va 500 dan ortiq o‘rta maxsus o‘quv yurti tayyorlab bermoqda.

1943-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 1991-yilda Qishloq xo‘jalik fanlari Akademiyasi tashkil qilindi. Bu akademiyalarning barcha ilmgohlarida endilikda 4,5 mingdan ortiq ilmiy xodim fanning deyarli barcha sohalarida tadqiqot olib borib, hattoki jahon ahamiyatiga molik kashfiyotlar qilmoqdalar.

Jumladan, akademiyaning Iqtisodiyot ilmgohi olimlari O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davridagi muammolari, shuningdek, tabiiy boyliklardan va inson omilidan oqilona foydalanish kabi iqtisodiyotning muhim muammolarini hal etish bilan shug'ullanmoqdalar. Geograflar esa Orol muammosi, eroziya jarayonlarining oldini olish, suv boyliklaridan samarali foydalanish, shuningdek mintaqaviy iqtisodiyot bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilmoqdalar.

- ? 1. *Inson omili nima? Uning xo'jalikning rivojlanishi va joylanishiga ta'siri nimalarda ko'rinadi?*
2. *Ishlab chiqaruvchi sohadagi kishilar faoliyati ishlab chiqarmaydigan sohadagi kishilar faoliyatidan nimalar bilan farq qiladi?*
3. *Mamlakatimizning qaysi qismida ish kuchiga talab katta? Sababini tushuntiring.*
4. *Inson omili qaysi yo'l bilan to'ldiriladi?*
5. *Siz yashab turgan tuman xo'jaligining qaysi sohasida ish kuchi yetishmaydi?*
6. *Aholi mashg'uloti uning geografik tarqalishi va zichligiga aloqadorligini misollar bilan tushuntiring.*
7. *O'lkashunoslik muzeyi materiallari va o'z kuzatishlaringizdan foydalanib yashab turgan joyingiz (viloyatingiz, tumaningiz) aholisining mehnat ixtisosliklarini quyidagi reja asosida gapirib bering:*
- a) *xo'jalikda ko'pchilik shug'ullanayotgan ixtisoslar;*
  - b) *milliy kasb-korliklar va ularni qo'llanilishi;*
  - v) *xalq hunarmandchiligi bo'yicha kadrlar tayyorlash.*

**Diqqat!**

## BANDLIK MUAMMOSI

Mehnatga layoqatli bo'lsa-da, ish joyiga ega bo'lmagan kishi ishsiz hisoblanadi. Aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan va ishchi kuchi tarkibiga kiritilmaydigan qismi — o'quvchilar, nafaqadorlar, uy bekalari, nogironlar, bolalar va o'smirlar, vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz kishilar esa ishsiz hisoblanmaydi.

Iqtisodchi mutaxassislarning ta'kidlashicha, bandlik muammosi hamma vaqt salbiy oqibatlariga ega bo'lavermaydi. Xususan, agar bandlik muammosi ishsizlar 6—7 foizdan oshmasa, iqtisodiyot uchun foydali hisoblanadi.

Chunonchi, ishsizlik hodisasi kishilarni ishdan mahrum bo'lib qolmaslik uchun o'z kasb-korlari bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga majbur qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirib, aholining turmush darajasini oshirish va ish bilan ta'minlash, shu orqali bandlik muammosining oldini olish dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni ba'zilar o'ylamay-netmay aholining

ko'payishiga, tug'ilishning ko'pligiga bog'lasa, ba'zilar qinglab kishilar bajaradigan ishlarni mexanizatsiya, avtomatlar egallab olayotganiga bog'laydilar.

Darhaqiqat, milliy iqtisodiyotga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi, ishchi kuchlaridan yuqori malaka va kasbiy tayyorgarlikning talab qilinishi, bandlik muammosining, xususan, yoshlar orasida bandlik muammosining o'sishiga olib keladi. Yoshlar uchun bandlik muammosi nafaqalari belgilangan taqdirda ham, asosiy e'tiborni ularni ishga joylashtirishga yoki tayyorgarlik olishi uchun ularga sharoit yaratib berishga qaratish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash uchun aholini ish bilan to'liq ta'minlashimiz zarur. Buning uchun bizga, albatta, qo'shimcha ish joylari kerak bo'ladi. Qo'shimcha ish joylarini kichik korxonalar ko'paytirilgan taqdirdagina topishimiz mumkin.

Respublikamizda ko'p yillar davomida faqat shaharlarda yirik korxonalar bunyod etishga e'tibor berildi. Boz ustiga chetdan ming-minglab ishchi kuchi keltirilishi hisobiga qishloqdagi yoshlar bekorchilar safiga qo'shib qolaverdi. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar „gigant“chilikdan allaqachon qutulishgan. Bu sohada jahon tajribasidan o'rnak olish mumkin.

Xullas, kichik korxonalar, ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning birdan-bir yo'lidir. Shuning uchun qishloq joylarda zavod va fabrikalarning shoxobchalarini, yirik sanoat korxonalarining sexlarini ochish, qishloqlarda azaldan shug'ullanib kelingan mahalliy hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish lozim.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar yechimini topganimizdagina ishchi joylari soni bilan ishchi kuchi soni o'rtasidagi muvofiqlikka erishiladi.

Ishsizlikni bartaraf etishda mehnat birjasining vositachiligi alohida o'rin egallaydi. (Mehnat birjasi haqida „Iqtisodiyot saboqlari“dan olgan bilimlarni eslang.)

## **9- §. Aholi manzilgohlari**

Joyning tabiiy sharoiti, kishilarning mashg'ulotlari hamda turli iqtisodiy-ijtimoiy, tarixiy omillar ta'sirida aholi joylashuvining shahar, shaharcha, qishloq, ovul kabi xillari tarkib topadi. Mamlakatimizda 121 ta shahar, 113 ta shaharcha va 14 mingga yaqin qishloq hamda ovullar mavjud.

O'zbekistonda aholi manzilgohlari ikki turga: shahar joylar\* hamda qishloq joylar\*ga bo'linadi. Eng avval qishloq joylardagi manzilgothlar (qishloqlar, ovullar) vujudga kelgan. Qishloq joylarda dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar (dehqonlar, fermerlar) va qishloq ziyolilari (agronomlar, vrachlar, o'qituvchilar, madaniyat xodimlari) yashaydilar. Aholisi sanoat korxonalarida yoki transportda ishlaydigan shaharchalar ham aholisi kam bo'lganligidan qishloqlar tarkibiga kiradi.

**Qishloq** aholi manzilgohlari shahar aholi manzilgohlaridan farq qiladi. Qishloqlarni mehnat sharoiti, turmush va madaniyat jihatidan shaharlarga yaqinlashtirish muhim vazifadir. Qishloqlarning kengayib bir-biriga qo‘shilib ketishi oqibatida qishloqlarning umumiy soni kamaymoqda, biroq ularning hajmi kattalashyapti. Katta qishloqlarda maktablar, universal magazinlar, klublar, kasalxonalar jadal qurilmoqda, uylarga gaz, suv, elektr kiritilyapti — qisqasi, mehnat va hordiq chiqarish uchun yaxshi maishiy sharoit yaratilyapti.

**Shaharlar** — aholi yashaydigan manzilgohlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq paydo bo‘lganidan so‘ng vujudga kelgan. O‘zbekistondagi qadimiy shaharlar Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro shular jumlasidandir. Ular dunyodagi eng qadimiy shaharlardan hisoblanadi (13-rasm).

Asrimiz boshlarida O‘zbekiston hududida 20 ga yaqin shahar bo‘lgan, ular asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari negizida daryo hamda soy bo‘ylarida yoki karvon yo‘llari ustida vujudga kelgan. Jahongashta arab sayyohi Ibn Battuta o‘rta asrdagi shaharlarimiz go‘zalligini berilib tasvirlagan, undan zavq olgan: „*Biz... sahroni kesib o‘tib Xorazmga keldik. Bu turklarning katta, muhim, chiroyli va ulug‘vor shahri bo‘lib, ajoyib bozorlari, keng ko‘chalari juda ko‘p, imoratlari jozibador, ko‘rkam joylari bor. Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik ko‘pki, u mavjlanib turgan dengizni eslatadi...*“ Ibn Battuta Samarqand shahri bo‘ylab sayr etarkan, uni shunday ta‘riflaydi: „*Samarqand— juda yirik va g‘oyat go‘zal shaharlardan biridir. U Vodiy al-qassirin daryosining qirg‘og‘ida joylashgan... Daryo qirg‘og‘ida shunday ulkan saroylar va binolar qad ko‘tarib turadiki, ular Samarqand aholisining yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolatdir*“. Endilikda mana shunday qadimgi shaharlarda turli davr me‘morchilik namunalari bilan yonma-yon ko‘p qavatli binolar, to‘g‘ri va keng ko‘chalar uyg‘unlashib ketdi.

Hozirda O‘zbekistonda shaharlar qatoriga aholisi 7 ming va undan ko‘p bo‘lgan aholi manzilgohlari kiritiladi. Bu ko‘rsatkich turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, ba‘zilariniki biznikidan ko‘proq, ba‘zilariniki kamroqdir. Masalan, Qozog‘istonda, Qirg‘izistonda 10 ming, Turkmanistonda 5 ming, Rossiyada 12 ming kishidan ortiq aholi yashaydigan manzilgohlar shahar hisoblanadi. Shahar bo‘lish uchun shuningdek, ushbu manzilgohda yashayotgan aholining 2/3 qismi ishchi va xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo‘lishi kerak (ilovadagi 4-jadval).



Shaharlarning milliy iqtisodiyotdagi o'рни (vazifasi) har xil. Mamlakatimizda sanoat shaharlari ko'p, ularda bir yoki bir necha sanoat tarmog'i rivojlangan. Ba'zi bir shaharlar transport tuguni vazifasini o'taydi. Poytaxt, viloyat markazlari siyosiy-ma'muriy va madaniy markaz rolini o'ynaydi. Kurort-shaharlar, tarixiy, madaniy va ilmiy markaz shaharlar bor.

Katta shaharlar (aholisi 100 mingdan ortiq), yirik shaharlar (aholisi 250 mingdan ortiq), juda yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq) va „millioner“ shaharlar bir qancha vazifalarni (funktsiyalarni) bajaradi. Ularni ko'p funktsiyali shaharlar deyiladi. Masalan, Toshkent — mamlakat poytaxti, sanoat shahri, transport tuguni, tarixiy-madaniy markaz. Samarqand ham viloyat markazi, ham sanoat markazi va tarixiy-madaniy markazdir.

! *Siz yashayotgan yoki siz turgan joyga yaqin bo'lgan shahar qanday vazifalarni (funktsiyalarni) bajaradi?*

Ko'p funktsiyali shaharlar juda tez o'sadi, ular yonida y o' l - d o s h s h a h a r \*lar vujudga kelib, a g l o m e r a t s i y a \*larni hosil qiladi. Mamlakatimizda eng katta shahar aglomeratsiyasi — Toshkent aglomeratsiyasidir.

Katta shaharlarning afzalliklari ko'p bo'lishiga qaramay, ular to'xtovsiz kengayib ketaverishi maqbul emas, chunki aks holda korxonalarini suv bilan, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda, „yashil“ hududlarni, musaffo havoni saqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

**Shaharchalar** ham shahar joylar qatoriga kiritiladi. Ular sanoat rivojlanayotgan, yangi hududlar o'zlashtirilayotgan yerlarda vujudga keladi. Iskandar, Kegayli, Ulug'bek, G'ozg'on, Zomin shaharchalari shular jumlasidandir. Bunday shaharchalarning ko'pchiligi hali yangi, ularning aholisi qandaydir bir tarmoqda xizmat qiladi (neftchilar shaharchasi, shaxtyorlar shaharchasi). Shahar turidagi shaharchalar dunyoning barcha mamlakatlarida ham uchrayvermaydi, borlarida esa aholisi va aholining ijtimoiy tarkibiga turlicha me'yor belgilanadi. O'zbekistondagi shaharchalarning har birida 3 mingdan 20 minggaacha aholi yashaydi.

Yangi shaharlar va shaharchalar (Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq, Yangiobod, Navoiy, Gazli, Uchquduq, Taxiatosh, Zarafshon, Shirin va boshqalar) asosan qazilma boyliklar va suv


quvvati boyliklari mavjud hududlarda bunyod etildi. Tohchiyon shaharchasi (Surxondaryo viloyati) ko'mir koni negizida vujudga kelgan. Bular sanoat markazlaridir.

Yangi yerlarni o'zlashtirish qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlovchi sanoat negizida Yangiyo'l, Guliston, Yangiyer kabi shaharlar qad ko'tardi. Yangi shaharlar tashqi qiyofasi, qurilishi rejasi bilan eski shaharlardan farq qiladi. Ularda fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida barpo etilgan turar joy binolari, korxonalar, madaniy muassasalar mujassam, xiyobonlar, favvoralar, istirohat bog'lari barpo etilgan.

*O'zbekiston shaharlarining tashkil topish davri xarita-chizmasini ko'zdan kechiring.*

O'zbekistonning tabiiy sharoiti (issiq iqlim va kuchli zilzila) uning shaharlari qiyofasiga jiddiy ta'sir etgan. Chunonchi, tez-tez bo'lib turadigan zilzila O'zbekiston shaharlarida baland binolar qurishni cheklaydi, quyosh radiatsiyasining yuqoriligi binolarda quyosh nurini to'suvchi moslamalar bo'lishini talab etadi.

Yozning issiq va quruqligi ko'kalamzor maydonlarni kengaytirishni taqozo etadi. Shular oqibatida O'zbekiston shaharlari egallagan maydon Rossiya Federatsiyasi, Belarus respublikasi va Boltiqbo'yi davlatlaridagi aholi son jihatidan o'ziga teng bo'lgan shaharlardan birmuncha kattaroqdir. Shaharlar sonining ortishiga hamohang shahar aholisining soni ham ortib bormoqda. Shahar va qishloq aholisi sonining nisbatini bilish iqtisodiyot uchun muhimdir (14-rasm).



14-rasm. Shahar va qishloq aholisi sonining o'zgarishi (foizda).

Tabiiy, iqtisodiy va tarixiy sabablarga ko'ra O'zbekiston qishloqlarining aholisi ko'p va qishloqlar bir-biriga yaqin joylashgan. O'tmishda ko'chmanchi qabilalarning hujumlarini daf etish zarurati hamda obikor dehqonchilikda qo'l mehnatining ko'p qo'llanilishi tufayli qishloqlarda aholi azaldan zich yashab kelmoqda. O'zbekiston qishloqlarining bunday xususiyatlari ularning aholisiga shahardagidek sharoit yaratishda, sotsial infrastruktura tarmoqlarini rivojlantirishda qulay omil hisoblanadi.

Darhaqiqat, Koson, Yangibozor, Arnasoy, Beshariq kabi qishloqlarning qiyofasi shaharni eslatadi. Sanoatning o'sishi ham shahar aholisi sonining oshishiga, shahar turmush tarzining yoyilishiga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutning yo'qolishiga yordam beradi.

Aholi manzilgohlarining yuqoridagidek xususiyatlari ularni yuksaltirishda quyidagi vazifalarga e'tibor berishni taqozo qiladi:

— shaharchalarni rejalashtirishda odamlarning turar joyi bilan ish joyi orasi 4—5 km.dan uzoq bo'lmasligi;

— qadimiy shaharlarni zamonaviy qulayliklarga ega qilib qayta qurish;

— yirik shaharlarda aholi ko'payib ketishi hamda ekologik vaziyatning buzilishiga sabab bo'ladigan korxonalar qurishni cheklash va borlarini ko'chirish.

- ?
1. Siz aholi manzilgohlarining qanday turlarini bilasiz?
  2. O'zbekistonning shahar xilidagi shaharchalariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
  3. O'zbekistonda shaharlarning vujudga kelishiga qanday omillar ko'p ta'sir qilmoqda?
  4. Xaritadan foydalanib:
    - a) foydali qazilma konlari;
    - b) transport tugunlari;
    - v) qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi asosida tarkib topgan shaharchalarning nomlarini daftaringizga yozib oling.

*Shahar*  
*Shahar va qishloq*



---

---

## **O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotning „o‘ziga xos va o‘ziga mos“ yo‘lini tanladi. Bu yo‘lning ilmiy asosida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning 5 tamoyili yotadi. Bular: 1. Iqtisodning siyosatdan ustun turishi. 2. Davlat islohotlar tashabbuskori. 3. Barcha sohalarda qonun ustuvorligi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. 5. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibi butkul yangilanmoqda. Yaqin-yaqinlargacha qishloq xo‘jaligi yetakchi bo‘lgan mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning, xususan og‘ir sanoatning salmog‘i oshmoqda. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining vujudga kelishini bir necha davrga bo‘lish mumkin. Bular chor Rossiyasi hamda sobiq Ittifoq davri va nihoyat, mustaqillik davri. O‘zbekistonning o‘tmish geografiyasini o‘rganish, avvalo tarixiy geografiyaning predmetidir. Tarixiy geografiya esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o‘ziga xos tarmog‘idir.

### **10-§. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston xalq xo‘jaligi**

1. XIX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekistonning hozirgi hududini Qo‘qon, Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi boshqargan. Bularni O‘zbekiston tarixidan yaxshi bilasiz. U vaqtlarda sanoat hunarmandchilik bosqichida edi. Aholi, asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanardi.

Hunarmandchilik ustaxonalarida mato to‘qilgan (Marg‘ilon, Buxoro), kulolchilik (Rishton), zargarlik va zardo‘zlik (Buxoro), qurol-yarog‘ va uy-ro‘zg‘or buyumlari, qog‘oz (Samarqand) ishlab chiqarilgan. Bu hunarmandchilik buyumlariga Eron, Hindiston. Qozog‘iston va Sibirda ham talab katta bo‘lgan. Biroq, transport

vositalari nihoyatda ibtidoiy bo'lganidan iqtisodiy aloqalar qo'shni davlatlar bilangina emas, hududning turli qismlari ichida ham sust edi. Bu ishlab chiqarish kuchlarining ham, geografik mehnat taqsimotining ham yuksalishiga salbiy ta'sir etdi.

Chor Rossiyasi o'zining to'qimachilik sanoatini chet el xomash-yosiga qaramlikdan butkul qutqazish maqsadida butun Turkis-tonda, xususan O'zbekistonda paxtachilikni yuksaltirishga intildi. Shu maqsadda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning hududiy ixtisoslashuvini rag'batlantirdi. Natijada Farg'ona vodiysidagi xo'jaliklar paxta va pillachilikka ixtisoslashdi. Buxoro amirligining ham paxtachilikka ixtisoslashuvi kuchaydi. Samarqand viloyati g'alla yetishtirishga, Sirdaryo viloyati chorvachilikka ixtisoslashdi. Hozirgi O'zbekiston hududida 1913-yilda yalpi paxta hosili 517 ming tonnani, hosildorlik esa gektar boshiga 12,5 sentnerni tashkil etgan.

O'sha paytlarda O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston mustamlaka sifatida metropoliya\*ga, ya'ni Rossiyaga xiroj to'lab kelgan.

Metropoliya sanoat uchun xomashyo yetkazib beradigan va tayyor mahsulotlarni iste'mol qiladigan mustamlakalarni ekspluatatsiya qilar edi. Xomashyoni qayta ishlovchi sanoatning hammasi deyarli faqat Rusiyaning o'z hududida to'plangan edi. Hokimlik qiluvchi rus burjuaziyasi manfaatlarini nazarda tutib mustamlakalarga, ya'ni Sibir, Kavkaz orti va bizning O'rta Osiyoda sanoatning ko'p tomonlama rivojlanishiga yo'l qo'yilmas edi. Masalan, O'rta Osiyoda ham, Kavkaz ortida ham ip-gazlama fabrikalari qurilmas edi (garchi paxta shu mamlakatlarda yetishtirilsa ham), mabodo shunday fabrikalar qurishga ruxsat etilsa (Bokudagi fabrika) ham mahsulotni chet elga (Eronga) chiqarishi shart edi. Temir yo'l, avvalo metropoliyaga mustamlakalardan xomashyo keltirish, shuningdek favqulodda holatlarda harbiylarni tashish uchungina qurilardi. Ayni vaqtda mustamlakalarning mustaqil rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun mustamlakalararo yo'llar qurilishi kechiktirila berar edi. Jumladan, Turksib temir yo'lining loyihasi podsho mahkamalarida 20 yil chang bosib yotdi. Shu sababli O'zbekistonda yetishtirilgan mahsulot faqat Rossiya orqaligina jahonga chiqa olardi.

Shu davrda mahalliy ahamiyatga ega juda kichik paxta tozalash, jun yuvish, pilla chuvish, chigrit moyi ishlab chiqaradigan korxonalar

largina qurildi. Mitti elektr stansiyalar, g'isht zavodlari ham o'sha paytlarda paydo bo'ldi.

Yalpi ijtimoiy mahsulotning 1/3 qismigina sanoatda hosil etilardi. O'zbekiston sanoat tarmoqlarining tuzilishi tipik mustamlaka va yarim mustamlaka davlatlarning sanoatini eslatardi. Shunday bo'lsa-da, sanoat va unga hamohang shahar aholisi ko'paydi. Sanoatning hududiy joylashuvi tarkib topa boshladi. Sanoat korxonalarining 70 foizi Farg'ona vodiysida to'plandi.

Mamlakatning rivojlanishi va qudratida sanoat tarmoqlarining tarkibi, xususan og'ir sanoat bilan yengil sanoat o'rtasidagi nisbat hammadan ham muhimroqdir.

Og'ir sanoatga ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi. Ya'ni bunga sanoat, qishloq xo'jaligi va transport uchun mashinalar, shuningdek, yoqilg'i xomashyosini (ko'mir, gaz, neft va h.) qazib olish va jihozlar yasash, umuman ishlab chiqarishga kerakli xomashyolar (metall, kimyoviy, binokorlik xomashyolari) olish uchun kerakli jihozlar ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

Yengil sanoatga esa, xalq iste'mol mollari, ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari va umuman bevosita iste'mol etiladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

Og'ir sanoatning yaxshi taraqqiy etmaganligi mustamlaka mamlakatlar uchun xosdir. O'zbekiston sanoat tarmoqlari tarkibida ham yengil sanoatning salmog'i katta edi. Yalpi sanoat mahsulotida og'ir sanoatning ulushi 2 foizdan oshmasdi.

Farg'ona (Chimyon)da yiliga bor-yo'g'i 13 ming tonna neft qazib chiqarilib, undan Vannovskiy (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodida kerosin olingan.

Umumiy quvvati 3 ming kilovattga yaqin bir necha mitti elektrostansiyalar, vagonlarni ta'mirlaydigan depo va temirchilik ustaxonalari og'ir sanoatni tashkil etardi.

Hozirgi mo'l-ko'l va xilma-xil yer osti boyliklari u vaqtlarda hali ma'lum emasdi. Shu boisdan yoqilg'i, binokorlik materiallari, metall kabilar minglarcha kilometr masofadan tashib keltirilgan. Chunonchi, po'lat va cho'yan Ural hamda Sibirdan, ko'mir Donbasdan, neft Bokudan keltirilgan.

Dunyoga al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg'oniy, Ulug'bek kabi mashhur olimlarni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy,

sohibqiron Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk siymolarni yetkazib bergan o'lkani chorizm turli vositalar bilan jaholat va qoloqlikda tutib keldi. Xullas, XX asr boshida o'lkamiz ishlab chiqaruvchi kuchlari aynan mustamlaka hududlar xo'jaligiga xos bo'lib, metropoliyaga xomashyo yetkazib berishga bo'ysundirilgan edi.

2. Oktabr to'ntarishidan keyin barcha korxonalar, zavod va fabrikalar egalaridan tortib olingani va davlat mulkiga aylantirilganligini bilasiz. Oktabr to'ntarishi ijtimoiy tuzumni o'zgartirgan bo'lsa-da, milliy o'lkalarga nisbatan siyosatni o'zgartirmagan edi. Rasman o'z-o'zini idora qilish huquqi va'da qilingan bo'lsa-da, amalda biron-bir korxonona yoki inshoot qurish uchun Markazdan ruxsat so'ralardi. Natijada O'zbekiston xalq xo'jaligining tarmoq tarkibi deyarli o'zgarishsiz qoldi. Sanoat, ayniqsa og'ir sanoat e'tiborsiz qolib, qishloq xo'jaligining azaldan mavjud tarmoqlarinigina rivojlantirishga kirishildi. Sanoatning qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi sohalar paxtachilik uchun ishlab chiqarish vositalari, elektr quvvati, mineral o'g'itlar bilan ta'minlaydigan va uning mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar qurildi. Paxtaga ishlov beradigan mashina va mexanizmlar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarilib, paxtachilikka joriy etilishi natijasida O'zbekiston paxtachilikda katta yutuqlarga erishdi. Shu bois 1932-yildan e'tiboran sobiq Ittifoqqa chetdan paxta keltirish to'xtatildi. O'zbekiston esa xomashyo yetkazib beruvchi mustamlaka respublikaligicha qoldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida urush harakatlari avj olgan g'arbiy rayonlardagi sanoat korxonalarini Sharqqa, jumladan O'zbekistonga ko'chirildi. Shu yillarda Toshkentdagi aviatsiya zavodi, Chirchiqdagi „Chirchiqqishmash“ singari og'ir sanoat korxonalaridan 90 tasi ishga tushirildi.

Urush yillarida neft, ko'mir, mis, qo'rg'oshin, volfram va molibden konlari aniqlandi. Bu konlar rudasini qayta ishlaydigan korxonalar ham qad ko'tardi. Bekobodda qora metallurgiya zavodi barpo etila boshlandi. Urush yillarida 280 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. Bu esa O'zbekiston xalq xo'jaligi tarkibini birinchi bor jiddiy ravishda o'zgarishiga olib keldi.

1990-yillarga kelib O'zbekistonda sanoatning 100 dan ortiq tarmog'iga tegishli 1700 ta korxonona ishlab turdi. Shu davrda respublikada yalpi ijtimoiy mahsulotning 53 foizi sanoatda hosil qilindi. Xalq xo'jaligining tarkibidan tashqari joylashuvida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asrimiz boshlarida Farg'ona vodiysi

iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayon hisoblangan bo'lsa, endilikda Toshkent iqtisodiy rayoni oldingi o'ringa chiqdi.

Sanoat hududiy joylashuvining yaxshilanishi natijasida ish kuchlaridan oqilona foydalanish imkoniyati oshdi. Xomashyoni olis masofaga tashish xarajatlari esa kamaydi.

? 1. Qaysi tarmoqlar og'ir sanoatga kiradi?

2. Nima sababdan asrimiz o'rtalarida O'zbekiston xalq xo'jaligi tarmoqlarida jiddiy o'zgarish sodir bo'ldi?


## 11-§. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lida

Dunyo siyosiy xaritasida 1991-yil 1-sentabr kuni yangi mustaqil davlat — O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. U mustaqillikka erishgan kundan boshlab iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda o'ziga xos yo'lni tanladi va bu yo'ldan dadil bormoqda. Milliy iqtisodiyotning o'sishi bilan birga, uning tarmoq tarkibi xilma-xilligi yaxshilandi (15-rasm). Mustamlaka O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sanoatga qaraganda ancha ustuvor edi. Yengil va oziq-ovqat sanoati esa og'ir sanoatga nisbatan ancha oldinda edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligini bartaraf etishga e'tibor kuchaydi. Sanoat esa ilgari mutlaqo bo'lmagan avtomobilsozlik, radiotexnika kabi tarmoqlar tarkib topishi hisobiga ko'p tarmoqli bo'la boshladi. Xullas, O'zbekistonning rivojlanishi industriyalashtirish yo'lidan bormoqda (16-rasmga qarang).


Endilikda respublikada og'ir sanoat jadal sur'atlar bilan o'smoqda, og'ir sanoatning o'zida esa mashinasozlik yetakchi o'ringa chiqmoqda.

Og'ir sanoat, ayniqsa mashinasozlikning yuksaltirilishi qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoat korxonalarini unumli-samarador mashina va mexanizmlar bilan qayta jihozlanishiga va nihoyat mamlakat mudofaa quvvatining kuchayishiga imkon beradi. Eng muhimi, mamlakatimizni texnik qaramlikdan qutqaradi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan davrda O'zbekiston xalq xo'jaligi, asosan yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga kengaygan edi. Ya'ni rivojlanishning e k s t e n s i v y o ' l i \* ustuvor edi. Yangi yerlarni o'zlashtirish uchun yoqilg'i, energiya, inson omili va eng muhimi suv ko'p sarflandi. Suv sarfining ko'payishi Orol muammosini



15-rasm. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti tuzilmasi



16-rasm. Ayrim tarmoqlarning umumiy mahsulotdagi salmog'i.

keltirib chiqargan sabablardan bo'ldi. Yerdan pala-partish foydalanish tabiatning ifloslanishiga, tuproq unumdorligining pasayishiga olib keldi.

Shuning uchun iqtisodiyotni rivojlantirish va boshqarishda asosiy e'tibor miqdor ko'rsatkichlarga emas, sifat ko'rsatkichlarga, ishlab chiqarishning oxirgi natijasiga (tayyor buyumlar olinishiga, ularni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berilishiga) qaratiladi. Intensivlashtirishning asosiy shartlaridan biri eng yangi ilmiy yutuqlardan iqtisodiyotda foydalanishdir. Shu maqsadda iqtisodiyotning barcha sohalarida xorij bilan zamonaviy texnologiya asosida qo'shma korxonalar tashkil qilinmoqda.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining intensiv rivojlanish yo'liga o'tishi mehnat unumdorligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini jahon darajasiga yetishishini ta'minlaydi.

**?** 1. *Ishlab chiqarishni tubdan intensivlashtirish yo'li bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish deganda nimani tushunasiz?*

---

---

## O‘ZBEKISTONNING TARMOQLARARO MAJMUALARI

### 12-§. Sanoatning tarmoqlararo majmualari geografiyasi

Mana, diyorimizning tabiiy sharoiti bilan tabiiy boyliklarining xilma-xil va mo‘l-ko‘lligini ham, yurtimizning yaqin o‘tmishida xalq xo‘jaligi qanday yuritilganini ham bir qadar bilib oldik. Endi har birimiz O‘zbekiston mustaqilligini hayotimizning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-siyosiy jabhalarida ro‘yobga chiqara olishimizga to‘la qanoat hosil qila olamiz.


Darhaqiqat, o‘tmishda respublikamiz paxtachilik va qora-ko‘lchilikkaгина ixtisoslashgan bo‘lsa, endilikda sanoatning ham anchagina ixtisoslashgan tarmoqlari vujudga kelgan (17-rasm).

**Sanoat** — O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining moddiy ne‘matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog‘idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofaa qudrati sanoatga bog‘liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi shaharlar, transport yo‘llari vujudga keladi. Qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdosiqtisodiyotning taraqqiyoti darajasi o‘zgaradi, sanoatning rivojlanishi hudud tabiatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Sanoat ham iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi, turli joylardagi korxonalaridan, zavodlar, shaxtalar, elektr stansiyalardan iborat. Sanoat korxonalarining aksariyat qismi davlat mulki bo‘lib, bugungi kunda u xususiylashtirilmoqda. Xususiylashgan sanoat korxonalari bozor munosabatlariga xos talab va taklif asosida ishlaydi.

O‘tish davrida iqtisodiyotni butkul qayta qurish, korxonalar mustaqilligini ta‘minlash, ularning oxirgi natija uchun mas‘uliyatini oshirishni ko‘zda tutadi. Korxonalarining samaradorligi ana shu oxirgi natijaga bog‘liq. Korxonalar har xil kattalikda bo‘ladi. Masalan, aksariyat tikuvchilik korxonalari birgina binoga joylashsa, neftni qayta ishlash va metallurgiya kombinatlari kabi korxonalar esa, o‘rtacha shahar maydoniga teng hududni egallaydi.





17-rasm. Muhim sanoat tugunlari.

**Ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planishi ishlab chiqarishning markazlashuvi deyiladi.** Ishlab chiqarishning markazlashuvi hozirgi zamon texnikasidan to'laroq foydalanishga va mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. Biroq, asrimizning o'rtalarida vujudga kelgan ishlab chiqarishning bu shakli endilikda ijtimoiy va ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, tor ixtisosdagi o'rtacha hamda kichik korxonalar barpo etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Ilgarigi vaqtda bir korxonada har xil mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, endilikda ko'pchilik korxonalar asosan bir xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakli **ixtisoslashuv** deb ataladi. Ixtisoslashgan korxonalarda mehnat unumdorligi yuqori, mahsulot birligiga qilinadigan sarf kam bo'ladi, ishchilarning mehnat malakalaridan yaxshiroq foydalaniladi.

Sizga ma'lumki, mamlakatimiz aholisi asosan qishloqlarda yashaydi. Ularni ish bilan ta'minlashni ko'zlab ixtisoslashgan korxonalarining sex yoki bo'limlarini tobora qishloq joylarda barpo qilinmoqda. Bunday holatda ixtisoslashgan korxonada o'ziga xomashyo, detallar, mashina qismlari va boshqalarni yetkazib beradigan boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatadi. **Ishlab chiqarishning tayyor mahsulot tayyorlashda bir qancha korxonada qatnashadigan tashkiliy shakli kooperativlashuv (hamkorlik) deb ataladi.**

Ixtisoslashuv va kooperativlashuv ijtimoiy mehnat unumdorligini oshiradi.

Fan-texnika inqilobi (FTI) yutuqlarini ishlab chiqarishga tez tatbiq qilish uchun ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari tashkil qilinadi. Bunday birlashmalar mashinalar va materiallarning yangi turlarini ishlab chiqaruvchi ilmiy tadqiqot institutlaridan va ularni tayyorlovchi korxonalardan iborat bo'ladi.

**Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarish jarayonlari o'xshash (yoki dastlabki xomashyosi bir xil) bo'lgan hamma korxonalar, mamlakatimizning turli qismlarida joylashgan bo'lsa ham iqtisodiyotning muayyan tarmog'ini tashkil etadi.**

Sanoatning FTI yutuqlari asosida rivojlanishi yangi (avtomobilsozlik, aviasozlik, gaz asbobsozlik) va eng yangi (elektronika, atom, mikrobiologiya) tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Shu bilan bir vaqtda tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining kuchayishi ro'y beradi. Ishlab chiqarish jarayoni o'zaro bog'langan tarmoqlardan — tarmoqlararo majmualar tarkibi topadi. Ishlab chiqarish jarayonida qaysi tarmoq muhim, yetakchi mavqeda bo'lsa, tarmoqlararo majmuasi shu tarmoq nomi bilan yuritiladi. Shunga ko'ra O'zbekiston milliy iqtisodiyotida quyidagi tarmoqlararo majmualar shakllangan:

1. Agrosanoat majmuasi.
2. Yoqilg'i-energetika-kimyó majmuasi.
3. Metallurgiya majmuasi.
4. Mashinasozlik majmuasi.
5. Binokorlik materiallari majmuasi.
6. Xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari (sotsial) majmuasi.

Endi bularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

- ?
1. Nima uchun mayda korxonalar o'rnida yirik korxonalar vujudga keladi?
  2. Ishlab chiqarishning yiriklashishi deb nimaga aytiladi?
  3. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperativlashuvi deganda nimani tushunasiz? Ixtisoslashgan korxonalar qanday afzalliklarga ega?
  4. Mustaqillikdan keyingi davrda o'rtacha va kichik korxonalar qurilishiga e'tibor qaratilganligining boisi nimada?

### 13-§. Agrosanoat majmuasi

Qishloq xo'jaligining sanoat, qolaversa qurilish, transport, aloqa va tayyorlov, ta'minot, savdo tarmoqlari bilan bog'lanishi, uyg'unlashuvi natijasida agrosanoat majmuasi shakllandi. Bu majmuaga qishloq xo'jaligining o'zidan tashqari, bir tomondan, unga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan sohalar (traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini ishlab chiqarish, mikrobiologiya sanoati va veterinariya uchun dorivor vositalar ishlab chiqarish), ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash sanoat sohalari (qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash bo'yicha yengil sanoat tarmoqlari, yog'moy sanoati, go'sht va sut sanoati, baliq sanoati, un va yem sanoati) kiradi.

ASMning yetakchi tarmog'i — qishloq xo'jaligi. U respublikamizda yetishtiriladigan yalpi ijtimoiy mahsulotning 26,0 foizini,

milliy daromadning 43,3 foizini bermoqda. Mamlakat umumiy aholisining 60 foizga yaqini qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiyotdagi mavjud barcha ishlab chiqarish asosiy fondlarining 21,1 foizi qishloq xo‘jaligi tasarrufidadir.

Qishloq xo‘jaligi tasarrufidagi barcha yerlarning 16 foizga yaqini butun respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi. Bundan tashqari sabzavot va poliz mahsulotlaridan 15—20 foizini, paxtaning katta qismini tashqariga chiqarish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligining ikki muhim tarmog‘i — dehqonchilik va chorvachilikda inson hayoti uchun birinchi zaruriyat bo‘lgan oziq-ovqat va sanoat uchun xomashyo mahsulotlari yetishtiriladi.

### **! 15-rasmdan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini aniqlang.**

Agrosanoat majmuasining rivojlanish darajasi tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarning jadallashuvida va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari sonining oshib borayotganligida o‘z ifodasini topadi.

Sanoatda mehnat predmeti xilma-xil xomashyolar bo‘lib, ularga mashinalarda ishlov beriladi. Mashinalar, jihozlar — mehnat vositasidir.

**Yer** qishloq xo‘jaligida **mehnat predmeti** va ayni zamonda **mehnat vositasi** bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli yerdan to‘g‘ri foydalanish, uning hosildorligini saqlash juda muhimdir.

Sanoatdan farq qilib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi relyefi, iqlimi va tuproqlari har xil bo‘lgan keng maydonlarda olib boriladi. Qishloq xo‘jaligi, o‘simliklarning o‘sishi va hayvonlarning rivojlanishidagi tabiat qonunlariga bo‘ysunadi. Shu bois, qishloq xo‘jaligidagi mehnatning ko‘pgina ishlab chiqarish jarayonlari mavsumiydir. Qishloq xo‘jaligidagi mehnat jarayoniga va uning natijasiga tabiiy sharoit sanoatdagiga qaraganda ancha ko‘proq ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi sarf qilingan mehnatning miqdori va sifatiga, mashina va o‘g‘itlardan foydalanish darajasiga qarab belgilanadi.

**Agar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga ko‘paysa, bunday qishloq xo‘jaligi ekstensiv xo‘jalik deyiladi. Buning aksicha, qishloq xo‘jaligi mahsulotining hajmi maydon**

**birligida agrotexnika vositalaridan ko‘proq foydalanish yoki chorva mollarning ko‘proq mahsuldor zotlarini yaratish hisobiga oshsa, bunday qishloq xo‘jaligi intensiv xo‘jalik deb ataladi.**

Hozirgi zamon qishloq xo‘jaligi texnika bilan yaxshi ta‘minlangan. Dehqonchilik va chorvachilikdagi sermehnat ishlarni mashinalar bajarmoqda. Ko‘p ish jarayonlari elektrlashtirilgan, kimyoviy o‘g‘itlardan, zararkunandalarga qarshi zaharli kimyoviy mahsulotlardan, o‘simlik va chorva mollari kasalliklariga qarshi kurash vositalaridan keng miqyosda foydalanilmoqda.

**Mexanizatsiya, elektrlashtirish va kimyolashtirish qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va intensivlashtirishning asosiy yo‘lidir.**

Yuqori hosilli qishloq xo‘jaligini vujudga keltirish uchun **melioratsiya**, ya‘ni yerlarning holatini yaxshilash ishlarini (sug‘orish, yerlarning sho‘rini yuvish, daraxt o‘tqizish va shu kabi ishlarni) olib borish zarur. Yerga ishlov berishning bir qancha tadbirlarini bir yo‘la amalga oshirishni o‘z ichiga olgan melioratsiya majmuasi eng ko‘p samara beradi. Masalan, tuproqning uchib ketishi (shamol eroziyasi)ga, oqar suvning ta‘sirida yuvilib ketishi (suv eroziyasi)ga qarshi kurashish, zax yerlarni quritish, tuproq hosildorligini oshirish va boshqa o‘zaro aloqador tadbirlar shular jumlasidandir.

**! 7-sinf geografiyasidan olgan bilimlaringizga tayanib va atlas-xaritadan foydalanib, mamlakatimizdagi sug‘orib dehqonchilik qilinadigan maydonlarni aniqlang.**

Qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniladigan yerlar **qishloq xo‘jaligi yerlari** deyiladi. Mamlakatimiz maydonining 2/3 qismidan ko‘prog‘i qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi xo‘jalikni intensivlashtirish yo‘li bilan **ekinlar hosildorligini\*** va **chorvachilik mahsuldorligini\*** oshirishdir.

Buning uchun, sanoatdagi kabi qishloq xo‘jalik korxonalarining xususiyashtirilishi bilan ixtisoslashishi kuchaytirilmoqda, agrosanoat majmualari barpo qilinmoqda. Agrosanoat majmualarida qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari va qishloq xo‘jaligiga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishlar, ya‘ni qishloq xo‘jalik mahsulotlarini

qayta ishlash, ularni saqlash, tashish va savdo hamda umumiy ovqatlanish muassasalari orqali taqsimlash birga olib boriladi. Qishloq xo'jalik mehnati industrial mehnatning bir turiga aylanmoqdaki, bu hol shahar bilan qishloq ijtimoiy hayotini yaqinlashtirishga olib keladi.

- ? 1. *Qanday xo'jalik intensiv xo'jalik deb, qanday xo'jalik ekstensiv xo'jalik deb ataladi?*
2. *Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'llarini aytib bering.*
3. *O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlari dehqonchilik va chorvachilik o'rtasida qanday taqsimlangan?*
4. *Siz yashayotgan rayon xo'jaliklarida qanday meliorativ tadbirlar amalga oshirilmoqda?*

## **DEHQONCHILIK**

**Dehqonchilik** dalachilik, bog'dorchilik va uzumchilikdan iborat. Ekin turiga qarab don ekinlari, texnik ekinlar, yem-xashak ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari, kartoshka yetishtiruvchi xo'jaliklarga bo'linadi.

Dehqonchilikda tuproq-iqlim sharoiti qat'iy hisobga olinmog'i zarur.


**!** *Tuproqning asosiy tiplarini va ularning O'zbekiston hududida qanday joylashganini xaritadan takrorlab keling.*

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosiliga ular o'sayotgan, vegetatsiya davri (unib chiqqanidan, o'sishdan to'xtaguncha bo'lgan vaqt)da yorug'lik, issiqlik va namlikning qulay uyg'unligi ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarning har bir turi muayyan miqdorda (sutkalik o'rtacha harorat +5 darajadan kam bo'lmagan kunlar) issiqlik va namni olishi kerak. Shuningdek, hanuz qo'l mehnatiga zaruriyat yo'qolmayotganidan aholining talay qismi dehqonchilikda band.

Umuman qishloq xo'jaligida respublikadagi jami ishga yaroqli aholining 1/3 qismidan ortiqrog'i mehnat qiladi. Shu bilan birga respublika maydonining 2/3 qismidan ko'prog'i qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida foydalaniladi.

*O'zbekiston qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibiy qismlari diagrammasidan yaylovlar va pichanzorlar maydonini aniqlang (19-rasm).*


O'zbekistonning paxta-agrosanoat majmuasi



18-rasm. O'zbekistonning paxta-agrosanoat majmuasi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilikning salmog'i katta. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 73 foizi dehqonchilik, qolgani esa chorvachilikdan olinadi. Dehqonchilikda paxtachilik katta o'rin egallaydi. O'zbekistonda asosiy texnik ekin bo'lgan paxta qishloq xo'jaligining deyarli barcha sohalari va sanoatning ko'pgina tarmoqlari yuksalishining bosh omilidir. Obikor yerlarning\* 1/3 qismida paxta yetishtiriladi. U barcha texnik ekin maydonlarining 90 foizini egallaydi.

Paxtakorlik o'zbek xalqining qadimiy kasbidir. Xalq asrlar mobaynida paxta yetishtirish usullarini takomillashtirib, boy tajriba orttirgan. Asrimiz boshlaridan mayda xo'jaliklarni birlashtirib, ularni yiriklashtirish natijasida mexanizatsiya va mineral o'g'itlarni majmualari tarzda qo'llash imkoni tug'ildi, oqibatda hosildorlik va yalpi hosil oshdi. Sobiq Ittifoqning chetdan paxta sotib olishni to'xtatib (1932-y.), o'zi chetga paxta chiqaruvchi mamlakatga aylanishida O'zbekiston paxtachiligi muhim mavqe tutdi. Paxtachilik yuksala




19-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlari tarkibi (ming ga hisobida).



borgani sari, uning iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan ishlab chiqarish aloqasi kengayib, pirovard oqibatda paxta-agrosanoat majmuasi vujudga keldi (18-rasm). Biroq, paxta yakkahokimligi kuchaya boshladi. Natijada ko'pgina qishloq xo'jalik mahsuloti turlari bilan o'zini o'zi ta'minlab kelgan O'zbekiston aholisi boshqa respublikalar mahsulotiga bog'lanib qoldi.

Paxta nihoyatda har tomonlama foydali (universal) texnik ekindir. Paxta tolasidan xilma-xil ip-gazlamalar to'qiladi, chigitidan yog' olinadi. Paxta moyidan glitserin, stearin, maxsus malham tayyorlanadi. G'ozapoyadan gidroliz va binokorlik sanoatlarida keng



20-rasm. Paxtachilikning milliy iqtisodiyotni boshqa tarmoqlari bilan aloqasi.

foydalaniladi. Demak, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining asosi bo‘lgan paxtachilik yengil sanoat, organik kimyo va hatto binokorlik sanoatlarini xomashyo bilan ta‘minlaydi. Mashinasozlik, kimyo, yoqilg‘i, energetika kabi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ham paxtachilik bilan bog‘liq.

**!** *Paxtachilikning milliy iqtisodiyotni boshqa tarmoqlari bilan aloqasi chizmasini ko‘zdan kechiring (20-rasm).*

Paxta yalpi hosilini ko‘paytirish uchun birinchidan, hosildorlikni oshirish zarur. Hosildorlikni oshirishda paxta navlari hamda almashlab ekishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston olimlari g‘o‘zaning ertapishar hamda vilt kasaliga chidamli navlarini yaratdilar. Natijada g‘o‘zaning o‘shish muddati qisqaroq bo‘lgan shimoliy rayonlarda ham paxta yetishtiriladigan bo‘ldi. Olimlar chigitni plyonka ostiga ekish usulini yaratdilar. Andijon viloyatida amalga oshirilgan bu tajriba o‘zini oqladi va paxta boshqa viloyatlardagidan bir necha kun erta yetildi. Endilikda bu tajriba boshqa viloyatlarda ham qo‘llanilmoqda.

Paxtani beda, makkajo‘xori va sholi bilan almashlab ekilsa, tuproq tarkibi yaxshilanadi, uning sho‘ri kamayadi, paxta turli kasalliklarga chalinmaydi. Beda, makkajo‘xori ekilishi tufayli chorva mollari uchun ozuqa ham olinadi.

***Diqqat!***

## **PAXTA MAJMUASI MUAMMOLARI**

O‘zbekistonda tarmoqlararo majmualarning eng yirigi paxta majmuasidir. Mamlakat ishlab chiqarish fondlari \*ning 1/3 qismi, sug‘oriladigan ekin maydonlarining esa 45 foizi shu majmua ixtiyoridadir.

Mamlakatimiz paxtaning yalpi hosili bo‘yicha jahonda to‘rtinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Shunday ko‘rsatkichni qo‘lga kiritish mashaqqati va oqibatlarini o‘ylab ko‘rganmisiz? Mana ular...

### **Birinchidan:**

1. Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi bir tomonlama — m o n o k u l t u r a \* holiga tushib qoldi.

2. Paxta yakkahokimligi oziq-ovqat mahsulotlari, xususan bug‘doy, kartoshka va chorva mahsulotlari bo‘yicha O‘zbekistonni chetga qaram qilib qo‘ydi.

3. Yuqori hosil ketidan „quvib“, dalalarda mineral o'g'itlar gektar boshiga 600 kg gacha ishlatilgan. Holbuki, boshqa mintaqalarda mineral o'g'it ishlatish 100 kg dan oshmagan. Zaharli ximikatlilar esa me'yorida 15—20 marta ko'p qo'llangan. Natijada dalalar zaharlanib, tuproq unumdorligini ta'minlovchi omillardan hisoblanmish hasharotlar qirilib bitdi.

Dalalarning oqava suvlari suv havzalariga qo'shilib ichimlik suvlar ham yaroqsiz holga keldi. Oqibatda o'ta og'ir xastaliklar soni ko'paydi.

4. Paxta yig'im-terimi davrida shaharlik mehnatkashlarni, talabalarni va o'quvchilarni asosiy ishlaridan ajratib qishloq xo'jalik ishlariga ommaviy safarbar qilindi.

5. Orol dengizi va unga tutash hududlarda ahvol fojiali tus oldi. Buning ekologik va iqtisodiy oqibatlarini o'lchab bo'lmaydi.

### **Ikkinchidan:**

1. O'zbekiston paxta hosili bo'yicha jahonda yetakchi davlat bo'la turib, paxtadan ishlangan tayyor mahsulotlar tanqisligi kuchayaverdi.

2. Katta maydonlarda paxta hosildorligi gektar boshiga pastligicha qoldi.

3. Ko'plab xo'jaliklarda mahsulot yetishtirishga sarflangan xarajat tayyor mahsulot qiymatidan oshib ketdi.

Yana shuni ham qayd qilish kerakki, respublikamizda yetishtirilayotgan paxtadan tola bilan birga har yili 450 ming tonna yog', 1200 ming tonna kunjara va 700 tonna shulxa olinadi. Bular har gektar paxta maydonidan qo'shimcha 80—90 litr sut olish imkonini beradi.

Umuman olganda har gektar sug'oriladigan yerdan 30—35 sentner paxta, 400 sentner karam yoki 600 sentner piyoz, 500 sentnergacha pomidor, 10—12 tonna ozuqa birligiga teng yem-xashak (bu 600—650 kg go'sht demakdir) yetishtirish mumkin. Biz albatta bozor iqtisodiyoti sharoitida bir gektar sug'oriladigan yerdan qancha mahsulot olishni hisoblash bilan birga bu mahsulot uchun qancha xarajat qilinishini va buning evaziga qancha sof daromad olinishini ham hisob-kitobini olib bormay, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitimizni boshqarish qiyin kechadi.

Shunga ko'ra bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoniga xos ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoitlarni hisobga olib agrosanoat majmuini taraqqiy toptirishga oid tavsiyalarning xilma-xil variantlari ishlab chiqilgan.

Mana ular:

**I v a r i a n t .** Yetishtiriladigan paxta 3,2 million tonna (tola hisobida 1,1 — 1,2 million tonna) atrofida bo'ladi. Paxtadan bo'shagan yerlarga don, sabzavot, poliz, kartoshka, ozuqabop ekinlar ekiladi. Shunda go'sht, sut va poliz mahsulotlari yetishtirishni 2—2,5 barobar oshirish mumkin bo'ladi.

**I I v a r i a n t .** Mamlakat aholisi ehtiyojini avvalo sabzavot, poliz, kartoshka va meva bilan ilmiy me'yor darajasida qondirish, go'sht, sut va tuxumga ehtiyojini esa faqat yangi mahsulot bilan ta'minlash. Paxta masalasi esa ikkinchi darajaga suriladi. Xomaki hisob-kitoblilar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi holatda paxta maydoni 1,4 — 1,5 million gektar atrofida bo'ladi.

**III variant.** Bozor munosabatlari taqozosi bilan paxtaga talab oshish ehtimolini nazarda tutib, paxta ekin maydonini 1,7—1,8 million gektargacha yetkaziladi.

Paxta maydonini bunday kengaytirish qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ilmiy asosda rivojlantirishga, almashlab ekishni joriy etishga, ekologik sharoitni saqlashga zid bo'lmaydi. Bunda esa yiliga 5—5,2 million tonnagacha paxta yetishtirish mumkin bo'ladi. Biroq, paxtani bunday hajmda yetishtirish chorvachilik mahsulotlarini ko'proq yetishtirishga yo'l bermaydi. Shuning uchun respublika bu mahsulotlarni boshqa mintaqalardan sotib olishi kerak bo'ladi. Gap shundaki, mamlakatimiz boshqa mintaqalarga paxta sotganda buning evaziga boshqa mahsulotlarni sotib olish foydali bo'lsin.

Variantlarni ilmiy tahlil qilish iqtisodiy nuqtai nazardan yalpi mahsulot qiymati, sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi bo'yicha ular bir-biridan keskin farqlanmasligini ko'rsatadi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, oxirgi variantni amalga oshirishda juda katta iqtisodiy va amaliy qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Umuman xulosa qilib aytganda, bu variantlardan qaysi biri turmushga joriy etilishi masalasi bozor talabiga ko'ra vujudga kelayotgan iqtisodiy sharoitga, xususan, xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan mahsulotlar tarkibiga qarab hal etiladi. Yana shuni ham unutmashlik kerakki, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga kirib borishi agrosanoat majmuining rivojlanishi bilangina cheklanmaydi. Chunki paxta-agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bir qisminigina tashkil etadi. Binobarin, barcha tarmoqlarni o'zaro mutanosiblashtirishni uzluksiz amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana, siz O'zbekiston milliy iqtisodiyotida eng yetakchi bo'lgan tarmoqlararo majmualardan birining yaqin yillardagi o'zgarishining variantlari bilan tanishdingiz.

Sizningcha, ulardan qaysi biri eng maqbul? Sizga maqbul bo'lgan variantning yuqorida aytilmagan yana qanday afzalliklari bo'lishi mumkin. Yuqoridagi variantlarning qaysinisi sizning tumaningizda joriy etilishini istar edingiz, nima uchun? Shular haqida mulohaza yuriting.

Respublikamizda bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan 50 dan ortiq jamoa bor. Ularning aksariyati o'zi yetishtirgan mahsulotni shu yerda qayta ishlab, sharbat va konserva tayyorlaydi. Ana shunday sanoat korxonalari bo'lgan xo'jaliklar negizida agrosanoat birlashmalari vujudga kelmoqda.

O'zbekistonda kanop, zig'ir, kunjut, maxsar, tamaki, ko'p yillik taron (teri oshlashda ishlatiladigan xomashyo) ham o'stirilmoqda. Kanop tolasi va urug'i yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan. Kanop urug'ining bir qismi Qozog'iston va Shimoliy Kavkazdagi kanop ekiladigan xo'jaliklarga ham yuboriladi.

Mamlakatimizda bular bilan bir qatorda donli ekinlar ekishni rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Donning asosiy qismini bug'doy, arpa, sholi, makkajo'xori va oq jo'xori tashkil qiladi. Bug'doy va arpa ko'proq bahorikor yerlarga ekiladi. Qishning yumshoq va nam kelishi hamda ko'klamgi yog'ingarchilik kuzgi g'alla yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Lalmi bug'doy va arpaga qaraganda kuzgi bug'doy bilan arpa ko'proq hosil beradi. Bahorgi g'alla ko'proq Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida ekiladi. Shuningdek, Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida ham don yetishtiriladi (21-rasmga qarang).




21-rasm. Makkajo'xori o'rish.

Don yetishtirishda sholikorlik ham O‘zbekistonda kattagina o‘rin tutadi. Sholi vegetatsiya davri uzoq, serquyosh, suvga mo‘l yerlarda yaxshi o‘sadi. Sholikorlik Xorazm, Qoraqalpog‘iston va Toshkent viloyatida, Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida rivojlangan. Amudaryo quyi oqimi sohillaridagi unumdor qo‘riq yerlarni ishga solish va ularni sug‘orish uchun suv boyligidan foydalanish mamlakatimizda ko‘plab sholi yetishtirish imkonini bermoqda. Sholi hosildorlik jihatidan faqat makkajo‘xoridan keyinda turadi. Xalqimizning milliy taomi bo‘lmish palov guruchsiz bo‘lmaydi. O‘zbekiston endilikda o‘zini o‘zi g‘alla bilan ta‘minlab, hatto yetishtirilgan guruchni chet ellarga eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mamlakatimiz ekin maydonlari tarkibida texnik ekinlar eng ko‘p qismni (ulardan paxta barcha texnik ekinlar maydonining 90 foizidan ortig‘ini) egallagan bo‘lsa, endilikda donli ekinlar, yem-xashak ekinlari va shahar atrofida sabzavot-poliz ekinlari maydonlari kengayib bormoqda (22-rasm).

**Sabzavotchilik va polizchilik** deyarli barcha viloyatlarda rivojlangan. U Toshkent, Samarqand, Andijon kabi yirik shaharlar atrofida katta maydonlarni egallaydi. Sabzavot ekinlari bizga nisbatan shimoldagi davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasining ayrim rayonlarida O‘zbekistondagidan 2—2,5 oy kech yetiladi. Shuning uchun sabzavotni faqat mahalliy ehtiyoj uchun emas, balki chetga chiqarib, valyutaga ega bo‘lish uchun ham yetishtiriladi.



22-rasm. Barcha tur xo‘jaliklarining ekin maydoni (ming ga hisobida). va tarkibi (% hisobida).

O'zbekiston qovunlari xushbo'y va shirinligi bilan qadimdan mashhur. Ular Xorazm, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda ko'p tarqalgan.

**Bog'dorchilik va uzumchilik** tabiiy sharoit, xalqning asrlar bo'yi to'plangan boy tajribasiga ko'ra har bir viloyatda alohida tarmoq sifatida ixtisoslashgan. Jumladan, Samarqand viloyatining bir necha tumanlari mamlakatimizning mayiz yetishtiradigan asosiy markazlaridan biridir. Farg'ona vodiysi eng yaxshi bargak va turshak bo'ladigan o'riklar bilan dong chiqargan. Toshkent viloyatidagi xo'jaliklar esa olma va nok yetishtirishga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, bu yerlarda uzumning xo'raki va sharobbop navlari yetishtiriladi. Bir qancha tumanlarda anor, bodom, yong'oq va xandon pista yetishtiriladi.

Quva (Farg'ona viloyatida) va Dashnobod (Surxondaryo viloyatida) anorlari mashhurdir. Xorazm va Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda bog' va tokzorlar birmuncha sust rivojlangan.

Qani, siz ham o'ylab ko'ring-chi, mamlakatimizda oilalarga shaxsiy xo'jalik uchun yer bo'lib berila boshlandi. Buni ko'pchilik odamlar mamnuniyat bilan qabul qildilar, ajratilgan yerlarda uy-joy tiklab, qisman u yoki bu ekinni ekib, parvarish qilmoqdalar.

Biroq, ayrim kishilar respublikada hozirgacha minglab gektar yer mayda xo'jaliklarga taqsimlandi, u yerlardan ilgarigi hosil olish endi yo'q, shu bois yer berishga chek qo'yish zarur demoqdalar. Siz shulardan qay biriga qo'shilasiz? Nega shularga hamfikir ekanligingizni asoslab bering.

- ? 1. *Qanday dalillar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sanoat bilan yaqinlashayotganini ko'rsatadi?*
2. *Nima sababdan paxtachilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblanadi?*
3. *Sholi, kanop, moyli ekinlar, tamaki, shakarqamish ekiladigan joylarni xaritadan toping.*
4. *Siz yashab turgan tuman yoki viloyatda qanday mevalar yetishtiriladi va ular qaysi viloyatlarga yuboriladi?*
5. *Siz yashab turgan tumanda qaysi tarmoqlar paxtachilik bilan bog'langan?*

## CHORVACHILIK

Qishloq xo'jaligining bu tarmog'i qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik va parrandachilikka bo'linadi (unga asalarichilik, pillachilik, cho'chqachilik va baliqchilik ham kiritiladi).

O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 2/3 qismi chorvachilik uchun foydalaniladigan yaylovlardir, lekin chorvachilikni yaxshi rivojlantirish va mollarni yil bo'yi ozuqa bilan ta'minlash uchun yem-xashak bazasini kengaytirish, konsentratsiyalangan va shirador yem-xashak yetishtirishni ko'paytirish zarur.

O'zbekiston dasht va cho'l tumanlaridagi o'tloq va butazorlar qorako'l qo'ylar va tuya boqish uchun qulay. Tog' va tog' oldi mintaqalarida anchagina sero't yaylovlar bor. Bu mintaqalarda qo'y, mayin junli echki boqish, go'sht-sut uchun qoramol o'stirish va yilqichilik rivojlangan. O'zbekiston chorvachiligi paxtachilik bilan ko'p tomonlama bog'liqdir. Bu aloqadorlikni, avvalo, fermer xo'jaliklarning paxtachilikdan olinadigan (kunjara, shulxa singari) ozuqa yemdan foydalanayotganida ko'rish mumkin. Shuningdek, buni paxtani beda va jo'xori bilan almashlab ekish tufayli vujudga keladigan yem-xashak asosida go'sht-sut chorvachiligi rivojlana-yotganida ham ko'rsa bo'ladi.

Mamlakatimizda qo'y va echkilarning umumiy soni 9 mln. ga yetadi, shundan anchaginasini qorako'l qo'ylaridir. Qorako'l qo'ylari (Toshkent viloyati bilan Farg'ona iqtisodiy rayonidan tashqari) barcha viloyatlarda boqiladi. Qorako'l qo'ylaridan jahonda eng a'lo sifatli (qora arabiy, kulrang sheroziy, qizg'ish qanbariy, oltinsimon sur) terilar olinadi. Qorako'l qo'ylaridan jun va go'sht olinadi. Echkilar respublikaning deyarli barcha viloyatlarida boqiladi. Ulardan asosan tivit va jun olinadi. Qoramol barcha viloyatlarda boqiladi. Ularning soni 5 mln. dan ortadi. Ular Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ayniqsa ko'p.

Yilqilar Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istonda boqiladi. Ularning soni 150 mingga yaqinlashadi. Ilgari paxtachilikdagi ko'pgina yumushlarni (yuk tashish, paxtaga ishlov berish va hokazo) bajarishda otdan foydalanilgan. Shu tufayli yilqichilik bilan paxtachilik o'zaro aloqador bo'lgan. Ot bajaradigan ishlar texnika zimmasiga yuklanganidan endilikda otlar asosan go'shti va suti hamda musobaqalarda foydalanish uchun boqiladi.



Choʻllarda tuya boqiladi. Respublikaning shimolida ikki oʻrkachli, janubida bir oʻrkachli tuyalar boqiladi. Ulardan ish hayvoni sifatida foydalaniladi, shuningdek jun, sut olinadi.

Pillachilik ham mamlakatimiz qishloq xoʻjaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri boʻlib, paxtachilik bilan bogʻliq holda rivojlanmoqda. Ipak qurti boqish uchun ozuqa beradigan tut daraxti paxta paykallari chekkalarida, ariq va kanallar hamda yoʻl yoqalarida oʻstiriladi. Bunda tut daraxti gʻoʻzani kuchli shamoldan ihota qiladi, ariq va kanallar qirgʻogʻini yuvilishdan saqlaydi. Pillachilikning paxtachilik bilan bogʻliqligi shu bilangina cheklanib qolmaydi. Maʼlumki, ipak qurti may-iyun oylarida boqiladi. Bu vaqtda paxta parvarishi asosan kultivatsiya qilish, oʻgʻitlash va sugʻorishdan iborat boʻlib, uni mexanizator va suvchilar bajaradilar. Natijada paxtadan boʻshagan talaygina odam kuchidan qurt boqishda foydalaniladi. Shunday qilib, pilla yetishtirish mavsumida pilla boqish uchun ishchi kuchi koʻp talab etiladi. Sobiq Ittifoq davrida tayyorlangan pillaning yarmidan koʻpini Oʻzbekiston berib keldi. Endilikda har yili tayyorlanayotgan 23 ming tonna pilla ham Oʻzbekistonning boshqa boyliklari qatori butkul oʻz ixtiyorida.

Parrandachilik respublika chorvachiligining eng yosh tarmogʻidir. Oʻzbekistonda parrandachilik inkubator stansiyalari, goʻsht va tuxum yetishtirishga ixtisoslashgan davlat va parrandachilik fermalari tashkil etilgan.

Toshkent, Buxoro va Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpogʻiston Respublikasining koʻl va suv omborlarida baliq urchitilmoqda hamda suv parrandalari fermasi tashkil etilmoqdi. Oʻzbekiston suv havzalarida, daryo boʻylarida qimmatbaho moʻynali kichik hayvonlar—nutriya va ondatra qoʻriqxonalarini tashkil etilgan. Nutriya Sibir va Ozarbayjondan, ondatra Amerikadan keltirilgan. Ular mahalliy



23-rasm. Ondatra xoʻjaligi.

sharoitga moslashib, tez ko'paymoqda (23- rasm). Mirzacho'l mo'ynachilik xo'jaligida esa ondatra boqiladi.

- ? 1. Siz chorvachilikning qaysi tarmoqlarini bilasiz?  
2. O'zbekistonning qayerlarida asosan qoramol boqiladi? Pillachilik va parrandachilik qayerlarda rivojlanmoqda?  
3. Siz yashab turgan tuman va viloyatdagi chorvachilik nima yetishtirishga ixtisoslashgan? Bunga sabab nima?

## **QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIY TASHKIL ETILISHI VA MINTAQALAR BO'YICHA IXTISOSLASHISHI**

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari mamlakatning hamma qismida bir xil emas, chunki aholining va sanoatning ehtiyoji hamda tabiiy sharoiti turli joyda turli xildir. Shu sababli qishloq xo'jaligi ham, sanoat tarmoqlari singari, muayyan sohalarga ixtisoslashadi. Odatda, ixtisoslashgan qishloq xo'jalik tarmog'i boshqa tarmoqlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Natijada tabiiy sharoitdan va aholining mehnat malakalaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Har bir tabiat mintaqasi iqtisodiyotning shu joyga xos tarmoq turlari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sobiq Ittifoq davrida Markazning to'qimachilik korxonalarini paxta bilan ta'minlashni ko'zlab, asosan paxtachilikka ixtisoslashdi. Qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari esa paxtachilikning rivojlantirishga bo'ysundirilgan (yordamchi) tarmoq sanalardi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda paxta yakkahokimligi tugatildi. Uning o'rnida g'alla, kartoshka kabi dehqonchilikning turli tarmoqlarini ustuvor rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda tabiat mintaqalari aksariyat mamlakatlardagidan farq qilib, shimoldan janubga emas, balki g'arbdan sharqqa va tekislikdan tog'larga tomon o'zgaradi.

! *Nima sababdan tabiat mintaqalari g'arbdan sharqqa tomon o'zgarishini 7-sinf geografiya darslaridan eslang.*

Shunga muvofiq, qishloq xo'jaligining ixtisoslashishi ham cho'l, adir, tog', yaylov mintaqalari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, tog'lar oralig'ida tabiati o'ziga xos hudud (vodiy)lar uchraydi. Paxta faqat sug'orish mumkin bo'lgan obikor yerlarda

yetishtiriladi. Shuningdek, donli ekinlar bilan poliz ekinlarining ham talay qismi sug'oriladigan maydonlarda yetishtiriladi.

Mamlakatimizda eng katta sug'oriladigan yerlar Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Qashqadaryo viloyati, Zarafshon vodiysi hamda Xorazm vohasidadir. Vodiy hamda vohalarda tut daraxtlari o'stiriladi, pillachilik, uzumchilik, bog'dorchilik va polizchilik bilan shug'ullaniladi (24-rasm).

Cho'llarda qo'ychilik va tuya boqish rivojlangan. Qo'ylar qish va bahorda cho'llarda, yozda esa tog' yaylovlariga haydab boqiladi, kuzda yana cho'lga qaytarib kelinadi. Cho'llarda, asosan qora-ko'lchilik bilan shug'ullaniladi.

Sanoat ishlab chiqarishi to'plangan yerlarda, shaharlar tevaragida shahar atrofi qishloq xo'jaligi tarkib topadi. Bunday xo'jalikda aholini yangi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun sabzavot, mevalar yetishtiriladi, qoramol, parranda boqiladi, hovuzlarda baliq urchitiladi.

? 1. *Bir mintaqaning o'zida qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi har xil bo'lishiga sabab nima?*

2. *O'z viloyatingizning tabiiy xaritasi, aholining zichligi xaritasi va qishloq xo'jaligi xaritasini taqqoslab, qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan sohani tushuntirib bering.*

## 14-§. Yoqilg'i — energetika — kimyo majmuasi


Majmuaga yoqilg'i (yoqilg'ini qazib olish va unga ishlov berish), elektroenergetika hamda kimyo sanoatlari kiradi.

Mamlakat qanchalik ko'p elektr energiya ishlab chiqarsa va undan foydalansa, u ko'p mahsulot ishlab chiqara oladi va iqtisodiy rivojlanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi (ilovadagi 7-jadvalga qarang).

Kelajakda an'anaviy bo'lmagan energiya manbalari (Quyosh, shamol, geotermal, issiq buloqlar energiyasi)dan iqtisodiyotda keng miqyosda foydalanish ko'zda tutilgan.

Energetika resurslariga **yoqilg'i resurslari** (ko'mir, neft, gaz, torf, slanes, o'tin) va **gidroenergiya resursi** (daryoning yuqoridan tushayotgan suvining energiyasi) kiradi.

Yoqilg'i resurslari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun hozircha energiyaning asosiy manbaidir. Lekin, insoniyat hatto



24-rasm. O'zbekistonning qishloq xo'jalik rayonlari.

ishlab chiqarishda Yerning ichki issiqlik energiyasidan, Quyosh va ayniqsa, atom energiyasidan foydalana boshladi, kelajakda esa termoyadro energiyasidan foydalanadi. Yoqilg'i turli xillarining miqdorini taqqoslash uchun ular shartli yoqilg'iga aylantiriladi. *Shartli yoqilg'i deb, 1 kg yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJ/kg) energiya beradigan, issiqlik koeffitsiyenti esa bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytiladi.* Yoqilg'ini shartli yoqilg'iga aylantirish uchun yoqilg'ilar haqidagi ma'lumotlarni tegishli issiqlik koeffitsiyentiga ko'paytiriladi. Hisoblashlarda 1 kg shartli yoqilg'i o'rta hisobda 2 kVt/soat elektr energiyasiga teng deb ham qabul qilinadi, lekin bunda elektr stansiyasining foydali ish koeffitsiyenti (FIK) hisobga olinadi (4-jadval).

4-jadval


**Turli xil yoqilg'ilarning yongandagi issiqligi  
(7-sinf fizika darsligiga qarang)**

Yoqilg'i turi	1 kg yoqilg'i yonganda chiqadigan issiqlik		Issiqlik koeffitsiyenti
	joul	ming kkalda	
Neft	$4,4 \times 10^7$	10,5	1,5
Gaz	$4,4 \times 10^7$	10,4	1,5
Toshko'mir <sup>1</sup>	$2,9 \times 10^7$	7,0	1,0
Qo'ng'ir ko'mir	$1,3 \times 10^7$	3,0	0,43
Slanes	$8,8 \times 10^7$	2,1	0,3
Torf	$1,4 \times 10^7$	3,4	0,5
Quruq o'tin	$1,0 \times 10^7$	2,5	0,4

Issiqligi (kaloriyasi) kam bo'lgan yoqilg'ini — torf, slanes, qo'ng'ir ko'mirdan qazib olingan joyda foydalanish ma'qul. Chunki ular uzoq masofalarga tashish xarajatlari hisobiga juda qimmatlashadi. Bular mahalliy yoqilg'i turlaridir.

Yoqilg'i boyligini qiymati faqat kaloriyasigagina bog'liq bo'lmay, foydalanish imkoniyatiga, qazib chiqarish xarajatiga ham bog'liq. Bular texnika taraqqiyoti bilan o'zgarib boradi. Eng tejimli yoqilg'i neft va gazdir, chunki ularni qazib chiqarish va ishlatiladigan joyga quvurlar orqali yuborish arzon tushadi. Shunga ko'ra turli xil yoqilg'ini qazib chiqarish va undan foydalanish ko'lamini davriy o'zgarib turadi (25-rasm).

<sup>1</sup> 1 kg toshko'mirning issiqligi 1 kg shartli yoqilg'ining issiqligiga teng.



25-rasm. O'zbekistonda foydalaniladigan yoqilg'i turlarining o'zgarishi.

! Bir yilda 20 mln. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqaradigan elektr stansiyasi uchun qancha miqdorda ko'mir, gaz yoki neft zarurligini hisoblang.

Turli xil yoqilg'ilarni qazib chiqarish va ishlab chiqarilgan energiya (kirim) hamda ulardan iqtisodiyotda foydalanish (sarf qilish) nisbati yoqilg'i-energetika balansi deyiladi.

- ? 1. Energetika boyliklarining asosiy turlarini aytib bering.  
 2. Yoqilg'i-energetika balansi deganda nimani tushunasiz?  
 3. O'zbekiston yoqilg'i-energetika balansida qanday o'zgarishlar bo'lmoqda va bunga sabab nima (25-rasm)?

## YOQILG'I SANOATI

**1. Gaz sanoati.** Yoqilg'i sanoatining eng yosh tarmog'i bo'lgan gaz sanoati keyingi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda (ilovadagi 7-jadval). Gaz — yoqilg'ining juda arzon turi. Gazdan sanoatda ham, aholining ro'zg'orida ham foydalaniladi. Gaz qimmatbaho kimyoviy xomashyo hamdir. Yoqilg'ining boshqa turlaridan farq qilib, gaz havoni eng kam ifloslantiradi.

O'zbekistonda ko'mir va neftga qaraganda tabiiy gaz ancha ko'p. Aniqlangan gaz zaxiralari ikki trillion kubometrغا yaqin. Gaz konlari, odatda, neft konlari yaqinida joylashgan. Gazning kamroq qismi (yo'ldosh gaz) neft bilan birga qazib chiqariladi, lekin gazning asosiy qismi sof gaz konlaridan olinadi. Respublikamizda 40-yillarning o'rtalarida gaz sanoati vujudga kelgach, dastlab Farg'ona vodiysidagi neft konlarida uchraydigan yo'ldosh gazdan sanoatda va aholining kundalik ehtiyojida foydalanila boshlandi. O'sha yillarda O'zbekistonda jami 9 mln. kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilgan bo'lsa, endilikda yiliga qazib olinayotgan gaz 55 mlrd. kub metrdan ortadi. Tabiiy gazdan foydalanish munosabati bilan O'zbekistonga chetdan ko'mir keltirish kamaydi. Natijada respublika yoqilg'i balansida jiddiy o'zgarish yuz berdi.

**! 25-rasmdan foydalanib, 1960—1990-yillarda O'zbekiston yoqilg'i balansida gazning salmog'i necha barobar oshganligini aniqlang.**

Farg'ona vodiysidan tashqari, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida ham juda boy tabiiy gaz konlari topilishi bilan O'zbekiston o'z ehtiyojidan ortgan gazni chetga ham chiqarmoqda. Tabiiy gaz birinchi navbatda qo'shni Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalariga yuborilmoqda.

Gazni quvurlar orqali yuborish har qanday yoqilg'ini tashishdan arzon tushadi. Gaz quvurlarining uzunligi tez oshib bormoqda. Dastlabki tabiiy gaz quvurlari Farg'ona vodiysida qurilgan edi. Ikki tarmoqli Buxoro—Ural, O'zbekiston—Rossiya, Buxoro—Toshkent—Bishkek—Almati quvurlari gaz tashiladigan asosiy quvurlardir. O'zbekistonda yoz uzoq davom etishidan gaz ancha kam sarflanadi. Qish kunlari xususan, qish cho'zilib ketganda gaz ko'p talab qilinadi. Gazni ko'p iste'mol qiladigan Toshkent, Farg'ona, Andijon kabi shaharlarda yozda tejalgan gazni qishda foydalanish uchun shahar yaqinidagi yer osti omborlariga yig'ib qo'yiladi. Gaz yaxshi sifatli yoqilg'igina emas, balki kimyo sanoatining qimmatli xomashyosi hamdir. Gazga bo'lgan talab kimyo, elektr quvvati sanoatlarida hamda kommunal xo'jalikda tobora ortib bormoqda. Shunga ko'ra yaqin kelajakda ko'plab gaz chiqarish yo'llarini izlash bilan birga ishlab turgan gaz quvurlarining gaz o'tkazish imkoniyati oshiriladi.

**2. Neft sanoati.** Neftsiz hozirgi zamon iqtisodiyotini yuritish mumkin emas. Neft xom holida ishlatilmaydi. Qayta ishlash natijasida

undan turli xil yoqilg'i, ya'ni kimyoviy mahsulotlar olinadi. Neftni qayta ishlashdan chiqqan qora moy (mazut) elektr stansiyalarida yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Lekin kelajakda bunday ishlatish kamayadi. Neftni qazib chiqarish xarajati ko'mirni qazib chiqarish xarajatidan o'rta hisobda 4 barobar kam. Milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida neftdan foydalanish juda ko'p mablag'ni tejashga imkon beradi.

**Mahsulot birligini olish (hozirgi misolimizda 1 t neft qazib chiqarish) uchun ketadigan pulda ifodalangan hamma xarajat mahsulot tannarxi deyiladi.**

Neftning tannarxiga uning qanday chuqurlikda yotganligidan ko'ra kongan naqadar ko'p neft olish mumkinligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Neft qazib olishning eng arzon usuli fontan usuli bo'lib, bunda neft burg'u quduqlaridan neft-gazning bosimi ostida ko'tarilib chiqadi. Bosim asta-sekin kamayadi va uni turli usullar bilan ko'tarib turiladi. Neftni nasoslar yordamida chiqarib olish ham keng tarqalgan.

O'zbekistonda dastlabki neft qazib chiqarish asrimiz boshlariga to'g'ri keladi. Birinchi bor neft 1904-yilda Chimyon konidan olingan. Shundan so'ng Farg'ona va Andijon viloyatlarida Andijon, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Xo'jaobod konlari, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa Ko'kaydi, Uchqizil, Lalmikor, Ko'kdumaloq neft konlari ishga tushirildi. So'nggi yillarda Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham neft konlari topildi.

Ilgarigi vaqtda neft asosan qazib chiqariladigan rayonda qayta ishlanar edi. Hozirgi vaqtda esa neftni qayta ishlash sanoatini neft mahsulotlarini iste'mol qiluvchi rayonlarda to'plash bu sanoatni joylashtirishning asosiy tamoyilidir. Bunday joylashtirish transport xarajatlarini kamaytiradi, chunki bunday qilinmasa, neft mahsulotlarining har bir turini yuborish uchun alohida quvurlar kerak bo'lgan bo'lar edi.

Xuddi gaz singari neftni ham quvurlar orqali yuborish uni tashishning eng arzon va xavfsiz usulidir (temir yo'lda tashishga qaraganda 4 barobar arzonga tushadi). Quvurlar neftni iste'molchilarga bir me'yorda yetkazib berishni ta'minlaydi. Turli transport vositalariga ortish-tushirishda muqarrar bo'ladigan isrofgarchilikni yo'qotadi.



Hozir O‘zbekistonda 8—9 mln tonna yoki 1913-yildagiga nisbatan 600 barobar ko‘p neft qazib chiqarilmoqda. Bu, masalan, Turkiyada qazib olinayotgan neftdan ko‘pdir. Qazib olinayotgan neftni Farg‘ona va Oltiariq neft zavodlari qayta ishlab ulgurolmayotir. Holbuki, yaqingacha zavod quvvatidan to‘la foydalanish maqsadida Turkmanistondan temir yo‘l orqali neft keltirilardi. Jarqo‘rg‘on konidan olinadigan neftda qora moy va parafin ko‘pligidan qayta ishlanmaydi. Undan yo‘l qurilishida foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida mamlakatimizning neft muammosini yechish uchun geologiya qidiruv ishlari jadallashtirilmoqda. 1992-yilda Namangan viloyatida yana bir yirik Mingbuloq neft koni ochildi. U ham juda boy konlardan hisoblanadi. Mamlakatimizda neftga bo‘lgan ehtiyojning uzluksiz ortayotganligini hisobga olib, Buxoro viloyatida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlay oladigan kombinat qurildi. Bu korxonona 1997-yilda dastlabki mahsulotni bera boshladi.

Bizda rivojlangan mamlakatlarga nisbatan energiya iste‘mol tarkibida neft mahsulotlarining ulushi ancha yuqori. Yoqilg‘i-energetika balansida neft mahsulotlari ulushini kamaytirish uchun mavjud avtomobil va traktorlar parkini yangi tejamkor texnologiya rejimiga o‘tkazish kerak bo‘ladi. Bu esa ko‘p mablag‘ talab etadigan va qisqa muddatda amalga oshirib bo‘lmaydigan ancha murakkab vazifadir. Demak, yaqin o‘n yilliklarda neft yoqilg‘i-energetika balansida asosiy va samarali energiya hamda kimyoviy xomashyo sifatida ahamiyatini saqlab qoladi.


3. **Ko‘mir sanoati** tarkibida bir nechta ko‘mir koni ma‘lum. Ulardagi ko‘mir zaxirasi 2 mlrd tonnani tashkil etadi. Dastlabki ko‘mir Angren konidan 1950-yillarda qazib olindi. Konda ko‘mir yer betiga yaqin joylashgan. Bu esa ko‘mirning 9/10 qismini ochiq usulda qazib olish imkonini bermoqda.

Ko‘mir qazib olishning mehnat unumdorligi eng yuqori va arzonga tushadigan usuli uni ochiq usulda, karyerlardan qazib chiqarishdir. Ochiq usulda har bir shaxtyorning qazib oladigan ko‘miri shaxta usulida qazib olinadigandan 6 barobar unumli bo‘ladi. Shu bilan birga, karyer qancha katta bo‘lsa, xarajat shuncha kam bo‘ladi. Angren ko‘miri sifati past qo‘ng‘ir ko‘mirdir. Shunga qaramay, bu konda O‘zbekistondagi boshqa ko‘mir konlaridagiga nisbatan ko‘mir zaxirasi katta hamda iste‘molchiga yaqin va qazib

olish qulay bo'lganligidan ko'mir qazib chiqarish tez sur'atlarda o'sdi. Bu kondagi ko'mirning asosiy qismi kon yaqinidagi GRES da yoqilib, undan elektr quvvati olinadi. Ko'mirning yana bir qismi konda gazga aylantiriladi. Ko'mir tarkibida nodir va tarqoq elementlar hamda ko'plab gilmoya uchraydi, ulardan foydalanish esa konning samaradorligini yanada oshiradi. Biroq, ko'mir ochiq usulda qazib olinishi natijasida obikor dehqonchilikda foydalanilayotgan katta-katta yer maydonlari kon chiqindilari vajidan qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lib qolmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadida ko'mir sanoatida ilgari karyer bo'lgan joylar qayta tiklanmoqda, ya'ni rekultivatsiya qilinmoqda, shaxtalar yaqinidagi chiqindi tog' jinslar to'plamlari o'simliklar bilan mustahkamlanmoqda, ko'mirni quvurlar orqali tashish choralari ko'rilmoqda.

Ko'mirni yer ostida qazib olish qimmatga tushsa ham, bunday usulda ko'mir chiqarishni ham kengaytirish maqsadga muvofiqdir, chunki kokslanuvchi yuqori sifatli ko'mir zarur, metallurgiya va kimyo sanoati rivojlangan sari bunday ko'mirga ehtiyoj ortib bormoqda (26-rasm).



26-rasm. Milliy iqtisodiyotda ko'mirdan foydalanish.

**! Tabiiy boyliklarni qazib olishning maqsadga muvofiqligi nima bilan belgilanishini eslang.**

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida 1950-yillarda ishga tushirilgan Sharq'un konidan qazib olinadigan ko'mir yuqori sifatlidir. Ko'mirning maydasi qazib olingan joyida briket qilinadi. Ko'mir tog'lar osha uzunligi 17 km.dan ortiq osma sim yo'l orqali temir yo'lga yetkazib beriladi. Angren, Sharq'un va Boysun konlaridan yiliga 3 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib olinmoqda. Lekin bu miqdor O'zbekistonning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Ko'mirning yetmagan qismi qo'shni Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlaridan hamda qisman Rossiya Federatsiyasidan keltiriladi.

Aziz o'quvchilar! Shunday qilib, O'zbekistonda ko'mirning asosiy zaxiralari Angren, Sharq'un va Boysun konlarida joylashgan ekan.

Ko'mir sanoatiga tegishli yana bir ma'lumotni bilib qo'ying. Qazib olinayotgan ko'mirning deyarli hammasi — 96,5 foizi qo'ng'ir ko'mir, qolgan qismi toshko'mirdir. Mamlakatimizda ko'mir qazib olishning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, uning 87 foizi ochiq usulda qazib olinadi.


Shunday qilib, kelajakda yoqilg'ining arzon turlari — neft va gaz, shuningdek ochiq usulda qazib olinadigan ko'mir tobora katta ahamiyat kasb eta boradi.

- ? 1. Mamlakatimizning ko'mir, neft, gaz konlari qayerlarda joylashgan? Yoqilg'i sanoatining geografiyasi kelajakda qanday o'zgaradi?
2. Geografiya daftaringizga dastlab ishga tushirilgan eng yirik gaz konlari nomlarini yozing.

## **ELEKTROENERGETIKA**

1. Milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun elektr energiya ishlab chiqarishni boshqa tarmoqlarga qaraganda tezroq o'stirish lozim. Butun **elektr energiyaning 85 foizini issiqlik elektr stansiyalari (IES)** bermoqda (27-rasm). Ular ancha tez va arzon quriladi. Ularning quvvatini hozirgi texnika taraqqiyoti bosqichida 6 mln. kVt. dan oshirish mumkin.


Iqtisodiyot uchun elektr energiya tannarxining past bo'lishi muhimdir. Elektr energiyaning tannarxi, birinchi navbatda, elektr



27 - rasm. O'zbekistondagi elektr stansiyalari.

stansiyalarda ishlatiladigan yoqilg'ini qazib olish va tashib keltirishga qilinadigan xarajatga bog'liq. Shuning uchun elektr stansiyalarni qurish uchun joy tanlanayotganda yoqilg'ini tashib kelishga va elektr energiyani uzatib berishga ketadigan xarajatlar hisobga olinadi.

Agar yoqilg'ini tashib kelish xarajati elektr energiyani uzatish xarajatidan ortiq bo'lsa, elektr stansiyaning yoqilg'i manbaiga yaqin joyda qurish, agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, uni iste'molchiga yaqin joyda qurish foydalidir (chizmaga qarang).



Elektr energiyani uzatish mumkin bo'lgan masofa FTI sharofati bilan yil sayin uzayib bormoqda. Elektr energiyani uzoq masofaga uzatish mumkinligi, uning yoqilg'ilarning boshqa turlariga qaraganda afzalliklaridan biridir. Elektr energiyaning bu xususiyati:

- a) yoqilg'ining mahalliy turlaridan keng foydalanishga;
- b) elektr energiya ishlab chiqarishni qudratli elektr stansiyalarda to'plashga;

v) iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida elektr energiyadan foydalanishga imkon beradi.

Elektr energiya juda ko'p iste'mol qilinadigan joylarda elektr stansiyalar boshqa joylardan keltiriladigan yoqilg'iga mo'ljallab quriladi. IESlarning juda ulkanlari boshqa viloyatlarni ham ta'minlaydi va ular GRES deb yuritiladi. Mamlakatimizda Toshkent, Angren, Navoiy, Taxiatosh, Sirdaryo GRESlari mavjud. Birgina Sirdaryo GRESining o'zi O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan barcha elektr energiyaning 1/3 qismini (17 mlrd. kVt/s) beradi. Qashqadaryo viloyatidagi Tolimarjon suv ombori yaqinida quvvati deyarli 4 mln. kVt. bo'lgan Tolimarjon GRESi qurilmoqda.

Ko'pchilik IESlar elektr energiya bilan bir vaqtda issiqlik energiyasi ham ishlab chiqaradi. Bunday elektr stansiyalar **issiqlik elektr markazlari (IEM)** deb ataladi. Masalan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining IEMi va hokazo. Ularda elektr energiya ishlab chiqarish vaqtida isigan suvni issiqxonalarni, binolarni isitishga va ishlab chiqarish ehtiyojlariga yuboriladi. Lekin isigan suvni 20 km. dan ortiq masofaga yuborib bo'lmaydi, chunki u sovib qoladi. Shu sababli, IEMlar sanoat korxonalarida yaqinida va yirik shaharlarda quriladi.


**2. Hidroelektr stansiyalar (GES) da energiya ishlab chiqarish** to'xtovsiz oqib tushadigan suv oqimi kuchiga asoslanadi. Shuning uchun ham GESlar ishlab chiqargan elektr energiyaning tannarxi past bo'ladi (quvvati teng bo'lgan IESlardagidan 4 barobar past). Mamlakatimizning tog' daryolariga qurilgan GESlar eng arzon elektr energiya ishlab chiqaradi.

O'zbekistonda dastlab ko'proq GESlar qurilgan. Buni suv quvvati manbalarining mavjudligi va ayni vaqtda issiqlik elektr stansiyasiga ishlatiladigan yoqilg'i taqozo qildi. Buning ustiga GES qurilishi bilan bir yo'la gidrouzel, suv ombori kabilar ham barpo etiladi. O'zbekistonda birinchi GES 1926-yilda Bo'zsuv kanalida qurildi.

Mamlakatda qurilgan gidrouzellar — elektr energiya ishlab chiqarish, yerlarni sug'orish, xo'jaliklarni suv bilan ta'minlash, baliqchilikni rivojlantirish masalalarini bir yo'la hal etadi.

O'zbekiston daryolari tezoqar daryolar bo'lganligidan ularda oralig'i bir-biriga yaqin pog'onali (kaskadli) bir qancha GESlar qurildi. Chirchiq — Bo'zsuv pog'onasi eng yirik energetika inshooti bo'lib, undagi GESlar soni (19 ta)ga ko'ra jahonda oldingi o'rinda turadi (28-rangli rasm). O'zbek va tojik xalqlari hamkorligida Sirdaryoda qurilgan „Xalqlar do'stligi“ nomli Qayroqqum GESi (Tojikiston hududida), Darg'om kanalida Xishrav GRESi va Tuyamo'yin, Farhod, Xo'jakent GESlari mamlakat sanoatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Endilikda O'zbekiston GESlarida elektr quvvatlarini ishlab chiqarish barcha elektr stansiyalarida elektr quvvati ishlab chiqarishning 14,5 foizini tashkil etmoqda. Mamlakatda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning asosiy qismi ikki viloyat—Sirdaryo (31,2 foiz), Toshkent (40,9 foiz)ga to'g'ri keladi.

**3. Elektr energiya hosil qilishning boshqa yo'llari.** Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida atom elektr stansiyalari (AESlar) qurilgan. Bu elektr stansiyalar urandan foydalanadi. 1 kg uran (shartli uran yoqilg'isi) 2,5 ming t ko'mir yonganda beradigan miqdorda issiqlik beradi. **AESlar o'zining energetika bazasi bo'lmagan va yoqilg'i qimmat, lekin elektr energiya ko'p talab qilinadigan joylarda quriladi.** AESlarda elektr energiya hosil qilish iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali bo'lsa-da, ammo ulardagi nosozlik yoki tasodif tufayli butun mavjudotning halokatiga sabab



28- rasm. O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish kaskadlari.

bo'luvchi radioaktiv nurlanish o'ta xavflidir. Masalan, Ukrainadagi Chernobil AESida 1986-yil sodir bo'lgan falokat oqibatida juda katta hudud, atrofdagi butun borliq radioaktiv nurlanish ostida qoldi. Uning asoratidan hanuz aziyat chekilmoqda. Shu bois samarali, ayni vaqtda xatarli bo'lgan atom energiyasidan bizda foydalanilmaydi.

Energiyaning yangi manbalarini topish va o'zlashtirish borasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ana shunday energiya manbalaridan biri **Quyosh energiyasidir**. Toshkent viloyatining Parkent rayonida ana shunday „Fizika — Quyosh“ inshooti qurib ishga tushirildi. Geotermal (issiq suv) va shamol energiyalaridan elektr hosil qilish O'zbekistonda yo'lga qo'yilmoqda.


4. Mamlakatimizda elektrlashtirishning eng muhim xususiyati energetika tizimlarining bunyod etilishidir. **Yuqori voltli elektr uzatish liniyalari bilan birlashtirilgan va bir markazdan boshqarib turiladigan turli xildagi elektr stansiyalar energetika tizimi deb ataladi**. Energetika tizimlari katta hududdagi korxonalar va aholi manzilgohlarini elektr energiya bilan uzluksiz ta'minlab turadi. Energetika tizimida yil fasllaridan va sutkaning har qanday vaqtdan qat'i nazar iste'molchilar elektr energiya bilan bir maromda muntazam ta'minlab turiladi.

O'zbekistonning hamma viloyatlaridagi yirik elektr stansiyalari o'zaro birlashtirilib, **Yagona energetika tizimi** bunyod etildi. O'zbekiston yagona energetika tizimi Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston energetika tizimlari bilan birlashib, O'rta Osiyoning yagona energetika tizimini tashkil etadi. Bu O'zbekistonnigina emas, balki qo'shni davlatlarning ayrim viloyatlari iqtisodiyotini ham yuksaltirish imkoniyatini bermoqda.

Endilikda O'zbekistondagi jami elektr stansiyalarda yiliga Turkiyadagiga barobar, ya'ni 45 mlrd. kVt/s dan ortiq elektr energiya hosil qilinmoqda (29-rasm). Uning 1/3 qismi qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda. Demak, elektr energetikasining tarmoqlararo aloqadorligi yoqilg'i-energetika-kimyo majmuasi doirasidan tashqari agrosanoat majmuasini ham qamragan.

- ? 1. *Tabiiy gaz bilan ishlaydigan GRESlardan 5 tasining nomini va qayerdaligini ayting.*
2. *Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi? O'zbekistonning turli joylarida ishlab chiqariladigan elektr energiyaning tannarxi bir xil emasligiga sabab nima?*





29-rasm. O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarishning o'lishi (mlrd kVt/soat).

3. Energetika tizimi nima? U qanday iqtisodiy foyda keltiradi?
4. Uyingizni yoritayotgan elektr quvvati qaysi elektr stansiyasida hosil qilinayotganini o'ylab ko'ring.

## KIMYO SANOATI

Kimyo sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining yosh tarmog'idir. Uning mahsuloti mashinasozlik (plastmassa, oyna), to'qimachilik sanoati (tola, bo'yoqlar), qishloq xo'jaligi (o'g'itlar, zaharli ximikatlar), transport (motor yoqilg'isi, surtish moyi, sintetik kauchuk), qurilish (yopishqoq plyonka, oyna, plastik) kabilarda ishlatiladi.

O'zbekiston kimyo sanoati tarkibida dehqonchilik uchun mineral o'g'itlar ishlab chiqarish salmoqli o'rin egallaydi. Shuningdek, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi defoliantlar ham ishlab chiqariladi.

O'z navbatida rangli metallurgiya chiqindisi, gaz sanoati hamda paxtachilik kimyo sanoatini xomashyo bilan ta'minlaydi. Kimyo

sanoati boshqa tarmoqlarning chiqindilarini qayta ishlab, xo‘jalikni xomashyo va materiallar bilan ta‘minlar ekan, o‘zi ham energiya, jihozlar, transportga muhtojdir. Shularning o‘zidanoq kimyo sanoati tarmoqlararo va majmualararo aloqadorlikda ekanini hamda ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi va joylashishiga ta‘sir ko‘rsatishini anglash mumkin.

Kimyo sanoati bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. **Birinchidan**, bu tarmoq ko‘p sifatlarga ko‘ra tabiiy mahsulotlardan ustun turuvchi **yangi materiallar** yaratadi. Bu materiallarning qo‘llanilishi kishilar mehnatini va qishloq xo‘jaligi xomashyosini tejaydi. Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarf qilinadi.

**Ikkinchidan**, kimyo sanoati ishlab chiqarishni **kombinatlashtirishda** katta imkoniyatga ega. Chunonchi, ko‘mir, neft, gaz, slanets, torfdan bir vaqtning o‘zida ham energiya, ham qimmatli kimyo mahsulotlari (benzin, parafin) olish uchun foydalanish energetika-kimyo kombinatlari qurishga olib keladi.

**Uchinchidan**, kimyo sanoati juda keng xomashyo bazasiga ega: u turli xil foydali qazilmalar, yog‘och, suv, havodan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanadi. Lekin bu sanoat uchun neftni qayta ishlash, ko‘mirni kokslash chiqindilari, ya‘ni „maxsus tayyorlangan chiqindilar“ asosiy xomashyo bo‘lib qolmoqda.

Boshqa sanoat tarmoqlari bilan kombinatlashish va turli xil xomashyolardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi kimyo sanoati korxonalarini hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo ishlab chiqarishlari energiya va suvni ko‘p ishlatish hamda bundan ham muhimi, atrof muhitga sanitariya va gigiyena jihatidan salbiy ta‘sir ko‘rsatishi sababidan ularni hamma joyda ham qurish maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi.

Kimyo sanoati bir qancha tarmoqlardan iborat. Bular: 1) tog‘-kimyo (mineral xomashyoni qazib chiqarish); 2) asosiy kimyo (kimyoviy tuzlar, kislotalar, mineral o‘g‘itlar olish); 3) organik sintez kimyosi (yarim fabrikatlar ishlab chiqarish); 4) polimerlar kimyosi (plastmassalar, kauchuk, turli xil tolalar tayyorlash); 5) polimer materiallarga ishlov berish (shinalar, polietilen plyonkalar tayyorlash).

O‘zbekistonda shu tarmoqlarning deyarli barchasi mavjud. Respublika kimyo sanoatining to‘ng‘ich korxonasi — Chirchiq

elektrkimyo kombinati 1940-yilda ishga tushgan. Chirchiq elektrkimyo kombinati dastlab havo tarkibidagi azotdan elektr quvvati vositasida azotli o'g'it ishlab chiqargan. Buxoro viloyatida topilgan tabiiy gaz quvurda Chirchiqqa keltirilgach, elektrkimyo kombinati gaz xomashyosi bilan ishlaydigan bo'ldi. Natijada kimyo sanoatining yoqilg'i sanoati bilan bog'liqligi kuchaydi. Tabiiy gazdan foydalanish kombinatning mahsulot ishlab chiqarishini ikki barobar ko'paytirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirish imkonini berdi.

Kombinatda azotli o'g'itdan tashqari, g'o'za bargini to'kishda qo'llaniladigan kimyoviy modda — magniy xlorit hamda plastmassa va sintetik tolalar ishlash uchun organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Tabiiy gaz asosida azotli o'g'it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar Farg'ona va Navoiy shaharlarida ham barpo etildi.

1946-yilda Qo'qonda, 1957-yilda Samarqandda superfosfat zavodi ishga tushdi. Hozirgi vaqtda Qizilqum fosforit kombinati qurilmoqda. Unda 2,7 million tonna fosforit konsentrati olinadi. Biroq zaxirasi 300 million tonnaga yaqin bo'lgan fosforit konlaridan deyarli foydalanilmayotir.

Respublikamiz tosh tuzi konlariga ham boy. Xo'jaykon, Tubakat, Borsakelmas, Boybichakon va Oqqal'a konlarida 90 milliard tonna xomashyo bor.

Olmaliqda yuqori sifatli ammofos (tarkibida azot va fosfor bor o'g'it) ishlab chiqaruvchi zavod barpo etildi.

Toshkentda Sovplastital, Angrenda rezina ishlab chiqaradigan kimyo korxonalari mavjud.

O'zbekistonda tabiiy gazdan yoqilg'i o'rnida ham, xomashyo o'rnida ham foydalanish samaralidir. O'zbekistonda tabiiy gazdan kimyoviy tola ishlab chiqarish, masalan, Rossiya Federatsiyasidagidan 40—50 foiz arzoniga tushadi. Mamlakatimizning Gazli, Muborak, Uchqir, Odamtosh, Sho'rton kabi tabiiy gaz konlaridan olinayotgan gaz yuqori kondensatliligi bilan ajralib turadi. Gaz kondensati organik sintezning asosidir. Uning har tonnasidan 50 kg sun'iy kauchuk, 150 kg plastik massa, 150 kg sun'iy tola, 100 kg erituvchi modda, 400 kg motor yoqilg'isi olish mumkin. Gaz kondensatlaridan yanada keng foydalanish tadbirlari ko'rilmoqda.

Muborakda tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurtni ajratib oladigan zavod qurildi. G'ozapoya, g'oz bargi, kanop va hatto lint chiqindilaridan kimyo sanoatida xomashyo sifatida foydalansa bo'ladi. Biroq har yili paxta terib olingandan so'ng qoladigan 5—6 mln. tonna g'ozapoyani hozirgacha asosan yoqilg'iga ishlatilmoqda. Olimlarning aniqlashicha, g'ozapoyaning har tonnasidan 700 kg furfurol, 40 l etil spirti yoki 250 kg ozuqa achitqi olish mumkin. Paxta bargidan esa limon va olma kislotalari olsa bo'ladi. Farg'ona, Andijon, Yangiyo'l gidroliz zavodlarida chigit po'stlog'i (sheluxa)dan texnik spirt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Rangli metallurgiya korxonalarida chiqindisidan sulfat kislotasi olinadi. Popdagi rezina zavodida kalish, rezina quvurlar, turli xil mashina va mexanizmlar uchun rezina qismlar ishlab chiqarilmoqda. Jizzaxdagi zavod esa polietilen plyonkalar hamda rezina quvurlar ishlab chiqarmoqda.

Qazib olinayotgan oltingugurt kolchedani, marganets, bariy, talk, ohaktosh singari minerallar kimyo sanoati turli tarmoqlarining ehtiyojini qondirmoqda. Respublikamizda lok-bo'yoq sanoati, sun'iy tola va to'qimalar (Farg'onada), sun'iy charm va sun'iy jun ishlab chiqariladigan zavodlar quvvati oshiriladi.

?

1. *Kimyo sanoati boshqa tarmoqlardan nimalari bilan farq qiladi?*
2. *O'zbekistonda kimyo korxonalarini joylashtirishda qanday omillar hisobga olingan?*
3. *Mamlakatimizda chetdan keltiriladigan xomashyo bilan ishlaydigan kimyo korxonalarini ayting va ularni xaritadan ko'rsating.*
4. *Sizning viloyatingiz (tumaningiz)da kimyo sanoati korxonalarini bormi? Bor bo'lsa, ular qanday xomashyodan foydalanadi?*
5. *Geografiya daftaringizga yoqilg'i-energetika-kimyo majmuasining tarxini chizing.*

## 15-§. Metallurgiya majmuasi

Metallurgiya majmuasi ikki tarmoqni: qora metallurgiya va rangli metallurgiyani o'z ichiga oladi.

### QORA METALLURGIYA

Qora metallurgiya — temir rudasi qazib chiqarish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat.

Hozirgi zamon metallurgiyasi uchun, birinchidan, metallning asosiy qismini metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqarish xarakterlidir.

**Kombinatlashtirish — sanoatning texnologik jarayon jihatidan o'zaro bog'langan, ba'zan turli tarmoqlarga taalluqli bo'lgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining bir korxonaga birlashtirilishidir.**

Metallurgiyada xomashyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinatlarning hissasi katta bo'ladi. Chunki kombinatlarda bir yo'la temir rudasidan domna pechlarida cho'yan eritib olinadi, suyuq cho'yan va temir-tersakdan (metallolomdan) po'lat erituvchi pechlarda (marten, konverter, elektr pechlarda) po'lat eritiladi, po'latdan esa tayyor mahsulot — prokat olinadi.

Ikkinchidan, metallurgiyadagi fan-texnika taraqqiyoti metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, unumliroq usullarini joriy qilishga olib kelmoqdaki, bu po'lat sifatini oshirishni va eng muhimi, oxirgi mahsulot — prokatning xilma-xil turlarini olishni ta'minlaydi. Metall olishning eng yangi usuli metallni domnasiz, ya'ni rudani eritmay undan metallni ajratib olishdir.

Uchinchidan, qora metallurgiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi to'xtovsiz o'sib boradi.

Metallurgiya kombinatlari ko'p miqdorda xomashyo va yoqilg'i ishlatadi. Shu sababli metallurgiya kombinatlari xomashyo yoki yoqilg'i bazalari yaqinida, ba'zan ular oralig'ida quriladi. Bu to'liq siklli metallurgiya korxonalarini (kombinatlarni) joylashtirishning eng muhim tamoyillaridir. Bu korxonalarni joylashtirishda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish zarurligi ham e'tiborga olinadi.

O'zbekistonda dastlabki metallurgiya korxonasi — Bekobod metallurgiya zavodi 1946-yilda ishga tushirilgan. Zavodda 3 ta marten pechi, prokat sexi, metall quyadigan termik sex va bir qancha yordamchi korxonalar bor. Keyingi vaqtlarda zavodning marten pechlari elektropechlarga aylantirildi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari assortimenti, respublika ehtiyojidan kelib chiqib ancha boyitildi.

Zavodda po‘lat va prokat ishlab chiqarish ortib bormoqda. 1950-yilda 119 ming tonna po‘lat eritilgan, 76 ming tonna tayyor prokat ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1999- yilda eritilgan po‘lat 356 ming tonnadan va tayyor prokat 325 ming tonnadan ortib ketdi. Shunga qaramay zavod respublikaning metallga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmayotir. Natijada qo‘shni davlatlardan ko‘plab metall keltirishga majbur bo‘linmoqda.

O‘zbekistonda temir rudasi va marganetsning zaxiralari ma‘lum, ammo hozircha foydalanishga kirishilgani yo‘q. Samarqand, Qoraqalpog‘iston va Markaziy Qizilqumda temir ruda va marganets ruda konlarini qidirib topish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga temir-tersak yig‘ish va uni qayta ishlashni ko‘paytirishga aloqador korxonalar Urganch, Boyovut, Qarshi, Kitob, Denov va Taxiatoshdada bunyod qilinmoqda.

### RANGLI METALLURGIYA

Rangli metallurgiya: a) rangli metallarni qazib chiqarish, b) boyitish, v) eritish hamda g) qotishmalar ishlab chiqarishni o‘zida birlashtiradi. Rangli metallurgiya fan-texnika inqilobi davrida mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun, atom texnikasi, aviatsiya, raketasozlikni rivojlantirish, shuningdek mashinasozlikning boshqa tarmoqlari va kimyo sanoati uchun juda katta ahamiyatga egadir. Rangli metallar qimmatli xususiyatlarga ega. Ularning ba‘zilari (qalayi, qo‘rg‘oshin, nikel) zanglash (korroziya)ga chidamli, boshqalari (titan, volfram) issiqqa bardoshli yoki elektr tokini yaxshi o‘tkazadi (aluminium, mis, kumush, oltin). Rangli metallar bir qancha guruhlariga bo‘linadi (5-jadval).

*5-jadval*

#### Rangli metallarning guruhlari

Asosiy guruhlar			Boshqa guruhlar	
og‘ir metallar	yengil metallar	qimmatbaho metallar	qiyin eruvchi metallar	nodir metallar
mis, qalayi, qo‘rg‘oshin, nikel, rux	aluminium, magniy, titan	oltin, kumush, platina	volfram, molibden	uran, germaniy va boshqalar

Bu bo‘linish asosida rangli metallurgiya yengil metallar metallurgiyasi, og‘ir metallar metallurgiyasi va boshqalarga bo‘linadi. Ilgarigi vaqtda O‘zbekistonda faqat qimmatbaho metallar qazib chiqarilgan bo‘lsa, endilikda og‘ir metallarni ham, qiyin eruvchi metallarni ham ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

**Bularni olish uchun eritiladigan metall birligiga hisoblaganda juda ko‘p elektr energiya talab qilinadi. Bunday ishlab chiqarishlar ko‘p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deyiladi.**

Umuman rangli metallurgiya sanoati uchun respublikamizda rangli va nodir metallar — oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden, xrom va boshqa metall rudalarining zaxirasi ko‘p. Faqat mis konlarining o‘zi 15 tadan ortadi. Ilgari qazib olingan ushbu ruda boshqa respublikalarda qayta ishlovdan o‘tar edi.

**! Xaritadan mis konlarining o‘rnini aniqlang.**

Angren—Olmaliq kon sanoati rayoni mamlakatimiz rangli metallurgiya sanoatida alohida ahamiyatga egadir. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin, kumush kabilar birga uchraydi. Bu yerda mis eritish zavodi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati ishlab turibdi. Kombinat Qalmoqqirkon, Qo‘rg‘oshinkon konlari, qo‘rg‘oshin-rux boyitish fabrikasi, elektr stansiyasi va bir qancha yordamchi korxonalaridan iborat. Bu yerda kon topilishi bilan konchilarning obod shahri Olmaliq barpo bo‘ldi.

Rangli metallurgiyaning asosiy tarmoqlari — volfram va molibden ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Chirchiq vodiysidagi qiyin eriydigan qattiq qotishmalar zavodi mamlakatdagi nihoyatda muhim korxonalaridan hisoblanadi. Bu korxonada mahsulotidan elektrtexnika, mashinasozlik, asbobsozlik va boshqa sanoat tarmoqlarida keng foydalaniladi.

Ohangaron ko‘mir havzasida kaolin gilining zaxiralari katta bo‘lib, u aluminiy sanoati uchun xomashyodir. Toshkent viloyatidagi O‘rta Chirchiq plavik shpat kombinatida esa elektroliz usulida aluminiy olishda zarur bo‘lgan plavik shpat tayyorlanadi.

Qadim zamonlarda Samarqand bilan Buxoro oralig‘idagi tog‘lardan oltin qazib olingan. X—XIII asrlarda kon sanoati o‘z zamoniga xos rivojlangan. O‘zbek olimlarining izlanishlari asosida

Muruntov, Nurota tog'larida yangi oltin konlari aniqlandi. Muruntov, Chordoq, Zarmiton, Qo'shbuloq, Qizilolma, Marjonbuloq oltin saralash fabrikalari mahsulot berib turibdi. 1969-yili dastlabki oltin yombisi quyildi. Bu konlardan olinayotgan oltin tannarxiga ko'ra jahonda eng arzon hisoblanadi. Muruntov koni O'zbekistondagina emas, Yevrosiyodagi oltin konlari ichida eng kattasi bo'lib, ruda qazib olingan joy hajmi 2x4 km va chuqurligi 400 metrdan ortiq afsonaviy o'rani eslatadi.

Metallar xo'jalikda turli maqsadlarda ishlatiladi. Mis sof holda ham, qalayi bilan (bronza), nikel bilan (melxior), alyuminiy bilan (duraluminiy), rux bilan (latun) qotishma holda ham elektrotexnikada va mashinasozlikda keng foydalaniladi. Qo'rg'oshin akkumulyatorlar, elektr kabellari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Nikelning 80 foizdan ortig'i qora metallurgiya sanoatida ishlatiladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalaydan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalaniladi. Respublikada kumush, uran, volfram va boshqa qimmatbaho ruda konlari ham bor.


Metallurgiya sanoati chiqindilari atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bu chiqindilarni to'liq ishlov berib foydali mahsulotlarga (masalan, shlakli qurilish materialiga) aylantirish, zararsizlantirish, atmosferaga va suv havzalariga chiqadigan chiqindilarni tozalash zarur.

1. Qanday metallurgiya korxonalari to'la sikldagi zavodlar yoki kombinatlar deyiladi?
2. Maktabingizda to'plangan temir-tersak qayerga, qanday transportda tashilishini o'ylab ko'ring. So'ng temir-tersak bosib o'tadigan yo'lni xaritada aniqlang.
3. Metallurgiya majmuasiga aloqador korxonalardan qaysi biri ekologik muammoni nihoyatda keskinlashtirmoqda? Bu korxonada tabiatni bulg'amasligi uchun qanday tadbirni taklif qilasiz?
4. Rangli metallurgiya xomashyosiga majmual ishlov beruvchi kombinatlarni qurishning foydali ekanligiga sabab nima?
5. Metallurgiya majmuasi iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari bilan aloqadorligini geografiya daftaringizga chizib ko'rsating.

## 16-§. Mashinasozlik majmuasi

Bu majmua milliy iqtisodiyot uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi o'zaro bog'langan tarmoqlar tizimidan iborat (30-rasm).





30-rasm. Mashinasozlik tarmoqlari.

Mashinasozlik boshqa tarmoqlarga qaraganda tezroq rivojlanmoqda, chunki iqtisodiyotning hech bir tarmog'i mashinalar bilan o'z vaqtida ta'minlanmasdan turib rivojlana olmaydi (ilovadagi 7-jadval).

Mashinasozlik korxonalarini hudud bo'ylab joylashtirish nimalarga bog'liq? Hozirgi zamon mashinasini tayyorlash uchun ko'p miqdorda metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'och-taxta kerak bo'ladi. Mashinalar yuzlab, hatto minglab detallardan tayyorlanadi. Chunonchi, bir samolyot 120 ming dona detaldan ishlanadi. Bu detallarning hammasini bittagina zavodda yasash noqulay va samarasizdir.

Shu sababli mashinasozlikda **detallar yasashga ixtisoslashish**, ya'ni tayyor mahsulotning ayrim detallari va qismlarini yasashga, shuningdek, **buyumlar yasashga ixtisoslashish**, ya'ni tayyor mahsulot (avtomobil, traktor, stanok) ishlab chiqarish ustuvor bo'ladi.

Binobarin, xomashyoning xilma-xilligi va mashinalar tuzilishining xususiyatlari ayrim detallarni ishlab chiqaruvchi ko'pdan-ko'p mashinasozlik zavodlarining bir-birlari bilan, shuningdek, boshqa tarmoqlarning metall, plastmassa, rezina va hokazolarni yetkazib beruvchi korxonalarini bilan **ishlab chiqarish aloqalari** bo'lishini, ya'ni **kooperativlashishlarini** talab qiladi.

Bunday aloqalarni transport tizimi takomillashgan sharoitdagina amalga oshirish mumkin, chunki barcha zaruriy material bir joyda to'plangan manzilgohni topish qiyin.

Shu sababli qulay transport magistrallarining mavjudligi mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda albatta hisobga olinadi.

Mashinasozlik qimmatbaho mahsulot beradi. O'rta hisobda olganda mashinaning tannarxi shu mashina yasashga sarflangan xomashyo-metall tannarxidan yuzlab marta ortiq bo'ladi. Mashina tannarxining kattagina qismini ishchilar maoshi tashkil etadi, chunki mashina yasash murakkab jarayon bo'lib, yuqori malakali mehnatni talab qiladi.

Shu sababli mashinasozlikni joylashtirishda malakali ishchi va ilmiy-texnik kadrlar miqdorining yetarli bo'lishi ham hisobga olinadi.

Mashinasozlikning turli tarmoqlari bir xil miqdorda metall ishlatmaydi. Agar bir dona mashinani yasash uchun ko'p metall (yoki boshqa ko'p material) kerak bo'lsa, bunday mashinasozlikni ko'p metall (yoki ko'p material) talab qiluvchi mashinasozlik deyiladi. Shaxta va metallurgiya asbob-uskunalari, temir yo'l vagonlari ishlab chiqarish bunday tarmoq uchun misol bo'ladi.

Shu sababli mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchining yaqinligi va metallurgiya bazasi ham hisobga olinadi.

Agar ishlab chiqarish jarayonlarining bir qismini avtomatlar bajaradigan bo'lsa, mashinasozlik buyumlarining tannarxi arzonlashadi. Avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi va mashinalar yasashga ketadigan xarajatni kamaytiradi. Lekin u ko'p miqdorda elektr energiya talab qiladi. Mashinasozlik zavodlari elektr energiyaning yirik iste'molchilari hisoblanadi.

Shunday qilib, sarf qilinadigan material va malakali mehnat miqdori, shuningdek, xomashyo hamda tayyor mashinalarni tashish sharoiti mashinasozlik zavodlarini: a) transport magistrallari; b) malakali kadrlar; v) iste'molchilar; g) yirik metallurgiya korxonalari mavjud yerlarda joylashtirish tamoyillarini belgilab beradi.

## MASHINASOZLIKNING TARAQQIYOTI

Asrimiz boshlarida O'zbekistonda mashinasozlik hunarmandchilik bosqichida bo'lgan. Faqat Toshkentdagi Bosh temir yo'l ustaxonalari o'sha davrning eng yirik korxonalaridan hisoblangan. Endilikda yirik mashinasozlik korxonalarining o'zi 100 tadan ortadi. Ma'lumki, O'zbekiston paxta, pilla, kanop yetishtirish va ularni qayta ishlash singari tarmoqlarga ixtisoslashgan, ular esa juda ko'p qo'l mehnatini talab etadi.

Shu sababli respublikamizda avvalo qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan sohalarini mexanizatsiyalashtirishga xizmat qiluvchi, ya'ni yerni haydash, ekish, ekinlarga ishlov berish, hosilni yig'ib olish va tayyor xomashyoni qayta ishlashda qo'llanadigan mashina va asboblarni ishlab beradigan mashinasozlik tarmoqlari vujudga keldi.

Endilikda bu tarmoqlar faqat O'zbekistondagi paxtachilik, pillachilik va kanop yetishtirish tarmoqlarigagina emas, balki paxta yetishtiruvchi boshqa mamlakatlarga ham mashina va mexanizmlar yetkazib bermoqda. O'zbekiston paxta terish kombaynlari ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Toshkentdagi „Toshqishloqmash“, „O'zbekqishloqmash“ va Chirchiqdagi „Chirchiqqishloqmash“ kabi zavodlar **qishloq xo'jaligi mashinasozligining** asosiy korxonalaridir. Bu zavodlar paxtachilik uchun traktor seyalkalari, kultivatorlar, g'o'zapoya yuladigan, ko'rak teradigan va chuviydigan, o'g'it aralashtiradigan, qishloq xo'jaligi zararkunandalarini yo'qotishda zaharli moddalarni purkaydigan mashinalar ishlab chiqaradi.

Suv omborlari, kanallar qurilishi va ularni loyqadan tozalashda, suvni yuqoriga ko'tarishda, umuman irrigatsiyada qo'llanadigan mashinalar ishlab chiqaruvchi **irrigatsiya mashinasozligi** ham agrosanoat majmuasi ehtiyoji orqasidan vujudga keldi. Irrigatsiya mashinasozligining markazi Andijon viloyati hisoblanadi.

Paxtachilik rivojlangan sayin traktorlarga, paxta tashiydigan mashina va mexanizmlarga ehtiyoj orta bordi. Shuning uchun Toshkent traktor zavodi—TTZ (sobiq „Toshavtomash“)da universal traktorlar, paxtani qop-qanorsiz tashishga mo'ljallangan ag'darma tirkamalar ishlab chiqarila boshlandi. Zavodning Asaka (Andijon viloyati)da filiali bo'lib, u ham tirkamalar ishlab chiqarardi. Shu zavod asosida Janubiy Koreyaning „DEU“

kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 200 ming dona yengil mashina ishlab chiqaruvchi avtomobil zavodi (1996-yil) ishga tushirildi. Bu zavodning foydalanishga topshirilishi O'zbekistonda **transport mashinasozligini** yanada yuksalishiga olib keldi.

[Toshkent, Andijon, Samarqand va Kattaqo'rg'onda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik zavodlari joylashgan. Milliy iqtisodiyotda, ayniqsa qishloq xo'jaligida mashina va mexanizmlar ko'plab qo'llanayotganidan ularga ehtiyot qismlar yetkazib beradigan hamda sozlaydigan korxonalar deyarli barcha viloyatlarda barpo etilgan. Samarqanddagi „Paxtamash“ zavodi ehtiyot qismlar ishlab chiqaradigan korxonalarining eng yirigidir.

So'nggi yillarda mashinasozlik majmuasining yuksalishi bilan tarmoq ichidagi bog'liqlik juda kuchayib ketdi. To'qimachilik sanoatining vujudga kelib rivojlanishi to'quv dastgohlariga va boshqa turli xil to'qimachilik mexanizmlari hamda asboblariga ehtiyojni oshirib yubordi. Shundan so'ng Toshkent va Qo'qonda to'qimachilik mashinasozligi zavodlari barpo etildi. Ularning mahsuloti ko'pgina xorijiy mamlakatlarda ham ma'lum.

Chirchiq shahridagi O'zbekiston kimyo mashinasozligi zavodi kimyo korxonalarini uchun uskunalar ishlab chiqaradi. O'zbekistonda ko'p qavatli binolar qurilishi kengayib borayotgani sababli Samarqandda lift zavodi barpo etildi.

Mamlakatimizda mis, rux, kremniy, kaolin, kvarts qumi, tabiiy gaz kabi tabiiy boyliklarning hamda ishchi kuchining ko'pligi **elektrotexnika mashinasozligining** tarkib topishiga imkon berdi. Toshkentdagi kabel zavodi (hozirgi „O'zkabel“ Davlat aksionerlik jamiyati), „O'zelektroapparat“ aksionerlik jamiyati, Andijondagi „Elektroapparat“ va „Andijonkabel“ hamda boshqa zavodlarning mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining texnika bilan ta'minlanishini yaxshiladi, ma'muriy boshqaruv ishlarini dasturlashtirib, boshqaruv apparatini qisqartirish imkonini oshirdi. Toshkentda zamonaviy televizor va EHMlari ishlab chiqaradigan „Algoritm“ hamda televizor va videotexnika jihozlari ishlab chiqaradigan „Zenit“ zavodlari ishga tushirildi.

„Zenit“ zavodi 1991-yildan Janubiy Koreyaning „Goldstar“ firmasi bilan hamkorlikda videomagnitofon va videopleyerlar,

XXRning Sinszyan viloyatidagi 1-radio zavodi bilan hamkorlikda rangli televizorlar ishlab chiqarishni yo'lgaga qo'ydi.

Asrimiz o'rtalarigacha O'zbekiston mashinasozligi bir tomonlama rivojlangan bo'lib, butkul qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaruvchi va ularni sozlovchi hamda paxtani qayta ishlovchi korxonalariga mashina va uskunalar yetkazib bergan edi. Endilikda esa respublika mashinasozligini faqatgina yarmi agrosanoat majmuasi bilan bog'liq. Ikkinchi Jahon urushi yillarida harbiy zaruriyat taqozosi bilan sobiq Ittifoq g'arbidan respublikamizga ko'pgina mashinasozlik korxonalari ko'chirib keltirildi. Bu hol mashinasozlik tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy joylashuviga jiddiy ta'sir etdi. Urushdan so'ng O'zbekiston mashinasozligida an'anaviy tarmoqlarni rivojlantirish bilan bir qatorda oz metall va ko'p mehnattalab tarmoqlar jadal rivojlandi. Natijada, O'zbekistonda ko'p tarmoqli mashinasozlik tarkib topdi.

Mashinasozlikning jadal yuksalishi barcha ishlab chiqarish jarayonida texnika qo'llanilishini tezlashtirsa-da, ammo ayrim sohalarda ijtimoiy muammolarni chuqurlashtirdi. Jumladan, qishloq xo'jaligida qo'l mehnati o'rnini mashinalar egallashi tufayli talay ish kuchi ortiqcha bo'lib qoldi. Qishloq xo'jaligidan bo'shaganlarning mehnat malakalari mashinasozlik sohasidagi kasbkorliklarga to'g'ri kelmaganidan ular ishsizlar safini to'ldirmoqda. Ayni vaqtda mashinasozlik korxonalarida ishlovchilarning umumiy sonida yerli xalq vakillari salmog'i hamon oz. Bu yechimini kutayotgan muammodir.

- ? 1. *Aziz o'quvchi, shu muammoni hal etish yo'li haqida sinfdoshlaringiz bilan fikrlashib ko'ring. So'ng fikringizni o'qituvchingizga ayting.*
2. *Mashinasozlik iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan aloqadorligiga misollar keltiring.*
3. *Tumaningizda mashinasozlikning qanday korxonalari bor?*
4. *Mashinasozlik majmuasi tarmoqlarining o'rni kelajakda qanday bo'ladi? Yanada ko'proq rivojlanuvchi tarmoqlarni aytib bering.*

## **17-§. Binokorlik materiallari majmuasi**

Binokorlik materiallari ishlab chiqarish uchun respublikamizda ohaktosh, gil, qum, asbest, marmar, bo'r, shag'al, granit va boshqa xilma-xil xomashyo boyliklari ko'p. Binokorlik materiallari majmuasi milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bilan

aloqadadir. Zavod va fabrikalar, uy-joylar, yo‘llar hamda irrigatsiya inshootlarining ko‘plab barpo etilishi bilan binokorlik materiallariga talab ortib bormoqda.

Binokorlik uchun eng muhim bo‘lgan sement Quvasoy, Ohangaron, Angren, Navoiy va Bekobod shaharlarida ishlab chiqarilmoqda. Ohangaron va Navoiy sement kombinatlari eng yirik kombinatlar hisoblanadi. Angren gilmoyasi negizida bezakbop oq sement ishlab chiqariladi. Respublikaning ko‘pgina shaharlarida mexanizatsiyalashtirilgan g‘isht zavodlari bor.

O‘zbekiston chiroyli va pishiq marmarga boy. Respublikada topilgan 34 ta marmar konining 5 tasidan marmar qazib olinmoqda.

*! O‘zbekistonning tabiiy boyliklari xaritasidan marmar konlari qayerlarda joylashganligini aniqlang.*

G‘azg‘on koni marmar zaxirasining ko‘pligi, yuqori sifatligi jihatidan jahondagi eng mashhur konlardan biridir. Undan qazib olingan marmar sobiq Ittifoq davrida boshqa mahsulotlar kabi Markazga tashib ketilardi. Moskva, Sankt-Peterburg shaharlaridagi metropolitenning ko‘pchilik bekatlari va boshqa inshootlar G‘azg‘on marmari bilan bezalgan. Toshkentdagi A. Navoiy nomli opera va balet teatri, „Toshkent“, „O‘zbekiston“, „Chorsu“ kabi mehmonxonalar, Toshkent metropoliteni hamda boshqa ko‘pgina ulug‘vor madaniy-maishiy binolar qurilishiga ham shu kon marmarlari ishlatilgan.

Orkutsoy koni Toshkent shahridan 74 km shimoli-sharqda joylashgan. Unda qora, oq va kul rang marmar uchraydi. Toshkent va G‘azalkent marmar zavodlarida marmarga parдоз beriladi.

Bezakbop toshlarning umumiy zaxiralari 85 million kubometr dan ortadi. Ular toshni qayta ishlaydigan korxonalarni yuz yillar davomida xomashyo bilan ta‘minlaydi.

Chirchiq shahri yaqinida mahalliy xomashyo asosida deraza oynalari ishlab chiqaradigan zavod bor. Hozirgi zamon sanoat qurilishining asosi temir-betondir. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida temir-beton buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Xorazm, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida silikat bloklari ishlab chiqaradigan zavodlar qurilgan. Jizzaxdagi silikalsit zavodi Mir-

zacho‘l xo‘jaliklari, shaharlari va shaharchalari uchun devor bloklari, panellar, pardevorlar, zinapoyalar va boshqa silikalsit buyumlari ishlab chiqaradi. Inshootlarni tayyor qismlardan qurish tobora keng qo‘llanilmoqda. Bino, ko‘prik, yo‘l va boshqa inshootlar uchun barcha qismlar maxsus zavodlarda tayyorlanadi. Bu hol binokorlik materiallarini tejash, texnikadan unumli foydalanish va nihoyat, qurilish sur‘atini jadallashtirish imkonini beradi.

Binokorlikda tayyor qismlarni qurilish inshootiga tashib keltirish birmuncha qiyin bo‘lganidan ularni ishlab chiqaradigan korxonalarni joylashtirishda transport imkoniyatlari ko‘proq e‘tiborga olinadi.

Katta va og‘ir qismlar tayyorlaydigan korxonalarni asosan qurilish keng ko‘lamda olib boriladigan yirik shaharlar, sanoat rayonlari yaqinida qurish maqsadga muvofiqdir. Bunda ishchi kuchi va energetika boyliklari ham hisobga olinishi zarur.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekistonning barcha viloyatlarida qurilish ishlari misli ko‘rilmagan darajada avj olib ketdi. Yangi-yangi zavod-fabrikalar, shaxta va konlar, avtomobil va temir yo‘llari qurilishi kuchayib ketdi. Shaharlarda yangi zamonaviy binolar barpo etildi, yo‘llar kengaytirildi. Xususan, mamlakatimiz poytaxti tanib bo‘lmas darajada go‘zallashdi.

Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida xalqaro klassdagi mehmonxonalar qurilishi va ta‘mirlash ishlari avj oldi. Toshkentda Hindistonning „Tata“, Turkiyaning „Interkontinental“ mehmonxonalari 1995 va 1997-yillarda ishga tushirildi. Buyuk bobomiz Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan ul zotning tug‘ilgan shahri Shahrisabz va u bunyod etgan davlatning poytaxti Samarqandda tarixiy obidalar ta‘mirlanib, yangi inshootlar barpo etildi.

Qurilish ishlarining avj olishi binokorlik materiallari majmuasining yuksalishiga olib kelmoqda.

1. *Binokorlik materiallari majmuasiga tegishli korxonalarining geografik joylashuvi bilan qurilish avj olayotgan hududlar orasidagi masofani xaritadan aniqlang.*
2. *Geografiya daftaringizga binokorlik materiallari majmuasini boshqa sanoat tarmoqlariga aloqadorligi tarxini chizing.*

## **18-§. Xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari majmuasi**

Ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy vazifasi aholining o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishdan iborat.

Ushbu vazifani hal etishda milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari ishtirok etsa-da, asosiy o'rinni sotsial majmua egallaydi. Sotsial majmua 2 yirik tarmoqdan: 1) sotsial, 2) xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan iborat. Bular orasida yengil sanoat (buning tarkibida to'qimachilik) va madaniy-maishiy ahamiyatga ega bo'lgan mollar (televizorlar, muzlatkichlar, yengil avtomobillar) ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yetakchi o'rinni egallaydi. Majmuaga bulardan tashqari, madaniy-maishiy, transport xizmati sohasi, uy-joy xo'jaligi, tibbiy hamda savdo xizmati ko'rsatish sohalari ham kiradi (31-rasm).

Mamlakatimizda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish unga bo'lgan talabdan biroz orqada qolmoqda. Xususan, uy-joy yetishmovchiligi, tibbiy xizmat ko'rsatishning oqsayotgani kabilarda ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Sotsial sohaning bosh vazifasi — xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni ko'paytirish hamda turlari va sifatini yaxshilashdan iborat.


### **Yengil sanoat**

O'zbekistonda mazkur majmuadagi yengil sanoat asosan paxtachilik va pillachilik negizida tarkib topdi. Paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, poyabzal, ko'ncilik, ipak ishlab chiqarish — yengil sanoatning muhim tarmoqlaridir.

Paxta tozalash sanoati ishlab chiqarish jarayoni bir-biriga bog'liq bo'lgan paxta tozalash korxonasi, paxta quritish sexlari va transport xo'jaligidan tarkib topadi. U qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlovchi tarmoq bo'lganligi tufayli paxtakor tumanlarda joylashtiriladi. Paxta tozalash zavodlari mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo kabi majmualar hamda to'qimachilik, yog', kiyim-kechak kabi sanoat tarmoqlari bilan ishlab chiqarish aloqasida bo'ladi. Ma'lumki, paxtaning ma'lum qismi chigitdan iborat. Shu sababli chigitni qayta ishlaydigan yog'




## SOTSIAL MAJMUA



31-rasm. Sotsial majmua tarkibi.

zavodlari paxta zavodlariga mumkin qadar yaqinroq quriladi. Paxta va yog' zavodlari ishlab chiqaradigan mahsulotlarni (paxta tolasi, yog', kunjara va boshqalar) tegishli korxonalariga tashish arzon va qulay bo'lishi uchun barpo etishda temir yo'l yoki avtomobil yo'llaridan foydalanish qulayligi ham e'tiborga olinadi. Shularga muvofiq paxta zavodlari asosan paxtakor tumanlarda quriladi (32-rasm).

Asrimiz boshidagi paxta zavodlari kam quvvatli bo'lganligidan bir mavsumda ko'pi bilan 3 ming tonna paxta tozalay olgan. Buning ustiga dastgohlarni suv kuchi harakatga keltirgan. Shu tufayli u vaqtlardagi paxta tozalash korxonalari shaharlarda ham joylashgan edi. Endigi paxta zavodi yil davomida 80 ming tonnagacha paxta



32-rasm. O'zbekistonning paxta tozalash, pilla chuvish va kanop zavodlari.

tozalamoqda. Zavodning quvvati unga biriktirilgan muayyan hududda yetishtiriladigan paxta miqdoriga mutanosib bo'lishi shart. Zavodlarning quvvati ortgani sari uni paxta bilan ta'minlaydigan hudud tobora kengayadi. Asrimiz boshidagi mayda, yarim kustar (210 ta) korxonalar o'rnida endilikda respublikamizda mexanizatsiyalashgan 110 dan ortiq qudratli korxonalar ishlab turibdi.

Bugungi kunda paxta tozalash sanoatida yangi texnika va texnologiya yuqori sur'atlarda joriy etilmoqda. Xorijiy davlatlarning ilg'or texnologiyasini o'rganib, ularni joriy qilish, paxta tolasini jahon standartlariga mos kelishi uchun AQSH, Shveysariya kabi rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan asboblari va texnologiyani qo'llash sohasida hamkorlikka erishildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarning firmalari bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida paxtani qayta ishlashdan tayyor to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan korxonalar qurilishi boshlandi.

Kanop poyasining uchdan bir qismigina toladan iborat bo'lgani uchun bevosita kanop yetishtiriladigan tumanda qayta ishlanadi. O'zbekistonda lub ekinlari yetishtirila boshlagach, kanop zavodlari barpo etildi. Ular hozir 11 taga yetdi (32-rasm).

Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida Jumabozor va Ketmontepa kanop zavodlari qurilgan. Bu korxonalar kanopdan qop-qanor, arqon, brezent va boshqa narsalar ishlab chiqarmoqda.

Ipak gazlama to'qish uchun dastlab pilla chuvilib, xom ipak tayyorlanadi. Pilla yetishtirilgan joyida chuvilgani ma'qul. Pillani uzoqqa tashish qimmatga tushadi (50 tonna yuk ko'taradigan vagonga ko'pi bilan 4 tonna pilla joylash mumkin). Ilgari pillaning deyarli hammasi Rossiyaning markaziy tumanlariga, hatto Italiya va Fransiyaga olib borib chuvilgan.

Pillakashlik fabrikalarida asosan ayollar mehnat qiladilar. Har bir fabrikada mingtacha odam ishlashi mumkin. Shunga ko'ra pillakashlik fabrikalarini ipak qurti boqiladigan mintaqalardagi kichik va o'rta shaharlarda qurish maqsadga muvofiqdir. So'nggi 60—70 yil ichida Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Marg'ilon, Namangan, Shahrisabz va Urganchda pillakashlik fabrikalari qurildi (32-rasm).


To‘qimachilik sanoati yengil sanoatning eng muhim tarmog‘i hisoblanadi. Bu qadimiy tarmoq. O‘zbekistonda ip va ipak gazlamalar to‘qish qadimda mavjud bo‘lgan. Asrimiz boshlarida 30 ming hunarmand gazlama to‘qish bilan shug‘ullangan. Ammo chorizmning mustamlaka siyosati to‘qimachilik sanoatini atayin rivojlantirmaslikka qaratilganligi oqibatida paxta va ipak o‘lkasida to‘qimachilik mayda hunarmandchilik darajasida qolaverdi.

Keyinchalik (XX asr o‘rtalarida) Toshkent, Farg‘ona, Andijon va Buxoro shaharlarida to‘qimachilik korxonalari barpo etildi. Bu yerlarda ushbu sanoat korxonalarining qurilishiga mo‘l-ko‘l xom-ashyodan tashqari arzon ishchi kuchi mavjudligi, aholining tarixiy tarkib topgan yigirish, to‘qish malakalari va qulay transport yo‘llari borligi sabab bo‘lgan. Ammo ip gazlama ishlab chiqarish 520 mln. metr atrofida bo‘lib, aholi jon boshiga hisoblaganda bu ko‘rsatkich 25 metr, ya‘ni har bir kishiga belgilangan me‘yorning yarmisi ham to‘g‘ri kelmasdi. Bu mo‘l-ko‘l xomashyo va mavjud inson omili imkoniyatiga mutlaqo mos kelmas edi.

Mustaqillikka erishilgach, O‘zbekistonda yetishtirilgan pilladan tayyor mahsulot — gazlama ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish maqsadida viloyat markazlarida va yirik shaharlarda to‘qimachilik kombinatlari qurilishi boshlandi. Birgina Turkiya bilan hamkorlikda shunday korxonalaridan 7 tasi qurilmoqda. Shuningdek, AQSH bilan hamkorlikda Toshkent shahrida „Supertekstil“ paxta ip yigiruv qo‘shma korxonasi, Buxoro va Samarqandda „Afg‘on—Buxoro — Samarqand“ qo‘shma korxonalari ishga tushirildi. To‘qimachilik sanoati korxonalari xorijda ishlab chiqarilgan serunum jihozlar bilan qayta jihozlanmoqda. Kimyoviy tolalardan to‘qiladigan gazlamalar sifati yaxshilandi.

To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ip gazlama, jun gazlama, shoyi va zig‘ir tola gazlama korxonalarida to‘qiladi.

Gazlama to‘qib chiqarish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat. Xom ashyodan paxta tolasi tayyorlash, jun yuvish korxonalarida dastlabki ishlov beriladi. Xomashyoga bunday ishlov berish metallurgiya kombinatlarida rudani boyitishdek ahamiyatga ega. So‘ngra toladan ip yigiriladi (yigirish jarayoni), ipdan xom gazlama to‘qiladi (to‘qish jarayoni). Xom gazlama bo‘yaladi, unga gul bosiladi (pardozlanadi).



33-rasm. To'qimachilik sanoatining tarmoq doirasidagi aloqalari.

Bu hamma bosqichlar alohida-alohida joylashgan yigirish, to'qish yoki pardoqlash fabrikalarida amalga oshiriladi. Transport xarajati, har fabrikadagi yuk ortish-tushirish sarflari tayyor mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Demak, to'qimachilik ishlab chiqarishni bir korxonada, kombinatda to'plash foydaliroq bo'ladi (33-rasm).

O'zbekistonda tayyorlanadigan xom ipakning qayta ishlashdan ortgan qismi xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda. Mo'l-ko'l xom-ashyo hamda mahalliy aholining mehnat malakasiga tayanib, 1932-yili Marg'ilonda ipak kombinati barpo etilgan edi. Shuningdek, Samarqand, Namangan, Kosonsoy shaharlarida ham shoyi fabrikalari ishga tushirildi. Bu korxonalarda yiliga 160 mln. metr chiroyli va nafis shoyi, atlas hamda beqasam to'qib chiqarilmoqda.

**Shunday qilib, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, ishchi kuchi va xomashyo manbalari hisobga olinadi.**

Kelajakda paxta tolasi, xom ipak, ip gazlamalar, shoyi ishlab chiqarish negizida tikuvchilik va trikotaj sanoati yanada rivojlanadi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash maqsadida Toshkent, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Samarqand va Qo'qondagi yirik tikuvchilik fabrikalarining mayda korxonalar, sexlari, shoxobchalari qishloqlarda ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'n-poyabzal ishlab chiqarish ham yengil sanoatning tarmog'idir. Toshkent va Samarqand shaharlarida charm ishlab chiqarish rivojlangan. Toshkent, Farg'ona, Chirchiq, Yangiyo'l va boshqa shaharlarda poyabzal fabrikalari mavjud. 1995-yil „Farg'ona poyabzal“ aksionerlik jamiyati bilan Germaniyaning „Salamander“

firmani ishtirokida „O‘zsalaman“ qo‘shma korxonasi mahsulot chiqara boshladi.

G‘ijduvon, Buxoro, Rishton, Urgut, Shahrisabz kabi shahar va tuman markazlarida badiiy hunarmandchilik hamda kulolchilik korxonalari, Xivada esa gilam to‘qish fabrikasi bor.

Toshkent, Samarqand va Quvasoy shaharlaridagi chinni zavodlarida ishlab chiqarilayotgan choynak, piyola, lagan, kosa va boshqa nafis chinni buyumlar xorijiy davlatlarga ham chiqariladi. Mamlakatimiz aholisi moddiy farovonligining o‘shishi xalq iste‘mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat mahsulotlari miqdori va sifatiga bo‘lgan talabni oshiradi.

- ? 1. *Maktabingiz joylashgan tumanda yetishtirilgan pilla qayta ishlash uchun qayoqqa yuboriladi?*
2. *Maktabingizga eng yaqin joydagi yengil sanoat korxonasini quyidagi reja asosida ta‘riflang:*
- a) *geografik o‘rni;*
  - b) *korxonaning ixtisosi, uning sexlari, ularning ishlab chiqarish aloqalari;*
  - v) *ishlab chiqarishning texnika-iqtisodiy xususiyatlari (qancha xomashyo, energiya, mehnat sarflanishi va boshqalar);*
  - g) *joylashtirish tamoyili;*
  - d) *xomashyo, yoqilg‘i, tayyor mahsuloti bo‘yicha ishlab chiqarish aloqalari;*
  - e) *yetakchi ixtisoslari;*
  - j) *rivojlanish istiqbollari;*
  - z) *tabiatni muhofaza qilish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar.*
3. *O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini yanada yuksaltirishning istiqbollari nimalarga bog‘liq?*

### **Oziq-ovqat sanoati**

Oziq-ovqat sanoati dehqonchilik va chorvachilik negizida vujudga kelgan bo‘lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlaydigan o‘nlab ishlab chiqarish korxonalarini o‘z ichiga oladi. Bu sanoat korxonalari qadimdan mavjud bo‘lib, asrimiz boshlarigacha bir qadar oddiy va mayda kustar (xonaki) korxonalaridan iborat edi. O‘sha vaqtlarda tayyorlangan mahsulotlarning xillari oz, sifati past bo‘lgan. Keyinchalik oziq-ovqat sanoatining yirik korxonalari ham qurila boshlangan bo‘lsa, endilikda bu sanoat mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining hozirgi zamon texnikasi bilan ta‘minlangan, yuqori darajada rivojlangan tarmoqlaridan biridir. Ayniqsa sanoat tarkibida paxta yog‘i, meva-sabzavot, non, go‘sht,

sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston o'simlik moyi ishlab chiqarishda jahondagi yirik davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda 22 ta yog' zavodi bor. Farg'ona va Andijon yog'-moy kombinatlari, Kattaqo'rg'on, Asaka, Koson, Qo'qon, Uchqo'rg'on ekstraksiyon yog' zavodlari, Yangiyo'l, Kogon, Guliston, Denov va Urganch yog' zavodlari ishlab turibdi (34-rasm). Qo'qonda shaftoli, o'rik, uzum, pomidor va boshqa meva-sabzavotlar urug'lari hamda danak mag'izlaridan noyob moy ishlab chiqariladi. Bu moydan tibbiyotda, upa-elik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yiliga yog'-moy zavodlari 300 ming tonnaga yaqin o'simlik moyi ishlab chiqaradi, uning bir qismi xorijiy davlatlarga ham jo'natiladi.

Oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligi bilan boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq bog'langan.


Umuman bu sanoat qishloq xo'jaligidan xomashyo (don, sut, kartoshka) oladi va dehqonchilik hamda chorvachilik rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat sanoati yirik, mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishga aylangan hozirgi vaqtda unga mashinalar, yoqilg'i, idishlar kerak. Shu sababli uning mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati bilan tarmoqlararo aloqalari kengaymoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xarajatning ko'p qismi qishloq xo'jalik xomashyosiga sarf bo'ladi. Masalan, yog', pishloq, boshqa sut mahsulotlari va go'sht tayyorlashda xomashyo xarajati 90 % gacha boradi.

Shu sababli oziq-ovqat sanoatining bir guruh korxonalari, qand-shakar, yog', vino va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar xomashyo manbaiga yaqin joylarda, ya'ni qishloq xo'jaligi qand lavlagi yetishtirishga, bog'dorchilikka, sabzavotchilikka, uzumchilikka, sut chorvachiligiga ixtisoslashgan rayonlarda quriladi.

**!** *Siz sotib olayotgan konservalar qayerlarda tayyorlanganligiga ahamiyat bering. Ularning o'sha joylarda ishlanganligiga sabab nima?*

Oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri go'sht korxonalaridir. Go'sht kombinatlari chorvachilik rivojlangan joylarda quriladi, chunki tirik molni tashishdan ko'ra go'shtni tashish



34- rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalari.



foydaliroq. Hozirgi transportning tezligi va maxsus muzlatkichlar go'shtni uzoq masofaga tashiganda uning sifatini saqlashga imkon beradi. Go'sht mahsuloti bevosita iste'mol qilinadigan Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Ohangaron kabi yirik shaharlarda go'sht kombinatlari ishlamoqda. Xomashyo manbaiga yaqin go'sht korxonalari Yangiyo'l, Olmaliq, Xo'jayli, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda bor. Go'sht kombinatlaridagi ishlab chiqarish jarayoni xomashyodan unumli tarzda foydalanish (go'sht, yog' olish) bilan birga chiqitlarni to'la ravishda qayta ishlashdan iborat. Sut, non va makaron mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar mamlakatimizning barcha shaharlarida, hatto ba'zi tuman markazlarida ham bor. Toshkentda qandolat, tamaki fabrikalari hamda muzqaymoq ishlab chiqaradigan korxonalar ishlab turibdi. Xomashyo va tayyor mahsulotning ko'p xillari uzoq masofaga tashilganda buziladi. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining boshqa bir ishlab chiqarish guruhi iste'molchilarga yaqin joylashtirishni taqozo qiladi. Non zavodlari, makaron, qandolat fabrikalari va boshqa shu kabi korxonalar yirik aholi manzilgohlarida joylashtiriladi.

Samarqanddagi choy qadoqlash fabrikasi nafaqat mamlakatimizda, balki butun O'rta Osiyoda yagona fabrikadir. Ma'lumki, O'rta Osiyoliklarning asosiy qismi ko'k choy iste'mol qiladi. Shunga ko'ra, bu yerda qadoqlanayotgan choyning 80 foizini ko'k choy tashkil etadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoroda mineral suv tayyorlab idishlarga quyadigan maxsus zavodlar bor. Urgutda tamaki-fermentatsiya zavodi ishga tushirilgan (34-rasm).

**Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatining rivojlantirilishi va joylashtirilishi: a) aholining soni va joylashishi, ya'ni iste'molchilar bilan; b) qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, ya'ni xomashyo manbai bilan; d) tayyor mahsulotni tashish shart-sharoitlari bilan belgilanadi.**

Xomashyoning xilma-xilligi va oziq-ovqat mahsulotlarining hamma yerda iste'mol qilinishi oziq-ovqat sanoatining hamma joyda tarqalishiga imkon beradi. Oziq-ovqat sanoati ana shu xususiyati bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Lekin bu sanoat ba'zi joylarda faqat mahalliy ehtiyojnigina qondirsa, boshqa joylarda mamlakatning ko'pgina rayonlariga mahsulot beradi.

Oziq-ovqat sanoati mahsulotlari xizmat ko'rsatish doirasining katta-kichikligidan qat'i nazar, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning yuksalish sur'atlariga hamohang rivojlanaveradi. Ishlab turgan korxonalar quvvati oshirila boradi.

- ? 1. *Mamlakatimizda yagona hisoblangan oziq-ovqat sanoati korxonalarini xaritadan ko'rsating.*
2. *Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nimalarga bog'liq?*
3. *Oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatlarini joylashtirish tamoyillarini taqqoslang. Ularning o'xshash tomonlarini va tafovutlari sabablarini tushuntirib bering.*
4. *Paxta dalalardan terib olingach uni qabul punktlariga topshiriladi, so'ng paxta (chigit va to'laga ajratuvchi) zavodlarda qayta ishlanib toladan ip tayyorlanadi va to'qimachilik korxonalariga hamda xorijga eksport qilinadi. Chigini esa oziq-ovqat korxonasi (moy kombinati) ga jo'natiladi. Ayting-chi, paxta zavodini qayerga qurish foydaliroq bo'lar ekan?*

### XIZMAT KO'RSATISH GEOGRAFIYASI

Xizmat ko'rsatish geografiasining tobora kengayayotgani O'zbekiston milliy iqtisodiyotining hozirgi bosqichiga xos jihat bo'lishi bilan birga muhim vazifa hamdir. Uning jadal yuksalishi nima uchun zarur bo'ldi? Shu haqda o'ylab ko'raylik.

Bu soha iqtisodiyotning boshqa barcha sohalari uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib beradi, mehnatkashlarning dam olib hordiq chiqarishlarini ta'minlaydi va betoblik sabab ish kunlari yo'qotilishini kamaytiradi. Bular o'z navbatida ijtimoiy mehnat unumdorligining yuksalishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi insonning madaniy-ma'rifiy ruhiyatini rivojlantirishi bilan ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish muassasalarining joylashuvi faqat va faqat aholining joylashuviga bog'liqdir. Biroq har qanday aholi manzilgohida barcha xizmat ko'rsatish muassasalari bo'lavermaydi. Chunki bu soha korxonasining faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan miqdorda xaridor bo'lishi shart. Zero aholisi oz, kichik qishloqlarda yirik ixtisoslashtirilgan savdo korxonalarini qurish yetarli samara bermaydi.

Aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirishda xizmatdan foydalanish davriyligi ham katta ahamiyatga ega. Ba'zi xizmat turlariga kunda murojaat qilinadi. Bularga uy-joy kommunal xo'jaligi, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va savdo xizmatlari kiradi. Boshqa xizmat turlari borki, ulardan bir yilda

bir necha bor yoki undan ham kam foydalaniladi. Jumladan, uzoq vaqt foydalaniladigan narsalarni xarid va ta'mir qilish, turistik sayohat, muzeyga borish va boshqalar. Ular oralig'ida o'rtacha davrda (bir oyda bir necha bor) foydalanadigan xizmat turlari ham borki, ularga sartaroshxona xizmati, kir yuvish, kino, teatrlar va boshqalar kiradi.

Xizmat ko'rsatishning davriyligiga muvofiq xizmat ko'rsatish korxonalarini joylashtirish tamoyillari yuzaga keladi: kundalik xizmat korxonasi uy yoki ish joyi yaqinida bo'lishi kerak; uzoq davrda foydalanadigan xizmat uchun sifat va assortiment (xilma-xillik) muhimdir. Avtomobil, televizor tanlash yoki mutaxassis vrach maslahati uchun shu sohaga ixtisoslashgan maxsus ancha olisdagi muassasaga ham murojaat qilinadi. Xizmat ko'rsatish tizimida rekreatsion xo'jalik (hordiq chiqarish va sayohat) obyektlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimda maxsus sog'lomlashtirish muassasalari, dam olish uylari, turizm (sayohat)ning xilma-xil shakllari tobora rivojlanmoqda.

Xizmat ko'rsatish rayonlarini qanday vujudga kelishiga ko'ra guruhlash mumkin:

- 1) tabiiy sharoit va tabiat boyliklari zaminida vujudga kelgan;
- 2) yirik shaharlar tevaragida vujudga kelgan;
- 3) tarixiy-madaniy obyektlar zaminida vujudga kelgan rayon-

lar.

Fusunkorligi hamda salobati bilan millionlar aqlini lol qoldirayotgan tarixiy obidalarimiz xorijiy sayohatchilarni yurtimiz sari chorlamoqda. Afsus, ajdodlarimiz bunyod etgan 36 ming tarixiy obidadan 7 mingtasigina saqlangan. Qolganlari mustamlakachilar tomonidan turli yo'llar bilan vayron etilgan. Endilikda ularni katta mablag' va mehnat sarflab bo'lsa-da ta'mirlanmoqda. Ayni vaqtda sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha xorijiy tillarni hamda tarix va geografiyani biladigan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Tog'larning tabiati shifobaxsh va maftunkor joylarida davolanadigan hamda dam olinadigan minglab maskanlar mavjud. Toshkent viloyatidagi „Chimyon“, Farg'ona vodiysidagi „Shohimardon“, „Nanay“, „G'ovasoy“ dam olish zonalari va Namangan viloyatidagi „Chortoq“, Buxoro viloyatidagi „Sitorai Mohi Xosa“ kabi davolanish maskanlari chet ellarda ham mashhur. Biroq xizmat ko'rsatish sohasida ham talay muammolar bor. Bu avvalo xizmat


ko'rsatish muammolarining geografik joylashuvida ko'zga yaqqol tashlanadi. Aholining 60 foizdan ortig'i qishloqda istiqomat qilgani holda xizmat ko'rsatish muassasalarini asosiy qismi shaharlarda joylashgan. Shifobaxsh maskanlarning ekologik jihatdan zavol topmasligi esa nazardan chetda qolmoqda.

- ? 1. Xizmat ko'rsatish muassasalaridan qay birining geografik joylashuvi aholi manzilgohlaridan holi bo'lishi mumkin?  
 2. Rayon yoki qishloqlarimizdagi xizmat ko'rsatish muassasalarini o'rganib, bu boradagi yutuq va kamchiliklarni aniqlang.

## SANOATNI HUDUDIY TASHKIL ETISH HAMDA JOYLASHTIRISH SHAKLLARI

Biz sanoat geografiyasini o'rganib chiqdik. Sanoat korxonalari o'rtasidagi yaqin aloqalar mavjudligini bilib oldik.

Ishlab chiqarish jarayoni o'zaro bog'langan korxonalarni bir-biriga yaqin joylashtirish — bir shaharga yoki yonma-yon turgan bir qancha shahar yoki shaharchalarga qurish foydaliroqdir. Sanoat tugunlari shunday vujudga keladi (35-rasm).



35-rasm. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish shakllari.

Sanoat tugunini tashkil etgan korxonalar yagona transport tarmog'idan, energiya va suv ta'minotining umumiy manbalaridan birgalikda foydalanadi (ba'zan xomashyo boyliklari ham umumiy bo'ladi), ishchi kuchlarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, korxonalar egallaydigan maydonni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari — sanoat korxonalarini joylashtirishning eng maqbul shakllaridir.

Sanoat tugunlari, markazlari va punktlari to'plangan hududlar sanoat rayonlari deyiladi. Ularning katta-kichikligi har xil bo'ladi. Angren — Olmaliq, Toshkent — Yangiyo'l ayniqsa katta sanoat rayonlaridir (35-rasm).

### 19-§. Transport geografiyasi


**!** *Siz yashayotgan aholi manzilgohidan mamlakatimiz poytaxtiga qanday transportda borish mumkin?*

1. Qadimda yurtimiz jahon sivilizatsiyasining juda taraqqiy etgan davlatlaridan biri bo'lganligi tarix darslaridan sizga yaxshi ma'lum. Buning bosh sabablaridan biri Yevropa bilan Osiyoni bog'lab turuvchi „Buyuk Ipak yo'li“ning bizning mamlakatimiz hududidan o'tganligidir.

Bugungi kunga kelib transport vositalari ham, turlari ham ancha takomil topdi. Endilikda milliy iqtisodiyotni transportsiz rivojlantirish mumkin emas. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, mamlakatning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashinishini, uning tashqi savdosini ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda kattadir.

Transport iqtisodiyotga xizmat qilish bilan birga ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och talab etadi.

Bizning davrimizga kelib transportning quruqlik (temir yo'l, avtomobil transporti), suv (dengiz va daryo), havo, quvur va elektron (elektr uzatish liniyalari) transporti turlari vujudga keldi. Mamlakatimizda hozirgi zamon transportining deyarli barcha turlari bor (36-rasm).



36-rasm. O'zbekiston transport tizimining chizmasi.

**Transportning ishi** haqida uning yuk tashish hajmiga qarab fikr yuritish mumkin. Yuk tashish hajmi ma'lum vaqtda ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir. U tonna kilometrda ifodalanadi.


O'zbekistonda barcha turdagi transportda har yili tashiladigan yuklarning asosiy qismini paxta tolasi, mineral o'g'itlar, har xil mashinalar, boyitilgan ruda, qora va rangli metallar, neft mahsulotlari, binokorlik materiallari va keng iste'mol mollari tashkil etadi.

**2. Temir yo'l transporti** iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramay hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tannarxi nisbatan past. Temir yo'l magistrallarini turli tomonga qurish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz temir yo'llarining umumiy uzunligi 3,8 ming km dan ortadi.

O'zbekistonda temir yo'llar qo'shni mamlakatlardagiga (Qozog'istondan tashqari) qaraganda ko'p va texnik jihatdan yaxshi jihozlangan bo'lib, temir yo'l bilan ta'minlanish jihatidan ulardan oldinda turadi. Respublikamizning deyarli barcha temir yo'llari tekis joylardan, daryo vodiylaridan o'tadi. Jizzax — Samarqand oralig'idagi temir yo'lgina dengiz sathidan 850 metr balanddan o'tadi. 1931-yilda qurilgan Turkiston — Sibir temir yo'li garchi O'zbekistondan tashqarida bo'lsa-da, respublika xalq xo'jaligining rivojlanishiga jiddiy ta'sir etdi. Bu yo'l qurilgach Rossiya Federatsiyasi hududidagi Sibirning g'allasi bilan yog'ochini O'rta Osiyo davlatlariga, shu jumladan O'zbekistonga keltirildi. O'z navbatida, Sibir va Uzoq Sharqqa O'zbekiston mevasini, sabzavotini yetkazib berish ko'paydi.

Mamlakatimizning eng yirik transport tuguni Toshkent temir yo'l stansiyasi xalqaro ahamiyatga egadir. Undan to'rt tomonga yo'llar ketgan (37-rasm). Asrimizning 40-yillarida ko'mir konini ishga tushirish maqsadida Toshkent—Angren temir yo'li qurildi. Mirzacho'lni ishga solishni tezlatish maqsadida 1957-yili uzunligi 110 km Jizzax—Sirdaryo temir yo'li qurildi (xaritadan shu yo'lni aniqlang). Bu yo'l respublikaning g'arbiy tumanlari bilan Toshkentni qisqa yo'l orqali bog'ladi. Bu yo'lda cho'lni ishga solish uchun zarur yuklar hamda shu yerda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari tashiladi.

1952—1955-yillarda Chorjo'y — Qo'ng'iro't temir yo'li qurildi. Bu yo'l Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Toshhovuz



37-rasm. Toshkent temir yo‘l stansiyasini uzoqdan turib avtomatik boshqarish.

viloyatlarini O‘rta Osiyo respublikalari bilan hamda Qozog‘iston Respublikasi orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog‘ladi. Respublikamiz iqtisodiyotining yanada o‘sishi, tarmoqlararo majmualarining tobora mukammallashuvi temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish hajmini ko‘paytirmoqda. Temir yo‘l yo‘lovchilarni tashishda ham muhim o‘rin tutmoqda. Yil davomida temir yo‘ldan 20 mln.dan ko‘proq yo‘lovchi foydalanmoqda.

O‘zbekiston g‘arbiy rayonlarining Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belarus respublikalari bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishni ko‘zlab, Qo‘ng‘irot—Beynov (410 km) temir yo‘li qurildi. Bu yo‘l Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini hamda Tojikiston



va Turkmaniston Respublikalarini Qozog‘iston orqali Rossiya bilan bog‘ladi. Bu yo‘l orqali paxta tolasi va paxta yog‘i, neft mahsulotlari, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari jo‘natiladi. Mamlakatimiz hududi bo‘ylab o‘tuvchi Osiyo va Yevropa mamlakatlarining o‘tkinchi, tranzit\* yuklari ham asosan shu yo‘l orqali tashiladi.

Toshkent—Yangiyo‘l—Chinoz—Sirdaryo—Guliston oralig‘idagi temir yo‘lining elektrlashtirilishi respublikamiz temir yo‘llarini elektrlashtirishda birinchi qadam bo‘ldi. Keyinchalik Toshkent—Keles—Nazarbek—Toshkent halqa temir yo‘li va Toshkent—Hojikent, Toshkent—Angren temir yo‘llari ham elektrlashtirildi. 1993-yilda Xovos—Bekobod va Xovos—Jizzax liniyalari elektrlashtirildi va foydalanishga topshirildi. Natijada elektrlashtirilgan uchastkalar uzunligi 353,6 km.ga yetdi (umumiy foydalaniladigan temir yo‘lining 8,5 foizi). Yo‘ning Jizzax—Samarqand qismi elektrlashtirilmogda.

Temir yo‘llarning elektrlashtirilishi va elektrovozlarning ishlatila boshlashi natijasida poyezdlarning qatnov tezligi, og‘irligi, temir yo‘llarning yuk o‘tkazish qudrati\*, ya‘ni ularning ish unumi oshdi.

O‘zbekistonning mustaqil temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha Navoiy—Uchquduq—Nukus, Sulton Uvays—Nukus yo‘nalishlarida temir yo‘lni rekonstruksiyalash va elektrlashtirish boshlandi. Urganch—Beruniy elektrlashtirilgan yangi temir yo‘li qurilmogda. 233 km.li G‘uzor—Boysun—Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurilishi bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach mamlakat ichkarisidagi temir yo‘llar qurilishi bilan bir qatorda qo‘shni davlatlardagi xalqaro yo‘llar qurilishida ham faol ishtirok etib kelmogda. Jumladan, mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan Yevropa va Osiyo mamlakatlarini tutash-tiradigan Transosiyo magistrali (Istambul—Toshkent—Almati—Pekin) qurilishida ishtirok etmogda. „Drujba“ stansiyasi (Qozog‘iston), Turkmanistonda Tajan — Saraxs va Eronda Saraxs—Mashhad qismlari qurib foydalanishga topshirildi (1996-yil, 13-may) va yo‘lda poyezdlar qatnovi boshlandi. Aynan 133 km.li Tajan—Saraxs yo‘lini qurishda o‘zbekistonlik quruvchilarning hissasi

katta bo'ldi. Kelajakda O'zbekiston temir yo'llari ushbu magistralning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. Bu yo'ldan Buxoro—Beynov orqali Yevropaga, Tajan—Saraxs orqali Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlariga chiqish mumkin.

- ❓ 1. Mamlakat hayotida transportning roli qanday? Transport moddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridan nima bilan farq qiladi?
2. Qaysi korxonalarni siz transportga oid deb hisoblaysiz?

## ZAMONAVIY TRANSPORT TURLARI

**Avtomobil transporti.** Bu transport istalgan tomonga bora oladigan transportdir. U yuklarni (yo'llarda tushirib-ortmay) bevosita iste'molchiga yetkazib bera oladi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport bilan bog'laydi, shaharlardagi va shaharlar atrofidagi yuklarning asosiy qismini tashiydi. Qisqa (100 km.gacha) va uzoq masofalarga yo'lovchi hamda yuk tashishda temir yo'llarga qaraganda avtomobil afzaldir. Mamlakatimizning tog'li rayonlarida avtomobil transportining ahamiyati ayniqsa katta.

Avtomobil transportining respublikamiz viloyatlararo va tumanlararo aloqasidagi salmog'i kattadir. Yiliga avtomobil transporti bilan 600 mln tonna yuk tashilmoqda. Avtomobil yo'llarining jami uzunligi 89 ming km. dan ortiq. Shundan 74 ming km qattiq qoplamali yo'llardir. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida qattiq qoplamali avtomobil yo'llari ancha ko'p. Respublikaning g'arbiy viloyatlarida qattiq qoplamali yo'llar nisbatan kamroq. Avtomobil yo'llarida 1940-yillarda qurilgan Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari orqali o'tadigan Katta O'zbek trakti (uzunligi 700 km) muhim ahamiyatga egadir. Bu yo'lga yonma-yon holda eng zamonaviy Toshkent — Mirzacho'l avtostradasi qurilgan.

Shu yillarda Farg'ona vodiysidagi aylanma avtomobil yo'li ham butkul qayta qurildi. Bu yo'l Qo'qon, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Namangan va Chust shaharlarini tutashtiradi.

1959-yilda Toshkent—Angren—Qo'qon avtomobil yo'li (248 km) qurildi. Bu yo'l Qurama tizma tog'idagi Kamchik dovonidan (2270m) o'tadi. Bu yo'l orqali Toshkentdan Farg'ona vodiysiga tashiladigan yuklar temir yo'lda tashiladigan yuklarga qaraganda

3—4 baravar tez yetkaziladi. Bugungi kunda ushbu yo'lni kengaytirish hamda Kamchik dovoni yaqinida uzunligi 900—1500 metr bo'lgan uchta tunnel qazish ishlari jadal olib borilmoqda.

Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarining Qozog'iston hamda Qirg'iziston bilan transport—iqtisodiy aloqalari Toshkent orqali amalga oshadi. Bu hol Toshkentda transport harakatini zo'riqtirib yubordi. Shaharda transport harakatini kamaytirish maqsadida shahar tashqarisida halqa yo'l barpo etildi. Uning uzunligi 64 km bo'lib, O'zbekistonda shunday maqsadda qurilgan yagona yo'l hisoblanadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatni xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tiborni kuchaytirdi. Bu borada O'zbekiston Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon—O'sh—Ergashtom—Qashqar avtomobil yo'li hamda Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan Termiz—Hirot—Karachi avtomobil yo'li qurilishida va ularni qayta qurishda o'z ulushi bilan qatnashmoqda.

Suv transporti temir yo'l va avtomobil yo'llardan farq qilib, asosan, jihozlanishi uchun uncha ko'p xarajat talab qilmaydigan tabiiy suv yo'llaridan foydalaniladi. U yoqilg'ini ko'p ishlatmaydi va katta hajmli yuklarni tashish tannarxi pastroq, lekin harakat tezligi kam, suv yo'lining yo'nalishi hamma vaqt ham zaruriy yo'nalishlarga to'g'ri kelavermaydi. Texnika taraqqiy etishi bilan suv yo'llarining bu salbiy tomonlari kamayib bormoqda. Hozirgi zamon kemalarining tezligi yuk tashuvchi poyezdlarning o'rtacha tezligiga barobar keladi.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Mamlakat transport tizimida suv transportining ahamiyati katta emas. Suv transporti asosan Amudaryo, qisman Sirdaryo kemachiligidan iborat. Orol dengizida kema qatnovi suv keskin pasayganligi tufayli to'xtab qolgan. Chorjo'y—Qo'ng'iro't temir yo'li qurilganga qadar Amudaryoda yuk tashish Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega edi. Daryo kemachiligi temir yo'lga qaraganda qimmatga tushmoqda. Shuning uchun g'alla, paxta, mashinalar, mineral o'g'itlar, binokorlik materiallarigina tashilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi oldida suv transportini, xususan Dunyo okeanida dengiz transportini rivojlantirishga zaruriyat kuchaydi. Chunki xorijiy mamlakatlar bilan mahsulot

ayirboshlash, ayniqsa boshqa qit'alardagi davlatlar bilan aloqalar Dunyo okeani orqali olib boriladi. Kelajakda O'zbekiston ham dengiz va okeanda o'zining flotiga ega bo'ladi. Hozircha esa dengiz transporti orqali chetga chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan yuklarning asosiy qismini boshqa davlatlarning kemalari tashib bermoqda va buning evaziga kira haqi — fraxt\* to'lanmoqda.

Havo transporti transportning eng qimmat va shu bilan birga eng tez harakatlanadigan hamda joy relyefiga kam bog'liq bo'lgan turidir. Yo'lovchi tashishda, ayniqsa uzoq masofaga, xususan xorijga tashishda, bironta ham transport havo transporti o'rnini bosa olmaydi. Havo transportida tashiladigan yuklarning ko'pchiligi shoshilinch va qimmatbaho yuklardir (tez buziladigan mahsulotlar, pochta va b.). Bugungi kunga kelib mamlakatimiz juda ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan havo yo'llari orqali bog'lanmoqda. Yangi-yangi yo'nalishlar ochilmoqda. Yoniga „O'zbekiston“ deb yozilgan va Davlat bayrog'i ko'rinishi tushirilgan samolyotlarni dunyoning turli burchagidagi shaharlar aeroportlarida uchratish mumkin.

O'zbekistonda havo transporti yo'lovchi (har yili 6 mln. dan ortiq kishi) tashish jihatidagina emas, balki har xil yuk tashish jihatidan ham ahamiyatlidir. Mamlakat mahalliy havo yo'llarining umumiy uzunligi 60 000 km. dan ortiq. Toshkent mamlakatimiz havo transportining eng yirik tuguniga aylandi. Barcha magistral havo yo'llarida turbovintli va reaktiv samolyotlar harakati yo'lga qo'yilgan.

Quvur transportidan asosan gaz va qisman neft tashishda foydalaniladi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyat markazlariga gaz quvurlari o'tkazilgan. Gaz quvurlari ichida Jarqoq—Buxoro—Samarqand—Toshkent, Muborak—Toshkent trassalari juda muhimdir (ularni xaritadan toping). O'zbekistondan Uralga (2100 km), Moskvaga (3500 km) o'tkazilgan gaz quvurlari diametrining kattaligi va uzunligi jihatidan jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Quvur transportining ish unumi quvurning yo'g'onligidan tashqari, gaz yoki neft qanday bosim bilan harakatlanishiga ham bog'liqdir. Fan va texnika yutuqlari hozirda 120 va hatto undan ortiq atmosfera bosimi yaratish va shunga chidamli quvurlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Lekin respublikamiz quvur transportida hozircha bosim 40 atmosferadan oshmayotir. O'zbekiston sharoitida neft va gazni quvurlar vositasida tashish

shimoldagi davlatlardagiga qaraganda birmuncha qulay. Neft, gaz sovuqda quyuqlashadi va quvurdan o'tishi sekinlashadi. Buning chorasini sifatida quvurlar ma'lum oraliqda maxsus pechlar yordamida isitib turiladi. O'zbekistonning qishi u qadar sovuq bo'lmasligidan bunday pechlarga zarurat yo'q. Demak, qo'shimcha xarajat yo'qligidan u iste'molchiga arzonga tushadi.

Mamlakatimizda elektr tizimini vujudga kelishi va uning O'rta Osiyo tizimiga ulanishi bilan transportning yangi turi — elektr o'tirish vujudga keldi. Viloyatlararo va davlatlararo tortilgan yuqori kuchlanishli simlar orqali elektr quvvati uzatiladi.

- ? 1. O'zbekistonda transportning qaysi turlari rivojlangan?
2. Toshkentdan Qo'qonga avtomobilda Angren orqali borish poyezd bilan borishga qaraganda taxminan necha kilometr yaqinligini xaritadan aniqlang.
  3. Eng muhim gaz va neft quvurlari qayerlardan o'tganini yozuvsiz xaritada chizib ko'rsating.
  4. Darslik ilovasidagi 6-jadval asosida avtomobil transportida yuk tashishning yuksalish grafigini daftaringizga chizing.
  5. Transport tuguni nima? O'zbekistonning transport tugunlariga misollar keltiring.

## 20-§. Milliy iqtisodiyot tarmoqlari geografiasining umumiy masalalari

Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarini joylashtirishning o'z xususiyatlari bor, bu xususiyatlar bir qancha shart va omillarga bog'liq. Shu omillardan biri fan-texnika taraqqiyotidir. Yangi xil energiya, xomashyo, texnologik jarayonlar, transport vositalaridan foydalanish, ishlab chiqarishni joylashtirishni o'zgartiradi.

**Sanoat uchun xomashyo, yoqilg'i-energetika, suv, ish kuchi omillari** muhim rol o'ynaydi. Turli xil ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda bu omillarning ta'siri bir xil bo'lmaydi, chunki bu korxonalarining har biri mahsulot birligiga hisoblaganda turli miqdordagi xomashyo, yoqilg'i, suv va mehnatdan foydalanadi. Bunday texnikaviy, iqtisodiy tafovutlarni ta'riflash uchun **ko'p material talab, ko'p energiya talab, ko'p suv talab, ko'p mehnat talab** degan terminlar ishlatiladi.

! *Darslikning oldingi bo'limlarida olgan bilimlaringizga asoslanib, ko'p suv talab, ko'p energiya talab, ko'p material talab va ko'p mehnat talab ishlab chiqarish yoki korxonaga misollar keltiring.*

Iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirishga ishlab chiqarishning yiriklashuvi ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'nlab mayda va o'rtacha korxonalar o'rniga ko'p miqdorda ishchi kuchidan, xomashyo, energiyadan foydalaniladigan tayanch korxonaga buniyod etiladi. Bunda bir necha xil ishlab chiqarish bir korxonaga — kombinatga birlashtiriladi. Bu ham ishlab chiqarishni joylashtirish manzarasini o'zgartiradi.

Ixtisoslashtirilgan zavodlarni qurishda, kooperativlashish aloqalarini muntazam ravishda va transportga ortiqcha xarajat qilmasdan olib borish uchun, xomashyo yetkazib beruvchi korxonalarining joylanishini hisobga olish zarur.

Korxonaga qanchalik yirik va qanchalik ko'p sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uni joylashtirish masalasi shunchalik murakkab bo'ladi.

Shunday qilib, fan-texnika inqilobi davrida ishlab chiqarishni tashkil etishning kombinatlashtirish, ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish kabi shakllari uni joylashtirishning muhim omillari bo'lib qoldi. Bular butun tarmoqlarni rivojlantirishni intensiv yo'lga o'tkazishga yordam beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirishda tabiiy omillarni, boyliklarni, sharoitni tobora qat'iyroq hisobga olish talab etiladi. Chunki sanoat, qishloq xo'jaligi, transport inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning maxsus shakllaridir. Bu o'zaro ta'sir insonga ham, tabiatga ham foydali, o'zaro mos bo'lishi kerak.

Iqtisodiyot rivojlana borgan sari kishilarning turmush sharoitini (o'qish, mehnat, dam olish sharoitini) yaxshilash uchun katta imkoniyat tug'iladi. Bu ijtimoiy omil mamlakatimizda ishlab chiqarishni joylashtirishga tobora ko'p ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot bir butun murakkab organizm bo'lib, uning turli tarmoqlari alohida-alohida rivojlanmaydi, balki o'zaro bog'langan holda taraqqiy etadi.

**!** *Tarmoqlar ichidagi va tarmoqlararo aloqalarga misollar keltiring.*

Barcha o'zaro bog'langan ishlab chiqarish jarayonlarini xomashyo va energiya ishlab chiqarish, asosiy va oxirgi mahsulotni tayyorlash hamda chiqindilarni qayta ishlashdan iborat ishlab chiqarish „zanjiri“ ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

**Bitta asosiy ishlab chiqarish jarayoni atrofida rivojlanayotgan o'zaro bog'langan ishlab chiqarish jarayonlarining barqaror**

**birlashmasi energiya ishlab chiqarish sikli deyiladi.** Energiya ishlab chiqarish sikli o'zi foydalanadigan energiya va xomashyoning miqdori va turlariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Energiya ishlab chiqarish sikllari turli tarmoqlarga mansub bo'lgan jarayonlarni birlashtiradi. Masalan, qora metallar sikliga ko'mir qazib chiqarish va uni boyitish (ko'mir sanoati), o'tga chidamli materiallar, sement va shlak ishlab chiqarish, ohaktosh qazib chiqarish (qurilish materiallari sanoati), azotli o'g'itlar va plastmassalar olish (kimyo sanoati), mashinalar yasash (metallni ko'p talab qiladigan mashinasozlik) kiradi.

Shu bilan birga bir xil mahsulot turli energiya ishlab chiqarish sikllarida ishlab chiqarilishi mumkin. Masalan, sulfat kislotaga bog'liq kimyo, neft-gaz-kimyo va rangli metallar sikllarida ishlab chiqariladi.

Sikllarda korxonalarining o'zaro bog'liq holda ishlashi tabiiy resurslardan tejab foydalanishga, chiqindi kam chiqadigan va chiqindisiz ishlab chiqarish g'oyasini amalga oshirishga imkon beradi. Energiya ishlab chiqarish sikli tarkibiga kiruvchi korxonalarni joylashtirishda ayrim tarmoqlarning yutuqlarini hisobga olish bilan birga mamlakat uchun zarur bo'lgan, butun iqtisodiyot sohasida erishilgan pirovard natijani ham hisobga olmoq kerak. Masalan, neft sanoati ishlarining mamlakat uchun zarur bo'lgan pirovard natijasi neftni qazib chiqarishni o'stirish emas, balki qimmatli yoqilg'i turlari, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishdir. Bu vazifa neft-gaz-kimyo siklining boshlang'ich bosqichidan yakunlovchi bosqichigacha bo'lgan butun tizimi uchun taalluqlidir.

Mamlakatning rivojlanish xususiyatlari va sanab o'tilgan omillar negizida iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarini joylashtirishning quyidagi tamoyillari ilmiy asoslangan:

1. Ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda, transport yo'llarini o'tkazishda mamlakatning ustuvor manfaatlari, fan-texnika taraqqiyoti, tabiatni muhofaza qilish va aholi turmush sharoitini yaxshilash hisobga olinishi kerak.

2. Birinchi navbatda tarkibiga ko'ra eng boy va qazib olish sharoiti qulay boyliklar o'zgartirilishi lozim: shu bilan birga bu boyliklardan kompleks foydalanish, barcha foydali moddalar to'liq ajratib olinishi kerak.

3. Ko'p material va ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish korxonalari xomashyo va energiya manbalariga yaqin joyda barpo qilinishi lozim, bunda ishlab chiqarishning yiriklashuv darajasi, uni kombinatlashtirish, ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish hisobga olinishi kerak.

4. Tez buziladigan hamda tashishga noqulay mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini iste'molchi rayonlarga, eng murakkab buyumlar ishlab chiqaradigan korxonalarini esa yuqori malakali kadrlar to'plangan va ilmiy tadqiqot markazlari bo'lgan rayonlarga joylashtirish zarur.

5. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini shunday joylashtirish kerakki, bunda mamlakat ayrim hududlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi ularning tabiiy, mehnat va boshqa boyliklariga mutanosib ravishda tenglashsin.

6. Ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda davlat mudofaasi manfaatlari ta'minlanishi kerak.

Bu tamoyillar kelajagi buyuk davlatimizning moddiy-texnika bazasini yaratishning, jamiyat manfaati yo'lida eng kam sarf qilib eng katta natijaga erishishning zaruriy shartidir.

Har bir tarmoq rivojlanishning muayyan bosqichida hududiy joylashtirishning o'ziga xos shaklini oladi. Bular: sanoat rayonlari va tugunlari, qishloq xo'jalik mintaqalari, transport tugunlari va magistrallari. Ularning muayyan makondagi aloqadorligi, iqtisodiy rayonlarning negizini hosil qiladi. Iqtisodiy rayonlar ta'rif-tavsifi darslikning ikkinchi bo'limida berilgan.

**„O'zbekiston iqtisodiyotining umumgeografik ta'rifi“ bo'limini umumlashtiruvchi takrorlash.**

1. Tarmoqning va tarmoqlararo majmuaning iqtisodiy-geografik tavsifini qanday reja bo'yicha tuzilishini yozing.

2. Og'ir sanoat tarkibini chizmada ko'rsating.

3. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirishning ahamiyatini tushuntiring, ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllariga aniq misollar keltiring.

4. Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

5. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning tabiiy resurs va tabiiy sharoitga bog'liqligini kamaytirishning qanday tadbirlarini bilasiz? Tabiiy boyliklar ahamiyatining davriy o'zgarishi nimalarga bog'liq?

6. Qora va rangli metallurgiya hamda agrosanoat majmualarining muhim rayonlarini aytib bering (topshiriqni yozuvsiz xarita va atlas yordamida bajarish



ham mumkin, unda sanoatning yirik markazlari, rayonlarning xomashyo, yoqilg'i va tayyor mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish aloqalari ko'rsatiladi).

7. Energiya ishlab chiqarish sikllari nima?

8. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning tabiatga ta'siri haqida gapirib bering. O'zbekistonda tabiiy muhitni muhofaza qilish yuzasidan qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

9. Quyidagi jadvalni to'ldiring. U geografik obyekt va hodisalarni kartaga tushirish usullari haqidagi bilimlarni yaxshi o'zlashtirish va mustahkamlashda Sizga yordam beradi.

Tasvirlash usuli <sup>1</sup>	VIII sinf uchun chiqarilgan atlas va ushbu darslikning qaysi kartalarida qanday usul qo'llanilganiga misol keltiring	
Harakat chiziqlari Areallar Geometrik, harfiy, badiiy belgilar Kartodiagramma Kartogramma Karta-sxema	nechanchi betda	nechanchi rasm

<sup>1</sup> Eslatma: Ko'p kartalarda tasvirlashning bir qancha usullari bir vaqtda qo'llaniladi.

---

---

## O'ZBEKISTONNING IQTISODIY RAYONLARI VA VILOYATLARI TA'RIFI

### O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI HUDUDIY TASHKIL ETISH VA IQTISODIY RAYONLASHTIRISH

Siz endi mamlakatimizning turli qismlari tabiiy va iqtisodiy sharoitlariga ko'ra bir-biridan farq qilishini bilib oldingiz. Yurtimizning bir joyida dehqonchilik salmog'i katta bo'lsa, yana bir qismida chorvachilikning zalvori katta. Bir hudud aholisi neft va tabiiy gaz qazib chiqarish hamda uni qayta ishlash bilan band bo'lsa, yana boshqa bir joydagilar ko'mir qazib chiqarish bilan mashg'ul. Boshqa bir hududda rangli metallurgiya rivojlansa, yana birida esa avtomobilsozlik rivojlanmoqda.

Xullas, har bir joyda bir yoki bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqarilib, uni mamlakatning shunday mahsulot ishlab chiqarilmaydigan qismlariga jo'natiladi. O'rniga esa o'ziga yetishmaydigan boshqa tur mahsulotlarni keltiradi. Shu yo'l bilan mehnat natijalari oqilona almashtiriladi.

**Mamlakatning ayrim qismlari o'rtasida mehnatning ana shunday taqsimlanishi geografik yoki hududiy mehnat taqsimoti deyiladi.**

Hududiy mehnat taqsimoti joyning muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvida yaqqol ifodalanadi.

**Shunday qilib, mehnatning geografik taqsimoti ayrim hududlarning xo'jalik jihatidan ixtisoslashuviga olib keladi. Bu ixtisoslashuv mamlakatda ijtimoiy mehnatni tejaydi va mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.**

Hududlarning ixtisoslashuvi tarixiy tarkib topadi. Xo'jalikning rivojlanishi, xususan, mamlakat hayotidagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sababli ixtisoslashish o'zgarishi ham mumkin. Masalan, Qashqadaryo neft va gaz konlari ochilishi hamda ishga tushirilishi tufayli yangi ixtisoslashishga ega bo'ldi. Vatanimiz siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng don mahsulotlari bilan o'zini

o'zi ta'minlash vazifasi qo'yildi. Shundan so'ng ko'pgina viloyatlarda g'alla ekinlari maydoni jadal ko'paydi. Demak, shu viloyatlarda paxtachilik bilan bir qatorda g'allachilikka ixtisoslashuv sodir bo'ldi.

Mehnatning geografik taqsimlanishi asosida o'z ixtisoslashuvi bir-biridan farq qiluvchi hududlar—iqtisodiy rayonlar ajratiladi.

Bunday iqtisodiy rayon (hudud)lar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv xos bo'lib, ularning mahsulot almashinuvi juda keng qamrovda amalga oshadi. Bunday rayonlarning odatda bir qancha ixtisoslashgan tarmoqlari bo'ladi.

Mamlakat miqyosida ixtisoslashgan tarmoqlarni qanday aniqlash mumkin? Mamlakat miqyosida rayon aholisini hissasi va rayonning ishlab chiqargan mahsuloti hissasi qanchaligini taqqoslab, iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashish ko'rsatkichi ( $K$ ) ni quyidagi formula bilan taxminiy ravishda aniqlash mumkin:

$$K = \frac{M}{A},$$

bu formulada  $M$  — mamlakatning umumiy mahsulotida rayon mahsulotining (mazkur tarmoq bo'yicha) salmog'i,  $A$  — mamlakatning butun aholisi sonida rayon aholisining salmog'i. Agar  $K$  ko'rsatkich birdan katta bo'lsa, bu tarmoq ixtisoslashgan tarmoq bo'ladi. Ixtisoslashish ko'rsatkichining katta-kichikligiga qarab, iqtisodiy rayonning shu xil tarmoqlar mahsulotini ishlab chiqarishdagi zalvori qanchalik katta yoki kichikligini bilsa bo'ladi.

**!** *O'qituvchingiz yordamida o'zingiz yashayotgan rayon qishloq xo'jaligining ixtisoslashish ko'rsatkichini hisoblang.*

Ixtisoslashgan tarmoqlarni aniq belgilash uchun fanda va amaliyotda murakkabroq hisoblash usullaridan ham foydalaniladi. Bunda xilma-xil ko'rsatkichlar, masalan, rayonlararo almashish ko'rsatkichi (rayondan tashqariga chiqariladigan mahsulot hajmining uni rayonda ishlab chiqarish hajmiga nisbati) va boshqa ko'rsatkichlar ham hisobga olinadi.

Muayyan hudud biror xil mahsulot ishlab chiqarishga quyidagi omillar asosida ixtisoslashadi: 1) qaysidir mahsulotni mahalliy ehtiyojlarga nisbatan ancha ko'p miqdorda ishlab chiqarish mumkin bo'lsa; 2) uni bu yerda ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlaridagidan ko'ra arzon tushsa; 3) bu mahsulotni ishlab chiqarish uzoq vaqt davomida zaxira bilan ta'minlanadigan bo'lsa.

## Hududiy majmualarga misollar

Tarmoqlar-ning tarki-biga ko'ra atali-shi Hududiy qamrov-ga ko'ra nomlanishi	Sanoat maj-mualari (sanoat tar-moqlarini o'z ichiga oladi)	Agrosanoat majmualari (qishloq xo'-jaligi va sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi)	Ishlab chiqarish majmualari (ICHM) (Ishlab chiqaruvchi soha tar-moqlari)	Mamlakat miqyosidagi majmualar (barcha ishlab chiqaradigan va ishlab chi-qarmaydigan tarmoqlarni o'z ichiga oladi)
Lokal (kichik) majmualar	Sanoat tugunlari (uzellari). Masalan: Toshkent yoki Andijon sanoat uzeli kabi	Birlashma jamoa xo'jaligi bilan sanoat korxonasi (Xalqobod yoki Qibray konserva zavodlari kabi)		
Rayonning bir qismi (viloyat)ga xos majmualar	Muborak gazni qayta ishlash majmuasi kabi	Toshkent yonidagi agrosanoat majmuasi va boshqalar	Shakllanayot-gan ICHMlar Turkiya bilan hamkorlikda barpo etila-yotgan to'qima-chilik sanoati majmualari.	
Rayon majmualari (iqtisodiy rayon hududi)	Toshkent iqtisodiy rayonidagi „Chirchiq-Ohangaron“ sanoat rayonlari	Mirzacho'l yoki Samarqand iqtisodiy rayonlarining agrosanoati majmui kabilar	Toshkent iqtisodiy rayonidagi qora metallurgiya yoki Olmaliq tog'-kon sanoati majmuasi	Qoraqalpog'is-ton Respublikasi darajasidagi majmualar
Rayonlararo majmualar		Janubiy g'alla bazasi (Qashqadaryo va Surxon-daryo)		
Respublika majmuasi (Butun mam-lakat hududi)	—	O'zbekiston agrosanoat majmuasi		O'zbekiston-ning milliy iqtisodiyot majmuasi

Bundan tashqari, ixtisoslashish imkoniyati transportga (axir transportsiz mahsulot ayirboshlash mumkin emas-ku) va mahsulotni tashish xarajatlariga ham bog'liq.

Rayondagi ishlab chiqarish korxonalarining muayyan qismigina ixtisoslashgan tarmoqlarga kiradi. Qolganlari esa ixtisoslashgan tarmoqqa xizmat qiluvchi, ko'maklashuvchi y o r d a m c h i t a r m o q l a r n i t a s h k i l e t a d i (masalan, mashinasozlik ixtisosli tarmoq bo'lsa, unga o'tga chidamli materiallar ishlab chiqarish, metall quyish korxonalari, mahalliy energetika kabilar ko'maklashuvchi korxonalar hisoblanadi). Rayon aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta'minlovchi korxonalar xizmat qilish tarmoqlari tarkibiga kiradi.

Ishlab chiqarishning bu barcha tarmoqlari uchun makon umumiy, mehnat, energetika va suv ta'minoti, transport tarmoqlari umumiy bo'lib, ulardan birgalikda foydalaniladi. Binobarin, ularning ishlab chiqarish jarayonlari bir-biri bilan bog'langan. Demak, iqtisodiy rayonlar ixtisoslashuv bilangina emas, balki xo'jalikning o'ziga xos har tomonlama (kompleks) rivojlanishi bilan ham ajralib turadi.

**Iqtisodiy rayon: a) mamlakat miqyosida ixtisoslashgan; b) majmualari xo'jalik shakllangan; d) geografik o'rni o'ziga xos; e) tabiiy boyliklari bilan ish kuchi boshqa rayonlardan farq qiluvchi hudud (makon)dir.**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududi turlicha darajada rivojlangan sakkizta iqtisodiy rayonga ajratilgan. Rayonning rivojlanganlik darajasini uning hududida qanday hududiy-ishlab chiqarish majmualari (HICHM) mavjudligi va ular qay darajada shakllanganidan bilish mumkin.

**Hududiy ishlab chiqarish majmuasi — ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarga qarashli har xil korxonalarining bir umumiy hududdagi o'zaro bog'langan uyg'unligidir. U mamlakat miqyosida mablag'larni anchagina iqtisod qiladi, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshiradi, tabiat muhofazasini, xalqimizning turmush, mehnat, dam olish sharoitlarining yaxshilanishini ta'minlaydi.**

Bularning hammasiga yagona transport, energetika va qurilish bazalararo o'zaro bog'langan korxonalarining (kooperativlash, kombinatlash asosida) yaqin joylashtirilish hisobiga, shuningdek tabiiy boyliklardan va ish kuchlaridan, ikkilamchi xomashyo hamda chiqindilardan oqilona foydalanish hisobiga erishiladi.


HICHMlar qimmatli zaxiralar ko'p to'plangan hududlarni tezroq va tejamliroq o'zlashtirishga imkon beradi. Har bir HICHM egallagan maydoni va tarmoqlarining tarkibiga ko'ra boshqasidan farq qiladi. Buni quyidagi jadvaldan osongina idrok etish mumkin:

Respublikaning hamma qismlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarixiy rivojlanishi, tabiiy hamda iqtisodiy shart-sharoitlari bir xil emas. Shunga ko'ra, muayyan hududda tarmoqlararo majmualardan bittasi yoki bir nechitasi tarkib topishi mumkin. Tarmoqlararo majmualar yuksalganlik darajasi bo'yicha ham birbiridan farqlanadi. Masalan, paxtachilik majmui hamma viloyatlarda shakllanib bo'lgan. Rangli metallurgiya majmui faqat Toshkent viloyatida eng takomiliga yetgan. Samarqand va Buxoro viloyatlarida esa shakllanishning quyi bosqichida, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida deyarli yo'q (38-rasm). Hududiy ishlab chiqarish majmualarining o'zaro bog'lanishidan bir qancha iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Shunga ko'ra O'zbekiston 8 ta iqtisodiy rayonga ajratiladi.

1. Toshkent iqtisodiy rayoni — Toshkent viloyati.
2. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni—Sirdaryo va Jizzax viloyatlari.
3. Farg'ona iqtisodiy rayoni—Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari.
4. Samarqand iqtisodiy rayoni — Samarqand viloyati.
5. Buxoro — Navoiy iqtisodiy rayoni — Buxoro va Navoiy viloyatlari.
6. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni — Qashqadaryo viloyati.
7. Surxondaryo iqtisodiy rayoni — Surxondaryo viloyati.
8. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni — Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

! *Geografiya daftariga har bir iqtisodiy rayon va undagi hududiy ishlab chiqarish majmualari nomini yozing (6-jadval).*

## 21-§. Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent viloyati)






























































































**!** Rayon aholisining sonini va maydonining kattaligini ilovadagi 1-jadvaldan aniqlang.

### Iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy boyliklari

Toshkent iqtisodiy rayoni Toshkent viloyati hududiga to‘g‘ri keladi. U respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Sirdaryoning irmoqlari: Chirchiq va Ohangaron daryolari oqib o‘tadigan vodiylarni egallaydi. Uning geografik o‘rni juda qulay. Avvalo rayonning Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l va Zarafshon vohalari, yana ham kattaroq qamrovda qaralsa, O‘zbekistonning chorvachilik, paxtachilik taraqqiy topgan rayonlarini Rossiyaning Yevropa qismi, Qozog‘iston hamda Sibir bilan bog‘laydigan temir yo‘lining Toshkent iqtisodiy rayoni ustidan o‘tganligi shu qulaylikni yaratadi. Shular tufayli Toshkent iqtisodiy rayoni o‘ziga tutash hududlarni bir-biriga iqtisodiy bog‘lovchi tugun hisoblanadi. Toshkentning geografik o‘rniga xos qulayliklar e‘tiborga olinib, O‘zbekistonning poytaxti 1930-yilda Samarqanddan Toshkentga ko‘chirildi. Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni va yer yuzasi (tog‘, tog‘ oldi, daryo vodiysi va tekislik)ning xilma-xilligi hamda sanoatning yuksalganligi qishloq xo‘jaligi ixtisosiga jiddiy ta‘sir etgan.

Rayonning tekislik qismi dengiz sathidan 250—450 metr balanda joylashgan Chirchiq va Ohangaron vodiylaridan iborat. Bu vodiylarning Sirdaryoga tomon 100 km. dan ortiq masofada bir tekisda pasayib borishi sug‘orib, dehqonchilik yuritishni osonlashtiradi. Shu tufayli bu yerlardan uzoq zamonlardan buyon xo‘jalik

Viloyatlar	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	Toshkent	Sirdaryo	Jizzax	Ardijon	Fargʻona	Namangan	Samarqand	Buxoro	Navoiy	Qashqadaryo	Surxondaryo	Xorazm
Tarmoqlararo majmualar													
Agro-sanoat majmuasi													
Yoqilgi-energetika-kimyomajmuasi													
Metallurgiya majmuasi													
Mashinasozlik majmuasi													
Binokorlik materiallari majmuasi													
Sotsial majmua													

### Shartli belgilar



majmua shakllangan



majmua jadal shakllanmoqda



majmua shakllanishi sust

38-rasm. Viloyatlarda tarmoqlararo ishlab chiqarish majmualarining rivojlanish darajasi.



maqsadlarida foydalanib kelinadi. Endilikda tekisliklarning tabiiy ko'rinishi butkul o'zgaragan.

Tog' va tog' oldilarida yillik yog'in miqdori 500—700 mm. Yog'inning bahorda ko'p bo'lishi ekinlarni, ayniqsa mevali daraxtlarni sug'ormay o'stirish imkonini beradi. Tog'lardan oqib tushadigan daryolardan faqat dalalarni sug'orishdagina emas, balki elektr quvvati olishda ham foydalanilmoqda. O'tmishda tog'lardagi o'rmonlardan pala-partish foydalanib, ular nes-nobud qilingan. Natijada uzoq yillar mobaynida qaror topgan tabiat unsurlarining o'zaro aloqadorligiga jiddiy putur yetgan. Endilikda tog' yonbag'irlaridan kun ilishi bilanoq qorlar erib, yomg'ir suvlariga qo'shilib, sel hosil bo'lmoqda (sel qanday zarar keltirishini o'ylab ko'ring). Seldan saqlaydigan inshootlar va suv omborlari barpo qilinmoqda. Tog' yonbag'irlarida o'rmonzorlar barpo qilinmoqda. Iqtisodiy rayon suv bilan yaxshi ta'minlangan. Suvga bo'lgan ehtiyojni asosan Chirchiq, Ohangaron daryolari qondiradi.

Chirchiq daryosi Ohangaron daryosiga nisbatan sersuv va quvvat imkoniyatlariga boy. Chirchiq-Bo'zsuvi pog'onali kaskadida 19 ta GES ishlab turibdi. Iqtisodiy rayondagi obikor maydonlarning 70 foiziga yaqinini Chirchiq daryosi sug'oradi.

Chirchiq dalalarni sug'orishdan tashqari, Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l kabi yirik shaharlarning aholisini ham, ulardagi sanoat korxonalarini ham suv bilan ta'minlaydi.

Chirchiq suvidan yanada samarali foydalanish maqsadida uning yuqori oqimida sig'imi 2,0 mlrd m<sup>3</sup> bo'lgan Chorvoq suv ombori barpo etilgan.

Ohangaron daryosida suv nisbatan kam. Bu daryo asosan qordan to'yinib, bahordagina to'lib oqadi. Suvdan samarali foydalanish uchun daryoning o'rta oqimida Tuyabo'g'iz suv ombori („Toshkent dengizi“ deb ham ataladi) qurilgan. Ohangaron daryosida suv tanqis bo'lganida Chirchiq suvidan foydalanish maqsadida Chirchiq daryosi bilan Ohangaron daryosi (Katta Toshkent nomli) kanal orqali tutashtirilgan. Umuman rayon hududida Bo'zsuvi, Zax, Qorasuv, Dalvarzin, Shimoliy Toshkent, Morgunenkov kabi o'nlab kanallar qurilgan.

Iqtisodiy rayonning ko'p qismida o'simliklarning o'sish muddati 200 kundan ortiq. Quyosh radiatsiyasi esa 4000° — 4500° ga yetadi. Iqlim sharoiti o'rtapishar paxta yetishtirishga, sabzavot ekinlaridan

yiliga 2—3 marta, bedadan 4—5 marta hosil olishga imkon beradi. Shu bilan birga, bahor va kuzda baʼzan kunlar toʻsatdan sovib ketib, mevali daraxtlar, hatto paxta ham sovuqdan zarar koʻradi.

Qazilma boyliklarning xilma-xilligi jihatidan biron-ta rayon Toshkent iqtisodiy rayoniga teng kelolmaydi. Rayonda oltin, mis, qoʻrgʻoshin, rux rudasi, molibden, koʻmir, aluminiy xomashyosi, marmar, shisha qumi, ohaktosh konlari hamda boshqa konlar bor. Bu konlar aholi zich joylashgan hamda qishloq xoʻjaligi rivojlangan rayonlar yaqinidaligidan iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rayonning oʻzida neft, tabiiy gaz yoʻq, u Buxoro—Navoiy iqtisodiy rayonidan keltiriladi.

Angren koʻmir havzasi iqtisodiy rayondagina emas, balki butun mamlakatimizda, hatto Oʻrta Osiyoda eng yirik koʻmir koni hisoblanadi (koʻmir zaxirasi qanchaligini eslang). Koʻmir qatlamlari yer yuziga yaqin joylashgan va qatlamlar orasida aluminiy, sement, keramika ishlab chiqarishda xomashyo boʻla oladigan gilmoya koʻplab uchraydi.

**Aholisi.** Iqtisodiy rayon aholi sonining va turli millat vakillarining koʻpligi bilan barcha iqtisodiy rayonlaridan ajralib turadi (Ilova. 1-jadvaldan foydalanib aholi zichligini aniqlang).

Mamlakatimiz aholisining 20 foizga yaqini Toshkent viloyatida yashamoqda. Aholining milliy tarkibi xilma-xil. 40 dan ortiq millat vakillari ichida oʻzbeklar eng koʻp salmoqqa ega. Ruslar son jihatdan ikkinchi oʻrinda turadi. Shundan keyingi oʻrinlarda tatarlar, qozoqlar, koreyslar, ukrainlar, tojiklar turadi (39-rasm). Aholi milliy tarkibining bu qadar murakkabligi sobiq Ittifoq davrida boshqa respublikalardan, ayniqsa Rossiya Federatsiyasidan koʻplab oilalarni rejali ravishda koʻchirib keltirish oqibatidir.

Iqtisodiy rayonda shahar aholisining salmogʻi Toshkent shahri aholisi qoʻshilmaganda 41,6 foizni tashkil etadi. Umumiy aholi sonidagi mehnatga yaroqlilar salmogʻi boʻyicha Toshkent iqtisodiy rayoni respublikada eng oldinda turadi. Bu rayonda ishchi kuchlarining maʼlumot darajasi ham yuqori. Buning sababi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi bilan Qishloq xoʻjalik fanlari akademiyasi va ularning ilmgoh hamda laboratoriyalarining, shuningdek, respublikadagi 62 ta oliy oʻquv yurtidan 21 tasining shu rayonda jamlanganidir.

**Xoʻjaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** XX asr boshida Toshkent iqtisodiy rayoni taraqqiyot jihatidan Fargʻona vodiysidan

# 1989

□ O'ZBEKLAR

□ RUSLAR

■ TOJIKLAR

■ QOZOQLAR


□ TATARLAR

□ QIRG'IZLAR


□ KOREYSLAR

■ TURKMANLAR

□ BOSHQA MILLATLAR



# 1999




39- rasm. Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibi.

keyinda turar, sanoati asosan qishloq xo'jalik xomashyosiga — ko'proq paxtaga dastlabki ishlov beradigan korxonalaridan iborat edi. Qishloq xo'jaligida paxta bilan birga g'alla, sabzavot, sholi, meva va uzum yetishtiriladi.

Rayonda xilma-xil foydali qazilma konlari topilishi natijasida kon-tog' sanoati vujudga kelib, og'ir sanoatning jadal yuksalishiga imkoniyat tug'ildi. Sanoatining rivojlanganligi jihatidan rayon respublikada birinchi o'ringa chiqib oldi (40-rasm).

Bunda: a) rayonning qulay iqtisodiy-geografik o'rni; b) respublika poytaxti Toshkentning shu rayonaligi; d) foydalanish



40-rasm. Toshkent viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

qulay bo'lgan gidroquvvat mavjudligi; e) xilma-xil foydali qazilmalar topilib, ishga tushirilgani; g) urush yillarida sobiq Ittifoqning g'arbiy rayonlaridan ko'chirib keltirilgan korxonalarining yarmidan ko'pi Toshkent viloyatiga joylashtirilgani; f) chetdan malakali mutaxassislar ko'plab shu rayonga jalb etilgani muhim rol o'ynaydi.

Endilikda iqtisodiy rayon xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, unda respublikadagi tarmoqlararo 6 ta majmuaning hammasi tarkib topgan. Sanoatning respublikaga xos bo'lgan 100 ta tarmog'ining deyarli barchasi shu rayonda mavjud.

Yalpi sanoat mahsulotining  $\frac{2}{3}$  qismi og'ir sanoatga to'g'ri keladi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari ham boshqa barcha rayonlardagidan ko'ra yuksak rivojlangan.

Rayon iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida xomashyo tayyorlashdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlar rayon hududida bajariladi.

Yoqilg'i-energetika-kimyo majmui yaxshi rivoj topgan. Majmua negizini elektroenergetika sanoati tashkil etadi. Elektr quvvati Chirchiq — Bo'zsuv pog'onali sharsharasi quvvatiga, Angren ko'miri va Buxoro — Navoiy hamda Qashqadaryo iqtisodiy rayonlaridan keltirilgan tabiiy gazga asoslanadi. Toshkent va qisman Angren GRESlari gaz bilan ishlaydi. Yangi Angren GRESi shu yerda qazib chiqariladigan ko'mirni ishlatadi.

Rangli metallurgiya iqtisodiy rayonning eng yuksak rivojlangan majmuidir. Respublikada ishlab chiqarilayotgan qora va rangli metallurgiya mahsulotining hammasini shu rayon beradi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish aloqasi hamda joylashuviga muvofiq Toshkent — Chirchiq — Yangiyo'l; Angren — Olmaliq sanoat rayonlari vujudga kelgan. Angren — Olmaliq sanoat rayoni respublikamiz rangli metallurgiya sanoatida salmoqli o'rin egallaydi. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin va kumush birga uchraydi. Bu yerda mis eritish zavodi va Olmaliq qo'rg'oshin-rux kombinati ishlab turibdi. Rux zavodining uchinchi navbati, mis zavodining ikkinchi navbati qurilmoqda.

Rangli metallurgiyaning ikkinchi markazi Chirchiqdir. Bu yerda qiyin eriydigan va o'tga chidamli qotishmalar kombinati joylashgan. Bu kombinat Ingichka, Qo'ytosh hamda Olmaliq ruda konlari bilan ishlab chiqarish orqali bog'langan. Kombinatsion ishlab chiqaradigan mahsulot turi 100 xildan ortadi. Sun'iy tola yetkazib beruvchi kaprolaktan zavodi ham shu shaharda.

Qora metallurgiya sanoatining yirik korxonasi Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Uning xomashyosi asosan temir-tersakdir. Zavodda 3 ta marten pechi, prokat sexi, metall quyadigan termik sex va bir qancha yordamchi korxonalar bor.

1979-yildan elektr yordamida po'lat eritish yo'lga qo'yildi. Shunga qaramay, zavod O'zbekistonning metallga bo'lgan ehtiyojini qisman qondiradi, xolos. Hozir Bekobod metallurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida Urganch, Boyovut, Qarshi, Kitob, Denov va Taxiatoshdan temir-tersak yig'ish va qayta ishlash bazalari barpo etilmoqda.

Mashinasozlik asosan agrosanoat majmuini mexanizatsiyalashga mo'ljallab ixtisoslangan. Uning muhim korxonalari Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi, Chirchiq qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodlaridir.

Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi paxta terish mashinalari ishlab chiqaradigan dunyodagi ikkita zavodning biridir (ikkinchisi AQSH da). Mashinasozlik agrosanoat majmuiga xizmat etishdan tashqari, to'qimachilik mashinalari va paxta tozalash sanoati uchun uskunalar, suv xo'jaligi uchun mashinalar va asbob-uskunalar ham ishlab chiqaradi. Toshkent to'qimachilik mashinasozligi, Toshkent ekskavator, Paxtachilik asbobsozligi zavodlari ana shunday korxonalardir. Elektrotexnika („Toshkentkabel“, Chirchiqdagi „Transformator“, Toshkentdagi „Elektrotexnika“ zavodlari) va kimyo mashinasozligi (Toshkentdagi „Kompresor“ va Chirchiqdagi O'zbekiston kimyo mashinasozligi zavodlari) ham muhim o'rin egallaydi.

Rayon mashinasozlik korxonalarida samolyotlar, turli xil uskunalar va asboblardan (Toshkentdagi Karborund, Abraziv zavodlari), elektron-texnika mahsulotlari, ko'tarish-ortish asboblari (Toshkentdagi „Pod'yomnik“ va „Toshkentkabel“ zavodlari) ishlab chiqariladi.

Binokorlik materiallari sanoati iqtisodiy rayonda sanoat va uy-joy qurilishi ko'lamining kattaligi va qurilish xomashyosi mavjudligi tufayli yaxshi rivoj topdi. Bekobod, Angren va Ohangaronda sement zavodlari, G'azalkentda oyna va marmar zavodlari ishlab turibdi. Toshkent, Olmaliq va Chirchiqda uysozlik kombinatlari bor. Rayonda Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, Olmaliq, Angren va Bekobod sanoat tugunlari tarkib topgan (xaritadan aniqlang). G'azalkent, To'ytepa, Keles kabi o'nlab sanoat markazlari yuksalmoqda.

Toshkent iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligining intensivligi bilan ham ajralib turadi. Bu soha ko'p tarmoqli bo'lib, sabzavot va meva

yetishtirishda respublikada boshqa iqtisodiy rayonlardan oldindadir. Yangiyo‘l, Qibray, Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron, Zangiota va Toshkent rayonlari sabzavot va meva yetishtirishga ixtisoslashgan. Ular tutashlikda shahar atrofi mintaqasini tashkil etadi. Mamlakatimizning barcha yirik shaharlari atrofida mana shunday mintaqa shakllanishida iqtisodiy-geografik omil katta ahamiyat kasb etadi (41-rasm). Sug‘oriladigan yerlarda paxtadan tashqari kanop (Chirchiq havzasida) va sholi yetishtiriladi.


Sanoat tugunlari atrofidagi sut-go‘sh t yetishtiradigan chorvachilik majmualari fermerlarda hamda tog‘ va tog‘ etaklaridagi yaylovlarda boqiladigan qo‘y-echkilardan iborat. Shahar atroflarida parrandachilik rivoj topmoqda, sun‘iy suv havzalarida baliq yetishtiriladi. Sug‘oriladigan rayonlarda ipak qurti boqiladi. Iqtisodiy rayonda ijtimoiy soha ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda 4 ta sanatoriy, 8 ta dam olish uyi va pansionat bor. Toshkent atrofida „Qibray“ va „Toshkent mineral suvi“ oromgohlari joylashgan.

Viloyatning Yangiyo‘l, Zangiota, Toshkent va Qibray rayonlarida ko‘plab issiqxonalar tashkil etilgan.

Og‘ir sanoatning jadal yuksalishi, qishloq xo‘jaligining ko‘p tarmoqligi bazasida yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan.

Respublika oziq-ovqat sanoati mahsulotining deyarli 1/3 qismi shu rayonda tayyorlanadi. Rayon xo‘jaligining xususiyati hamda geografik o‘rni ichki va tashqi iqtisodiy aloqani keng ko‘lamli bo‘lishini taqozo etadi. Tashqi aloqa asosan temir yo‘l orqali olib boriladi. Qozog‘iston, Turkmaniston va Farg‘ona vodiysi tomonlarga paxta, ipak, paxtachilik uchun zarur mashina va uskunalar, to‘qimachilik mashinalari, kabel, ekskavatorlar, ko‘tarma kranlar, elektr quvvati, texnika asbob-uskunalar, qorako‘l terilari, rangli metall konsentratlari, ip va ipak gazlamalar, kanop va kanop mahsulotlari hamda meva jo‘natiladi. Rayon ehtiyoji uchun yog‘och, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, turli xil sanoat mahsulotlari, mashina qismlari, keng iste‘mol mollari keltiriladi. Ichki iqtisodiy aloqalarda avtomobil va qisman temir yo‘l transportidan foydalaniladi.

1930—1940-yillardan rayonda avtomobil yo‘llari vujudga keldi, asfalt va tosh yo‘llar qurildi. Katta O‘zbek trakti (700 km) Toshkentni Termiz bilan bog‘laydi. Toshkent—Angren—Qo‘qon tog‘ yo‘li qayta qurilib, jahon talablari darajasidagi xalqaro yo‘lga aylantirildi. Toshkent — Chirchiq—Burchmulla va Toshkent —



41 -rasm. Geografik o'rinning rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.



Oqqo'rg'on — Bo'ka yo'llarida yuzlab avtobuslar, yuk mashinalari qatnab turibdi. Toshkent — Chinoz — Guliston avtotrassasi respublikada birinchi darajali yo'l hisoblanadi.

Toshkent — Angren, Toshkent — Chorvoq hamda Mirzacho'lni kesib o'tgan Sirdaryo — Jizzax temir yo'l shoxobchalarining ahamiyati katta.

**Shaharlari.** *Toshkent* — O'zbekiston Respublikasining poytaxti. Osiyoning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazidir. U mam-lakatning asosiy transport tuguni bo'lib, aholisining soni 2300 ming kishidan ortadi.


Toshkent — Chirchiq — Ohangaron vohasida, tog'lardan biroz uzoq (80—100 km) da joylashgan. Qadimda G'arb bilan Sharqni bog'lagan karvon yo'llari Toshkentdan o'tgan. Shahar qarorgoh sifatida 2000 yil burun vujudga kelgan bo'lsa-da, uning Toshkent deya atalishi dastlab Beruniy asarlarida tilga olingan.

Asrimiz boshlariga qadar egri-bugri ko'chalar, sinch va paxsadan qurilgan uylar shahar qiyofasini belgilar edi.

Toshkent aholisining asosiy qismi o'zbeklar bo'lib, unda milliy hunarmandchilik hamda savdo-tijorat avj olgan edi. Shaharni ruslar bosib olganidan so'ng shakllangan sharqiy qismida ruslar yashardi. Ikkinchi jahon urushi yillarida shaharga sobiq Ittifoqning g'arbiy rayonlaridan ko'plab aholi bir qancha sanoat korxonalari, o'quv va madaniy muassasalar ko'chirib keltirildi. 1966 -yil 26-apreldagi kuchli zilziladan shahar jiddiy shikastlandi. Qisqa vaqt ichida zilzila oqibatlari tugatildi. Shaharda ko'p qavatli binolar, to'g'ri, keng ko'chalar, xiyobonlar barpo etildi, metropoliten qurishga kirishildi. Lekin shaharning sharqona qiyofasi yo'qolib, yevropacha ko'rinishga kirdi. Aholisining milliy tarkibi murakkablashib, o'zbeklar salmog'i 80 foizdan 40 foizga tushdi (42-rasm). Yerli aholining aksariyati shahar markazidan ko'chib, uning chekka rayonlariga o'rnashdi.

Hozir shahardagi sanoat korxonalari va birlashmalari 410 tadan ortadi. Ular respublikaning 25 foizdan ortiq sanoat mahsulotini ishlab chiqarmoqda.

Toshkent qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mashinasozligining yirik markazi hisoblanadi. Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi va O'zbekiston paxtachilik mashinasozligi zavodlarida paxtachilikni mexanizatsiyalash uchun 200 xildan ortiq mashina va uskunalar ishlab chiqariladi.



42- rasm. Toshkent aholisining milliy tarkibi.

Toshkentdagi traktor zavodi, aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, ekskavator zavodi, „Algoritm“, „Zenit“, „Pod'yomnik“, „Kompresor“, „Toshgazapparat“ va boshqa korxonalar mahsulotlari chet ellarga ham chiqariladi.

Shaharda 30 dan ortiq yengil sanoat korxonalari bo'lib, ulardan eng yiriklari Toshkent to'qimachilik kombinati, tikuvchilik, trikotaj va poyabzal fabrikalaridir. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining soni 40 tadan ortiqdir. Bular orasida elevator, qandolat va tamaki fabrikalari salmoqli o'rin tutadi.

Toshkentning qayta qurilishi munosabati bilan binokorlik materiallari sanoati korxonalari, o'tga chidamli buyumlar, kera-

mika, yig'ma beton bloklar ishlab chiqaradigan korxonalar, yog'ochsozlik zavodi va boshqalar bunyod etildi.

Mamlakatimizda yagona musiqa asboblari ishlab chiqaradigan fabrika ham Toshkentdadir.

Shaharning energetika negizi Chirchiq — Bo'zsuv gidroelektrostansiyalar tizimi va Toshkent GRESiga tayanadi. Ular mamlakat energetika tizimiga ulangan.

Toshkent muhim transport tugunidir. O'rta Osiyo davlatlarini boshqa mamlakatlar bilan bog'laydigan temir yo'l, avtomobil yo'llari Toshkent orqali o'tadi. Shahar bilan atrofidagi rayonlarni elektropoyezd bog'lab turadi. Toshkent 20 dan ortiq xorijiy davlatlar poytaxtlari bilan havo yo'li orqali bog'langan. Shaharda 2 ta temir yo'l vokzali, 2 ta aeroport, 5 ta avtostansiya ishlaydi.

Toshkent respublikamizdagina emas, balki butun O'rta Osiyoda ham eng yirik madaniyat markazi hisoblanadi. Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasi va ularning o'nlab ilmiy tekshirish institutlari hamda laboratoriyalari, 21 ta oliy o'quv yurti, 32 ta texnikum bor. Shaharda 330 dan ortiq maktab, 9 teatr, filarmoniya, sirk, o'nlab madaniyat saroylari va klublar, 122 kinoteatr, telestudiya va 6 stadion bor.

Toshkentda Chilonzor, Qoraqamish, Oqtepa, Ibn Sino dahalari, Talabalar, Akademiklar, Shifokorlar shaharchalari bunyod etildi.

Shahardagi ba'zi tarixiy binolar, jumladan „Ko'kaldosh“ madrasasi, „Podshomat buva“ maqbarasi bilan birga „Xalqlar do'stligi“, „San'at saroyi“ va „Turkiston“ saroylari, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, Navoiy, Hamza, Muqimiy, A. Hidoyatov nomli teatrlar, „O'zbekiston“, „Chorsu“, „Tata“, „Interkontinental“ mehmonxonalari, O'zbekiston Milliy banki binolari, „Yunusobod“ tennis korti, „Jar“ sport majmuasi me'morchilikning noyob namunalari hisoblanadi.

1991-yil 31-avgustda Toshkentda O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi. Toshkent O'zbekiston Respublikasining siyosiy markazi hamdir. Bu yerda O'zbekiston Prezidentining qarorgohi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek ijtimoiy harakat va partiyalarning markazlari, chet el elchixonalari, BMT va uning tizimidagi xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan.

Qadimiy Anhor arig'ı sohili va unga tutashgan „Mustaqillik“ maydoni shaharning markazini tashkil etadi. Bu joyda siyosiy-ma'muriy, madaniy hamda sport muassasalari binolari va inshootlari qad ko'targan.

Endilikda Toshkent shahri atrofıdagi avtomobil halqa yo'lıdan (64 km) chetga chiqib, maydoni 25 ming hektardan oshib ketdi.

Toshkentda shimoli-g'arbiy shamol ustuvorligi hisobga olinib, shaharning shimol va g'arb qismida asosan turarjoylar, oliy o'quv yurtlari, davolanish, sport va madaniy muassasalar joylashgan.

Shaharda barcha zamonaviy transport turlari tizimi shakllangan, metro, tramvay, trolleybus va avtobuslar xizmati o'zaro uyg'unlashtirilgan.

Shahar chekkasi bog' va tokzorlarga, sabzavot hamda poliz yetishtirishga ixtisoslashgan rayonlarga tutashib ketgan.

*Chirchiq* shahri — sanoat ahamiyatiga ko'ra Toshkentdan keyin turadi. Chirchiq shahri Toshkentdan 30 km shimoli-sharqda bo'lib, u Chirchiq daryosi gidroenergiyasidan foydalanishi, shu energiya bazasida azot o'g'iti ishlab chiqaradigan kimyo kombinati qurılıshi tufayli barpo bo'lgan. Endilikda Chirchiq kimyog'arlar va mashinasozlar shahriga aylandi. „Chirchiqkimyomash“, „O'zbekkimyomash“ va „Chirchiqelektromash“ zavodlari iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun mashinalar ishlab chiqaradi. O'tga chidamli va qattiq qotishmalar zavodi metallurgiya sanoatining muhim korxonalaridandir. Bulardan tashqari temir-beton konstruksiyalar zavodi, g'isht zavodi, oyna zavodi, poyabzal va tikuv fabrikalari, non zavodi, go'sht kombinati va boshqa korxonalar bor. Sanoat mahsulotlari hajmiga ko'ra Chirchiq shahri respublikada to'rtinchi o'rında turadi (shaharda qancha aholi yashashini ilovadagi 4-jadvaldan ko'ring).

Chirchiq shahri muhim madaniyat markazidir. Chirchiq daryosining vodiysi, ayniqsa uning yuqori qismi bog' va uzumzorlardan iborat. Bog'lar maydoni tobora tog' tomonga kengayib bormoqda. Bundan tashqari, vodiya muhim dam olish zonasi hisoblanadi.

Chirchiq shahridan yuqorida yosh *G'azalkent* shahri bor. U tobora kurort shahriga aylanib bormoqda.

Chirchiq daryosi quyi oqimining o'ng sohilida, Toshkentdan 30 km janubi-g'arbda sanoat tuguni — *Yangiyo'l* joylashgan. U tashkil topishi va ixtisosiga ko'ra boshqalardan butunlay farq qiladi.

Masalan, Chirchiq, Angren va Olmaliq sanoat tugunlari butunlay kimsasiz joyda, yaqindagina vujudga kelgan va og'ir sanoatga ixtisoslashgan bo'lsa, Yangiyo'l shahri esa qadimgi qishloq (Qovunchi) o'rnida vujudga keldi hamda yengil sanoatga va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashdi. Yangiyo'l Toshkent vohasining markazida, dehqonchilik rayonining o'rtasida joylashgan. Shu sababdan shaharni paxta dalalari, mevali bog'lar, uzumzorlar hamda chorvachilik fermalari o'rab olgan. Yangiyo'l shahri Yangiyo'l sanoat tugunining markazi hisoblanadi. Shahardagi sanoat korxonalari ichida paxta tozalash zavodi, moy, sovun, sut va vino zavodlari, yirik konserva zavodi, go'sht kombinati hamda qandolat fabrikasi alohida ajralib turadi.

Yangiyo'l sanoat tuguni korxonalari Toshkent — Chirchiq sanoat rayonidagi ko'pgina korxonalar bilan kooperatsiya asosida ishlab chiqarish aloqalari olib boradi. Bu hol elektr energiya, transport hamda Chirchiq — Bo'zsuv energiyasidan birgalikda foydalanishda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Yangiyo'l sanoat tuguni mahsulotining asosiy qismini Toshkentga jo'natadi. Yangiyo'l shahrida oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga shaharda boshqa korxonalar, masalan, gidroliz, „Metiz“ g'isht va texnikaviy rezina zavodlari hamda tikuvchilik, poyabzal kombinatlari ham bor. Asrimiz boshlarida bu yerda bittagina maktab bo'lgan bo'lsa, hozir 13 ta maktab, musiqa bilim yurti, oziq-ovqat sanoati texnikumi, tibbiyot hamshiralari maktabi, viloyat teatri, viloyat o'lkashunoslik muzeyi, kinoteatr va boshqa madaniyat muassasalari bor. Paxta mashinalarini sinaydigan mashinasozlik stansiyasi ham shu yerda (*ilovadagi 4-jadvaldan shaharda qancha aholi yashashini aniqlang*).

*Angren— Olmaliq sanoat rayoni* tarkibiga Angren, Olmaliq sanoat tugunlari hamda Ohangaron sanoat markazi kiradi. Bu sanoat rayoni Angren vodiysining o'rta va yuqori qismidan topilgan foydali qazilmalar negizida vujudga kelgan.

Qishloq xo'jaligi rayon aholisining o'sib borayotgan ehtiyojiga muvofiq sabzavot, kartoshka hamda chorva mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan. Aholi asosan shaharlarda hamda sanoat korxonalari atrofida joylashgan.

*Angren* — rayonning muhim sanoat tuguni. Angren Toshkentdan sharqda, tog'li yerda joylashgan. Angren temir yo'l (114 km) hamda avtomobil yo'li orqali Toshkent bilan bog'langan. Shahar

40-yillarda ko‘mir qazib olishning yo‘lga qo‘yilishi bilan sanoat punkti sifatida paydo bo‘lgan. Endilikda Angren shahri muhim tog‘- kon sanoatiga aloqador bir qancha korxonalarni birlashtirgan sanoat tuguniga aylandi. Shahar sanoatida GRES alohida o‘rin tutadi: u hozircha rayonning eng katta elektr stansiyasi bo‘lib, barcha sanoat korxonalarini elektr energiya bilan ta‘minlaydi. Angrenda yirik sement zavodi, sopol buyumlari zavodi, temir-beton konstruksiyalar, uysozlik kombinati va boshqalar bor (*ilovadagi 4-jadvaldan shaharda qancha aholi yashashini aniqlang*).

Aholining tez ko‘payib borayotganini nazarda tutib, aholiga xizmat qiluvchi korxonalar: go‘sht kombinati, non zavodi, maishiy xizmat ko‘rsatish kombinati qurilgan.

Angrenda oltin ajratib olish fabrikasi barpo etilgan.

Shahar ostida ko‘mir qatlami borligi ma‘lum bo‘lgach, yangi qurilishlar Angrendan 4 km janubi-g‘arbda, Obliq qishlog‘i yaqinida olib borilmoqda. Shaharda 35 ta maktab, tibbiyot bilim yurti, qurilish texnikumi, Toshkent davlat texnika universitetining filiali, Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti ishlab turibdi. Angrendan 20 km shimolda sanoat markazi — Yangiobod shahri bor.

Rayonning ikkinchi sanoat tuguni — *Olmaliq* shahridir. Bu shahar 1951-yilda rangli metall ruda koni bazasida sanoat punkti sifatida tashkil topgan edi. Shahar sanoatida to‘la siklli rangdor metallurgiya kombinati katta ahamiyatga ega. Kombinat chiqindisi (oltingugurt gazi) dan ammos fos zavodida mineral o‘g‘it ishlab chiqariladi.

Olmaliqda qurilish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Aholi soni tez ortib bormoqda. Olmaliq boshqa shaharlardan sanoat ixtisosigagina qarab emas, zamonaviy binolarning ko‘pligi, chiroyli daraxtlari bilan ajralib turadi. Shaharda trolleybus qatnaydi. Bir necha maktab, kon-metallurgiya texnikumi ishlab turibdi. Toshkent Davlat texnika universitetining kechki bo‘limi ochilgan.

*Ohangaron* sanoat markazi Olmaliqqa yaqin yerda joylashgan. Ohangaronda ulkan sement zavodi qurilgan. Kaolin xomashyosi bazasida ikkilamchi aluminiy ishlab chiqaradigan zavod barpo etilmoqda. Angren kabi Ohangaron shahri ham ko‘mir qatlamlarining ustidaligi ma‘lum bo‘lgach, Ohangaronning dastlabki o‘rnidan 15 km narida vodiy bo‘ylab “Katta Ohangaron“ shahri barpo etishga kirishildi.

Viloyatning janubi-sharqida, Sirdaryoning o'ng sohilida respublika ahamiyatiga ega bo'lgan sanoat tuguni — *Bekobod* shahri joylashgan. Bu shahar ikkinchi jahon urushi yillarida metallurgiya zavodi hamda Farhod GES qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Shaharda metallurgiya zavodi va GESdan boshqa yirik korxonalar ham bor. Sement, paxta tozalash, g'isht va kon zavodlari, go'sht kombinati, tosh-shag'al karyeri shular jumlasidandir. Bu korxonalar ishlab chiqarish jarayonida energiya, transport, suv hamda inson omillaridan birgalikda foydalanadilar. Sement zavodida shifer, asbest quvurlari ishlab chiqariladi. Shahar Sirdaryoning ikkala sohilida, Farg'ona vodiysi bilan Mirzacho'l oralig'ida, shamol ko'p esib turadigan yerda joylashgan. Bu esa Bekobodning me'morchiligi, uning rejalashtirilishiga ancha ta'sir etgan. Shaharni shamoldan saqlovchi ihota daraxtzorlari o'rab olgan. Sirdaryoning o'ng sohilidagi metallurglarning „Metall“ ko'klamzor shaharchasi ham Bekobodning tarkibiy qismi sanaladi. Shahar korxonalari uchun zarur kadrlar shu yerdagi industriya texnikumida tayyorlanadi.

1. *Toshkent iqtisodiy rayoni aholisining soni, joylashuvi va milliy tarkibiga qanday tarixiy va geografik omillar ta'sir etgan?*
2. *Toshkent iqtisodiy rayoni respublikaning industriallashtirishida qanday rol o'ynashini tushuntirib bering.*
3. *Iqtisodiy rayonda sanoatning qaysi tarmoqlari rivojlangan? Sababini tushuntiring.*
4. *Yangiyo'l sanoat tugunini Angren, Olmaliq sanoati tugunlariga taqqoslab, eng muhim tafovutlarini ko'rsating.*
5. *Xarita-chizmadan bu iqtisodiy rayonda bog' va tokzorlarning qanday joylashganligini aniqlab, bunday joylashish sabablarini tushuntirib bering.*
6. *Rayon qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqliligi qanday omillar natijasi ekanligini o'ylab ko'ring.*
7. *Toshkentga g'alla, tuz, ko'mir, neft, tabiiy gaz, metall, paxta, qand hamda mevani qayerlardan va qanday transportda keltirish ma'qul?*
8. *Toshkentdan Bekobodga boriladigan eng qisqa avtomobil yo'lini xaritadan toping.*
9. *Yozuvsiz xaritada Toshkent iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.*

## 22-§. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni



*! Ilovadagi 1-jadvaldan rayonning aholisi sonini va maydonini aniqlang.*

### Iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy boyliklari

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni Sirdaryo bilan Jizzax viloyatlaridan tarkib topgan (hududi qaysi respublikalarga tutashganini xaritada aniqlang).

Rayon hududi O‘zbekistonning eng taraqqiy etgan Toshkent, Farg‘ona va Samarqand iqtisodiy rayonlariga tutashib turadi. Bu rayonlar Mirzacho‘l iqtisodiy rayonini ish kuchlari, mashina va mexanizmlar bilan ta‘minlab turadi. Demak, rayonning iqtisodiy-geografik o‘rnini qulay, deyish mumkin. Iqtisodiy-geografik o‘rinning qulayligi rayonning transport-geografik holatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi (transport tizimi chizmasida temir yo‘l, avtomobil yo‘li va quvur transporti qaysi joylardan o‘tganini ko‘zdan kechiring).

Rayonning janubi va janubi-g‘arbini Turkiston hamda Nurota tog‘ tizmalari egallagan. Uning shimoliy qismi Mirzacho‘l tekisligidan iborat. O‘simliklarning o‘sinh muddati 228 kun va bu davrdagi harorat yig‘indisi 4300—5000 gradusga yetadi. Bu jihatdan mazkur rayon Farg‘ona hamda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlaridan oldinda turadi. Biroq yog‘in miqdori rayon shimoli-g‘arbida 200 mm dan, janubi-g‘arbida 450—500 mm dan oshmaydi. Shu tufayli dehqonchilikni faqat sug‘orish asosida tashkil qilish mumkin. Rayon hududini suv bilan asosan Sirdaryo va Sangzor



hamda Zomin daryolari ta'minlaydi. Yer osti suvlari ko'p bo'lsada, lekin turli chuqurlikda yotishi hamda minerallashgani sababidan xo'jalik maqsadlarida kam foydalaniladi.

Tekislikning deyarli hammasi zamonaviy inshootlar va ko'p tarmoqli tizim bilan qoplangan. Shu bois sug'oriladigan maydonlar juda ko'p, kelgusida sug'orish mumkin bo'lgan yerlar ham anchagina. Rayonning cho'l mintaqasidagi qismi qo'ng'ir va bo'z tuproqlidir. Grunt suvi yer betiga yaqin va uncha nishab bo'lmagan joylarda sho'rxok tuproqlar uchraydi. Lekin tabiiy o'simliklar kishilarning xo'jalik faoliyati natijasida juda siyraklashib qolgan. Hudud hayvonot dunyosiga ham unchalik boy emas. Zero, xo'jalik uchun ahamiyati yo'q. Rayonda foydali qazilma konlari aniqlangan. Jumladan, undagi volfram, qo'rg'oshin, rux, mis, boksit va oltin konlari sanoat ahamiyatiga ega.

Rayonda qurilishbop shag'al, qum, gips va ohak juda ko'p. Bu foydali qazilmalardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Mirzacho'l tabiiy sharoitining ayrim jihatlari xo'jalikda, ayniqsa qishloq xo'jaligida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Chunonchi, uning shimol tomoni ochiq bo'lganidan Arktika havosi qish, hatto bahor oylarida rayon hududiga kirib kelib, ba'zan sovuq — 35° ga yetadi. Shunda mevali daraxtlarga katta zarar yetadi. Farg'ona vodiysi tomonidan bahor va qish faslida kuchli shamol esishi, suvga ehtiyoj katta bo'lgan yoz oylarida deyarli yog'in yog'masligi tufayli tuproqdan nam qochib, ekinlar zarar ko'radi, hosildorlik pasayadi.

**Aholisi.** Mirzacho'l iqtisodiy rayonning aholisi asosan boshqa joylardan reja asosida ko'chirib keltirilib, joylashtirilgan kishilardan iborat. Rayon aholisi umumiy soni bo'yicha ham, mehnatga yaroqlilar salmog'i bo'yicha ham respublika iqtisodiy rayonlari orasida eng keyingi o'rinda turadi. Shahar va qishloqlarning joylashuvida, katta-kichikligida hamda aholining milliy tarkibida rayon hududi yangi o'zlashtirilayotganligi yaqqol ifodalanadi.

Aholi manzilgohlari asosan katta yo'l yoqalarida barpo bo'lgan. Jizzax, Guliston va Yangiyer shaharlaridan bo'lak aholi manzilgohlarining birontasida aholi soni 10 ming kishidan oshmaydi. Aholining 30 foizga yaqinligina shaharlarda istiqomat qiladi. Rayon aholisining 72 foizini o'zbeklar tashkil etib, ular bilan rus, qozoq, tatar, koreys kabi millat vakillari ham yashaydi. Rayonda uchta oliy o'quv yurti va bir nechta o'rta maxsus o'quv yurtlari bor.

Rayonga zarur mutaxassislarni bu o'quv maskanlaridan tashqari, Toshkent va Samarqand shaharlaridagi oliy o'quv yurtlari ham tayyorlab bermoqda.

Lekin rayon xo'jaligining rivojlanish istiqbollari hisobga olganda, bu yerga ishchi kuchlari ortiqcha bo'lgan Farg'ona, Toshkent singari iqtisodiy rayonlardan malakali mutaxassislar jalb etish maqsadga muvofiqdir.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Mirzacho'l xo'jaligining rivojlanishi asosan so'nggi yarim asrga to'g'ri keladi. Yangi yerlarni o'zlashtirish har tomonlama aloqadorlikda, fan va texnika yutuqlariga asoslangan sug'orish inshootlarini, yo'llarni, elektr uzatgich tarmoqlarni, madaniy-maishiy muassasalarni bir yo'la barpo etish yo'li bilan olib borildi. Yangi yerlarni o'zlashtirishning bu usuli xorijda ham keng qo'llanilmoqda.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni o'z qishloq xo'jaligining jadalligi bilan boshqa rayonlardan ajralib turadi. Xususan, bu yerda agrosanoat majmui yuksak darajada rivojlangan. Jami ekin maydonining salkam 40 foiziga paxta ekilmoqda. Rayonning deyarli shuncha maydoni don ekinlari bilan band.

Chorvachilikda qorako'l qo'ylarining salmog'i katta. Qorako'l qo'ylari rayonning shimoli-g'arbidagi cho'l yaylovlarida boqiladi. Parrandachilik donli ekinlar yetishtiriladigan joylarga to'g'ri keladi. Chorvachilikni rivojlantirishdagi asosiy vazifa — yem-xashak ekinlari, ayniqsa beda va makkajo'xori maydonini kengaytirishdan iborat. Endilikda Mirzacho'l hududiy-ishlab chiqarish majmuida sanoat ham tez sur'at bilan rivojlana boshladi. Elektroenergetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat sanoatlari rivojlandi. Sirdaryo GRESining elektr quvvati iqtisodiy rayondan tashqariga ham chiqarilmoqda.

Rayonda paxta tozalash korxonalari bilan binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar ancha quvvatlidir. Yaqin kelajakda oltin, polimetall rudalarni qazib chiqarish ortadi, mashinasozlik, kimyo kabi og'ir sanoat tarmoqlarining yangi korxonalari quriladi.


**Transporti.** Rayonda transportning deyarli barcha turlari mavjud. Temir yo'l rayon hududida uchburchak shaklida qurilgan. Rayon Jizzax, Sirdaryo va Xovos orqali boshqa viloyatlar bilan bog'langan. Avtomobil yo'llari yuksak darajada rivojlangan, ularning yalpi uzunligi 12 ming km.dan oshadi, shundan deyarli 10 ming km

qattiq qoplamali yo'llardir. Rayonni magistral gaz quvurlari kesib o'tgan. Yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari hududni tekis qoplagan (xaritadan katta yo'llarni aniqlang). Havo transporti Jizzax orqali ko'pgina shaharlarni bog'laydi.

- ? 1. Iqtisodiy rayon geografik o'rmi va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarning hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy rayon hududi yangi o'zlashtirilganini nimalardan bilsa bo'ladi? Misollar keltiring.
3. Rayon hududida va uning boshqa rayonlar bilan aloqasida qanday transportdan foydalaniladi? Sababini tushuntiring.

## SIRDARYO VILOYATI

! Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat maydonini, uning aholisi sonini va aholi o'rtacha zichligini aniqlang. Viloyat tabiiy sharoiti haqida nimalarni bilasiz? So'zlab ko'ring-chi!



43-rasm. Sirdaryo viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

Sirdaryo viloyati Sirdaryo chap sohilidagi joylarni, Mirzacho'Ining o'zlashtirilgan va o'zlashtirilayotgan qismlarini hamda qisman Qizilqum yerlarini o'z ichiga oladi (43-rasm). Viloyat yer fondida o'zlashtirishga yaroqli yerlar ko'p. Hududdagi tekislik sug'orib dehqonchilik yuritishga katta qulaylik yaratadi. Bulutsiz va sovuqsiz kunlarning ko'pligidan har qanday issiqsevar o'simlikni yetishtirsa bo'ladi. Lekin shamol bilan to'satdan kirib keladigan sovuqlar, yog'ingarchilikning faqat qish va bahor oylariga to'g'ri kelishi, yer osti suvlarining sho'r hamda yer betiga yaqinligidan dehqonchilikda ko'pgina mehnat, mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

Yer osti suvlari sho'r, ular ekinlarning rivojiga yomon ta'sir etadi. Yozda havo nihoyatda qizib ketadi. Buning ustiga garmsel esib, changli shamollar ko'tarilib, ekinlarni qovjiratib yuboradi. Qishda esa havo — 28°C gacha soviydi.



Tabiatning bunday noqulayliklarini bartaraf etmoq uchun ihota daraxtzorlari barpo etish, yer osti suvlarini zovurlar qazib qochirish va tuproqni yuvib turish talab etiladi. So'nggi o'n yilliklar mobaynida ekinzorlar maydoni 300 ming gektardan oshib ketdi. Janubiy Mirzacho'l kanali va o'nlab suv shoxobchalari qurildi. O'zlashtirilgan yerlarda asosan dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil qilindi.

**Aholisi.** Sirdaryo viloyatida Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aholisining 42 foizi yashaydi. Aholining 90% dan ziyodi sug'oriladigan hududlarda joylashgan. Yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida boshqa viloyatlardan ishchi kuchlari jalb etilgan. Endilikda viloyat o'z ishchi kuchlari bilan ma'lum darajada ta'minlangan.



*44-rasmdan aholi milliy tarkibini aniqlang.*

**Xo'jaligi.** Sirdaryo viloyati xo'jalik negizini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Ekin maydonlarining kattaligi jihatidan viloyat respublikada oldingi o'rinda turadi (ilovadagi 9-jadval). Ekin maydonlarining deyarli yarmiga paxta ekiladi. Undan keyingi o'rinlarda don (27,4%), ozuqa (18,8%) va sabzavot-poliz ekinlari (4,1%) turadi. Sug'oriladigan yerlarda makkajo'xori, oq jo'xori, beda, no'xat, mosh, kunjut, tariq, loviya, kungaboqar ekiladi. Guliston va Xovos rayonlarida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik va tokchilik ham rivojlangan. Polizchilik Mirzacho'l dehqonchiligining muhim tarmoqlaridan biridir. Bu sohada u mamlakat iqtisodiy rayonlari ichida birinchi o'rinda turadi. Mirzacho'l qovunlari respublikadan tashqarida ham mashhurdir.

1989



1999



44- rasm. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi.

Viloyat xo'jaligida sanoatning salmog'i qishloq xo'jaligidan kam. Bugungi kunda Sirdaryoda 80 dan ortiq sanoat korxonasi mavjud bo'lib, energetika, paxtani qayta ishlash, tikuvchilik, don mahsulotlarini qayta ishlash va qurilish sanoati yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Shirin shahridagi Sirdaryo GRES, Guliston shahridagi yog'-ekstraksiya zavodi, Yangiyer shahridagi qurilish materiallari va konstruksiyalari kombinati va viloyat paxta tozalash zavodlari yirik sanoat korxonalari sanaladi.

**Shaharlari.** *Guliston* — viloyatning ma'muriy markazi bo'lib, shahar asosiy temir yo'l magistrali va Katta O'zbek trakti ustida joylashgan. U 1952-yilda shahar maqomini oldi, aholisi 54 ming

kishi. 1963-yilda Sirdaryo viloyati tashkil qilingach, butun Mirza-cho'lni o'zlashtirishning bosh shtabi bo'lib qoldi.

Shaharda paxta tozalash, yog'-ekstraksiya, non zavodlari va elevator ishlab turibdi. Shuningdek, ta'mirlash-mexanika va uysozlik zavodlari, hunarmandchilik kombinati, tikuvchilik fabrikasi va boshqalar bor. Shahar viloyatning yirik madaniy markazi hamdir. Unda pedagogika universiteti, bir necha o'rta maxsus o'quv yurtlari va boshqa madaniy-maishiy muassasalar bor.

*Yangiyer* (29 ming kishi) 1957- yilda yoshlar g'ayrati bilan bunyod bo'lgan yangi shahar. Uning aholisi juda tez ko'paydi. Shaharda sopol quvurlar hamda yuqori bosimga chidamli quvurlar ishlab chiqaradigan zavod, temir-beton buyumlari kombinati bor. Kombinat elektr ayrilari (machtalari), beton tarnov (lotok)lar va unga mo'ljallangan taglik ishlab chiqaradi (o'ylab ko'ring-chi, bu kombinatni Toshkent yoki Farg'ona kabi ish kuchi ko'p viloyatlar markazlariga joylashtirib bo'lmasmikan?)

Shahar geografik o'rniga xos noqulayliklar tufayli sust rivojlanmoqda.

- ❓ 1. *Xaritadan Sirdaryo viloyatining chegaralarini ko'rsating, uning tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarni ayting.*
2. *Viloyat xo'jaligiga xos xususiyatlarni so'zlab bering.*
3. *Viloyat shaharlari barpo bo'lishida qanday omillar muhim rol o'ynaganligini tushuntiring.*
4. *Tumaningizni viloyat markazi bilan bog'laydigan eng qisqa yo'lni aniqlang.*
5. *Sizning xo'jaligingiz qaysi kanaldan suv oladi?*

## JIZZAX VILOYATI

**!** *Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat maydonini, uning aholisi soni va aholi o'rtacha zichligini aniqlang.*

Jizzax viloyati Mirzacho'l iqtisodiy rayonining janubi-g'arbida joylashgan. Viloyat hududi Sangzor daryosi hamda Janubiy Mirzacho'l kanalining suvi bilan sug'oriladi.

Viloyat yer fondida obikor dehqonchilikka yaroqli, biroq hali o'zlashtirilmagan yerlar ko'p. Uning hududi shimol tomonga nishab, binobarin sun'iy sug'orish qulay.

Viloyat hududi tekislik va tog'lardan iboratligidan ko'p tarmoqli xo'jalik yuritishga asos bo'la oladigan xilma-xil tabiat boyliklariga egadir. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi tashkil qilingan. Qo'riqxonaga maydoni 10,5 km<sup>2</sup> bo'lib, bu yerda tog' o'simligi va hayvonot olamining taraqqiyot qonuniyatlari tadqiq etilmoqda.


O'zbekiston milliy xalq bog'i shu Jizzax viloyatida tashkil etilgan. Bu milliy bog' sport musobaqalari va aholi istirohati xizmatini o'tabgina qolmay, balki hozirgi sanoat taraqqiyotining tabiiy muhitga ta'sirini tadqiq etish joyi ham bo'lishi mumkin. G'allaorol hududidan shifobaxsh mineral suv topilgan. Baliqchi ko'lida esa minerallashgan shifobaxsh balchiq ko'p. Rangli metall rudalari ko'plab topilgan. Uchquloq konidan olinayotgan polimetall rudasi hamda Marjonbuloq konidan olinayotgan yaxshi sifatli oltin mam-lakat iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Oqtosh, Qoratosh va Uzun marmar konlari ham iqtisodiy jihatdan respublika ahamiyatiga molikdir. Viloyatda qishning nisbatan sovuq bo'lishi, hatto bahorning oxirgi oylarida to'satdan sovuq havo oqimlari kirib kelib, mevali daraxtlarga, ekinlarga jiddiy zarar yetkazishi hammaga ma'lum. Yog'in nihoyatda kam (yiliga 200—400 mm) yog'adi. Ayniqsa, yaylovlarda yog'ingarchilik bo'lmay qolishi chorvachilikka jiddiy xavf tug'diradi. Viloyat hududining shimoli-sharqida yer osti suvlari sho'r hamda yer betiga yaqinligidan tuproqning unumdorligini pasaytiradi.

**Aholisi.** Jizzax viloyatida Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aholisining 58 foizi yashaydi. Aholining 1/3 qismi shaharlarda yashaydi. Viloyat aholisining 81 foizidan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etadi. Qolgan

aholi qozoqlar, ruslar, tojiklar va boshqa millat kishilaridan iborat (45-rasm).


**Xo'jaligi.** Viloyat o'zining yoqilg'i-energetika majmuasiga ega emas. Unga tabiiy gaz Buxoro viloyatidan, elektr quvvati esa Sirdaryo viloyatidan keltiriladi (46-rasm).

Tog'-kon sanoati Qo'ytoshda rivojlangan. 1937-yildan buyon Shimoliy Nurota tog'larida volfram-molibden konlari ishlab turibdi. Bu kondan qazib olinayotgan rudalar Chirchiqdagi qiyin eriydigan va issiqqa chidamli qotishmalar kombinatining asosiy xom-ashyosidir. Jizzaxda „O'zbekqishmash“ zavodining bo'limi, Jizzax akkumulyator zavodi, trikotaj fabrikasi, polietilen ishlab chiqaruv-



45- rasm. Jizzax viloyati aholisining milliy tarkibi.





46-rasm. Jizzax viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

chi va boshqa zavodlar bor. Baxmal rayonida gilam to'qish fabrikasi barpo etilmoqda.

**Qishloq xo'jaligi.** Viloyat hududida qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan 1234 ming gektar yer bor. Buning  $\frac{1}{3}$  qismiga yaqinidan dehqonchilikda foydalanilmoqda. Tabiiy yaylov hamda suv chiqarish qiyin bo'lgan yerlarda bahorikor don xo'jaligi va yaylov chorvachiligi rivojlangan. Jizzax dashtini o'zlashtirish davom etmoqda. Buning uchun Janubiy Mirzacho'l kanali kengaytirilyapti. Uning suvi 6 ta qudratli nasos orqali 176 metr balandlikka ko'tarilmoqda. 362 km uzunlikda Jizzax katta kanalidan suv dashtga kirib bormoqda. Sangzor daryosidagi gidrouzel ham cho'lni sug'orishda muhim rol o'ynaydi. Viloyatda paxta yetishtirish bilan birga g'allakorlik ham katta salmoqqa ega. G'alla yetishtiriladigan maydonning kattaligi jihatidan Jizzax viloyati mamlakatda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridangina keyinda turadi.

**! Ilovadagi 9-jadvaldan g'alla ekiladigan maydon necha gektar ekanligini aniqlang, xaritadan g'alla qayerlarga ekilishini aniqlab, nima uchun xuddi shu yerlarga ekilishini tushuntiring.**

Viloyatda yaylov chorvachiligi keng rivojlangan. Jizzaxda qorabayir zotli ot yetishtiradigan maxsus ot zavodi bor. G'allakor rayonlarda parrandachilik ham rivojlangan.

Viloyat markazini temir yo'l, avtomobil yo'llari qo'shni viloyatlar bilan bog'laydi. So'nggi yillarda havo orqali ham aloqa yo'lga qo'yildi. Viloyat hududi yuzasining hamda ishlab chiqarish xususiyatlarining xarakteriga muvofiq avtomobil yo'llari qurilishiga alohida ahamiyat beriladi.

**!** *O'zbekiston transport xaritasidan viloyat aloqa yo'llarining uzunligini aniqlang.*

**Shaharlari.** *Jizzax* shahri viloyatning ma'muriy markazidir, uning aholisi 123 ming kishini tashkil etadi. U dengiz sathidan 450 m balandda, Sangzor daryosi bo'yida qad ko'targan. Toshkent — Samarqand temir yo'li va Katta O'zbek trakti shahar yaqinidan o'tadi.

Jizzaxda asrimiz boshida tegirmon, juvozkashlik, temirchilik va kulolchilik korxonalari bo'lgan. Endilikda shaharda oziq-ovqat, yengil hamda kimyo va mashinasozlik sanoati korxonalari ishlab turibdi. Jizzax obod va ko'kalamzor shahar. Zamonaviy aerovokzal, pedinstitut, Toshkent Davlat texnika universitetining bo'limi, bir qancha o'rta maxsus o'quv yurtlari va maktablar ishlab turibdi.

- ?** 1. *Jizzax viloyatining geografik o'rni bilan tabiiy sharoitida qanday aloqadorlik bor?*
2. *Viloyat xo'jaligiga xos xususiyatlarni aytib, sababini izohlab bering.*
3. *Tumaningizni viloyat markazi bilan bog'laydigan eng qisqa yo'lni ayting.*
4. *Sizlarga qaysi daryo yoki kanaldan suv keladi?*

## 23-§. Farg‘ona iqtisodiy rayoni

**!** Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayon hududining kattaligini va aholisining sonini aniqlang.



Farg‘ona iqtisodiy rayoni mamlakatimizning Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarini o‘z ichiga oladi (mazkur rayon qaysi respublika hududi bilan qaysi tomondan tutashligini atlas-xaritadan aniqlang). Bu iqtisodiy rayon respublika hududining 4 foizidan sal ortiqroq qismini egallasa-da, unda O‘zbekiston aholisining 27 foizi yashamoqda. Iqtisodiy rayon hududi deyarli Farg‘ona vodiysidan iborat. U hamma tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan. Vodiy faqat kambar Xo‘jand yo‘lagi orqali Mirzacho‘l tekisligiga borib qo‘shiladi. Rayon atrofidagi tog‘lar vodiyni tashqi havo oqimlaridan to‘siq turadi. Shuning uchun rayon iqlimi qo‘shni rayonlar iqlimiga qaraganda yumshoq, ob-havosi yil davomida salqinroq bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, o‘simliklarning ko‘karish davridagi harorat yig‘indisi paxta va issiqsevar ekinlar yetishtirishga to‘la kifoya qiladi. Vodiyning shimolidagi Chotqol hamda Qurama tog‘laridagi qor va muzliklardan Pochchaota, Kosonsoy, G‘ovasoy va boshqa o‘n beshdan ortiq daryolar boshlanadi. Janubda Oloy tizma tog‘lari, So‘x, Shohimardon va boshqa bir necha soylar boshlanadi. Bu daryolar vodiyning tekis qismini sug‘orish imkonini beradi. Vodiya yer osti suvlari ham ko‘p. Ulardan chuchuk bo‘lganligi hamda yer yuzasiga yaqinligi tufayli sug‘orish uchun foydalanish mumkin.

Farg‘ona vodiysi hududini yuzasining tuzilish xususiyatlari va xo‘jalik jihatidan foydalanish imkoniyatlariga qarab to‘rt mintaqaga ajratsa bo‘ladi:

1) tekislik mintaqasi vodiyning markazidan boshlab, dengiz sathidan 600 metr balandgacha bo'lgan joylardan iborat bo'lib, tuprog'i chirindiga boy turli xil bo'z tuproqlardan tashkil topgan. Bu joylar Farg'ona vodiysining xo'jalik jihatidan eng to'liq o'zlashtirilgan qismidir;

2) 600—1200 metr baland joy (adir)larda asosan bahorikor va qisman obikor dehqonchilik yuritiladi;

3) tog'li mintaqadan bahorikor dehqonchilik va chorvachilikda foydalaniladi. Bu yerda qisman mevazor va tokzorlar ham bor;

4) baland tog'li mintaqada asosan O'zbekistondan tashqarida, ma'muriy jihatdan Tojikiston va Qirg'iziston respublikalariga qarashli bo'lib, bu yerlardan O'zbekiston shartnoma asosida yaylov sifatida foydalanadi.

Foydali qazilmalarning asosiy qismi tog'larda to'plangan. Tog' oralarida Shohimardon, Nanay, G'ovasoy va Kosonsoy kabi xushmanzara vohalar bor. Bu yerlarda dam olish uylari, sanatoriylar va boshqa istirohat maskanlari barpo qilingan.

Iqtisodiy rayonning eng yirik daryosi Sirdaryodir. U rayon hududining eng past yeridan oqib o'tib, yer osti suvlari to'planadigan tabiiy zovur vazifasini ham o'taydi. Rayonda bo'z tuproq keng tarqalgan. Biroq aholining asrlar bo'yi obikor dehqonchilik bilan shug'ullanishi natijasida bu tuproq madaniylashgan. Bo'z tuproq mineral moddalarga boy bo'lib, sug'orilsa, yaxshi hosil beradi.

Rayon hududi madaniy o'simliklar bilan qoplangan, tabiiy o'simliklar uning tog' oldi mintaqasida hamda markaziy qismidagina saqlanib qolgan. Tog' yonbag'irlarida archa va yong'oqzorlar, Markaziy Farg'onada esa cho'l va chala cho'l o'simliklari o'sadi.

Farg'ona iqtisodiy rayoni xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Uning hududida neft, gaz, ozokerit, oltingugurt, qalayi, oltin, rux, marganes, o'tga chidamli gil, turli xil binokorlik materiallari, kalsiy tuzi, shifobaxsh suvlar topilgan. Konlarning transport yo'llariga yaqinligi ularni ishga solishga qulaylik tug'diradi. Shu bilan birga rayon tabiiy sharoitida xo'jalik yuritishga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar ham yo'q emas. Chunonchi, suvga talab katta bo'lgan yoz faslida deyarli yog'in yog'maydi. Tog'larda qattiq jala yog'ishidan vujudga kelgan sel ekinzorlarni, yo'llarni va boshqa inshootlarni buzib, ariq va kanallarni loy bilan to'ldirib yuboradi. Bunga qarshi

to'siqlar qurilmoqda, tog' yonbag'irlarida daraxtzorlar barpo etilmoqda. Tog' oldilarida bahorda ko'pincha yomg'ir aralash do'l yog'ishi paxtaga va mevalarga jiddiy zarar yetkazadi. Jala yog'gan va do'l urgan joylarda chigitni qayta ekishga to'g'ri keladi. Rayonning g'arbida uzoq vaqt esadigan kuchli shamollar tuproq namini qochirib, ekinlar hosildorligining pasayishiga sabab bo'ladi. Buning oldini olmoq uchun qo'shimcha mehnat va mablag' evaziga ihota o'rmonlari barpo etiladi. Vodiyni o'rab turgan tog'lar qulay iqlim vujudga kelishida muhim rol o'ynashi bilan birga qadimda ajnabiy bosqinchilar yo'lida g'ov ham bo'lgan. So'ngra bu yerdan „Buyuk Ipak yo'li“ o'tganligi natijasida qishloq xo'jaligi ham, savdo, hunarmandchilik ham nisbatan barq urib rivojlangan.

Chor Rossiyasi Farg'ona vodiysini bosib olganidan so'ng temir yo'l qurildi. Bu esa uning iqtisodiy-geografik o'rnini belgilagan muhim omillardan biri bo'ldi.

**Aholisi.** Farg'ona iqtisodiy rayoni aholisining soni va ishchi kuchlarining salmog'i jihatidan mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o'rinda, aholi zichligi jihatidan esa O'rta Osiyoda oldingi o'rinlardan birida turadi.

**!** *Ilovadagi 1-jadvaldan foydalanib, rayon aholisi joylashishining o'rtacha zichligini hisoblab chiqing.*

Farg'ona iqtisodiy rayonining aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. Aholi yiliga o'rtacha 100 ming kishiga ko'paymoqda. Aholining tez ko'payayotgani va yangi o'zlash-tiriladigan maydonlarning cheklanganligidan ish kuchi ortiqchaligi kuchayib bormoqda. Binobarin, bu yerdagi ortiqcha ish kuchidan foydalanish uchun aholiga madaniy va maishiy xizmat qiluvchi korxonalar qurish kerak. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirib, ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish mumkin.

Iqtisodiy-tarixiy omillar hamda vodiyning tabiiy sharoiti va qulay geografik o'rni tufayli bu yerda aholi azaldan nihoyatda zich yashaydi. Bu yerda yirik shahar va shaharchalar, qishloqlar ko'p. Ish kuchlari tarkibida malakali kadrlar salmog'i boshqa rayonlardagiga nisbatan ko'p. Tog'lar tomon borilganda aholi manzilgozlari kamayib va kichiklashib boradi. Aholi Markaziy Farg'onada ham siyrak joylashgan. Rayon aholisining 33 foizga yaqini shaharlarda yashaydi. Aholi tarkibi milliy jihatdan xilma-xil. Hamma joyda azaliy aholi

bo'lmish o'zbeklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular bilan birga ruslar, ukrainlar, qirg'izlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, koreyslar va boshqalar yashaydi.

Hozir bu rayonda 10 ta oliy o'quv yurtlari, 4 ta oliy o'quv yurti bo'limlari va ko'plab o'rta maxsus o'quv muassasalari har yili minglab o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlab bermoqda. Bundan tashqari, har yili minglab yoshlar Toshkent va Samarqandda hamda xorijiy davlatlar o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Farg'ona hududiy ishlab chiqarish majmui respublikada rivojlanishning yuksak bosqichiga erishganligi bilan ajralib turadi. U asrimiz boshida ham boshqa rayonlardan shu jihati bilan farq qiladi. Unda paxtachilik bilan bog'liq tarmoqlararo majmua asosiy o'rin egallaydi.

Farg'ona iqtisodiy rayonida paxta yetishtirish va uni tozalash, pilla yetishtirish hamda pillakashlar, shular asosida vujudga kelgan to'qimachilik keng rivojlangan, bog'dorchilik va sabzavotchilik esa konserva, sharob kabi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mustahkam bog'langan. Bular rayon xo'jaligining asosiy ixtisosini tashkil etadi.

Rayonning yoqilg'i-energetika-kimyoy, mashinasozlik, binokorlik va qurilish sanoati majmui ham agrosanoat majmui bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligi boshqa viloyatlardagidan yuksak intensivligi bilan ajralib turadi. Bu yerda obikor yerlarning 70 foizi paxtazorlardan iborat edi. Bu esa tuproq tarkibida yomon asorat qoldirdi, aholini g'alla va sabzavot bilan ta'minlashni qiyinlashtirdi. Shu bois endilikda paxta maydonlari qisqartirilib boshqa ekinlar maydoni kengaytirilmoqda. Rayon respublikamizda yetishtiriladigan paxtaning deyarli 25 foizini bermoqda.

Tog' oralari va yonbag'irlari yuzasi tuzilishining murakkabligi, o'nqir-cho'nqirlarining ko'pligi hamda nishabligi texnikadan foydalanishni cheklaydi. Shuning uchun bu yerlarda mevali daraxtlar yetishtiriladi. Mevazor va uzumzorlar, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari maydonlari shaharlar atrofida ayniqsa keng tarqalgan. Farg'ona iqtisodiy rayoni viloyatlarida chorvachilik birmuncha sust rivojlangan.

Chorvachilik asosan sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Iqtisodiy rayon mamlakatning pillachilik bazalaridan biridir. Rayon O'zbekistonda yetishtiriladigan pillaning 45 foiziga yaqinini beradi. Keyingi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni yaxshilash va aholining shu mahsulotlarga ehtiyojini to'laroq ta'minlashni ko'zlab, agrosanoat birlashmalari tashkil qilindi. Bunday birlashmalar ko'p tarmoqli xo'jaliklardir. Jumladan, Pop hududidagi ishlab chiqarish birlashmasi paxtachilik, chorvachilik, asalarichilik, bog'dorchilik, uzumchilik xo'jaliklarini hamda bu sohalarning mahsulotini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini birlashtirdi.

**Farg'ona iqtisodiy rayoni sanoati** o'tmishda biryoqlama rivojlangan edi. So'nggi o'n yilliklar ichida ko'plab yangi tarmoqlar vujudga keldi. Bu rayonda foydali qazilmalarning ko'pligi, energetika negizi hamda qishloq xo'jalik xomashyosining mo'l-ko'lligi puxta moddiy zamin bo'ldi. Endilikda respublikamizdagi sanoat tarmoqlarining deyarli barchasi Farg'ona iqtisodiy rayonida mavjuddir.

Rayon yoqilg'i-energetika majmuining o'z boyliklari salmog'i kichik bo'lib, u asosan qo'shni respublikalar va viloyatlar resurslariga tayanadi. Gaz Buxorodan, ko'mir Qirg'izistondan keltiriladi. Quvasoy GRESi, Farg'ona, Andijon va Namangan IEMlari, Shahrixon hamda Namangansoy gidroelektrstansiyalari rayon ehtiyoji uchun elektr quvvati yetkazib beradi. Lekin iqtisodiy rayonda hosil qilinayotgan elektr quvvati respublikadagi elektr quvvatining atigi 5 foizinigina tashkil qiladi.

Demak, zarur elektr quvvati asosan tashqaridan olinadi. Iqtisodiy rayonning yoqilg'i sanoati neft va gaz qazib chiqarishdan iborat. Qazib chiqarilgan neft Oltiariq va Farg'ona neft zavodlarida qayta ishlanadi. Shuningdek, Farg'ona hududida ozokerit, oltingugurt va boshqa konlar bor.

Kimyo sanoati yaxshi rivojlangan. U agrosanoat majmui bilan juda yaqindan bog'langan. Andijon va Farg'ona gidroliz zavodlari paxta shulxasidan texnik spirt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Qo'qon superfosfat zavodi va Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi paxta dalalari uchun mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Namangandagi kimyo zavodi chetdan keltirilgan sellyulozadan sun'iy ipak, Farg'onadagi neft-kimyo zavodi kimyoviy tola va boshqa mahsulotlar

ishlab chiqaradi. Popda rezina buyumlari va poyabzallari zavodi ishlab turibdi.

Mashinasozlik va metallsozlik sanoati ham agrosanoat majmui bilan bog'liqdir. Bu tarmoq korxonalari paxta dalalarini tekislaydigan, zovur qaziydigan, dizel motorlari, nasoslari, traktor ehtiyot qismlari ishlab chiqaradi. Ekskavator, traktor, paxta kombaynlari va boshqa qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlaydigan ustaxonalar ham bor.

Andijon irrigatsiya mashinasozligi zavodi mashinasozlikni eng yirik korxonasi hisoblanadi. Qurilish mashinasozligi, „Kommunar“, „Elektrodvigatel“ zavodlari Andijon sanoatida salmoqli o'rin tutadi.

Qo'qon, Namangan, Farg'ona mashinasozlikning yirik markazlari hisoblanadi. Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda „UzDEU“ qo'shma korxonasi ishga tushirildi. Natijada mamlakatimizda birinchi bor avtomobilsozlik sanoatiga asos solindi. Hozirgi paytda zavodda „Neksiya“, „Tiko“, „Damas“ rusumli yengil avtomobillar ishlab chiqarilayapti. Zavod to'liq quvvat bilan ishga tushgach, yiliga 200 ming dona shunday avtomobillar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Farg'ona hududiy ishlab chiqarish majmuida qurilish materiallari sanoati ham rivojlangan. Quvasoy sement zavodi, Andijon, Farg'ona, Qo'qon va Quvasoy shaharlarida uysozlik kombinatlari, temir-beton konstruksiyalari zavodi ishlab turibdi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari asosiy iqtisodiy sohalar sanaladi. Rayon charm poyabzallari, o'simlik moyi ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatdagi boshqa iqtisodiy rayonlardan oldindadir.

**Transporti.** Rayon temir yo'l, avtomobil va havo transporti bilan zarur darajada ta'minlangan. Temir yo'l vodiy bo'ylab halqa shaklida o'tkazilgan. Rayonning temir yo'l bilan ta'minlanishi mamlakatning o'rtacha ko'rsatkichidan 2 marta yuqori turadi. Rayon boshqa iqtisodiy rayonlar bilan „Xo'jand darvozasi“ orqali va Toshkent—Angren — Qo'qon avtomobil yo'li orqali bog'langan.

Rayon doirasida avtomobil transporti ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Qurama tog' tizmasidan o'tadigan katta Toshkent — Angren — Qo'qon avtomobil yo'li Toshkent — Farg'ona oralig'ini temir yo'lga nisbatan 200 km ga qisqartirgan.

Neft quvuri dastlab neft konlaridan Oltiariq neft tozalash zavodigacha yotqizilgan. Endilikda quvur orqali gaz ham keltirilmoqda. Rayon chetga paxta tolasi va paxta yog'i, quruq meva, konservalar, ip-gazlamalar, mashinalar, mineral o'g'itlar, sement,



shifer, chinni hamda sopol buyumlar va boshqa mahsulotlar chiqaradi. Rayonga ko'mir, g'alla, yog'och-taxta, mineral o'g'it, to'qimachilik mahsulotlari, mashinalar, asbob-uskunalar hamda madaniy mollar keltiriladi.

Iqtisodiy rayonning ma'muriy viloyatlari hududiy-ishlab chiqarish majmualari, xo'jalik tarmoqlari hamda tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar jihatidan bir-biridan farq qiladi.

- ? 1. *Iqtisodiy rayonning geografik o'rni va tabiiy sharoitidagi xususiyatlar uning xo'jaligida qanday ahamiyat kasb etadi?*
2. *Shahar va qishloqlarning vujudga kelishi hamda hududiy joylashuvi qanday omillar natijasi ekanini o'ylab ko'ring.*
3. *Rayondagi ixtisosli sohalarni aytib, ularning shunday tarmoq bo'lishiga qanday omillar imkon berganini tushuntiring.*
4. *Ichki va tashqi aloqalar qanday transport vositasida amalga oshiriladi? Nega shunday? Sababini tushuntiring.*
5. *Rayonning qanday iqtisodiy-ijtimoiy muammolari bor? Ularni hal etish choralarini ayting.*



## ANDIJON VILOYATI

! *Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlab, aholi o'rtacha zichligini hisoblang.*

Andijon viloyati iqtisodiy rayonning sharqiy qismida joylashgan. Ma'muriy markaz Andijon shahri. Viloyat yer yuzasining tuzilishi sug'orish hamda transport shoxobchalarini rivojlantirishga qo'l keladi. Viloyat hududida yog'in vodiyning g'arbidagina nisbatan birmuncha ko'p yog'adi, garmsel shamoli kamdan-kam esadi. Daryo tarmoqlari ancha ko'p, tuprog'i unumdor. O'sish davri issiqsevar ekinlar yetishtirish uchun yetarlidir.

Andijon viloyatining tabiiy va iqtisodiy sharoiti paxtachilikning rivojlanishiga qulaylik tug'diradi. Paxtachilik viloyatda xo'jalik ishlab chiqarish majmuining asosidir.

Viloyat ekin maydonlari miqdori va tarkibi so'nggi o'n yilliklarda ancha o'zgarib ketdi. Viloyatda o'zlashtiriladigan ekin maydoni deyarli qolmadi. Paxtaning yalpi hosili asosan hosildorlikni ko'tarish hisobiga oshib bormoqda.


Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari mazkur viloyatda boshqa viloyatlardagi singari asosan shaharlar atrofida yetishtiriladi.

Bahorikor yerlar kam bo'lgani sababli viloyatda g'alla maydonlari salmog'i ham kam. Bog'dorchilik viloyat qishloq xo'jaligida salmoqli o'rin tutadi. Bog' va tokzorlar barcha rayonlarda, ayniqsa Andijon va Xo'jaobod rayonlarida ko'p. Ular mevazor, adirlar hisobiga kengaymoqda. Viloyatda ixtisoslashgan bog'dorchilik xo'jaliklari bor.

Viloyat chorvachiligida qo'y va echkilarning salmog'i katta. Qoramol barcha rayonlarda asosan sut va go'sht uchun boqiladi.

Pillachilik viloyat xo'jaligida muhim ahamiyatga egadir. Viloyatda sanoat ham ancha yuqori darajada rivojlangan. Korxonalar asosan Andijon sanoat tugunida joylashgan (47-rasm). Viloyat elektr quvvatini iqtisodiy rayonning birlashgan energetika tizimidan oladi. Kampirravot suv omborida quvvati 100 ming kilovattli GES qurilgan.


Andijon viloyati respublikadagi neft olinadigan muhim markazlardan biridir. Viloyatda Andijon, Bo'ston, Polvontosh,



47-rasm. Andijon viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

Janubiy Olamushuk, Xartum, Xo'jausmon neft va gaz konlari bor. Viloyatning nefti quvur orqali Farg'ona viloyatidagi neft zavodlariga yuboriladi. Tabiiy gaz Andijon va Asakaga Xo'jaoboddan quvur orqali yetkazib beriladi. Andijon shahri sanoatining ahamiyati jihatidan respublikada Toshkent, Farg'ona va Samarqanddan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Andijon viloyati mamlakatimizda aholi eng zich, milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i eng ko'pligi bilan ajralib turadi (48-rasm).

**Shaharlari.** *Andijon* (aholisi 307 ming kishi) obikor dehqonchilik markazida joylashganligi uchun unda yengil va oziq-ovqat



48- rasm. Andijon viloyati aholisining milliy tarkibi.

sanoatlari tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Shahar yaqinida neft, gaz va binokorlik materiallari konlarining mavjudligi hamda mashinasozlik mahsulotiga talabning oshishi og'ir sanoat tarmoqlarining tarkib topishiga asos bo'ldi. Bir-biriga bog'liq og'ir va yengil sanoat tarmoqlari vujudga kelishi bilan Andijon muhim sanoat markaziga aylandi. Shaharda 40 taga yaqin yirik sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Zamonaviy texnika bilan jihozlangan 2 ta ulkan paxta zavodi viloyatda yetishtirilgan paxta hosilining deyarli hammasini qayta ishlaydi. Andijon to'qimachilik hamda trikotaj fabrikalari yengil sanoatning respublikadagi yirik korxonalaridan hisoblanadi. O'zbekistondagi 3 ta gidroliz zavodining biri Andijondadir. Qurt urug'i va mahalliy sanoatga qarashli shoyi to'qish korxonalari pillachilik bilan bog'liqdir.

Andijon muhim transport tuguni hamdir. Farg'ona va Namangan temir yo'l tarmoqlari shu yerda birlashgan. Andijon respublikaning boshqa shaharlari bilan avtomobil yo'llari orqali bog'langan.

Andijon shahri viloyatning faqat xo'jaligi rivojlangan markazigina emas, balki malakali kadrlar yetishtiruvchi ilmiy, madaniy va ma'muriy markazi hamdir. 1991-yilda Andijon pedagogika instituti negizida Andijon Universiteti ochildi. Shaharda tibbiyot va paxtachilik (qishloq xo'jaligi) institutlari, muhandislik iqtisodiyot instituti, tillar pedagogika instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat hamda Samarqand kooperativ-savdo institutlarining Andijon filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'plab teatrlar, kutubxonalar, klublar, sport maydonchalari, istirohat va botanika bog'lari mavjud.

*Asaka* mamlakatning yirik avtomobilsozlik markazidir. U Shahrixonsoy daryosi oqib chiqadigan tog' etagida joylashgan. Shaharni paxta dalalari, bog'lar, tokzorlar o'rab olgan. Shahrixonsoy vodiysida neft va gaz konlari bor. Neft qayta ishlash uchun quvur orqali Farg'onaga yuboriladi. Shaharda paxta-moy zavodlari, yengil va oziq-ovqat sanoatining boshqa korxonalari mavjud. Shisha va kislorod zavodlari, binokorlik materiallari ishlab chiqariladigan korxonalar bor. Maktab, kinoteatrlar, kutubxonalar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlab turibdi. Shahar Farg'ona vodiysining avtomobil transporti tugunida bo'lib, Andijon, Farg'ona va Marg'ilon yo'nalishidagi yuk hamda yo'lovchilar shu yerdan o'tadi.

- ? 1. Viloyatning geografik o'rnini va tabiiy sharoitlari xo'jalik uchun qanday imkoniyatlar yaratishini so'zlab bering.
2. Viloyat ekin maydoni tarkibini ilovadagi 9-jadval ma'lumotlari asosida doiraviy diagrammada tasvirlang.
3. Viloyat qishloq xo'jaligida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
4. Viloyat xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun qanday vazifalarni hal etmoq lozim?

## FARG'ONA VILOYATI

! Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlab, aholisi zichligini hisoblab chiqing.


Viloyatga Farg'ona vodiysining tekislik qismi, Oloy va Turkiston tizmalarining tog' oldilari kiradi. Tekislik g'arbga va vodiy markaziga qarab pasayib boradi. Viloyatda Qoraqalpoq dashti, Damko'l, Sarisuv cho'kmalari kabi qumloq va botqoq yerlar bor.

Farg'ona viloyati qo'shni Andijon viloyatidan qishi birmuncha sovuqligi, o'simliklar ko'karish davrining nisbatan qisqaligi hamda harorati o'zgarib turishi bilan farq qiladi. Uning yozi issiq va quruq, g'arbida yog'in miqdori yil davomida 100 mm dan oshmaydi, buning ustiga tez-tez garmsel esib turadi. Garmsel tuproqni quritib yuboradi.

Daryo qayirlari va tog'li yerlarda daraxtzor va butazorlar uchraydi. Bular namni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Tog' oldi rayonlaridagi o'rmonlar tog' yonbag'irlarini sel yuvib ketishidan saqlaydi.

Viloyatning sug'orish tizimida Isfayram, Shohimardon, So'x, Isfara daryolarining ahamiyati katta. Norin bilan Qoradaryodan bir necha sug'oruv kanallari chiqarilgan (viloyatdagi kanallarni xaritadan qarab chiqing). Viloyatning tabiiy sharoiti boshqa viloyatlardagi kabi paxtachilik uchun qulay bo'lsa-da, tuproqlari o'ziga xos agrotexnik tadbirlar qo'llashni talab etadi.

Turli xil foydali qazilmalar (neft, gaz, oltingugurt, ohaktosh, gil, qum va boshqalar) hamda qishloq xo'jalik xomashyosi viloyatda sanoatning ko'pgina tarmoqlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Viloyat yalpi sanoat mahsuloti jihatidan respublikada faqat Toshkent viloyatidan keyinda turadi. Viloyat Qirg'iziston ko'mir konlariga yaqin bo'lganligidan u yerdan yoqilg'i olib turadi. Farg'ona viloyati aholi soni jihatidan mamlakatimizda barcha viloyatlardan oldinda. Milliy tarkibini 49-rasmdan o'rganing.



49- rasm. Farg'ona viloyati aholisining milliy tarkibi.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Viloyat yer fondining yarmidan ko'prog'i qishloq xo'jaligiga yaroqlidir. Obikor yerlarning salmog'i ayniqsa katta, bahorikor yerlar juda kam (8-jadvalga qarang).

Viloyatda paxtaning yalpi hosili asosan hosildorlikni ko'tarish, shuningdek adirlarni o'zlashtirish hisobiga oshmoqda. Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi paxtachilik va pillachilikka ixtisoslashgan. Paxta dalalari viloyatdagi barcha ekin maydonining 45 foizini tashkil etadi.


Tog' oldi va bahorikor hududlarda bug'doy va arpa, Oxunboboyev va Oltiariq rayonlaridagi ayrim zaxkash yerlarda sholi yetishtiriladi. Makkajo'xori, oq jo'xori va beda hamma rayonlarda paxta bilan almashlab ekiladi.

Sabzavot, poliz va kartoshka shaharlar hamda shaharchalar atrofida yetishtiriladi. Kelajakda tog' oldi mintaqalarida hamda sabzavot, poliz mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar yaqinida bu xil ekin maydonlari kengaytiriladi.

Bog'dorchilik, uzumchilik uchun viloyatda sharoit qulay. Bog'larda danakli mevalar ko'plab yetishtiriladi. Viloyat anori va anjiri bilan dong chiqargan. Jamoa xo'jaliklarining tokzorlarida uzumning turli xil navlari yetishtiriladi.

Farg'ona viloyatida yaylovlar Andijon viloyatidagiga qaraganda ancha ko'p bo'lsa-da, lekin ularning mahsuldorligi yetarli emas. Chorva mollari orasida go'sht va yog' uchun boqiladigan qo'y hamda echkilar ancha ko'p (50-rasm).

Paxtakor xo'jaliklarda yetishtiriladigan jo'xori, beda va keltiriladigan to'yimli ozuqa zaminida sut-go'sht chorvachiligi



50-rasm. Farg'ona viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

rivojlangan. Barcha paxtakor jamoa xo'jaliklarida pilla ham yetishtiriladi. Oxunboboyev va Quva rayonlarida pillachilik ayniqsa yaxshi rivojlangan. Viloyat mamlakatda yetishtiriladigan pillaning 20 foizga yaqinini beradi.

Viloyat sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda og'ir sanoatning salmog'i ancha katta. Neftni qayta ishlash, kimyo va energetika sanoati iqtisodiy rayondagina emas, balki respublikada ham ajralib turadi. Sanoatning mashinasozlik, metallsozlik va binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari ham muhim ahamiyatga ega. Yengil va oziq-ovqat sanoati esa paxtachilik va u bilan qo'shib olib boriladigan qishloq xo'jalik tarmoqlari negizida vujudga kelgan. Viloyatda neftni qayta ishlaydigan 2 ta zavod bo'lib, biri Farg'onada, ikkinchisi Oltiariqda joylashgan. Zavodlar benzin, solyarka, kerosin kabi yoqilg'i, turli xil moylar ishlab chiqaradi.

Viloyat sanoat korxonalari Farg'ona — Marg'ilon sanoat rayoni va Qo'qon, Quvasoy sanoat tugunlarida to'plangan.

**Transporti.** Farg'ona viloyati temir yo'l va avtomobil yo'llari bilan yaxshi ta'minlangan. Barcha rayon markazlaridan temir yo'lgacha avtomobil yo'llari qurilgan. Viloyatdan paxta tolasi va paxta moyi, shoyi, ip-gazlama, trikotaj mollar, quruq meva, meva konservalar, mineral o'g'it va sement jo'natiladi. Boshqa viloyat va rayonlardan Farg'ona viloyatiga taxta-yog'och, har xil uskunalar, traktorlar, paxtachilik uchun zarur mashinalar, g'alla, un, qand, keng iste'mol buyumlari keltiriladi.

**Shaharlari.** *Farg'ona* muhim sanoat, transport va madaniyat markazidir.

**!** *Ilovadagi 4-jadvaldan aholisi soni jihatdan Farg'ona shahri respublikada nechanchi o'rinda turishini aniqlang.*

Shahar aholisining soni 200 mingga yaqinlashib qoldi.

Shaharda 30 dan ziyod yirik sanoat korxonalari bor. Ular birlashgan energetika tizimidan quvvat oladi. Hozir Qizilqiya ko'miri asosida ikkita IEM ishlab turibdi. Iqtisodiy rayonning birlashgan energetika tizimi shu IEMlar asosida vujudga kelgan edi.

Shaharda paxta zavodi, yirik yog'-moy hamda to'qimachilik kombinatlari, sun'iy tola va boshqa kimyo mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavodlar, gaz apparatlari zavodi, uy-joy qurilish kombinati, trikotaj, poyabzal fabrikasi va bir necha tikuvchilik



korxonalari bor. Kimyoviy tolalar, azot o'g'itlari, furan birikmalar zavodi kimyo sanoatining muhim korxonalari hisoblanadi.

Konserva va sut zavodlari, non kombinati va boshqa yirik korxonalar aholi ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradi. Shahar Oloy tizmasi etagida, dengiz sathidan 580 m balandda joylashgan. Shahar tog'larga yaqin bo'lganidan suvlari ko'p, yozi birmuncha salqin. Farg'onada universitet, politexnika instituti, O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti, 4 ta hunar bilim yurti, 3 ta texnikum va bir qancha maktablar bor.

Farg'ona yaxshi rejalashtirilgan, undagi ko'plab kinoteatrlar, madaniyat va istirohat bog'lari, favvoralar, o'lkashunoslik muzeyi, xiyobonlar, soya-salqin maydonlar shaharga husn berib turadi.

Shahardagi sanoat korxonalari va xonadonlar gazlashtirilgan. Bosh rejaga ko'ra yaqin yillar ichida Farg'ona va Marg'ilon shaharlari bilan Toshloq va Qirguli shaharchalari birlashib, yagona shaharni tashkil etadi. Ko'p qavatli ko'rkam turar joy va ma'muriy binolar ko'payadi.

*Marg'ilon* (aholisi 152 ming kishi) shoyi chiqarishning markazi sifatida qadimdan dong chiqargan shahardir. Temir yo'l o'tkazilgandan so'ng shaharda paxta zavodlari, ko'n zavodi, pilladan ipak oluvchi korxonalar barpo qilindi. Shoyi ishlab chiqarish o'sdi, savdo rivojlandi. Marg'ilonliklarning avlodan-avlodga o'tib kelayotgan tikuvchilik malakasi yildan-yilga mislsiz darajada takomillashdi va keng quloch yoydi.

Mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan Marg'ilon shoyi kombinati respublikada eng yirik to'qimachilik korxonalaridan biridir. Kombinatda pillakashlik, to'quv, yigiruv va bo'yash, gul bosish fabrikalari hamda mexanika sexi ishlaydi. Bu yerda tabiiy ipakdan krepdeshin, krepsatin, ipak mato, xonatlas va boshqa gazlamalar ishlab chiqariladi. Kombinat ayni vaqtda yirik o'quv markazi hamdir. O'zbekiston ipak sanoati ilmiy-tadqiqot instituti ham Marg'ilondadir. An'anaviy shoyi va atlaslar hamda badiiy buyumlar ishlab chiqaradigan shirkat „Atlas“ firmasiga birlashgan.

Shaharda pedagogika, tibbiyot bilim yurtlari, texnikumlar, maktablar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, madaniyat uyi va boshqa madaniy muassasalar ishlab turibdi.

*Qo'qon* Farg'ona viloyatining g'arbida, transport yo'llari ustida joylashgan. U aholisi sonining (194 ming kishi) ko'pligi va

sanoatining ko‘lami jihatidan viloyatda yetakchi shahardir. Qadimda shaharda bir necha paxta va yog‘ zavodi hamda ko‘plab hunarmandchilik korxonalari bo‘lgan. So‘nggi o‘n yilliklarda Qo‘qonning sanoati rivojlanib, u muhim sanoat tuguniga aylandi. Shahardagi superfosfat zavodi hamda elektr mashinasozligi, Qo‘qon to‘qimachilik mashinasozligi zavodlari respublikadagi yirik korxonalaridandir.

Shaharda paxta, pilla va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan paxta tozalash zavodi, yog‘- moy kombinati, paypoq kombinati, tikuvchilik va poyabzal fabrikalari ishlab turibdi.

Shahar viloyatdagi asosiy madaniyat markazlaridan biridir. Unda pedagogika instituti va bilim yurti, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va neft texnikumlari hamda o‘nlab maktablar bor, tarixiy me‘moriy yodgorliklar ko‘p.

Qo‘qon yirik transport tuguni hamdir. Undan Toshkent, Namangan va Farg‘ona tomonlarga temir yo‘l va avtomobil yo‘llari o‘tadi. Shahar avtomobil yo‘llari orqali vodiyning barcha shaharlari hamda tuman markazlari bilan bog‘langan.

*Quvasoy* Farg‘ona viloyatidagi yosh shaharlardan bo‘lib, Muyon tog‘i etagida, Isfayram daryosining o‘ng sohilidadir. Bu shahar 1954-yilda ishchi shaharchasi o‘rnida barpo etildi. Quvasoy Farg‘ona iqtisodiy rayonining binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan sanoat markazidir. Bu yerning ohak, mergel, gips va gillarga boyligi, Qizilqiya (Qirg‘iziston) ko‘mir konining shaharga yaqinligi Quvasoyda binokorlik materiallari ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkon beradi. Quvasoyda sement, shifer, ohak hamda g‘isht zavodlarini birlashtirgan kombinat ishlab turibdi. Mazkur kombinat respublikada ishlab chiqariladigan sementning to‘rt dan bir qismidan ko‘prog‘ini beradi. Quvasoy chinni zavodida kosa, piyola, choynak, lagan va boshqa idishlar ishlab chiqarish yildan-yilga ortmoqda. Shahardagi Qizilqiya ko‘miri bilan ishlaydigan GRES iqtisodiy rayon elektr tizimiga ulangan. Shahar bosh reja asosida qayta qurilmoqda.

Oloy tizma tog‘larining yonbag‘ri, Isfayram daryosi, ko‘pdan-ko‘p kanallar shahar husniga husn qo‘shib turibdi. Shahar atrofida go‘zal bog‘lar, tokzorlar bor.

Viloyatning Rishton shahrida, Chimyon shaharchasi hamda Cho‘liguliston qishlog‘ida ham sanoat va hunarmandchilik korxonalari bor.

Chimyon shaharchasida qurilgan sanatoriyga mamlakatning turli joylari va hatto xorijiy davlatlardan bemorlar kelib davolanadi.

*Rishton*— kulolchilik buyumlari ishlab chiqaradigan markaz. Shaharda mahalliy xomashyodan lagan, tovoq, piyola, xumcha, guldon kabi uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqariladi. Bundagi kulolchilik artellari birlashtirilib, kombinatga aylantirilgan. Hozir kombinatda 20 xildan ortiq buyum ishlab chiqarilmoqda.

Viloyatda sanoatning rivojlanishi sanoat rayonlari va sanoat tugunlari barpo etishga hamda ishchi kuchlaridan oqilona foydalanishga qaratilgandir.

- ❓ 1. *Viloyat ekin maydonining tarkibini ilovadagi 8-jadval ma'lumotlari asosida doira shaklli diagrammada tasvirlab, mamlakat ekin maydonining shunday diagrammasi bilan taqqoslang.*
2. *Xaritadan Farg'ona viloyatining chegaralarini ko'rsatib, uning geografik o'rni va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarni so'zlab bering.*
3. *Viloyat xo'jaligida qaysi tarmoq tez rivojlanmoqda?*
4. *Quvasoy sanoat markazi bilan Qo'qon sanoat tugunini taqqoslab, eng muhim tafovutlarini tushuntiring.*

## NAMANGAN VILOYATI


! *Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonining kattaligini aniqlab, aholi o'rtacha zichligini hisoblab chiqing.*

Namangan viloyati iqtisodiy rayonning shimoliy qismidadir. Viloyat yer yuzasining tuzilishi bir xil emas. Chunonchi, shimolda Chotqol tog'laridan janubga tomon cho'zilgan tog' oldi balandliklari, adirlar va tekisliklar birin-ketin almashinib keladi.

Viloyat hududining sharqiy va g'arbiy qismlarining tabiiy sharoiti o'rtasida ancha farq bor. Viloyatning baland tog' tizmalari bilan o'ralgan sharqiy qismida iqlim nisbatan yumshoq, yog'in ko'p yog'adi, tabiiy o'tloqlar ko'p, bahorikor dehqonchilik uchun sharoit juda qulay. Viloyatning g'arbiy qismida yog'in kam yog'adi va daryolar ham kam, o'simlik siyrak uchraydigan tog' va adirlar dehqonchilik uchun birmuncha noqulay. Viloyatning janubidagi Sirdaryo qayirining bir qismi botqoqli yerlardir. Botqoqliklar quritilib, ekinzorlarga aylantirilmoqda.

**Aholisi.** Viloyatning aholisi asosan o'zbeklar bo'lib, tojiklar hamda ruslar ham yashaydi (51-rasm). Viloyat aholisining tabiiy

# 1989



51- rasm. Namangan viloyati aholisining milliy tarkibi.

o'sish sur'atlari jihatidan oldingi o'rinda turadi. Shunga ko'ra mehnatga yaroqlilar soni tez ko'paymoqda.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Butun Farg'ona vodiysidagi kabi Namangan viloyatida ham obikor dehqonchilik ustun turadi. Viloyat hududida ko'plab sug'orish inshootlari — Shimoliy Farg'ona, Oxunboboyev nomli Chust, Chortoq kanallari, O'rtato'qay suv ombori (Kosonsoy daryosida) va boshqalar qurilgan.

Irrigatsiyaning rivojlanishi obikor yerlarni kengaytirish va ularning melioratsiya holatini yaxshilash imkonini beradi. Viloyat


sharqiy qismidagi tekislik va adirlarda obikor yerlar g'arbiy qismidagiga qaraganda ancha ko'pdir.

Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilikdir. Barcha ekin maydonlarining 46 foizidan ko'prog'iga paxta ekiladi. Pop va Chust rayonlaridagi cho'l yaylovlarida qo'y va echki ko'p boqiladi. Qoramol viloyatning deyarli hamma dehqonchilik rayonlarida boqiladi. Viloyatda yaylovlar yetishmaganidan jamoa xo'jaliklari mollarini yozda tog' yaylovlariga haydab boradilar. Chorvachilikni rivojlantirishdagi vazifa beda, makkajo'xori ekin maydonlarini va pichanzorlarni kengaytirishdan iboratdir.

Pillachilik obikor dehqonchilik xo'jaliklarida paxtachilik bilan birga rivojlantirilmoqda (xaritaga qarang).

Viloyat sanoati asosan yengil va oziq-ovqat korxonalari hamda mashinasozlikdan iborat. Sanoat korxonalarining asosiy qismi Namangan sanoat tugunida joylashgan (52-rasm).

Namangan viloyati temir yo'l orqali O'zbekistonning barcha viloyatlari bilan bog'langan. Avtomobil transporti yaxshi rivoj-



52-rasm. Namangan viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

langan va u viloyat ichkarisida yuklar hamda yo'lovchilar tashiydi. Barcha aholi manzilgohlari avtomobil transporti orqali bog'langan.

**Shaharlari.** *Namangan* (aholisi 377 ming kishi) viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Shahar Namangansoy bo'yida joylashgan. Shahar viloyat sanoati mahsulotining 60 foizini beradi. Shaharda shoyi fabrikasi va kostyumbop gazlamalar kombinati, elektrotexnika zavodi, sun'iy tola zavodi, ikkita paxta tozalash zavodi, yog'-ekstraksiya va konserva zavodlari, elektr stansiyalari, qop-qanor uchun ishlatiladigan dag'al gazlama fabrikasi va boshqa korxonalar ishlab turibdi. Elektrotexnika zavodi elektr isitgich asboblari ishlab chiqaradi. Qurilish materiallari sanoatiga taalluqli korxonalardan uysozlik kombinati, temir-beton konstruksiyalar zavodi, g'isht zavodi va boshqalar ishlab turibdi.

Shaharda Namangan Davlat universiteti, politexnika instituti, pedagogika va musiqa bilim yurtlari, maktablar, kutubxonalar, teatr, o'lkashunoslik muzeyi va boshqa muassasalar bor. Shaharni rejalashtirish borasida talaygina ishlar qilingan. Zamonaviy mikrorayon qad ko'tarmoqda. Madaniyat va istirohat bog'lari bor. Namanganni xalqimiz „gullar shahri“ deb ataydi.

Shahar markazidagi Mashrab nomli madaniyat va istirohat bog'i mamlakatimizdagi eng go'zal bog'lardan biridir. Shahar markazidan nur kabi taralib ketgan bir qancha keng va ravon ko'chalar shahar markazini zavod va fabrikalar, vokzal hamda shahar tevaragidagi mikrorayonlar bilan bog'laydi.

*Chust*— rayon markazi. Namangandan Toshkent va Qo'qonga boriladigan avtomobil yo'li ustida joylashgan. Shaharda shakar zavodi, tikuvchilik fabrikasi, hunarmandchilik korxonalari, ko'pgina artellar, madaniy-maishiy muassasalar bor.

*Popda* texnik rezina va poyabzal zavodlari ishlab turibdi. Kelajakda zavodda rezina shinalarini qayta ishlash yo'lga qo'yiladi.


*Uchqo'rg'on* — rayon markazi. Undan Andijon, Namangan va Toshkent tomon avtomobil yo'llari ketgan. Shahar yonida Norin daryosiga GES qurilgan. Shaharda yirik paxta tozalash hamda yog' zavodlari ishlab turibdi.

? 1. *Viloyat ekin maydonining tarkibini ilovadagi 9-jadval ma'lumotlari asosida doira shaklli diagrammada tasvirlab, uni mamlakat ekin maydonining shunday diagrammasi bilan taqqoslang.*

2. *Viloyatning iqtisodiy-geografik o'rniga xos xususiyatlar nimalardan iborat?*

3. Namangan viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasidan foydalanib, Chust bilan Popni taqqoslang va eng muhim tafovutlarni ko'rsating.

## 24- §. Samarqand iqtisodiy rayoni (Samarqand viloyati)



*!Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayon maydonining kattaligi va aholisining sonini aniqlang.*

### Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari

Samarqand iqtisodiy rayoni O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan. U Samarqand viloyati hududidan iborat. Samarqand iqtisodiy rayoni aholi soni hamda yalpi sanoat mahsuloti bo'yicha Farg'ona va Toshkent iqtisodiy rayonlaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. U respublikaning uchta iqtisodiy rayoniga tutashgan (xaritadan ular qaysi iqtisodiy rayonlar ekanligini aniqlang).

Iqtisodiy rayon Tojikiston bilan chegaradoshdir. U tabiiy-geografik o'rniga ko'ra Zarafshon vodiysining o'rta qismiga to'g'ri kelib, shimolda Nurota, shimoli-sharqda Turkiston, sharqda va janubi-sharqda Zarafshon tizma tog'lari bilan o'ralgan.

Vodiyning sharqiy qismi dengiz sathidan ancha baland tog'lar bilan o'ralgan. Turkiston tog' tizmalari shimoldan esadigan sovuq havo oqimini birmuncha to'sadi. Shu bois vodiyning sharqiy qismida harorat keskin o'zgarib ketmaydi. Yog'in ancha ko'p (350—800 mm) yog'adi. Sho'rxok maydonlar deyarli yo'q. Bo'z va o'tloq-allyuvial tuproqli yerlar kattagina maydonni tashkil etadi.

Vodiyning eng katta daryosi — Zarafshon suvni qor va muzliklardan oladi. Shunga ko'ra, uning suv sarfi birmuncha barqaror, toshqin xavfi yo'q. GESlar bir maromda ishlaydi. Zarafshon daryosi sug'orishga ehtiyoj katta bo'lgan yoz oylarida to'lib oqadi. Shu bois qishloq xo'jaligida uning ahamiyati katta. Suvdan yanada samarali foydalanishni ko'zlab, daryoning o'rta oqimida Kattaqo'rg'on suv ombori, quyi oqimida esa Quyimozor suv ombori barpo etilgan. Shu bilan birga Eski Anhor kanali orqali Zarafshon suvi (Darg'om kanalidan) Qashqadaryo viloyatiga oqizilmoqda. Xullas, suvdan xo'jalikda to'la foydalanish bo'yicha O'rta Osiyoning bironta daryosi Zarafshonga tenglasha olmaydi. Uning 90 foiz suvi sug'orishga sarflanadi. Yer osti suvlari yuzada, uning tarkibida tuz oz bo'lsa-da, lekin ichishga yaroqlisi kamdir.

Tog' oldi va tog' mintaqalarining tuproq hamda o'simliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, vodiyaning janubdagi balandliklarda to'q bo'z tuproq, tog'larda esa qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Adirlar qisman haydalgan, unga g'alla ekiladi. Tog'larda yog'ingarchilik yetariligidan o'tloqlar ham ko'p. Chorva yozda shu yerlarda boqiladi.

Zarafshon va Turkiston tog' tizmalarida archa hamda boshqa daraxt turlari uchraydi. Cho'l yaylovlarida cho'l bo'z tuprog'i, qumli va gipsli tuproq ko'p tarqalgan. Umuman vodiya madaniy tuproq eng ko'p uchraydi. O'simliklardan shuvoq, iloq, qo'ng'irbosh keng tarqalgan. Shuningdek, quyonsuyak, oq hamda qora saksovul va ba'zi bir butalar o'sadi. O'simliklar o'sish davrining har xilligidan qorako'l qo'ylarini yil bo'yi ochiq yaylovda boqish mumkin. Iqtisodiy rayonning tabiiy sharoiti mevali daraxtlar o'stirish uchun ham qulay. Bu yerda gilos, o'rik, shaftoli Ukrainadagidan 15-20 kun erta pishadi va shirinroq.


Iqtisodiy rayonda mineral boyliklar ham ko'p. Bu yerda nodir metallar (Ingichka, Zarmiton koni), binokorlik materiallari (marmar, ohak, granit, mergel, grafit), mineral bo'yoqlar, asbest konlari topilgan. Xullas, iqtisodiy rayonning yuksalishida uning tabiiy va iqtisodiy-geografik o'rnidagi qulayliklar qatori tabiiy sharoiti va boyliklari ham talay imkoniyatlar yaratadi.

**Aholisi.** Rayon aholisining 66 foizidan ko'prog'i qishloqda yashaydi. Uning milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i katta (80 foizga yaqin) (iqtisodiy rayon aholisi soni va o'rtacha zichligini ilovadagi 1-jadvaldan aniqlang). Shaharlarda tub yerli xalqlar (o'zbeklar,



tojiklar) bilan birga ruslar, tatarlar, yahudiylar va ukrainlar yashaydi (53-rasm). Butun aholi sonida mehnatga yaroqli kishilar salmog'i mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan kam bo'lsa-da, lekin ishchi kuchlari iqtisodiyotni yuksaltirish uchun keragicha topiladi.

Tabiiy sharoit va xo'jalik yuritishdagi tafovutlar tufayli qadimdan aholining joylashuvida notekislik bor (aholi xaritasiga qarang). Inson faoliyati uchun eng qulay Zarafshon va Sangzor vodiylarida aholi nihoyatda zich yashaydi. Bu yerlarda bir km<sup>2</sup> ga 150 va undan ortiq kishi to'g'ri keladi. Adirlarda va tog'larda har bir km<sup>2</sup> ga 5—10 kishi to'g'ri keladi.



53- rasm. Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibi.

**Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Samarqand iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning yirik hududiy-ishlab chiqarish majmualaridan biri hisoblanadi. Aholi bu yerlarda qadim zamonlardan beri ariq va kanallar qazib, obikor dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan.

Dehqonchilik bilan birga savdo va hunarmandchilik ham taraqqiy etgan. Temir yo‘l qurilib, tashqi bozorlarga erkin suratda mol chiqarish va u yerdan mol keltirish imkoniyati ko‘paygach, Samarqand iqtisodiy rayonidagina emas, balki butun O‘rta Osiyoning xo‘jalik hayotida jonlanish yuz berdi.

Endilikda iqtisodiy rayonning agrosanoat majmui barcha iqtisodiy rayonlardagi kabi yuksak darajada rivojlangan. Rayonda sanoat yetakchilik qiladi.


Og‘ir sanoat tarmoqlaridan mashinasozlik va metallsozlik, kimyo tez rivojlanmoqda. Mashinasozlik va metallsozlik korxonalari qishloq xo‘jalik mashinalari, paxta tozalash zavodlari uchun asbob-uskunalar, ro‘zg‘or muzlatkichlari, liftlar, kinoapparatlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Samarqand hududiy-ishlab chiqarish majmuida yengil sanoatning ham salmog‘i katta. Bu sohaga tegishli 50 ga yaqin korxonalar ishlab turibdi. Oziq-ovqat sanoati mahalliy xomashyolardan konserva va sharob, o‘simlik moyi, tamaki, sut va go‘sht, qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi (54-rasm).

Samarqand hududiy-ishlab chiqarish majmuida qishloq xo‘jalik alohida o‘rin tutadi. Dehqonchilik qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining 75 foizini beradi.

Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i bu iqtisodiy rayonda ham paxtachilikdir. Boshqa texnik ekinlardan tamaki, kunjut, zig‘ir va safsar (maxsar) yetishtiriladi. Urgut tumani tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu yerda mamlakatdagi tamakining 96 foizi yetishtiriladi. Bahorikor yerlarda bug‘doy va arpa ekiladi. Paxtachilik majmui tarkibidagi bog‘dorchilik va uzumchilik kabi tarmoqlar yuksak taraqqiy etgan. Shaharlar atrofidagi jamoa va shirkat xo‘jaliklarida, aholining tomorqa yerlarida ko‘plab turli xil sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

Respublikamizdagi mevali daraxtlarning 15 foizi va tokzorlarning 30 foizi shu iqtisodiy rayondadir. Samarqand iqtisodiy rayonida chorvachilik agrosanoat majmuining muhim tarkibiy qismi



54-rasm. Samarqand viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

hisoblanadi. Qoramollar soni jihatidan iqtisodiy rayon respublikada birinchi o'rinni egallaydi, qorako'lichilikda esa uchinchi o'rinda turadi. Bu yerda qorako'lichilikni rivojlantirish choralarini tadqiq etuvchi ilmiy-tadqiqot ilmgohi bor.

**Transporti.** Iqtisodiy rayon hududidan ikkita temir yo'l o'tadi. Toshkent — Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk), Toshkent — Dushanbe temir yo'lida asosan o'tkinchi (tranzit) yuklar tashiladi. Iqtisodiy rayonda avtomobil yo'llari ko'p, ularda temir yo'lga va bir viloyatdan boshqa viloyatga yuklar tashiladi. Havo transporti respublikaning barcha yirik shaharlarini hamda xorijiy davlatlarni bog'laydi. Quvur transporti va elektr uzatgich liniyalarning trans-

port tizimidagi ahamiyati sezilarlidir. Rossiya Federatsiyasiga paxta tolasi, paxta moyi, ho‘l meva, uzum, mayiz va qorako‘l terilari yuboriladi. Mineral o‘g‘it, tamaki, choy, poyabzal, shoyi va boshqa iste‘mol mollari barcha qo‘shni viloyatlarga va hatto O‘rta Osiyo davlatlariga ham chiqariladi. Iqtisodiy rayon asosan yog‘och-taxta, g‘alla, shakar-qand, mashinalar, ko‘mir, neft, neft mahsulotlari hamda keng iste‘mol mollari oladi.

Iqtisodiy rayon hududiy-ishlab chiqarish majmui tarkibida Samarqand, Kattaqo‘rg‘on sanoat tugunlari tarkib topgan.

**Shaharlari.** *Samarqand* (aholisi 365 ming kishi). U Zarafshon daryosining chap sohilidagi aholisi zich vohada, Toshkent — Turkmanboshi temir yo‘li yoqasida joylashgan. Samarqand dunyodagi juda qadimiy shaharlardandir. 1972-yilda uning 2500 yilligi nishonlandi.

Geografik o‘rnining qulayligidan Samarqand o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning muhim savdo markazlaridan biriga aylandi. Hindiston, Eron va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borilgan savdo aloqalari shaharning iqtisodiy hamda madaniy jihatdan yuksalishiga ta‘sir ko‘rsatdi. O‘sha davrlardayoq Samarqandda hunarmandchilik yuksak darajada taraqqiy etgan edi. Zargarlik buyumlari, kulolchilik bo‘yoqlari, ipak va ip-gazlamalar ishlab chiqarish va kashtachilik yaxshi rivojlandi. Qog‘oz va to‘q qizil duxobalar ishlab chiqarishni samarqandliklar bundan ming yil burun keng yo‘lga qo‘ygan edilar.

Amir Temur va temuriylar davri (XV—XVII asrlar)da Samarqandda hashamatli machit, madrasa, maqbara va saroylar qurildi. Ular Hindiston, Misr, qadimgi Yunoniston va Rim me‘morchiligining noyob yodgorliklari bilan bir qatorda umumjahon ahamiyatiga egadir. O‘rta asr shoir va olimlari Samarqandni „sayqali ro‘yi zamin“ deb ulug‘laganlar. 1999-yilda Samarqanddan shimoldagi Chelak shahrida buyuk hadisshunos olim — imom Buxoriyga bag‘ishlab me‘moriy majmua barpo qilindi.

Endilikda Samarqand mamlakatning yirik sanoat tuguni sifatida ham, madaniyat markazi sifatida ham ahamiyatlidir. Sanoat tuguniga Jomboy, Juma va boshqa shaharchalar ishlab chiqarish bo‘yicha bog‘liq.

Shahar qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud markazida joylashgandan unda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar ko‘p. Bu korxonalar orasida pillakashlik, shoyi to‘qish,

sut va go'sht kombinatlari, ulkan tegirmon, makaron, tamaki fabrikalari, jun gazlamalar ishlab chiqaradigan komvol kombinati mamlakat miqyosida yirik korxonalaridan hisoblanadi.

Samarqanddagi superfosfat zavodi fosfor va ammosfos mineral o'g'itlar hamda sulfat kislotasi ishlab chiqaradi. Yirik panelli uysozlik zavodi viloyatda uy-joy qurilishiga xizmat qilmoqda.

„Krasniy dvigatel“ motor tuzatish hamda avtotuzatish zavodlari zarur materialni asosan chetdan oladi, Samarqanddagi mashinasozlik zavodi qishloq xo'jalik mashinalari uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqaradi hamda ularni tuzatadi. „Kinap“ zavodi kino-apparatlar, transformatorlar, stabilizatorlar va yorug'likni to'suvchi turli xil apparatlar ishlab chiqaradi.

Samarqand chinni zavodi texnikaning eng so'nggi yutuqlari asosida qurildi. Ro'zg'or muzlatkichlari ishlab chiqaradigan zavod Toshkentdagi muzlatkich zavodiga qaraganda 5 barobar ko'p mahsulot ishlab chiqara oladi.

Samarqand respublika fan va madaniyatining yirik markazidir. Shaharda universitet, 6 ta oliy va 17 ta maxsus o'quv yurti bor.

Shahar xo'jaligining yuksalishi bilan aholisi ham tez ko'paymoqda. So'nggi 70 yil ichida uning aholisi 3 baravar ko'paydi.

Aholining o'sish sur'atlari jihatidan Samarqand, Qo'qon, Namangan va Andijon kabi shaharlardan oldinda turardi.


*Kattaqo'rg'on* (aholisi 65 ming kishi) iqtisodiy rayonda Samarqanddan keyingi ikkinchi o'rinni egallagan sanoat tuguni va madaniyat markazidir. Shahar yonidan Samarqand —Buxoro temir yo'li o'tadi. Shahardagi Kattaqo'rg'on paxta tozalash mashinasozligi zavodi paxta tozalash zavodlari uchun asbob-uskunalar ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, motor tuzatish, paxta va g'isht zavodlari hamda mahalliy sanoat korxonalari bor. Moy eritish va go'sht kombinatlari hamda yiliga 2 million jo'ja ochiriladigan broyler fabrikasi oziq-ovqat sanoatining respublikadagi yirik korxonalari hisoblanadi. Moy eritish kombinati o'simlik moyi ishlab chiqarish jihatidan mamlakatdagi eng yirik korxonalaridan biridir. Sanoat korxonalarini katta IEM elektr quvvati bilan ta'minlaydi.

Cho'ponotada cherepitsa, sopol quvurlar hamda tarixiy obidalarni tiklashda ishlatiladigan sopol plitalar ishlab chiqariladi.

Bular uchun ishlatiladigan xomashyo — maxsus tuproq shu yerda mavjud.

- ? 1. Iqtisodiy rayon hududi qanday qismlardan iborat va bu qismlar tabiiy sharoitiga ko'ra qanday farqlanadi? Iqtisodiy-geografik o'rindagi qulayliklar nimalar?
2. Iqtisodiy rayon tabiiy boyliklardan yanada samarali foydalanish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmogda?
3. Iqtisodiy rayon aholisining milliy tarkibi va joylashuviga qanday omillar ta'sir etgan?
4. Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligida qaysi tarmoqlarning salmog'i boshqa iqtisodiy rayonlardagidan katta, buning sababini tushuntiring.
5. Daftaringizga iqtisodiy rayonning aloqalari tarxini chizing.
6. Iqtisodiy rayon sanoati bilan qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish aloqalarini tushuntiring.
7. Yozuvsiz xaritada Samarqand iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajarang.

### 25-§. Buxoro — Navoiy iqtisodiy rayoni



! Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayon maydonining kattaligi va aholisining sonini aniqlang.

#### Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari

Bu iqtisodiy rayon Buxoro va Navoiy viloyatlari hududidan iborat. Maydonining kattaligi jihatidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyinda turadi. Uning hududi respublikadagi to'rtta iqtisodiy rayonga va Qozog'iston bilan Turkmaniston respublikalarining hududlariga tutashib turadi (xaritadan chegaradosh iqtisodiy rayonlar va respublikalarni ko'rsating). Bularni barcha turdagi transport o'zaro bog'laydi. Binobarin, iqtisodiy rayonning geografik o'rni iqtisodiy aloqalar jihatidan ancha qulay.

Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni yer yuzasining tuzilishi xilma-xildir. Maydonining 90 foizi tekislik (Qizilqum cho‘li)dan iborat. Tekislik markazida Tomditog‘ (eng baland cho‘qqisi 922 m), Bo‘kantog‘, Ovminzatog‘, Quljuqtog‘ qad ko‘tarib turadi. Tekislikning sharqida Nurota, Oqtog‘, Qoratog‘larning g‘arbiy qismi joylashgan. Bular ham iqtisodiyotda muayyan ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rayonning cho‘l qismi qorako‘lchilik uchun ahamiyatlidir. Uning janubidagi yerlar Zarafshon vodiysining quyi qismiga to‘g‘ri kelib, obikor dehqonchilik uchun qulay yerlardir.

Iqtisodiy rayon iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o‘rtacha harorati shimolda — 8°C, janubda — 2°C, iyulning o‘rtacha harorati esa 27°C dan 31°C gacha, yoz issiq va quruq.

O‘simlik o‘sadigan davr haroratining yig‘indisi shimolda 3000°C ni, janubda esa 5000°C ni tashkil etadi. Yog‘in nihoyatda kam. Yillik yog‘in miqdori 100—300 mm, xolos. Qor qoplami yupqaligidan yaylov chorvachiligi uzluksiz davom etadi. Cho‘lda oqar suv bo‘lmasa-da, yer osti suvlaridan chorvachilikda, kichikroq joylarda esa sabzavot yetishtirishda foydalaniladi. Lekin yoz oylarida tez-tez garmsel shamoli xuruj qilib, o‘simliklarni qovjiratib ketadi.

Suv muammosini hal qilish uchun Zarafshonning o‘rta qismida Quyimozor suv ombori, Amu — Qorako‘l va Amu — Buxoro mashina kanallari ishga tushirilgan. Suvni 64 metr balanddagi bu kanallarga qudratli nasoslar ko‘tarib beradi. Suv omborga va undan kanallar orqali Buxoro vohasini sug‘orishga sarflanadi.

Iqtisodiy rayonning o‘simlik (yaylov) boyligi qorako‘lchilikda katta ahamiyatga ega. Cho‘ldagi shuvoq, yulg‘un, saksovol kabi efemer va butasimon o‘simliklar qo‘ylarning sevimli ozuqasidir. Botiq yerlarda sho‘rxoklar, sho‘rlar keng tarqalgan.

Buxoro — Navoiy iqtisodiy rayonida xilma-xil mineral boyliklar ko‘p. Jumladan, Gazli, Uchqir, Qorovulbozor, Sortosh tabiiy gaz konlari, Kogon yaqinida neft koni, Muruntov oltin koni, nodir metallar, tuzlar, oltingugurt konlari, qurilish materiallari va mineral bo‘yoq konlari mavjud. Bu boyliklar iqtisodiy rayonda energetika, rangli metallurgiya, kimyo hamda qurilish materiallari sanoatlarini rivojlantirish uchun baza hisoblanadi.

**Aholisi.** Iqtisodiy rayon aholisining ko‘payish sur‘ati mamlakat aholisining o‘rtacha o‘sishidan yuqori. Aholi har km<sup>2</sup> ga 10 kishi

to'g'ri kelsa-da, Zarafshon vodiysining obikor mintaqasida 140—150 kishi to'g'ri keladi. Cho'l mintaqasida esa bir kishi to'g'ri keladi. Aholining 66 foizdan ko'prog'i qishloqlarda yashaydi.

Aholining 75 foizini o'zbeklar va qolgan qismini ruslar, qozoqlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, ukrainlar, turkmanlar, tatarlar, yahudiylar tashkil etadi.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Buxoro — Navoiy iqtisodiy rayonida agrosanoat majmui tarkib topib bormoqda. Sanoat ko'p tarmoqlidir. Uning energetika, rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, gaz-kimyoy, neft kimyosi, qurilish, yengil va oziq-ovqat kabi tarmoqlari jadal rivojlanmoqda.

Qorovulbozor shahrida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan korxonaning ishga tushirilishi rayonda iqtisodiyotning yangi iqtisodiy sohasini vujudga keltirmoqda. Korxonaga to'liq quvvat bilan ishga tushgach mamlakatimiz neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yarmini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Iqtisodiy rayon hosil etilayotgan elektr quvvati miqdoriga ko'ra Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. Elektr quvvati asosan Navoiy GRESidan olinmoqda, GRES tabiiy gaz bilan ishlaydi.


Gaz sanoati bo'yicha iqtisodiy rayon yaqin yillargacha O'zbekistonda yetakchi o'rinda edi. Qashqadaryodagi Sho'rton gaz koni ishga tushirilgach, ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Buxoro—Navoiy iqtisodiy rayonining kimyo sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanadi, u o'z yalpi mahsuloti bo'yicha Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlaridan keyin turadi.

Buxoro — Navoiy hududiy-ishlab chiqarish majmuining asosiy tarmoqlaridan biri yengil sanoatdir. Uning 50 ga yaqin korxonalari bo'lib, iqtisodiy rayon yalpi mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi.

Buxoro — Navoiy hududiy-ishlab chiqarish majmuida qishloq xo'jaligi paxtachilik va qorako'lchilikdan iborat.

Iqtisodiy rayon paxtachilik bo'yicha faqat Farg'ona iqtisodiy rayonidan keyinda turadi. Respublika yaylovlarining yarmidan ko'pi shu iqtisodiy rayonda. Yaylovlar mahsuldorligini oshirish uchun fitomeliyorativ tavsiyalar tayyorlovchi 6 ta o'rmon xo'jaligi va 1 ta o'rmon-meliyoratsiya stansiyasi ishlab turibdi. O'zbekistondagi qorako'l qo'ylarining va tuyalarning yarmidan ko'pi shu iqtisodiy rayonda boqiladi.





55- rasm. Buxoro viloyati aholisining milliy tarkibi.

1. Iqtisodiy rayonning iqtisodiy-geografik o'rniga xos qanday xususiyatlar xo'jalikning yuksalishida ijobiy rol o'ynaydi?
2. Tabiiy sharoitning qanday xususiyatlari xo'jalik uchun noqulaylik tug'diradi va unga qarshi qanday choralar ko'riladi?
3. Xarita-chizmadan foydalanib, obikor dehqonchilik qilinadigan joylarni aniqlang.
4. Yozuvsiz xaritada Buxoro—Navoiy iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.

## BUXORO VILOYATI

Buxoro viloyati iqtisodiy rayonning janubidagi yerlardan iborat. Viloyat maydoni respublika maydonining 8,8, aholisining 5,8 foizini tashkil etadi. Aholining 90 foizga yaqini o'zbeklar (55-rasm).

Viloyatning tabiiy sharoiti xo'jalik ahamiyati nuqtai nazaridan Samarqand viloyati tabiiy sharoitidan farq qiladi: ayrim joylarda sizot suvlarining yer yuzasiga yaqinligi, yog'inlarning kamligi, cho'lda qum ko'chishi kabi tabiiy hodisalar viloyatning yer fondidan foydalanishda agrotexnika qoidalariga alohida e'tibor berishni talab etadi.

Buxoro viloyatida topilgan tabiiy gaz zaxiralari bir necha trillion kubometrni tashkil etadi. Aniqlangan gaz zaxirasi jihatidan Buxoro viloyati mamlakatda oldingi o'rinlardan birida turadi. Bundan tashqari, viloyatda neft, binokorlik materiallari, tuz va boshqa foydali qazilma konlari topilgan.

**Qishloq xo'jaligi.** Buxoro viloyatining qishloq xo'jaligida paxtachilik, qorako'lchilik va pillachilik yetakchi tarmoqlardir. Viloyatda sug'orishga yaroqli yerlar ko'p. Mashina yordamida sug'orish rivojlantirilmoqda. 188 ta nasos stansiyasi barpo etilgan.


Ekin maydonlarining tarkibida paxta maydoni asosiy o'rinni egallaydi. Yaqin vaqtgacha paxta maydoni yangi o'zlashtirilgan yerlar hamda don ekinlari maydoni hisobiga kengaytirilgan (56-rasm).

Viloyat hududida qadimdan mevachilik bilan shug'ullanib kelingan. Bu yerda bahorning erta kelishi va iliq bo'lishi tufayli danakli meva daraxtlaridan o'rik, shaftoli, tog'olcha ko'p tarqalgan. Urug'li meva daraxtlaridan olma va nok esa so'nggi yillarda ko'plab ekilmoqda. Bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanadigan maxsus xo'jaliklar mavjud.

**Sanoati.** Viloyat sanoati asosan so'nggi o'n yilliklar ichida barpo qilindi. Yarim kustar eski korxonalar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, qayta qurildi.

Gaz va neft, qimmatbaho metallar hamda tuz, gips va asbest konlarining topilishi bilan viloyatda ilgari bo'lmagan kon sanoati paydo bo'ldi.

Viloyatning qurilish materiallari korxonalari Buxoro va Kogon shaharlarida joylashgan. Yengil sanoatning yetakchi tarmog'i paxta



56- rasm. Buxoro viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

tozalash korxonalaridir. Shuningdek, Buxoro va G'ijduvonda poyabzal fabrikalari bor. Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi hamda uning Olot, Vobkent, Qorako'l va G'ijduvon rayonlaridagi bo'limlari viloyat to'qimachilik sanoatining asosini tashkil etadi. Oziq-ovqat sanoati ham salmoqli o'rin tutadi. Buxoroda sut va go'sht kombinatlari, Buxoro, Kogon va Qorako'l da don mahsulotlari kombinati ishlab turibdi.

**Shaharlari.** *Buxoro* — (aholisi 240 ming kishi) ham Samarqand kabi ko'hna shahardir. U Zarafshon vodiysining quyi qismida Shohruh kanali yonida joylashgan bo'lib, o'tmishda Samarqand singari mamlakatimiz poytaxti bo'lgan. Sanoat mayda hunarmandchilik darajasida bo'lgan.

Buxoro oʻrta asrlarda karvon yoʻllari chorrahasidagi yirik savdo shahri edi. Shaharda oʻzbeklar, tojiklar, turkmanlar, yahudiylardan tashqari arablar, hindlar va boshqa millat vakillarini ham uchratish mumkin edi. Machit va madrasalar pishiq gʻishtdan muhtasham qilib qurilgan, turli davrlarga oid obidalar koʻp.

Buxoroda elektr stansiyalari, motor taʼmirlash va paxta tozalash zavodlari, qurt urugʻi tayyorlaydigan zavod, gʻisht zavodi, vino va pivo zavodlari, yirik goʻsht kombinati, yogʻ-ekstraksiya zavodlari, pillakashlik, yigirish va tikuvchilik fabrikalari barpo etilgan. Shahar qadim zamonlardan beri zardoʻzlik, shoyi toʻqish, zargarlik, misgarlik, ganchkorlik va yogʻochga naqsh solish hunarlari bilan dunyoga mashhur.

Buxoro viloyatning maʼmuriy-madaniy markazidir. Shaharda Buxoro Davlat universiteti, oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti, Buxoro tibbiyot instituti, qishloq xoʻjalik, qurilish va savdo texnikumlari, musiqa, tibbiyot bilim yurtlari va koʻpgina maktablar bor. Unda oʻlkashunoslik muzeyi hamda Ibn Sino nomidagi kutubxona va boshqa madaniy muassasalar mavjud. Shaharda koʻplab turar joy binolari, keng koʻchalar, bogʻ va xiyobonlar barpo etilmoqda. Shaharning tarixan tarkib topgan manzarasini saqlab qolish uchun zamonaviy binolar faqat shahar chekkasida barpo etilmoqda. Buxoroning rivojlanishi bundan buyon suv taʼminotining ahvoriga bogʻliq. Shunga koʻra Amu — Buxoro kanali muhim ahamiyatga ega.

*Kogon* temir yoʻl stansiyasi yaqinida shaharcha sifatida qad koʻtargan. Temir yoʻl Dushanbega yetib borishi hamda *Kogon* — Buxoro temir yoʻli qurilgach, *Kogon* transport tuguniga aylandi. Endilikda shaharda 15 ga yaqin sanoat korxonasi ishlab turibdi. Paxta tozalash, yogʻ-moy, alebastr zavodlari, lokomotiv-vagon deposi muhim korxonalaridan hisoblanadi.

Gaz koni negizida *Gazli shahri* barpo etildi. Gazliga Navoiydan elektr quvvati va Amudaryodan quvur orqali suv olib kelingan. *Gazli* joylashgan hududning iqlimi keskin kontinental, vaqt-vaqti bilan kuchli shamol boʻlib, chang koʻtariladi, ayrim vaqtlarda qum koʻchadi.

- ❓ 1. *Viloyatning geografik oʻrni va tabiiy sharoiti xoʻjaligi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?*
2. *Viloyatda hunarmandchilikning qanday turi qaysi rayonlarda rivojlangan?*
3. *Viloyat ekin maydonining tarkibini 9-jadval maʼlumotlari asosida doiraviy*

*diagrammada tasvirlab, uni mamlakatning shunday diagrammasiga solishtiring.*

- 4. Viloyat qishloq xo'jaligida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Sababini izohlang.*
- 5. Tumaningizni viloyat markazi bilan bog'laydigan eng qisqa yo'lni aniqlang.*

## NAVOIY VILOYATI

Bu viloyat mamlakatimizning eng kenja viloyati bo'lib, 1982-yil 20-aprelda tuzilgan. U Buxoro va Samarqand viloyatlari hududidan tashkil topdi. Navoiy viloyati respublikamiz viloyatlari ichida maydonining kattaligi bo'yicha birinchi o'rinda tursa-da, aholisining soni bo'yicha faqatgina Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi.


Viloyat yer yuzasining tuzilishi bir xil emas. Chunonchi, shimoldagi Qizilqum cho'li janubi-sharqda adir va tog'larga borib tutashadi. Qizilqum cho'lida balandligi 500—900 m keladigan past tog'lar ko'tarilib turadi. Botiqlar ko'p, iqlimi keskin kontinental. Yozi quruq, issiq, qishi quruq, sovuq. Yanvarning o'rtacha harorati — 4°C, iyulniki esa 30°C. Yog'in shimolda 108 mm dan janubi-sharqqa tomon 200 mm gacha ortadi. Tuproqlari qizilqum, lyoss, qo'ng'ir, sho'rtob tuproqlar, yovvoyi o'simliklardan saksovul, selen, yantoq, shuvoq, isiriq, qamish, sho'ra va boshqalar o'sadi. Hayvonlardan sayg'oq, jayron, arxar, tulki, chiyabo'ri, toshbaqa, turli xil ilonlar, qushlardan burgut, kaklik, qarchig'ay, hakka kabilar uchraydi.

**Aholisi** g'oyat notekis joylashgan. Uchquduq tumanida aholi nihoyatda siyrak. Sanoatning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi shahar aholisining tez ko'payishiga olib kelmoqda. Viloyatda yangi shahar va shaharchalar qad ko'tarmoqda. 57-rasmdan aholiga oid bilimingizni oshiring!

Viloyatning shimoliy qismi faqat yaylov chorvachiligi uchun yaraydi. Yil bo'yi qorako'l qo'ylari boqiladi. Shuningdek, janubig'arbidagi tog' etaklari, adirlar ham chorvachilik uchun qulay. Zarafshon daryo vodiysi hamda Amudaryo suvi keltirilgan viloyat janubidagi yerlarda sug'orib dehqonchilik qilish mumkin.

Navoiy viloyati qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i qorako'lchilik va paxtachilikdir. Shuningdek, pillachilik, qo'ychilik, bog'dorchilik va uzumchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Cho'l chorvachiligi sohasida bu viloyat respublikada yetakchidir. Qizilqum

# 1999



57- rasm. Navoiy viloyati aholisining milliy tarkibi.

cho'lida qorako'chilikka ixtisoslashtirilgan yirik xo'jaliklar tashkil etilgan. Bu sohada Tomdi tumani alohida ajralib turadi, tumanda 10 ta qorako'chilik xo'jaligi bor. Yaylovlarni suv bilan ta'minlash, ularning mahsuldorligini oshirish uchun fitomeliorativ tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan samarali ishlar olib borilmoqda.

Sanoat tuman markazlaridagi paxta tozalash zavodlaridan tashqari elektr energiya ishlab chiqarish, rangli metallurgiya, kimyo, qurilish xomashyosi ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoatidan iborat. Sanoatning rivojlanishi tabiiy boyliklarga, xususan suv boyliklariga bog'liq.

Bu viloyatda taraqqiy etayotgan sanoat tarmoqlari, jumladan kimyo sanoati va boshqalar suvni ko'p talab qiladi. Viloyat kimyo

sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanib, tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Kimyo sanoatining markazi Navoiy shahridagi kimyo kombinatidir (58-rasm).

Mamlakatimizda tayyorlanayotgan sement mahsulotining asosiy qismi Navoiy sement zavodida ishlab chiqarilmoqda. Zavod yaqin vaqtlargacha ipak, metall qipig'i, klinker singari sement xomashyolarini sobiq Ittifoq respublikalaridan katta-katta xarajatlar hisobiga keltirardi. Xomashyoning qimmatligi sement ishlab chiqarishni ko'paytirish va sifatini oshirishga to'sqinlik qilardi. Geologlarning tinimsiz izlanishlari natijasida Malikcho'l sarhadlarida, shundoq-qina zavodning yonida tuf koni topildi. Tuf eng a'lo shlakdan ham noyob aralashma — klinkerdan ham qolishmaydigan sement xomashyosidir. Kon zaxirasi katta bo'lib, yiliga 2—3 mln tonna tuf qazib olinganda ham 45—50 yilga yetishi aniqlandi. Endilikda kon va zavod oralig'ida temir yo'l yotqizish ishlari olib borilmoqda.

Elektroenergetika sanoati elektr energiya miqdoriga ko'ra respublikada yetakchi o'rinni egallaydi. Elektr energiyaning asosiy qismini Navoiy GRESi beradi.


**Shaharlari.** *Navoiy* tez yuksalayotgan yosh sanoat shahri (aholisi 120 ming kishi)dir. U shu nomdagi viloyatning ma'muriy markazi. Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo'jalik hududi markazida joylashganligi, transport bilan yaxshi ta'minlanganligi shaharning tez o'sish omili bo'ldi.

Shahar 60-yillarda yagona bosh reja asosida issiq iqlim, milliy an'analar hisobga olingan holda qurildi. Shahar ko'kalamzorlashtirilgan, unda favvora va hovuzlar ko'p.

Navoiyda mamlakatdagi yirik GRES, elektr kimyo kombinati, sement zavodi, kon-metallurgiya kombinati bor. Shahar sanoat va transport tuguni, muhim madaniyat markazidir. Bu yerda Toshkent politexnika oliygohining kechki umumiy texnika kulliyoti, maktablar va boshqa madaniy muassasalar ishlab turibdi.

*Zarafshon* shahri Muruntov tog'-kon sanoati bazasida 1972-yilda barpo etildi.

- ? 1. *Viloyatning geografik o'rni va tabiiy sharoiti xo'jaligi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?*
2. *Viloyat aholisi va ishchi kuchlarining ko'lami hamda joylashuvi bo'yicha Buxoro viloyatiga qiyoslang.*




58-rasm. Navoiy viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.



3. Viloyatdan qanday mahsulotlar jo'natilib, qanday mahsulotlar keltirilishini geografiya daftaringizga yozib, o'qituvchingizga ko'rsating.

## 26-§. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni (Qashqadaryo viloyati)



**!** Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayon maydonining kattaligi va aholisining sonini aniqlab, bu ko'rsatkichlarni qo'shni iqtisodiy rayon ko'rsatkichlari bilan solishtiring.

### Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari

Bu iqtisodiy rayon Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Viloyat dengiz sathidan balandligi 200 metrdan 4000 metrga qadar bo'lgan Qashqadaryo havzasida joylashgan. Tojikistonni O'rta Osiyodagi boshqa respublikalar bilan bog'laydigan temir yo'l shu viloyat hududidan o'tadi.

Viloyat o'z maydonining kattaligi jihatidan respublikada to'rtinchi o'rinda turadi.

Bu viloyatda yillik o'rtacha harorat O'zbekistonning boshqa qismidagidan birmuncha yuqori. Issiq kunlarning ko'pligi, unumdor tuproq, ingichka tolali paxta, xurmo va boshqa subtropik o'lkalalar o'simligini ham yetishtirish imkonini beradi. Yog'in kam. Yozda umuman yog'ingarchilik bo'lmaydi. Shuning uchun iqtisodiy rayonning tekis qismida sun'iy sug'orishga zaruriyat katta, tog'oldi tekisliklarida yog'ingarchilik birmuncha ko'proq (350—500 mm) yog'adi. Bunday yerlarda lalmi dehqonchilik qilish mumkin. Lekin tez-tez esadigan „afg'on" shamoli chang-to'zon ko'tarib, bog' va ekinlarga jiddiy zarar yetkazadi. Viloyatda 1 mln gektarga yaqin sug'orishga yaroqli yer bor. Biroq suv tanqis. Hatto suvdan to'la va eng samarali foydalanilganda ham ko'p yerlarga suv yetib bormaydi. Shu tufayli ko'p yerlarga bahorikor donli ekinlar ekilmoqda.

Qashqadaryo vodiysi Qashqadaryo va uning chap irmoqlari — Oqsu, Tanxoz, Yakkabog' va G'uzor suvi bilan sug'oriladi.

Qashqadaryoning suv imkoniyatlari Surxondaryonikidan ikki yarim hissa oz va u Qashqadaryo havzasi yerlarini sug'orish uchun yetishmaydi.

Vodiyning o'rtasida Chimqo'rg'on suv ombori qurilib, Qashqadaryoning o'rta va quyi oqimida suv sarflanishining tartibga solinishi hamda Eski Anhor kanali orqali Zarafshondan keltirilishi natijasida obikor yerlar maydoni ancha kengaydi (xaritani ko'zdan kechiring).

Vegetatsiya davri tekisliklarda 290—300 kungacha davom etadi. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta va mevalar yetishtirishga qulay. Biroq, G'uzordaryo kamsuv bo'lib, faqat bahor (aprel)da to'lib oqadi. Uning oqimini tartibga solish maqsadida Pachkamar suv ombori qurilgan. Yakkabog'daryoda Hisorak suv ombori qurilgan.

Deyarli 1 million gektar maydonni sug'ora oladigan Amu — Qarshi mashina kanali qurildi. Bu kanal yo'lida bir yarim milliard m<sup>3</sup> suv sig'adigan Tolimarjon suv ombori, kuchli nasos stansiyalari barpo etilmoqda. Nasoslar suvni 132 metr yuqoriga ko'tarib beradi. Umuman 6 nasos stansiyasi Qarshi cho'lini o'zlashtirishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy rayonda cho'l va tog' yaylovlarining o'zlashtirilishi bilan tabiiy yaylovlar tobora qisqarib bormoqda. Bundan qorako'lchilik zarar ko'rmasligi uchun cho'llarda fitomeliorativ (o'simlik sug'orish) tadbirlar ko'rilmogda.

Iqtisodiy rayonning yoqilg'i-energetika boyliklari shu qadar ko'pki, ular O'zbekistonning boshqa iqtisodiy rayonlariga ham yetkazib beriladi. Sho'rton gazi Sirdaryo GRESini hatto Yangi Angren GRESini ham yonilg'i bilan ta'minlaydi.

Muborak gaz konlari butun O'zbekistonga va qo'shni respublikalarga yoqilg'i yetkazib bermoqda. Bir necha neft konlari, yonuvchi slanets konlari aniqlangan. Tosh tuzi, mergel, ohaktosh, gips zaxiralari kimyo va qurilish materiallari sanoati uchun katta istiqbollar ochadi.

**Aholisi.** Iqtisodiy rayon aholisining 90 foizini o'zbeklar tashkil etadi. Shuningdek, tojik, rus, turkman va boshqa millatlar vakillari ham yashaydi. Sug'orib dehqonchilik qilinadigan rayonlarda aholining zichligi birmuncha yuqori (har kv.km ga 100—250 kishi), tog', cho'l, chala cho'llarda aholisi siyrak (har kv.km 1—4 kishi).

# 1989

□ O'ZBEKLAR

□ RUSLAR

■ TOJIKLAR

■ QOZOQLAR


□ TATARLAR

□ QIRG'IZLAR


■ KOREYSLAR

■ TURKMANLAR

□ BOSHQA MILLATLAR



# 1999



59- rasm. Qashqadaryo viloyati aholisining milliy tarkibi.

Iqtisodiy rayon aholisining 73,5 foizi qishloqlarda yashaydi. Shahar aholisining soni ham ko'chib kelganlar va tabiiy ko'payish hisobiga yildan-yilga oshmoqda. Shaharlar kengaymoqda, yangi shaharchalar paydo bo'lmoqda.

Tabiiy, tarixiy va iqtisodiy sharoitlar shahar hamda qishloqlarning katta-kichikligiga, aholi zichligi va xo'jalik faoliyatining xarakteriga jiddiy ta'sir etgan. Yer yuzasi tuzilishining murakkabligidan aholi manzilgohlari daryo yoqalab tarkib topgan. To'rt-besh xonadondan iborat qishloqlar ulkan hudud bo'ylab tarqalgan.

Ilgari uylar terak, archa va qayrag'och yog'ochi hamda tosh, tuproq va somon kabi mahalliy ashyolardan qurilar edi. Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida zamonaviy obod qishloqlar, shaharchalar qad ko'tardi. Ularning aksariyati yashil bog' va dalalarda bunyod etilgan.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Viloyat ekin maydonining 25 foiziga paxta ekiladi. Viloyatning Qarshi cho'li mintaqasida ixtisoslashgan paxtachilik, mevachilik, chorvachilik xo'jaliklari tashkil etildi. Bu yerlarda paxta yetishtirish majmui takomillashgan rayon vujudga keldi (60-rasm).

Viloyat qishloq xo'jaligida bahorikor don xo'jaligi, yaylov qo'ychiligi, ayniqsa qorako'lchilik muhim ahamiyatga ega. Bug'doy yetishtirish bo'yicha viloyat asrimiz boshlaridagi mavqeni tiklamoqda. Pillachilik, mevachilik va sabzavotchilik xo'jalikning qo'shimcha tarmoqlaridir.


Paxta ekiladigan yerlar asosan Kitob — Shahrisabz botig'idadir. Qarshi vohasida ko'p yerlarga paxta ekiladi. Bu vohaga suv Chimqo'rg'on suv omboridan keltiriladi.

G'allakorlik tarqalgan tog' oldi hududlarida yiliga 350—550 mm yog'in yog'adi. Yog'in asosan qish va bahor oylarida yog'adi. Yog'inlar va lyoss yotqiziqlari ustida hosil bo'lgan unumdor tuproq hamda qishning iliq kelishi kuzgi g'alla yetishtirish uchun qulaylik yaratadi. Kuzgi don ekinlari yozgi issiq kunlar boshlanmasdan pishib ulguradi.

Bunday tabiiy imkoniyatlar tok hamda danakli meva daraxtlari uchun ham birmuncha qulaydir. Qarshi uzumi, ayniqsa uning „maska“ navi shirinligi bilan mashhur. Olma, nok, anjir, anor kabi issiqsevar mevali daraxtlar ham o'stiriladi. Mevazorlar, sabzavot va poliz ekin maydonlari ham asosan Kitob — Shahrisabz botig'ida bo'lib, u yerda sharob, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Paxtachilik bilan birga pillachilik ham rivojlanmoqda. Viloyat qorako'lchilikda respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Viloyatda yaylovlarning ko'pligi, makkajo'xori va beda yetishtirishning ko'payishi, sanoat chiqindilaridan foydalanishning tobora keng yo'lga qo'yilishi chorvachilik yuksalishiga imkon bermoqda. Viloyatda yem-xashak imkoniyatlariga muvofiq chorvachilikda



60-rasm. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

qorako'lchilikning salmog'i katta. Qorako'l qo'ylari asosan viloyatning g'arbiy, janubi-g'arbiy va markaziy rayonlarida boqiladi. Go'sht va yog' uchun boqiladigan dumbali qo'ylar hamda echkilar tog'larda va tog' oldi yaylovlarida boqiladi. Mahsuldor chorvachilikni rivojlantirish uchun tog' oldilarida hamda quruq dashtlarda mayin junli qo'y va uzun junli echkilar boqilmoqda. Qoramollar viloyat aholisining sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Lekin ularning aksariyati kammahsul mahalliy zotlardir. Qoramollar zotlarini yaxshilash choralari ko'rilmogda. Ular asosan molxonalarda boqiladi.

Qashqadaryo viloyatining sanoati qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'langan. Sanoatning asosiy tarmoqlari paxta tozalash, yog' olish, sharob, meva-sabzavot konservalari tayyorlashdan iborat. Yengil va oziq-ovqat sanoati hissasiga butun sanoatning 66 foizidan ko'prog'i to'g'ri keladi.

Gaz, neft hamda tuz konlari negizida kon sanoati vujudga kelmoqda. Yirik sanoat korxonalari Qarshi, Shahrisabz shaharlarida hamda ba'zi yirik qishloq va shaharchalarda joylashgan. Mahalliy sanoat asosan aholi ehtiyojiga xizmat qiladi. Bu sanoat palos, do'ppi, qandolat kabi qadimiy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Viloyatda mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan yengil va oziq-ovqat, tog'-kon va yoqilg'i sanoatlari jadal sur'atda rivojlanmoqda. Ko'mir, neft, gaz, tuz kabi foydali qazilmalar negizida yana bir majmua — yoqilg'i-energetika-kimyó majmuasi shakllanib bormoqda.

**Shaharlari.** *Qarshi* (ilovadagi 4-jadvaldan shahar aholisi sonini aniqlang) viloyatning ma'muriy markazi bo'lib, u Sharq mamlakatlariga boriladigan qadimiy karvon yo'li ustida bunyod etilgan.

Ilgari shaharda jun, qorako'l teri, mayiz va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichkina xususiy korxonalar hamda hunarmandchilik ustaxonalari bor edi. Endilikda hunarmandchilik korxonalari qayta qurilib, hozirgi zamon sanoat korxonalariga aylandi. U xalq iste'mol mollari, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqaradi. „Uchqun“ gilam to'qish fabrikasining mahsulotlari respublikada mashhurdir.

Qarshi va uning temir yo'l stansiyasida paxta, yog' zavodlari, metall ishlash korxonalari, ipak, tikuvchilik fabrikalari, binokorlik materiallari kombinati kabi o'zaro bog'liq korxonalarining qurilishi natijasida Qarshi sanoat tuguni vujudga keldi. Qarshi cho'lini o'zlashtirishda sanoat tugunining ahamiyati tobora oshmoqda. Turli tomonlardan kelgan temir yo'l va avtomobil yo'llari Qarshida birlashadi. Bu hol Nishon, Tolimarjon, Koson kabi shahar va shaharchalarning birlashtiruvchi ishlab chiqarish majmuini tarkib toptirmoqda.

Qarshi viloyatning muhim madaniyat markazidir. Shaharda Qarshi Davlat universiteti, Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti, Toshkent Davlat texnika universitetining Qarshi filiali, pedagogika bilim yurti, tibbiyot texnikumi, maktablar, musiqali drama teatri, kutubxonalar, klublar, stadion, madaniyat va istirohat bog'lari bor.

*Shahrisabz* Kitob — Shahrisabz vohasida joylashgan. Shahar qadim zamonlardan beri hunarmandchilikning yirik markazi bo‘lib keldi. Shahrisabzga temir yo‘l kelishi shaharning yuksalishiga katta imkoniyat yaratdi. Shaharda mahalliy sanoat yaxshi rivojlangan. Mayda va tarqoq hunarmandchilik ustaxonalari birlashtirilib, „Hujum“ fabrikasi tashkil etilgan. Fabrikada ayollarning ko‘p asrlik mehnat malakalari yanada takomillashdi. Fabrikada do‘ppi, so‘zana, ko‘ylak, sumka, gilam va boshqa buyumlar tayyorlanadi. Shahrisabzning gilam do‘ppisi Parij ko‘rgazmasida yuqori baholan-gan.

Pilla qurti urug‘i va paxta tozalash zavodlari shahardagi yirik korxonalaridan hisoblanadi. Shahardagi 2 ta konserva zavodi meva-sabzavotdan, qoraqand (zirk), na‘matakdan turli xil konservalar ishlab chiqaradi.

Shahrisabz viloyatning madaniyat markazlaridan biridir. Shahrisabz buyuk jahongir Amir Temurning tug‘ilgan vatani, uning tashqi qiyofasida qadimiy me‘morchilik obidalari, shu jumladan sohibqiron qurdirgan Oqsaroy yodgorligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.


*Kitob* Shahrisabz yaqinida joylashgan shahardir. Shaharda hunarmandchilik yaxshi rivoj topgan. Uning tashqi ko‘rinishi Shahrisabzga o‘xshab ketadi. Kitob yonida jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan Ulug‘bek nomidagi Kenglik stansiyasi<sup>1</sup> bor.

- ? 1. Viloyat ekin maydonining tarkibini 9-jadval ma’lumotlari asosida doiraviy diagrammada tasvirlang.
2. Hunarmandchilikning qanday azaliy tarmoqlarini bilasiz? Ularning viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Viloyatda sanoatning qaysi tarmog‘i yetakchi, bunga sabab nima?
4. Yozuvsiz xaritadaagi Qashqadaryo iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.

---

<sup>1</sup> Yagona dastur bilan ishlovchi Kenglik stansiyalarida osmon yoritkichlarini kuzatib, Yer qutblarining surilishi tekshiriladi. Yer yuzida ana shunday stansiyalar beshta bo‘lib, ular 39° 08’ Shimoliy kenglikda joylashgan. Bular: Kitob (O‘zbekiston), Karlfort (Italiya), Yukaya va Geytersburg (AQSH), Mitsuzava (Yaponiya)dir.

## 27-§. Surxondaryo iqtisodiy rayoni (Surxondaryo viloyati)



*! Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayonning maydoni va aholisining sonini aniqlab, bu ko'rsatkichlarni qo'shni iqtisodiy rayonnikiga solishtiring.*

### Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida joylashgan. Uning qo'shni viloyat va Tojikiston bilan chegarasi Ko'hitangtog', Hisortog' tizmasining janubi-g'arbi va Bobotog' tizmasi orqali o'tadi. U g'arbda Turkmaniston, janubda Amudaryo orqali Afg'oniston bilan chegaradosh. Amudaryo ustiga qurilgan avtomobil va temir yo'l ko'prigi viloyatning iqtisodiy-geografik o'rmini xalqaro mavqega ko'tardi, chunki ko'pgina xorijiy davlatlarning Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqasi shu ko'prik orqali o'tadi.

Hududning Surxon — Sherobod vodiysidan bo'lak qismi asosan tog'lardan iborat. Tog'lar qishda shimol tomondan sovuq havo oqimi kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli iqlim sharoitiga ko'ra rayon subtropik o'lka hisoblanadi. Uning boshqa viloyatlardagiga nisbatan yozi issiq, qishi esa iliq, o'simlik o'sish davri uzoq, ana shunga ko'ra anor, anjir va tok kabi issiqsevar subtropik mevalar yetishtiriladi. Sovuqqa chidamsiz uzum, anjir singari mevali butalarni sovuqdan saqlash uchun qishda boshqa viloyatlardagidek tuproqqa ko'mish yoki o'rab qo'yish shart emas. Yanvarning o'rtacha harorati 3°, iyulniki 30°. Tekisliklarda yiliga 130 mm.dan 360 mm.gacha, tog' oldi va tog' mintaqalarida 440—620 mm.



gacha yog‘in yog‘adi. Surxondaryo viloyatining janubi-sharqiy qismida yozda bir necha kun chang-to‘zonli issiq va quruq „Afg‘on“ shamoli esib, ekinlarga kuchli zarar yetkazadi. Sovuqsiz davr 247 kunga yetadi. Ijobiy harorat yig‘indisi 5000°—5900°C ga tenglashadi.

Tekislik va tog‘lardan yaylov sifatida foydalaniladi. Tog‘lardagi mevali daraxtlar esa oziq-ovqat sanoati uchun qimmatbaho xomashyo beradi.

1989


□ O‘ZBEKLAR

□ RUSLAR

■ TOJIKLAR

■ QOZOQLAR

□ TATARLAR




1999

□ QIRG‘IZLAR

□ KOREYSLAR

■ TURKMANLAR

□ BOSHQA MILLATLAR



61- rasm. Surxondaryo viloyati aholisining milliy tarkibi.

Surxondaryo viloyati butun Surxon — Sherobod vodiysini va Hisor, Bobotog‘, Boysun tog‘larining shu vodiya qaragan yonbag‘irlarini ishg‘ol qiladi.

Surxondaryo viloyatida foydali qazilmalar Qashqadaryo viloyatidagiga qaraganda ko‘p. Yer bag‘rida neft, gaz, ko‘mir, tuz va boshqa foydali qazilmalarning borligi sanoatning bir qancha tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon beradi.

**Aholisi.** Viloyat aholisining tabiiy ko‘payishi yuqori. Shu tufayli ortiqcha ish kuchidan oqilona foydalanish muammosi kelib chiqmoqda. Aholi zichligi har km<sup>2</sup> ga 80 kishi to‘g‘ri keladi. Aholining 80 foizini o‘zbeklar tashkil etadi, shuningdek, viloyatda tojiklarning ham salmog‘i katta (61-rasm). Shaharlarda jami aholining 20,5 foizi (319,6 ming kishi) yashasa, qishloqlarda 1216,2 ming aholi istiqomat qiladi.

**Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Viloyat xo‘jaligida asosan agrosanoat majmuasi yetakchilik qiladi. Viloyatda ingichka tolali paxta yetishtiriladi. Bu paxta vodiyning eng issiq janubiy qismida Termiz, Sherobod va Jarqo‘rg‘on rayonlarida yetishtiriladi. Paxtachilik bilan birga pillachilik va go‘sht-sut chorvachiligi ham rivojlantirilgan obikor dehqonchilikni rivojlantirishda Surxon va Sherobod daryolari suvidan to‘g‘ri foydalanish alohida ahamiyatga egadir. Janubiy Surxon va Uchqizil suv omborlarining qurilishi qo‘shimcha talaygina yerlarni o‘zlashtirish imkonini beradi (*8-jadvaldan ekin maydoniga oid ma‘lumotni toping*). Surxondaryo vodiysining janubiy qismi bilan keng Sherobod tekisligidagi quruq yerlarni sug‘orish va obikor maydonlarni kengaytirish sohasida irrigatsiya ishlari jadal amalga oshirilmoqda.

Mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik, aholining qishloq xo‘jaligidagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Denovdagi subtropik ekinlar tajriba stansiyasida xurmo, anorning 90 ga yaqin, anjirning esa 40 dan ortiq navi o‘stirilmqda. Viloyatning deyarli hamma tumanlarida, ayniqsa vodiyning shimoliy qismida, Denov tumanida bog‘lar va uzumzorlar ko‘p.


Poliz va sabzavot ekinlari vodiyning xo‘jaliklarida, ishchi hamda dehqonlarning tomorqa xo‘jaliklarida ekiladi.

Chorvachilik vodiy qishloq xo‘jaligida ikkinchi muhim tarmoqdir. Obikor dehqonchilik qilinadigan jamoa xo‘jaliklarida go‘sht-sut olinadigan jaydari qoramollar boqiladi.

Tog' yaylovlarida go'sht va yog' uchun Hisor qo'ylari boqiladi: bu qo'ylarning ba'zilar 150—160 kg keladi. Tog'li tumanlarda go'sht, momiq va jun uchun angor echkilari boqiladi. Vodiyning janubiy qismida, cho'l mintaqasida qorako'l qo'ylari boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jahon mo'yna va teri auksionlarida juda qadrlanadigan „Surxon suri“ qorako'l terisi Surxondaryo viloyatida yetishtiriladi.

Yengil va oziq-ovqat sanoati Surxondaryo viloyati sanoatining yetakchi tarmoqlaridandir. Viloyat sanoatida tog'-kon sanoati ham muhim o'rin tutadi. Xovdog', Uchqizil, Lalmikor va Ko'kaydi yaqinida neft va gaz konlari ishlab turibdi (62-rasmga qarang).

O'zbekistondagi 3 ta yirik ko'mir konining 2 tasi Surxondaryoda bo'lib, bular Sharg'un va Boysun ko'mir konlaridir. Bu konlardan yaxshi sifatli ko'mir qazib olinadi. Viloyatda kimyo xomashyosi hamda g'isht, ohak kabi binokorlik materiallari ishlab chiqarilmoqda.



62-rasm. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

Mustaqillikdan so‘ng viloyatda ko‘plab qo‘shma korxonalar qurildi. Ular orasida Hindiston bilan hamkorlikdagi „Farmed“ qo‘shma korxonasi mahalliy giyohlar asosida dori–darmonlar ishlab chiqarish bilan mashhurdir. Sanoat korxonalarining yiriklari Termiz va Denovda joylashgan. Viloyat hududida G‘uzor — Boysun — Qumqo‘rg‘on temiryo‘l qurilishi jadal olib borilmoqda.

*Termiz — (4-jadvaldan shahar aholisi sonini aniqlang)* viloyatning ma‘muriy markazi. U Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Termiz O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan biridir. Asrimiz boshlariga qadar Termiz harbiy va kichik chegara shahri edi. Unda yarim kustar holatdagi bittagina paxta tozalaydigan zavod bo‘lgan. Hozirgi Termiz obod shahar. Yozning jazirama issig‘ini pasaytirish maqsadida shahar ko‘kalamzorlashtirilmoqda. Amudaryo porti hamda temir yo‘l va avtomobil yo‘li qurilgach, shahar muhim transport tuguni bo‘lib qoldi. 1995-yili Termizda yangi zamonaviy aeroport qurildi.

Afg‘onistonga va u orqali boshqa davlatlarga chiqariladigan hamda xorijdan keltiriladigan yuklarning talay qismi Amudaryodagi Termiz porti orqali o‘tadi.

Demak, Termiz qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlovchi markaz hamda yirik daryo porti sifatida rivojlanmoqda. Shaharda paxta tozalash zavodi, sut-yog‘, non va go‘sht kombinatlari, limonad zavodi, tegirmon, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan va boshqa mahalliy sanoat korxonalari bor.

*Termiz — viloyatning madaniyat markazidir.* Shaharda universitet, tibbiyot va pedagogika bilim yurtlari, maktablar, kinoteatrlar, kutubxonalar, klublar, o‘lkashunoslik muzeyi ishlab turibdi. Hayvonot bog‘i bor.


*Denov — qadimgi yirik savdo va hunarmandchilik qishlog‘i o‘rnida barpo bo‘lgan shahar.* 1929-yilda Denovdan temir yo‘l o‘tgach, ishlab chiqarish tez rivojlana boshladi. Denov sanoati qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Unda paxta tozalash, sharob, moy-sut, motor ta‘mirlash, g‘isht zavodlari bor.

R. Shreder nomidagi respublika bog‘dorchilik, uzumchilik va sharobchilik ilmiy-tadqiqot ilmgohining tajriba stansiyasi shu shaharda.

? 1. 9-jadvaldan foydalanib, viloyat ekin maydonining tarkibini doiraviy diagrammada tasvirlang.

2. *Maktabingiz joylashgan xo‘jalikda yetishtirilgan mahsulot qaysi shaharlarga yuboriladi? Agar shaharda yashasangiz, qaysi rayondan qanday qishloq xo‘jalik mahsuloti keltirilishini aniqlang.*
3. *Yozuvsiz xaritadaagi Surxondaryo iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.*

## 28-§. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni



**!** *Ilovadagi 1-jadvaldan iqtisodiy rayon maydonining kattaligi va aholisi sonini aniqlang.*

### Iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy boyliklari

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida bo‘lib, maydonining kattaligi jihatidan respublikada birinchi o‘rinda turadi. Bu iqtisodiy rayonda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati joylashgan.

Asrimizning o‘rtasiga qadar bu iqtisodiy rayon sobiq Ittifoqning sanoatlashgan qismlaridan ajralib qolgan va ot-arava hamda kema transporti vositasi bilangina aloqa qilinadigan chekka o‘lka edi.

1955-yilda Chorjo‘y — Qo‘ng‘irot, 1970-yilda esa Qo‘ng‘irot — Makat temir yo‘li ishga tushirilgach, Rossiya Federatsiyasi markaziy viloyatlari bilan aloqa tubdan yaxshilandi. Avtomobil va havo yo‘llarining ochilishi bilan iqtisodiy rayonning iqtisodiy-geografik o‘rni yanada yaxshilandi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining kattagina qismi tekislikdan iborat. Uning iqlimi kontinental, o‘simliklarning o‘shish davri janubiy rayonlardagidan 45—60 kun qisqa (186—200 kun). Kech ko‘klam va erta kuzda bo‘lib turadigan sovuqlar, ba‘zan yog‘inlar dehqonchilikka zarar yetkazadi. Ob-havoning noqulayligi yig‘im-

terimni qisqa vaqt ichida o'tkazishni taqozo etadi. Qor O'zbekistonning boshqa joylaridagiga nisbatan kam yog'adi. Ko'pincha shamol turib, chang va qum ko'tariladi. Yog'inning kamligi hamda iqlimning keskin kontinentalligi tufayli tuproq qishda yaxlab, yozda issiqdan qaqrab ketadi.

Iqtisodiy rayonning Ustyurt qismida shuvoq, boyalish, burgan, iloq, shuningdek katta-katta maydonlarda oq va qora saksovul o'sadi. Yer osti suvlari sho'r bo'lsa-da, qo'ylar ichaveradi. Binobarin, Ustyurt yassi tog'ligida qorako'chilikni rivojlantirsa bo'ladi.

Amudaryo mansabi botqoqlik qamishzorlardan iborat. Bu yerlarda suv parrandalari va yovvoyi cho'chqalar yashaydi. Daryo irmoqlarida, ular orasidagi ko'llarda baliq ovlanadi. Amudaryo mansabining quyi qismidagi zaxkash va botqoqli yerlar ob-havosi, suv bilan ta'minlanishi sholikorlik uchun juda qulay. Shuning uchun bu yerlarda sholikorlikka ixtisoslashgan yangi xo'jaliklar tashkil etilgan.

Iqtisodiy rayon hududida tabiiy gaz, qurilishbop shag'al, gil, silikat ishlab chiqarishga yaraydigan qum bor. Ayrim tumanlarda fosfor, sulfat xlorid, kaliy tuzlari, mirabilit, osh tuzi, talk, dala shpati borligi ma'lum. Orol dengizi sohilida qo'ng'ir ko'mir koni aniqlandi (xaritaga qarang).

**Aholisi.** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining obikor yerlari qadimdan aholi zich yashab kelgan vohalardandir. Uning asosiy aholisi o'zbeklar va qoraqalpoqlardir. Shu bilan birga unda ruslar, koreyslar, tatarlar, qozoqlar va turkmanlar ham yashaydi.

O'zbeklar Xorazm vohasida qadim zamonlardan buyon dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Qoraqalpoqlar asosan Qoraqalpog'iston Respublikasida yashaydi. Ilgari Amudaryoning har ikki sohilidagi qoraqalpoq xalqi bir-biridan ajragan holda ikki ma'muriy hududda yashar edi. Qoraqalpoq xalqi birlashib, o'z respublikasini barpo qildi. Bu hol qoraqalpoq xalqining xo'jaligi va madaniyatining har tomonlama o'sishiga yordam bermoqda.

Aholi iqtisodiy rayon hududida notekis joylashgan. Xorazm viloyatida **aholining o'rtacha zichligi har km<sup>2</sup> ga 165 kishi to'g'ri kelgani holda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8,5 kishi to'g'ri keladi.**

Iqtisodiy hududning taraqqiyotidagi va uning tabiiy hamda tarixiy-iqtisodiy sharoitidagi farqlar aholining joylashuviga ta'sir

etgan. Aholi Orol dengiziga tomon kamayib boradi. Ayrim qishloqlar daryodan uzoqda joylashgan. Odamlar daryoning tez-tez toshib turishi, hatto o'zanni o'zgartirishini nazarda tutib, qirg'oqdan 6—8 km narida yashaganlar, dehqonchilik qilinadigan yerlarni esa baland marzalar bilan o'rab, suv bosishdan saqlaganlar. Aholi obikor dehqonchilik va chorvachilik bilan ham shug'ullanib kelgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining 52 foizi, Xorazm viloyatida esa 76 foizi qishloqlarda yashaydi. Sanoatning rivojlanishi natijasida shahar aholisi ko'paydi. Urganch, Nukus, Chimboy, Mo'ynoq, Taxiatosh, Xo'jayli shaharlarining o'sishi hamda shaharchalarning vujudga kelishi natijasida shahar aholisi tobora ko'payib bormoqda. Aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi iqtisodiy rayon iqtisodiyotini ish kuchi bilan yetarli darajada ta'minlashga imkon bermoqda.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining iqtisodiyoti ilgari qoloq edi. O'tmishda iqtisodiy rayonni boshqa yerlar bilan bog'laydigan yo'llar yo'qligidan qishloq xo'jaligi asosan mahalliy aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishgagina xizmat qilib kelar edi. Jo'xori, bug'doy, sholi, kunjut, zig'ir, qisman paxta, beda, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Quruq meva bilan mayiz shirinlik o'rnida iste'mol qilingan. Chorvachilikda go'sht, yog', jun va teri olingan.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, temir yo'l va avtomobil transportining barpo etilishi, havo yo'llarining ishga tushirilishi, gaz quvurlarining iqtisodiy rayon hududidan o'tishi natijasida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligining rivojlanishi jadallashdi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band. O'zbekistondagi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 6 foizi shu iqtisodiy rayon hissasiga to'g'ri keladi. Buning deyarli 90 foizi yaylovlardan iborat. Sho'rxok yerlar, qumlar, ko'llar, botqoqliklar ham katta maydonlarni tashkil etadi.

1913-yilda donli ekinlar barcha ekin maydonining 66 foizidan ko'prog'iga ekilgan bo'lsa, 1995-yilda 30 foizga ekildi (9-jadvalga qarang).

Bu davrda paxta maydoni jami ekin maydonining 13,3 foizidan 38 foizigacha yetdi. Paxta maydoni yangi o'zlashtirilgan yerlar va

qisman boshqa ekin maydonlari hisobiga kengaydi. Uning hosildorligi ham ortdi. Natijada paxtaning yalpi hosili bir necha barobar ko'paydi va paxtachilik majmui tarkib topdi. Qishloq xo'jaligida band aholi faoliyatida paxtadan tashqari pillachilik, qorako'lchilik, mevachilik, uzumchilik, polizchilik, so'nggi yillarda rivojlanayotgan sholi yetishtirishning ham ahamiyati katta bo'lmoqda. Aholining bir qismi ondatrachilik hamda baliq ovlash bilan shug'ullanadi va uni qayta ishlovchi korxonalarda xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayon mamlakatda yetishtirilayotgan sholining yarmidan ko'pini beradi. Amudaryo mansabi sholikorlik uchun juda qulay. Tuproq, o'simlik o'sish davri, daryo suvining oqish maromi sholidan yuqori hosil olish imkonini beradi.

Iqtisodiy rayon hududida yetishtiriladigan qovunlar kattaligi va shirinligi bilan hamma yerda mashhurdir. Lekin sharoitga nisbatan bog'dorchilik va uzumchilik Zarafshon hamda Farg'ona iqtisodiy rayonlaridagidan kamroq rivojlangan.

Iqtisodiy rayonda qadimgi va serdaromad tarmoqlardan biri pillachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. U paxtachilik bilan bog'liq holda obikor dehqonchilik xo'jaliklarida olib boriladi. Amudaryo etaklarida dehqonchilik bilan birga **chorvachilik** ham rivojlangan. Dehqonchilik mahsulotlari — beda, oq jo'xori, makkajo'xori hamda yog' sanoati chiqitlari — kunjara, shulxa chorvaning yem-xashakka bo'lgan ehtiyojini qoplashda muhim rol o'ynaydi. Cho'l yaylovlarida yil bo'yi qorako'l qo'ylari boqiladi. Iqtisodiy rayon cho'chqachilik va yilqichilikda barcha iqtisodiy rayonlardan keyin turadi. To'qaylarda yilqi boqiladi. Hozirda ham ayrim cho'l yaylovlarida tuya transport ahamiyatini yo'qotgan emas.

Chorvachilik so'nggi yillarda rivojlangan bo'lsa-da, mahsuldorligi jihatidan O'zbekistonning boshqa rayonlaridagiga qaraganda hamon orqada. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida 1942-yilda vujudga kelgan ondatrachilik mavjud. Uning yuksalishi foydalanilmay yotgan suv havzalarida ondatra ko'paytirishga imkon berdi. Ondatradan qimmatbaho mo'yna olinadi. Shu bilan birga uning go'shti tutqinda ko'paytirilayotgan qoramtir tulkiga beriladi. Biroq, Orol dengizining fojiasi tufayli ondatrachilik butkul inqirozga uchradi.

**Sanoati.** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoati qadimdan hunarmandchilikka ixtisoslashgani uchun mato to'qish, namat



tayyorlash, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish korxonalari, kichik paxta zavodlari bo'lgan. Endilikda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi zamonaviy oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari barpo etildi. Yengil sanoatda paxta tozalash zavodlarining salmog'i katta.

Orol dengizi, Amudaryo va uning mansabidagi ko'llarda ovlanadigan baliqlarni qayta ishlash maqsadida Mo'ynoq shahrida baliq-konserva kombinati barpo etildi. Bu kombinat tuzlangan, dudlangan, muzlatilgan baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqaradi. Baliq chiqitlari qafasda boqiladigan hayvonlarga beriladi. Bu chiqitlardan shuningdek, molga beriladigan un hamda o'g'it ishlanadi. Kombinatsion mahsulotlari O'zbekistonning barcha viloyatlariga ham, qisman qo'shni respublikalarga ham chiqarilar edi. Endilikda Orol dengizi suvi kamayib va sho'rlanib qolishi tufayli baliq ovlash deyarli to'xtagan. Shu sababli kombinat uchun qisman muzlatilgan baliqlar Rossiya Federatsiyasidan keltiriladi. Iqtisodiy rayonning go'sht, sut, meva, sabzavot va qandolat mahsulotlari mahalliy ehtiyoj uchun xizmat qiladi.

Binokorlik materiallari korxonalari, elektr stansiyalari, metall-sozlik korxonalari, texnika ta'mirlash va avtota'mirlash zavodlari bor.

Energiya tanqisligini bartaraf qilish, rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo'jaligini energiya bilan ta'minlash uchun Taxiatosh GRESi va tarkibida GES bo'lgan Tuyamo'yin gidrouzeli barpo etildi. Do'stlik shahrida quyosh issiqlik elektr stansiyasi qurish rejalashtirilgan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni mamlakat energetika tizimidan energiya oladi.

Iqtisodiy rayon ichki hamda tashqi aloqada transportning deyarli barcha turlaridan foydalanadi. Temiryo'l va avtomobil transportining yuksalishi tufayli suv transporti ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Iqtisodiy rayonga O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan va xorijdan yog'och, sement, mashinalar, asboblari, neft mahsulotlari, mineral o'g'it, g'alla va keng iste'mol mollari keltiriladi. Boshqa iqtisodiy rayonlarga esa paxta tolasi, paxta yog'i, baliq mahsulotlari, teri, jun, pilla, qorako'l terilari jo'natiladi. Iqtisodiy rayon sharoitida havo transportining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Nukus, Urganch shaharlari Rossiya Federatsiyasi,

Turkmaniston poytaxtlari hamda O'zbekistonning ko'pgina viloyat markazlari bilan bog'langan.

! *Yozuvsiz xaritadaagi Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.*

## ✓ XORAZM VILOYATI

! *Ilovadagi 1-jadvaldan viloyat maydonining kattaligi, aholisining soni va zichligini aniqlang.*



Xorazm viloyati iqtisodiy rayonning janubiy qismidadir. Xo'jaligi asosan paxtachilik majmuidan iborat bo'lib, aholisi ancha zich joylashgan. Viloyat aholisi mehnat faoliyatini va ayniqsa qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit hamda iqtisodiy imkoniyatlariga ega.

Viloyat yer yuzasi tekis bo'lib, daryo yotqiziqlaridan iborat. Yozi Chirchiq va Angren vodiylaridagidek issiq bo'ladi. Qishda esa harorat  $-31^{\circ}\text{C}$  —  $32^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Qorning yupqaligidan qish sovuq kelgan yillarda tuproq 0,5 m gacha muzlaydi. Viloyatning xo'jalik hayotida Amudaryoning ahamiyati katta. Uning suvi ekinlarni sug'orish uchun sarflanadi. Polvon, Yermish, Shovot va Qilichniyozboy kanallari Amudaryo suvini butun viloyatga tarqatadi.



To'qaylar daryo qayirlaridagina uchraydi. Daryodan uzoqlashtirilgan sayin to'qaylar o'rnini cho'l o'simliklari egallaydi. To'qay va cho'llarda mol boqiladi. Viloyatda tuproq, suv va iqlim imkoniyatlaridan tashqari, shifobaxsh sho'r ko'llar, binokorlikda ishlatiladigan xomashyo (qum, tosh, qamish) ham mavjud.

**Aholisi.** Viloyat o'z aholisi soni jihatidan respublika viloyatlari o'rtasida o'ninchi o'rinda turadi. Aholining 76 foizi qishloqlarda yashaydi. Uning deyarli barchasi o'zbeklardir (63-rasm). Aholi qadimdan xo'jalik yuritishda va uy-joy qurishda tabiiy sharoit xususiyatlarini e'tiborga oladi. Yozda haroratning yuqori bo'lishi va havoning qurib, isib ketishini hisobga olib, uylar qalin paxsa devorli, keng va baland (4—5 m) qilib qurilgan. Qalin paxsa devor uy ichidagi harorat va namlikning bir me'yorda saqlanishini ta'minlaydi. Yer osti suvi yer yuzasiga yaqinligidan bir qavatli uylarning ko'pida yerto'lalar, turli maqsadga mo'ljallangan o'ralar bo'lmaydi.

# 1989



# 1999




63- rasm. Xorazm viloyati aholisining milliy tarkibi.

Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining salmog'i katta. Uning paxta, pilla va qorako'l teri yetishtiradigan tarmoqlari mamlakatda muhim ahamiyatga egadir. Paxta barcha ekin maydonining 43 foiziga ekiladi. Xiva, Shovot, Yangiariq tumanlarida paxtaning salmog'i ayniqsa katta. Viloyatdagi boshqa rayonlarga qaraganda Gurlan tumanida sholi poyalar katta maydonni egallaydi. Obikor yerlarda paxta bilan birga don, beda, makkajo'xori, kartoshka va poliz ekin-

lari yetishtiriladi (9-jadvalga qarang). Boshqa ekinlar maydoni katta emas. Ekin maydonlarining tobora kengayishi bilan ekinlar tarkibi ham o'zgarib bormoqda. Sabzavot, poliz, ekin maydonlari hamda bog' va tokzorlar kengaymoqda. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan paxtachilikning qo'shib olib borilishi suvdan va ishchi kuchlaridan oqilona foydalanishga hamda qishloq xo'jalik ishlaridagi mavsumiylikni kamaytirishga imkon beradi (64-rasm).

Dehqonchilikning qadimdan meros bo'lib qolgan tarmoqlaridan biri polizchilikdir. Viloyatning barcha tumanlarida poliz ekinlari ekiladi. Asrlar bo'yi davom etib kelayotgan xalq seleksiyasi tufayli Xorazmda ertapishar hamda kechpishar qovunlarning ajoyib navlari vujudga kelgan. Ayrim qovunlar kelgusi qovun pishig'igacha saqlanadi. Bu qovunlar uzoqqa olib ketilganda ham aynimaydi. Bir zamonlar Xorazm qovunlari maxsus idishlarga solinib, tuyalarda,



64-rasm. Xorazm viloyatining iqtisodiy xarita-chizmasi.

hatto Bag‘dod va Hindistonga (o‘sha vaqtda uch oylik yo‘l) jo‘natilgan.

Amudaryo sohillaridagi paxta uchun yaroqsiz dalalarda va boshqa maydonlarda asosan qovun, tarvuz va qovoq ekiladi. Mevalardan o‘rik, olma, shaftoli, jiyda, anjir ko‘p yetishtiriladi. Xiva, Yangiariq, Gurlan, Xazorasp tumanlarida bog‘lar birmuncha ko‘p. Kelgusida bog‘ va tokzorlar maydonini kengaytirish ko‘zda tutiladi.

Viloyat qishloq xo‘jaligining dehqonchilikdan keyingi ikkinchi muhim tarmog‘i chorvachilikdir. Dehqonchilik va yaylovlarning xususiyati (yozgi yaylovlarning kam bo‘lishi va suv tanqisligi) viloyatda chorvachilik ixtisosiga va tarkibiga jiddiy ta‘sir etgan. Chorvachilikda qorako‘l qo‘ylarning salmog‘i katta. Chorvachilikdan keladigan daromadning asosiy qismini qorako‘l qo‘ylari beradi. Bu qo‘ylar asosan terisi va juni uchun boqiladi. Shuningdek, ulardan go‘sh t ham olinadi. Qorako‘l qo‘ylari Xazorasp va Gurlan tumanlarida ko‘p. Viloyatda yaylovlar kamligidan ayrim jamoa xo‘jaliklari o‘z qo‘ylarini Qoraqalpog‘istonda va Turkmanistonning uzoq yaylovlarida boqadilar.

Viloyatning hamma tumanlarida, ayniqsa Gurlan va Xazoraspda pillachilik yaxshi rivojlangan.

**Sanoati.** Viloyatda yengil va oziq-ovqat sanoatiga tegishli yuzdan ortiq korxonalar mavjud. Bu yerda og‘ir sanoatga asos solingan. Sanoatning yetakchi tarmog‘i paxta, pilla, meva, sabzavot hamda chorva mahsulotlarini qayta ishlashdan iborat. Shuningdek, tikuvchilik, poyabzal, gilamdo‘zlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati korxonalari bor. Bu korxonalar shahar hamda tuman markazlarida joylashgan. Germaniyaning mashhur „Mercedes-Bens“ firmasi bilan hamkorlikda Xorazm (Do‘stlik shahri)da og‘ir yuk tashuvchi avtomobillar ishlab chiqaradigan qo‘shma korxon qurilmoqda.

**Shaharlari.** *Urganch* viloyatning ma‘muriy, sanoat va madaniyat markazidir. 1938-yilda viloyat markazi bo‘lishi, so‘ngra temir yo‘l qurilishi Urganchning iqtisodiy jihatdan rivojlanishini tezlashtirdi. Shaharda yengil va oziq-ovqat sanoatiga tegishli paxta zavodi, uning yonida yog‘ zavodi ishlab turibdi. Yog‘-ekstraksiya zavodi ham qurilgan. Oziq-ovqat sanoati ahamiyatiga ko‘ra shahar sanoatida ikkinchi o‘rinda turadi. Unga qarashli yog‘ zavodi, shakar-qand

zavodi, sut-qaymoq zavodi, go'sht kombinati, non zavodi va boshqa korxonalar bor. Shuningdek, mashina-ekskavator stansiyasi va motor-tuzatish zavodi mavjud. Qurt urug'i zavodi Xorazm viloyatidan tashqari Qoraqalpog'istonni ham qurt urug'i bilan ta'minlaydi. Shaharning binokorlik materiallariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida bu yerda silikat, g'isht zavodlari qurildi.

Shahar elektr quvvatini mamlakat energetika tizimidan oladi. Shaharning sharqiy qismida ko'p qavatli uylar, madaniyat muassasalari barpo etilgan. Shaharda Urganch Davlat universiteti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va 1-Toshkent Davlat tibbiyot institutining bo'limlari, gidromelioratsiya va qurilish texnikumi, musiqa maktabi, paxta-beda majmui, mintaqa tajriba stansiyasi, maktablar, kutubxonalar, teatr ishlab turibdi.

Xiva Amudaryoning chap sohilida, Polvon kanali yoqasida, Urganch temir yo'l stansiyasidan 32 km janubi-g'arbdadir. U viloyatdagi qadimgi, milliy me'morchilik yodgorliklariga boy shahardir.

Xiva badiiy hunarmandchilikning muhim markazidir. Bu yerda yog'och va toshlarga naqsh solish, zargarlik, naqqoshlik, kash-tachilik, miskarlik va kulolchilikdagi ajoyib mahorat avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Xiva mashhur o'zbek matematigi, astronomi va geografi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning vatanidir.

- ? 1. 9-jadvaldan foydalanib, viloyat ekin maydoni tarkibini doira shaklli diagrammada ifodalang va uni mamlakat ekin maydonining shunday diagrammasiga solishtirib, tafovutni izohlang.
2. Pillachilik, sholikorlik va chorvachilik qaysi tumanlarda yaxshi rivojlangan? Buni yozuvsiz xaritada belgilang.
3. Urganch bilan Xivani qiyosiy ta'riflang.

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryoning quyi oqimida bo'lib, Qizilqumning shimoli-g'arbiy qismini, Ustyurt yassi tog'ligining janubi-sharqiy burchagini, Orol dengizining janubiy qismini va Amudaryo mansabini egallaydi. Iqtisodiy rayon hududidan o'tgan temir yo'l uning iqtisodiy-geografik o'rnini ancha yaxshiladi.

Qoraqalpog'iston respublika holatida O'zbekiston tarkibiga qo'shilgandan so'ng iqtisodiy-siyosiy mavqei tubdan o'zgardir.

Amudaryo va Orol dengizida kemalar qatnovi, Chorjo‘y — Qo‘ng‘irot temir yo‘lining qurilishi, avtomobil va havo transportining yo‘lga qo‘yilishi, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, sanoat korxonalarining barpo etilishi respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarining uzluksiz yuksalishiga zamin hozirlaydi.

Qoraqalpog‘iston muxtor viloyat sifatida 1925- yilda tashkil topgan edi. 1932-yil muxtor respublikaga aylantirilib, 1936-yilda O‘zbekiston tarkibiga kirdi. Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston tarkibiga kirishi qoraqalpoq va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi qadimiy do‘stlikni, hudud, til va madaniyatdagi mushtaraklikni yanada mustahkamladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining (1992-y.) tabiiy sharoiti va imkoniyatlari xo‘jalik nuqtai nazaridan O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagidan farq qiladi. Chunonchi, o‘simlikning o‘sish davri 45—55 kun qisqa, qishi sovuqroq, bahor va kuzda ob-havo tez-tez o‘zgarib turadi, yog‘in kamroq yog‘adi. Shunga ko‘ra, Qoraqalpog‘istonda paxtaning tezlashish navlari yetishtiriladi. Qoraqalpog‘istonning yer usti tuzilishi, iqlimi, tuprog‘i, sun‘iy sug‘oruv joriy qilinsa, O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida ekillayotgan deyarli barcha o‘simliklarni yetishtirishga imkon beradi.


**Aholisi.** Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1,5 millionga yaqin kishi yashaydi. Aholining 33 foizi qoraqalpoqlar, yana shuncha qismi o‘zbeklar, 26 foizidan ortig‘i qozoqlar, qolganlari turkmanlar, ruslar, ukrainlar, koreyslar, tatarlar va boshqa millatlar vakillaridan iborat (65-rasm). Aholining 48,5 foizi shaharlarda, qolgan qismi qishloqlarda yashaydi.

O‘zbekiston tarkibiga qo‘shilgan yillardan e‘tiboran Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat, fan tez yuksaldi. Hozir respublikada 730 ta umumiy ta‘lim maktablari bo‘lib, ularda 343 mingdan ortiq o‘quvchi ta‘lim olmoqda. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida minglab mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Nukusda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining filiali, Nukus Davlat universiteti va bir qancha ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Qoraqalpog‘istonda olimlarning katta guruhi yetishib chiqdi. Ular fan va milliy iqtisodiyotning turli sohalarida, shu jumladan, qishloq xo‘jalik ekinlarining, ayniqsa paxta va sholining yangi navlarini, chorva mollarining yangi zotlarini yaratish,

agrotexnikani takomillashtirish ustida ishlamoqdalar, sug'orishning yangi usullarini ishlab chiqmoqdalar. Orol muammosi yechimini izlamoqdalar.

**Xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi.** Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jaligining asosi agrosanoat majmuidan iborat. U bir qancha paxtachilik, chorvachilik, pillachilik mahsulotlari, ondatra mo'ynalari va baliq mahsulotlari yetkazib beradi. Bu yerda obikor dehqonchilik boshqa rayonlardagidan ko'ra ko'proq mehnat va mablag' talab etadi. Jumladan, Amudaryo mansabida dehqon-




65- rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining milliy tarkibi.



chilik qilish uchun sug'orish kanali qazilishi bilan birga dalalarni suv bosib ketishidan saqlovchi dambalar va botqoqliklarni qurituvchi zovurlar qazilgan (66-rasm).

O'tgan yillarda irrigatsiya tarmoqlari qayta qurildi hamda kengaytirildi. Qizketgan, Paxta-arna kabi yangi kanallar qurildi. Toshqinga qarshi kurashish uchun Amudaryoning har ikkala



66-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy xarita-chizmasi.

qirg'og'i bo'ylab cho'zilib ketgan dambalarni mustahkamlash va kengaytirish yuzasidan katta ishlar olib borildi. Ulkan gidrotexnika inshootlaridan bo'lmish Taxiatosh gidrouzeli 1973 yilda ishga tushirildi. Natijada Amudaryo suvidan oqilona foydalanish, obikor yerlarni kengaytirish uchun imkoniyat ko'paydi.

Qoraqalpog'iston jahondagi paxta yetishtiruvchi yagona shimoliy hududdir. Paxta respublikaning Mo'ynoq tumanidan bo'lak hamma tumanlarida, ayniqsa To'rtko'l, Amudaryo, Xo'jayli tumanlarida ko'p yetishtiriladi.

Amudaryo mansabida beda va sholi yetishtirish qulay. Urug'lik beda To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy tumanlarida ko'p ekiladi. Qoraqalpog'iston O'zbekistondagina emas, balki O'rta Osiyoda urug'lik yetishtiradigan eng yirik mintaqadir. Beda urug'ining Qoraqalpog'iston navi eng sifatli hisoblanadi.

G'alla ekinlaridan sholi, oq jo'xori va makkajo'xori ko'p ekiladi. Sholikorlik katta o'rin tutadi. O'zbekistondagi sholi maydonlarining 33 foizdan ko'prog'i Qoraqalpog'istondadir. Sholi Xo'jayli va Chimboy tumanlarida ko'p yetishtiriladi. Bog' va uzumzorlar maydoni tabiiy sharoiti qulayroq bo'lgan janubiy tumanlarda kengaytirilmoqda.

**Chorvachilik** Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jaligining muhim tarmog'idir. Keng yaylovlar va Amudaryo mansabidagi o'tloqlar chorvachilikning qadimdan yem-xashak bazasi bo'lib kelgan. Mollarni boqish uchun beda, makkajo'xori va oq jo'xoridan tashqari, paxta tozalash, yog', sut-moy sanoati korxonalari chiqindilaridan ham foydalaniladi. Cho'l yaylovlarida yil bo'yi asosan qorako'l qo'ylari boqiladi. Cho'ldagi xo'jaliklarda qisman tuya ham boqiladi.

Qoramollar obikor dehqonchilik mintaqalarida — Amudaryo mansabida sut, go'sht uchun boqiladi. Otlar ko'p emas. Qoraqalpog'istonda parranda, ayniqsa suv parrandalarini ko'paytirish uchun keng imkoniyat bor. Amudaryo tumanidagi ko'llarda o'rdak fermasi tashkil qilingan. To'rtko'l tumanida jamoa xo'jaliklararo parrandachilik fermasi barpo etildi.

**Pillachilik.** Xo'jalikning bu tarmog'i To'rtko'l va Amudaryo rayonlarida rivojlangan. Bu ikki tuman respublikadagi jami pillaning 80 foizini beradi.

Mo'ynali hayvonlardan ondatra, Qorajar va Mo'ynoq fermalarida kumush rang tulki, ko'k tulki va norka urchitib ko'paytirilmoqda. Ondatra go'shti hamda baliq sanoati chiqindilari tulki, norka va ko'k tulkilarga yem bo'ladi.

**Sanoati.** Qoraqalpog'iston sanoati 1950- yillardan ayniqsa tez rivojlandi. Chorjo'y — Qo'ng'iro't temir yo'lining ishga tushirilishi sanoatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Sanoat asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini va baliqlarni qayta ishlashga asoslangan. Sanoatning asosiy tarmoqlari paxta tozalash, moy va baliq sanoatidan iborat. Energetika, metallsozlik, kimyo, binokorlik materiallari ishlab chiqarish kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga kela boshladi.

Oziq-ovqat sanoatining go'sht, sut-moy, un tortish, qandolat, non pishirish, baliq-konserva va boshqa tarmoqlari tobora rivojlanmoqda. Qoraqalpog'istonning yoqilg'i-energetika sanoati yaqin vaqtlargacha yaxshi taraqqiy etmagan edi. Yoqilg'i o'r'nida ko'mir, har xil butalar, saksovul, qamish va g'o'zapoya ishlatilar edi. Gazli — Ural, O'zbekiston — Rossiya gaz quvurlari o'tkazilishi va o'zida ham gaz ishlab chiqarila boshlagach tabiiy gazdan foydalaniladigan bo'ldi. Qoraqalpog'istonda umumfoydalaniladigan elektr stansiyalari va ayrim sanoat korxonalarining elektr stansiyalari bor. Tabiiy gaz asosida ishlaydigan Taxiato'sh GRESi shular ichida eng yirigidir. Bugungi kunda korxonalar va aholi manzilgohlari asosan gazlashtirildi. Taxtako'pir tumanida suvni chuchuklashtirish qurilmasi ishga tushirildi.

Binokorlik materiallari sanoati respublika uchun g'isht, ohak, qamish, plita ishlab chiqaradi, shag'al, qum, qurilish toshlari yetkazib beradi. Binokorlik materiallari sanoatiga tegishli korxonalarining ko'pchiligi Xo'jayli, Nukus, Taxiato'sh shaharlaridadir. Qoraqalpog'istonda barcha zarur binokorlik materiallari, shu jumladan, sement xomashyosi yetarli miqdorda borligi sababli kelajakda binokorlik materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Metallsozlik sanoati qishloq xo'jaligi, sanoat va transport ehtiyojlariga xizmat qiladi. Xo'jaylidagi kema tuzatish, Nukusdagi motor tuzatish, avtomobil tuzatish, Taxiato'shdagi mexanika zavodlari, Mo'ynoqdagi kema tuzatish-texnika stansiyasi metall-

sozlikning yirik korxonalaridir. Taxiatosh qo'ltig'ida suzib yuradigan nasos stansiyalarini tuzatadigan korxonalar qurildi.

Kimyo sanoati Buxoro gazi va u yerda topilgan neft, kaliyli, magniyli tuz konlari, ohak va fosforit konlari bazasida rivojlanmoqda. O'rta Osiyoda yirik korxonalar Qo'ng'irotda soda zavodi qurilmoqda. Respublikada 12 ta shahar, 14 ta shaharcha bor.

**Shaharlari.** *Nukus* — Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti, sanoat va madaniyat markazi (4-jadvaldan shaharda qancha aholi yashashini aniqlang). Shahar 1932-yilda kichik ovul o'rnida barpo bo'ldi. U iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi tufayli 1939-yilda respublikaning poytaxti bo'lib qoldi. Shahar daryodan 2 km uzoqda joylashgan. Amudaryoda qurilgan gidrotexnik to'g'on orqali Nukusga temir yo'l va avtomobil yo'li o'tkazildi. Shahar aeroporti Qoraqalpog'istongagina emas, balki mamlakatimiz uchun ham ahamiyatga egadir.

Shaharda poligrafiya kombinati, motor-tuzatish, silikatsit va avtomobil tuzatish, g'isht zavodlari, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari bor. Nukusda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali, universitet, pedagogika instituti, Toshkent agrar va texnika universitetlarining, pediatriya institutining filiallari, bir necha ilmiy-tadqiqot institutlari, texnikumlar, teatr, filarmoniya, o'lkashunoslik muzeyi va boshqa muassasalar bor. Shahar ko'chalari shaxmat taxtasi ko'rinishida rejalashtirilgan.

*Taxiatosh* shu nomdagi GRES qurilishi munosabati bilan 1952 yili qad ko'tardi. U energetiklar, gidrotexniklar, muhandislar va suvchilar shahridir. Unda mexanika-ta'mirlash, kislorod, beton va yog'ochsozlik zavodlari bor. Amudaryo — Taxiatosh yaqinida qurilgan yirik gidrotexnik to'g'on shahar xo'jaligini yanada yuksaltirdi. Kelajakda Taxiatosh asosan binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi markaz sifatida yanada rivojlanadi, unda yangi korxonalar quriladi.

*Mo'ynoq* Orol dengizi sohilidagi sobiq port va baliqchi shaharchasi. Unda baliq-konserva kombinati, baliqchilik ilmiy-tekshirish stansiyasi, ondatra xo'jaligi bo'lgan. Orol suv sathining keskin pasayib ketishi oqibatida shahar dengizdan 100 km uzoqda qolib ketdi. Natijada shahar xo'jaligi butkul o'zgardi.

*Beruniy* Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan muhim sanoat markazidir. Shahar sol orqali Chalish pristani bilan, avtomobil yo'li orqali esa Nukus bilan bog'langan. Paxta tozalash va yog' zavodlari shaharning asosiy korxonalari hisoblanadi.

- ❓ 1. Qoraqalpog'istonning iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy sharoitining xo'jalikka ta'siri qanday?
2. Qoraqalpog'iston ekin maydonining tarkibini 9-jadval ma'lumotlari asosida doiraviy diagrammada tasvirlab, mamlakat ekin maydonlarining shunday diagrammasiga solishtiring.
3. Aholining joylashuvi va milliy tarkibiga qanday omillar ta'sir etgan?
4. Qoraqalpog'iston shaharlari qanday xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi?

### **„O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari va viloyatlari ta'rifi“ bo'limini umumlashtiruvchi takrorlash**

1. Iqtisodiy rayonning (hududning) iqtisodiy-geografik ta'rifi qanday reja bo'yicha tuziladi?

2. Mamlakat ahamiyatiga ega bo'lgan ixtisoslashgan tarmoqlar qaysi belgilariga qarab ajratiladi? Yana qaysi tarmoqlar iqtisodiy rayon ixtisosini tashkil etadi?

3. Xo'jalikning hududiy ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birma-bir aytib bering.

4. Hududiy mehnat taqsimotida mamlakatimizning Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlari, Farg'ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari hamda boshqa rayonlar o'zaro nimalari bilan ajralib turadi? Bularning xo'jalikdagi o'xshash va farq qiluvchi belgilarini tushuntirib bering.

5. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

<b>Iqtisodiy rayonlar</b>		
Yuqori darajada rivojlangan, ishchi kuchi bilan ta'minlangan, lekin tabiiy boyliklari yetishmaydigan rayonlar...	Tabiiy boyliklari juda ko'p bo'lgan va ishchi kuchlari yetishmaydigan, xo'jalik jihatidan kamroq o'zlashtirilgan rayonlar...	Tabiiy boyliklari va ishchi kuchi anchagina, ammo xo'jalik jihatidan bir tekis o'zlashtirilmagan rayonlar...

❗ **Bu har bir guruhdagi rayonlar xo'jaligining rivojlanish yo'nalishi qanday?**

6. Sanoat bo'yicha mehnat unumdorligi eng yuqori bo'lgan rayon qaysi?

7. Qishloq xo'jaligi intensiv yo'ldan borayotgan rayon qaysi?

8. Transport bilan yaxshi ta'minlangan rayon qaysi?

Shu rayonlardan biri misolida bu ko'rsatkichlar nimaga bog'liq ekanligini tushuntirib bering.

9. Xo'jalik yuritishning oddiy joylashishdan murakkabroq, progressivroq joylashishga o'sib o'tishini biror iqtisodiy rayon misolida ko'rsating.

10. Shahringiz (tumaningiz, viloyatingiz)ning qisqacha iqtisodiy-geografik ta'rifini o'zingizga ma'lum reja asosida tuzing. Ta'rifda xo'jalik tarkibining va xomashyo, energiya, tayyor mahsulotlar bo'yicha hududiy ishlab chiqarish aloqalari chizmasini keltiring, shuningdek tabiatni muhofaza qilish va o'zlashtirish tadbirlarini bayon qiling.

## **29-§. O'zbekistonning rayonlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari**

Endi siz mamlakatimizning barcha iqtisodiy rayonlari va viloyatlari bir-biridan aholisining soni, xo'jaligining ixtisosi va rivojlanish darajasi, tabiiy sharoiti va resurslari jihatidan farq qilishini bilib oldingiz. Biroq, bu farqlarga qaramay, hamma rayonlar birgalikda O'zbekistonning milliy iqtisodiyot majmuasini tashkil etadi. Demak, mamlakatni ulkan korxonaga, har bir alohida rayonni esa bu korxonaning sexiga o'xshatish mumkin. Har bir sex xo'jalikning qaysi tarmoqlarini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitga ega bo'lsa, u shu tarmoqlarga ixtisoslashadi, o'zida yetishmaydigan xomashyolar, materiallar, tayyor buyumlarni esa boshqa sexlardan oladi. Ana shunday hududiy mehnat taqsimoti natijasida ishlab chiqarishning muayyan tarmoqlari mamlakatning muayyan hududlariga birlashtirilgan bo'ladi.

Shu sababli barcha iqtisodiy rayonlarning o'zaro yordami va hamkorligisiz rayonlarning har biri xo'jaligini ayrim holda rivojlantira olmaydi, demak, busiz mamlakatning milliy iqtisodiyoti ham rivojlana olmaydi.

Shunday qilib, rayonlarning ixtisoslashishida ifodalanuvchi hududiy mehnat taqsimoti rayonlararo ishlab chiqarish aloqalarisiz bo'lishi mumkin emas. Ishlab chiqarish aloqalari turlicha ixtisoslashgan xo'jaliklarning mahsulotlarini o'zaro ayirboshlashdan iborat. Bu aloqalar barcha rayonlarni mamlakatning yagona iqtisodiyotiga birlashtiradi.

Rayonlarning o'zaro aloqalari doimo kengaya boradi, chunki fan-texnika taraqqiyoti faqat korxonalarni emas, balki iqtisodiy rayonlarni ham tobora chuqurroq ixtisoslashishiga olib keladi.

Mamlakatimizning tashqi aloqalari turli xildir. O‘zbekiston chet ellarga mashinalar, kimyo mahsulotlari, gaz, paxta, pilla, qorako‘l, oltin singari mahsulotlar chiqaradigan mamlakatlardan biri. O‘zbekiston boshqa mamlakatlardan o‘zida yetishmagan oziq-ovqat va sanoat mollari, shuningdek boshqa xalq iste‘moli buyumlarini sotib oladi. Jahonning 140 dan ortiq davlati bilan tashqi savdo olib borilmoqda. Xorijdan sotib olinadigan tovarlar import, boshqa mamlakatlarga sotiladigan tovarlar eksport deyiladi. 1999 yilda savdo hajmi 787 milliard so‘mni tashkil etdi. Shundan 398,6 milliard so‘mni eksport, 388,4 milliard so‘mni import tashkil etdi (16-jadvalga qarang).

Eksport qilinayotgan tovarlar hajmining 27,3 foizi paxta tolasiga to‘g‘ri kelmoqda. Paxta tolasini eksportning 80 foizdan ortiqrog‘i Shveysariya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Koreyaga to‘g‘ri keladi.

Savdodan tashqari yirik korxonalarni birgalikda o‘zlashtirish, transport tizimlari qurish, tabiatni muhofaza qilish va o‘zgartirish masalalarini xorijiy davlatlar bilan birgalikda hal etish singari zamonaviy shakllari (investitsiya) ham rivojlanmoqda. 2000 yil 1 yanvarigacha Respublikamizda 3554 xorijiy korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 1910 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini, uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini siz IX sinfda, „Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi“ darslarida chuqurroq o‘rganasiz.

- ?** 1. Tashqi iqtisodiy aloqalar ko‘lami qanday omillarga bog‘liq?  
2. Siz yashayotgan iqtisodiy rayon aloqalari bo‘yicha referat tayyorlang.  
3. Yoquvsiz xaritada mamlakatimizdan paxta eksport qilinayotgan davlatlarni belgilang.  
4. Axborot manbalaridan mamlakatimiz tashqi iqtisodiy aloqalariga oid yangiliklarni aniqlang.

**O'zbekiston Respublikasi va viloyatlari  
aholisining soni hamda zichligi (1999. 01. 06)**















	Ko'payishi (ming kishi)			Salmog'i (%)		Aholi zichligi kishi/ km <sup>2</sup>	
	jami aholi	shahar aholisi	qishloq aholisi	shahar aholisi	qishloq aholisi		
O'zbekiston Respublikasi	24230,6	9156,8	15073,8	37,8	62,2	54,0	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1482,0	718,0	764,0	48,4	51,6	8,9	
VILOYATLAR	Andijon	2157,7	646,5	1511,2	30,0	70,0	513,7
	Buxoro	1405,3	442,5	962,8	31,5	68,5	34,9
	Jizzax	942,8	294,1	648,7	31,2	68,8	46,0
	Navoiy	778,4	315,6	462,8	40,5	59,5	7,0
	Namangan	1896,6	714,8	1181,8	37,7	62,3	256,3
	Samarqand	2635,6	725,9	1910,0	27,5	72,5	156,9
	Sirdaryo	660,2	208,2	452,0	31,5	68,5	132,0
	Surxondaryo	1705,7	342,6	1363,1	20,1	79,9	84,9
	Toshkent	2341,2	951,9	1389,3	40,7	59,3	288,6 <sup>x</sup>
	Farg'ona	2639,2	775,4	1863,8	29,4	70,6	393,9
	Xorazm	1301,2	314,0	987,2	24,1	75,9	213,3
Qashqadaryo	2123,0	545,9	1577,1	25,7	74,3	74,2	
Toshkent sh.	2161,4	2161,4					



**O'zbekiston Respublikasi aholisining milliy  
tarkibi (aholi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha)**

Millatlar va millat vakillari	Jami aholi soni (ming kishi)		1989-yilda 1979 - yildagiga nisbatan foiz his.
	1979	1989	
Jami aholi	15389	19808	128,7
O'zbeklar	10569	14123	133,6
Ruslar	1665	1652	99,2
Qozoqlar	620	808	130,3
Ukrainlar	113	154	136,3
Beloruslar	19	31	163,2
Ozarbayjonlar	59	44	74,6
Moldavanlar	3	11	366,7
Qirg'izlar	142	174	122,5
Tojiklar	594	931	156,7
Armanlar	42	50	119,1
Turkmanlar	92	122	132,6
Qoraqalpoqlar	297	411	138,4
Tatarlar	531	467	87,9
Qrim tatarlari	117	188	160,7
Koreyslar	163	182	111,7
Turklar	48	106	220,8
Yahudiylar	73,9	65,3	88,4
Nemislar	39,5	39,7	100,5
Uyg'urlar	29	35,7	123,1
Boshqirdlar	25,8	34,7	134,5
Buxoro yahudiylari	25,6	28,2	110,2
Eroniylar	20	24,5	122,5
Lo'lilar	12,5	16,3	130,5
Mordvaliklar	12,2	11,9	97,5
Greklar	14,0	10,4	74,3
Chuvashlar	9,3	10,0	107,5

**Davlat va nodavlat sektorlari bo'yicha iqtisodiyot  
tarmoqlari salmog'ining nisbati**


1998-y.		64,4	Ichki yalpi mahsulot
1999-y.		65,6	
1998-y.		60,2	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish
1999-y.		61,4	
1998-y.		98,7	Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti
1999-y.		98,7	
1998-y.		77,1	Qurilish ishlari
1999-y.		78,0	
1998-y.		95,5	Chakana mahsulot aylanishi
1999-y.		96,0	
1998-y.		53,7	Aholiga pullik xizmat
1999-y.		54,7	
1998-y.			Iqtisodda band kishilar salmog'i
1999-y.			

%

10%



Davlat mulki



Nodavlat sektor mulki

**50 ming kishidan ortiq aholiga ega bo'lgan shaharlarda  
aholi sonining ko'payishi (ming kishi)**

Shaharlar	1959	1970	1979	1989	1994	1998
Olmalik	40	81	101	114	117	116
Angren	56	76	106	137	131	130
Andijon	131	188	230	293	305	324
Bekobod	41	55	68	82	86	86
Buxoro	69	112	185	224	237	240
Guliston	—	31	43	54	54	55
Jizzax	16	26	70	106	121	127
Kattaqo'rg'on	34	44	53	59	61	65
Marg'ilon	68	91	110	125	133	152
Navoiy	10	58	84	107	115	120
Namangan	123	175	227	306	348	377
Nukus	39	74	109	170	186	197
Samarqand	196	169	346	367	365	364
Toshkent	975	1385	1793	2096	2106	2137
Termiz	28	45	57	83	106	111
Urganch	44	76	100	126	136	139
Farg'ona	72	143	176	200	189	183
Xo'jayli	—	36	46	59	64	68
Chirchiq	66	107	132	157	155	147
Shahrisabz	—	27	37	53	67	86
Yangiyo'l	45	55	63	58	57	58
Qarshi	33	71	108	157	186	198
Qo'qon	105	133	153	182	186	194

**Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish tarkibi**  
(yakunga nisbatan foiz hisobida)

	1998-y.	1999-y.
Yalpi ichki mahsulot	100,0	100,0
<b>shu jumladan:</b>		
sanoat	14,9	13,9
qishloq xo'jaligi	26,8	28,0
qurilish	7,5	6,9
xizmat ko'rsatish sohasi	36,2	36,0
mahsulot va eksport-import muomalalariga sof soliqlar	14,4	15,0

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha sanoat mahsuloti  
ishlab chiqarish hajmi tarkibi**  
(yakuniga nisbatan foiz hisobida)

	1995-y.	1996-y.
<b>Jami sanoat</b>	100,0	100,0
shu jumladan:		
yoqilg'i-energetika sanoati	27,5	26,2
elektr quvvati	15,1	14,4*
yoqilg'i sanoati	12,4	11,8
metallurgiya sanoati	11,0	12,4
kimyo va neft-kimyo sanoati	5,3	5,8
mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	8,2	10,8
yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati	4,9	4,9
yengil sanoat	19,9	20,0
oziq-ovqat sanoati	7,2	7,8
un tortish - krupa va omixta yem sanoati	4,6	4,6

**Sanoat mahsuloti zarar turlarini ishlab chiqarish**

Mahsulot nomi	1999-y.	1998-yilga nisbatan % hisobida
Neft (gaz kondensati bilan) mln.t.	8,1	100,2
Gaz, mlrd kub m.	55,6	101,4
Avtobenzin, ming t.	1622,4	101,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	2220,6	100,1
Elektroenergiya, mlrd kv. s	45,3	98,7
Po'lat, ming t.	355,5	99,6
Ko'mir, ming t.	2955	100,1
Avtomobillar, dona	58777	108,0
Paxta terish mashinalari, dona	278	79,2
Mineral o'g'it, ming t.	876,8	97,8
Sement, ming t.	3.406,2	101,5
Un, ming t.	1.701,9	104,5
Gazlama, mln kv.m.	339,9	99,7
Poyabzal, ming. juft	3749	77,5
Go'sht va go'sht mahsulotlari, ming t.	48,8	110,1
O'simlik yog'i, ming t.	277,3	102,7
Shakar, ming t.	20,9	2 marta

\* O'rta Osiyo mamlakatlariga elektr energiya oqimi qisqargan.

**1994-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi,  
viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yer maydonlari va  
qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan  
maydonlar (ming gektar)**

	Q/x korxonalarini yer maydoni	Q/x korxonalarining q/x ekinlari ekiladigan jami yerlari	shu jumladan		
			haydal-gan yer	pichan-zor	yaylov-lar
O'zbek. Res. Qoraq. Res. Viloyatlari:	31905 6748	25448 4426	4076 429	107 72	20825 3909
Andijon			203	—	22
Buxoro	383	256	200	—	2775
Jizzax	3838	3005	450	12	747
Qashqadaryo	1512	1234	663	—	1404
Navoiy	2527	2127	112	—	9391
Namangan	10063	9519	197	—	141
Samarqand	642	376	443	—	790
Surxondaryo	1557	1291	288	—	845
Sirdaryo	1668	1170	287	2	70
Toshkent	481	376	335	18	320
Farg'ona	995	731	257	—	72
Xorazm	678 814	365 571	213	4	338

**Mamlakatning, shu jumladan viloyatlar va Qoraqalpog'iston  
Respublikasining jami ekin maydonlari va ekinlar  
tarkibi (1995-yil, ming gektar)**

	Jami ekin maydoni	Don ekinlari	Texnik ekinlar	Jumladan		
				paxta	kartoshka, sabzavot poliz ekinlari	kartoshka, sabzavot poliz ekinlari
O'zbekiston Respublikasi	4229,7*	1280,3*	1731,8*	1492,8*	249,8*	967,8*
Qoraqalpog'iston Respublikasi	419,6	145,5	146,8	145,9	17,1	110,2
Andijon viloyati	239,2	59,6	116,8	114,5	21,6	41,2
Buxoro viloyati	234,0	47,0	112,1	111,7	14,4	60,5
Jizzax viloyati	430,8	201,0	142,1	134,6	17,3	70,4
Navoiy viloyati	116,2	36,7	44,8	44,4	5,5	20,2
Namangan viloyati	221,8	55,3	101,1	100,6	16,8	48,6

\* 1993-yil ma'lumotlari.

## 9-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7
Samarqand viloyati	457,1	224,8	108,6	98,0	34,3	89,4
Sirdaryo viloyati	291,9	79,9	145,1	141,6	11,0	54,9
Surxondaryo viloyati				76,4		
Toshkent viloyati	354,7	103,4	114,4	108,2	43,7	93,2
Farg'ona viloyati	302,4	69,8	132,1	131,7	24,0	76,5
Xorazm viloyati	237,9	55,0	103,1	102,9	14,3	65,5
Qashqadaryo viloyati	643,1	344,5	186,4	182,3	26,0	86,2

## 10-jadval

## Chorva soni (ming bosh)

	1999-y.	2000-y.
Yirik shoxli qoramol	5225,2	5268,3
Qo'y va echkilar	8697,9	8838,5
Parranda	1393,9	14406,5

## 11-jadval

## Transport turlari bo'yicha tashish (mln kishi)

1999-y.

Jami tashilgan yo'lovchilar	3472,3
Shu jumladan:	
Temir yo'l	13,4
Avtomobil	3145,6
Havo	1,5
Shahar transportida	311,8

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk tashish  
aylanmasi (mld.t — km.) 1999-y.**

Tashilgan jami yuk, mln.t.	812,5
shu jumladan:	
Temir yo'l	41,8
Avtomobil	728,9
Quvur	41,7
Havo	15,8
Suv	81,0

**Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti  
(har ming aholi hisobiga)**

	Tuq'ilish		O'lish		Aholining tabiiy harakati	
	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.
O'zbekiston Respublikasi	23,0	22,3	5,8	5,3	17,2	17,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,8	23,4	6,2	5,7	16,6	17,7
Viloyatlar:						
Andijon	23,9	21,8	5,6	5,0	18,3	16,8
Buxoro	21,5	19,9	5,1	4,5	16,4	15,4
Jizzax	24,8	24,7	4,9	4,4	19,9	20,3
Qashqadaryo	27,1	27,5	4,7	4,3	22,4	23,2
Navoiy	20,3	19,4	5,8	5,0	14,5	14,7
Namangan	23,6	23,0	5,4	4,9	18,2	18,1
Samarqand	23,8	24,4	5,7	5,1	18,1	19,3
Surxondaryo	27,7	26,4	5,2	4,7	22,5	21,7
Sirdaryo	23,1	22,5	5,7	5,3	17,4	17,2
Toshkent	20,6	19,0	6,6	6,3	14,0	12,7
Farg'ona	23,4	21,1	5,7	5,1	17,7	16,0
Xorazm	24,1	24,7	6,0	5,2	18,1	19,5
Toshkent shahri	15,9	15,2	8,3	8,1	7,6	7,1

**Tug'ilish, o'lish va aholining tabiiy ko'payishi**  
(ming kishi hisobida)

	Tug'ilganlar		O'lganlar		Shu jumladan 1 yoshgacha bolalar o'limi		Aholining tabiiy ko'payishi	
	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.
O'zbekiston Respublikasi	553,7	543,9	140,5	130,4	12,4	11,1	413,2	413,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	33,5	35,0	9,1	8,6	0,9	0,8	24,4	26,4
Viloyatlar:								
Andijon	51,2	47,4	12,0	11,0	1,0	0,8	39,2	36,4
Buxoro	29,9	28,2	7,1	6,4	0,6	0,6	22,8	21,8
Jizzax	23,2	24,0	4,5	4,2	0,5	0,4	18,7	19,8
Qashqadaryo	56,9	59,0	9,9	9,2	1,2	1,2	47,0	49,8
Navoiy	15,7	15,4	4,5	3,9	0,4	0,3	11,2	11,5
Namangan	44,4	43,9	10,2	9,3	1,0	0,9	34,2	34,6
Samarqand	62,2	64,7	15,0	13,6	1,2	1,2	47,2	51,1
Surxondaryo	46,7	45,6	8,8	8,1	1,2	1,0	37,9	37,5
Sirdaryo	15,1	14,4	3,7	3,4	0,3	0,3	11,4	11,0
Toshkent	48,1	44,8	15,3	14,8	1,1	0,9	32,8	32,0
Farg'ona	61,4	56,2	14,8	13,5	1,4	1,3	46,6	42,7
Xorazm	31,2	32,5	7,7	6,8	0,8	0,7	23,5	25,7
Toshkent shahri	34,2	32,8	17,9	17,6	0,8	0,7	16,3	15,2

**Nikoh va ajrim**

	Ming kishi hisobida				har ming aholiga			
	nikoh		ajralish		nikoh		ajralish	
	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.	1998-y.	1999-y.
O'zbekiston Respublikasi	170,5	178,7	14,6	10,8	7,1	7,3	0,6	0,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10,4	11,0	0,4	0,3	7,1	7,3	0,3	0,2
Viloyatlar:								
Andijon	13,7	14,3	0,8	0,9	6,4	6,6	0,4	0,4
Buxoro	11,0	11,5	0,7	0,5	7,8	8,1	0,5	0,4
Jizzax	6,2	6,6	0,4	0,3	6,6	6,8	0,4	0,3
Qashqadaryo	15,7	17,0	0,6	0,5	7,5	7,9	0,3	0,2
Navoiy	6,1	6,4	0,8	0,5	8,0	8,2	1,0	0,7
Namangan	13,6	14,3	0,7	0,6	7,2	7,5	0,4	0,3
Samarqand	18,3	19,9	1,2	0,8	7,0	7,5	0,4	0,3
Surxondaryo	11,0	12,2	0,6	0,4	6,5	7,1	0,3	0,3
Sirdaryo	4,4	4,9	0,4	0,3	6,7	7,7	0,6	0,5
Toshkent	14,6	14,5	2,0	1,5	6,3	6,2	1,0	0,6
Farg'ona	19,4	19,6	1,1	1,0	7,4	7,4	0,4	0,4
Xorazm	11,4	11,4	0,4	0,3	8,8	8,7	0,3	0,2
Toshkent shahri	14,7	15,1	4,3	2,9	6,8	7,0	2,0	1,3



**Xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi  
tarkibi (1999 yil mln AQSH dollari hisobida)**

Mamlakatlar	Eksport	Import	Respublika mahsulot aylanmasidagi hissasi, % hisobida	1998-yilga nisbatan % hisobida
Avstriya	25,2	24,0	0,8	88,5
Belgiya	82,0	45,4	2,0	63,6
Buyuk Britaniya	310,6	94,2	6,4	83,3
Germaniya	26,2	332,1	5,6	115,1
Italiya	45,4	74,6	1,9	78,0
Xitoy	19,2	61,1	1,3	93,4
Koreya	122,4	404,4	8,3	83,1
Niderlandiya	98,1	41,5	2,2	104,7
AQSH	44,8	237,0	4,4	91,9
Turkiya	56,1	148,0	3,4	88,0
Fransiya	41,4	72,9	1,8	66,1
Shveysariya	307,7	40,2	5,5	81,9
Rossiya	432,7	432,1	13,6	82,1
Qozog'iston	148,7	126,4	4,3	96,7
Ukraina	122,4	130,4	4,0	138,8
Turkmaniston	76,3	10,0	1,4	167,6
Qirg'iziston	52,2	46,6	1,6	138,6
Tojikiston	120,1	31,3	2,4	109,6

**Respublikadagi eng yirik issiqlik elektr stansiyalari**

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar, MVt	Turboagregatlar soni	Qurilgan yillar	Joylashgan shahar	Izohlar	
Sirdaryo GRES	3000	10	1972—1981	Shirin	Loyiha quvvati 2400 MVt	
Yangi Angren GRES	1800	6	1985— qurilish davom etmoqda	Nurobod		
Toshkent GRES	1860	12	1963—1971	Toshkent		
Navoiy GRES	1250	11	1963—1981	Navoiy		
Angren GRES	484	8	1957—1963	Angren		
Taxiatosh GRES	730	5	1961—1990 qurilish	Taxiatosh		
Tolimarjon GRES	—	—	1984-yilda boshlangan	Nuriston		Loyiha quvvati 3200 MVt

18-jadval

**Respublikadagi eng yirik gidroelektr stansiyalari**

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar, MVt	Turbinalar soni	Qurilgan yillar	Suv manbai
Chorvoq GES	620,5	4	1970—1972	Chirchiq
Xo'jakent GES	165	3	1976	Chirchiq
G'azalkent GES	120	3	1980—1981	Chirchiq
Farhod GES	126	4	1948—1949	Sirdaryo

19-jadval



**Yirik issiqlik elektr markazlari**

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar, MVt	Qurilgan yillar	Joylashgan shahar	Izohlar
Farg'ona IEM	330	1956—1979	Qirguli	loyiha quvvati 140 MVt
Muborak IEM	60	1985—1988	Muborak	
Toshkent IEM	30	1939—1954	Toshkent	

## Shaharlar orasidagi masofa (km hisobida)


	Toshkent	Andijon	Buxoro	Guliston	Jizzax	Qarshi	Navoiy	Namangan	Nukus	Samarqand	Termiz	Farg'ona
Toshkent	—	343	549	117	186	433	434	283	1107	281	657	308
Andijon	343	—	784	375	421	668	669	67	1342	516	892	73
Buxoro	549	784	—	465	363	161	125	778	558	268	434	749
Guliston	117	375	465	—	106	353	354	369	1027	201	577	340
Jizzax	186	421	363	106	—	247	248	415	921	95	471	386
Qarshi	433	668	161	353	247	—	241	662	710	152	273	633
Navoiy	434	669	125	354	248	241	—	663	683	153	477	634
Namangan	283	67	778	369	415	662	663	—	1336	510	886	85
Nukus	1107	1342	558	1027	921	710	683	1336	—	826	992	1307
Samarqand	281	516	268	201	95	152	153	510	826	—	376	481
Termiz	657	892	434	577	471	273	477	886	992	376	—	857
Farg'ona	308	73	749	340	386	633	634	85	1307	481	857	—

## Paxtachilikning dinamikasi




## Qorako'l teri

(ming dona)



## Tuxum (mln dona)




## BARCHA TUR XO'JALIKLAR BO'YICHA


### MAHSULDOR MOLLAR SONI




1997 y. (foiz his.)

Qoramol



Qo'ylar va echkilar




-  Qishloq xo'jalik korxonalari
-  Dehqon (fermer) xo'jaliklari
-  Aholining shaxsiy xo'jaliklari

Bitta katak — bir foiz

### DONCHILIK


#### BUG'DOY YALPI HOSILINING O'SISHI

(ming t. hisobida)



#### SHOLI YALPI HOSILINING O'SISHI


(ming t. hisobida)



## DON EKINLARI HOSILINING


### TADRIJIY O'SISHI

(ming t. hisobida)



## CHORVACHILIK

### ASOSIY CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH



---

## TUSHUNCHA VA ATAMALARNING QISQACHA IZOHI

**AGLOMERATSIYA** — yirik shahar atrofida shaharlar vujudga kelishi. Masalan, Toshkent aglomeratsiyasida o'ndan ortiq shahar bor.

**ALMASHLAB EKISH** — tuproq unumdorligini saqlash uchun bir dalaning o'zida ekinlarni tartib bilan almashtirib ekish.

**AHOLI MIGRATSIYASI** (*lotincha* — ko'chish) — ikki xil; ichki migratsiya (aholining mamlakat ichkarisida, uning rayonlari o'rtasida yoki qishloq joylaridan shaharlarga ko'chib yurish) va tashqi migratsiya (mamlakatdan ko'chib ketish — emigratsiya va mamlakatga ko'chib kelish — immigratsiya).

**BAHORIKOR DEHQONCHILIK** — sug'orib dehqonchilik qilinadigan rayonlarda ekinlarni sug'ormasdan yetishtirish.

**BOZOR** — sotuvchi bilan xaridor o'rtasida turli xil tovarlarni pulga ayirboshlash joyi. Bozor munosabatlari, talab, narx-navo, reklama, mol sotishni rag'batlantirish, molni saqlash, yetkazib berish, xaridorlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish.

**BOZOR IQTISODIYOTI** — jahon tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan amaliyot. U tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisod.

**BIRJA** — ulgurji tijoratgoh. Bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq namunalar asosida savdo qiladigan ommaviy ulgurji bozor yoki qimmatbaho qog'ozlar, oltin, chet el valyutalari bozori.

**BIZNES** (*inglizcha*) — sohibkorlik, tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan mashg'ul bo'lish.

**BANK** — kredit-moliya muassasasi. Uning asosiy vazifasi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bir joyga to'plash, korxonalariga va umuman pulga muhtojlarga ma'lum daromad olishni ko'zlab qarz berish, pul hisob-kitoblarini olib borish, turli qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq muammolarni bajarish va hokazo.

**BRIKET** — chang holiday (ko'mir kukuni, torf kabi) xomashyoni bosim ostida yoki bog'lovchi moddalar qo'shish yo'li bilan yiriklashtirish natijasida hosil bo'lgan mahsulot.

**GEOGRAFIK DETERMINIZM** — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosan geografik muhitga bog‘liq deb hisoblaydigan nazariya.

**GIDROELEKTR STANSIYALAR POG‘ONASI** (kaskadi) — daryoda ketma-ket qurilgan bir qancha elektr stansiyalar. Suv bir me‘yorda oqib o‘tishi bilan qo‘shimcha elektr energiya olishga imkon beradi.

**GIDROENERGETIKA RESURSLARI** — daryo va suv havzalari oqimi energiyasi. Bu resurslar ikki xil: potensial resurslar, ya‘ni daryoda oqayotgan suvning hamma energiyasi va iqtisodiy resurslar, ya‘ni hozirgi sharoitda iqtisodiy texnik imkoniyat foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lgan energiya.

**DEFOLIATSIYA** — g‘o‘za hosilini mexanizmlar bilan yig‘ishni osonlashtirish uchun kimyoviy vositalar ta‘sirida barg to‘kish.

**DEFOLIANT** — defoliatsiya uchun ishlatiladigan kimyoviy modda.

**YER FONDI** — mamlakat chegarasi doirasidagi jami yer.

**YOG‘-MOY KOMBINATI** — oziq-ovqat sanoatining yirik korxonasi. O‘simlik (paxta) moyi, xo‘jalik sovuni va chorvachilik uchun mahsulotlar ishlab chiqaradi.

**ZOVUR** — tuproqni, gruntni quritish uchun yer osti suvlari yoki turg‘un halqob suvlar tashlab qo‘yiladigan ariq. Suvni ariqlar orqali yuboradigan ochiq va quvurlar orqali yuboradigan yopiq zovurlar bo‘ladi.

**IMPORT** — chet el mamlakatlaridan mahsulotlar, mollar keltirish.

**INTENSIV** (*lotincha*) — kuchaytirilgan, serunum. Intensivlashtirish ishlab chiqarishning unumdorligini oshirish uchun tobora ko‘p mablag‘ va mehnat sarf qilingani holda ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti negizida, resursdan oqilona foydalanishni ko‘zlab rejalashtirish.

**INFRASTRUKTURA** (*lotincha*) — bu atama ishlab chiqarishga va aholiga xizmat qiladigan inshootlar tizimini belgilashda qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish infrastrukturasi — o‘zi bevosita mahsulot ishlab chiqarmaydigan, biroq usiz ishlab chiqarishni rivojlantirib bo‘lmaydigan inshoot, ya‘ni transport yo‘llari, elektr uzatish liniyalari, suv quvurlar, omborlar, yangi hududlarning o‘zlashtirilishi dastavval infrastrukturani vujudga keltirishni talab etadi. Sotsial infrastruktura — aholiga xizmat qiladigan muassasa, inshoot tizimidan (yo‘lovchi transporti, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish muassasasi va hokazolardan) iborat. Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi, aholi turmush sharoitining yaxshilanishi ko‘p jihatdan infrastrukturaning rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

**IRRIGATSIYA** — dalalarga suv chiqarib sug‘orish.

**IXTISOSLASHUV** (rayonning ixtisoslashuvi) — rayonda muayyan tur mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘planishi, bu mahsulotlarning talaygina qismi rayonlararo almashuvga mo‘ljallangan bo‘ladi.



**ISHLAB CHIQRARISH SAMARADORLIGI** — iqtisodiyot taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, foydali natija (samara)ning uni hosil qilishga ketgan xarajatga nisbati.

Samaradorlik mehnat unumdorligini oshishida, energiya, xomashyo, material va transport vositalarini iqtisod qilishda aks etadi. Iqtisodiy samaradorlik, oqibat natijada mamlakatimiz aholisi moddiy turmush darajasining ko'tarilishida o'z aksini topadi.

**IQTISODIY-GEOGRAFIK TA'RIF** — xo'jalik obyektlari (korxonalar, shaharlar, rayonlar) to'g'risidagi ilmiy bilimlarning ma'lum bir reja asosida ta'riflanishi, bayon qilinishidir, bunda mazkur obyektlarning joylashish xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari ham tushuntirib beriladi.

**YO'LDOSH SHAHARLAR** — yirik sanoat markazlari yaqinida joylashgan va xo'jalik jihatidan u bilan bog'langan shaharlar.

**MAJMUA** — bir butunni tashkil etuvchi har xil, lekin o'zaro bog'liq qismlarning uyg'unlashuvi, birga qo'shilishi. Masalan, hududiy ishlab chiqarish majmuasi (HICHM) biron hududda rivojlanayotgan o'zaro aloqador bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarish korxonalarining birga qo'shilishi.

**MAKRO, MEZO, MIKROGEOGRAFIK O'RIN** — mamlakat yoki rayonning qit'a va hatto Yer kurrasining eng olis qismiga nisbatan joylashgan o'rnini. Makro o'rin, muayyan mintaqa doirasidagi obyektlarga nisbatan joylashuvi, mezo o'rin va bevosita tutash hududdagi obyektlarga nisbatan joylashuvi mikro geografik o'rin hisoblanadi.

**MAISHIY XIZMAT GEOGRAFIYASI** — iqtisodiy va sotsial geografyaning bo'limi bo'lib, aholiga turli xil madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi sohalar (sog'liqni saqlash, maorif, savdo va umumiy ovqatlanish muassasalari, kurort xo'jaligi va turizm)ning joylashuvini o'rgatadi.

**MENEJER** (*inglizcha*) — boshqaruvchi.

**METROPOLIYA** (*inglizcha*) — qadimgi Gretsiyada shahar, davlat ana shunday atalgan, keyinchalik mustamlakalari bo'lgan mamlakat metropoliya deb ataladigan bo'ldi.

**MEHNAT UNUMDORLIGI** — kishilar mehnat faoliyatining samaradorligi, mahsuldorligi. Bir ishchining muayyan vaqt birligi davomida hosil qilgan mahsulotning miqdori yoki mahsulot birligi tayyorlash uchun o'sha ishchi sarflagan vaqt miqdori bilan o'lchanadi.

**MONOPOLIYA** (*yunoncha*) — tanho. Iqtisodiyot yoki biron-bir boshqa sohada tanho hukmronlik.

**MULK** — inson yaratgan moddiy va ma'naviy ne'matlar, aqliy mehnat mahsuli va insonning mehnat qobiliyati (ishchi kuchi).

**PATENT** (*lotincha*) — guvohnoma, yorliq.

**PRIVATIZATSIYA** — davlat mulkini (zavod, fabrika, yer va hokazo) xususiy lashtirish.

**REKREATSIYA** (*lotincha*) — dam olishning kishining jismoniy va ma'naviy kuchlarini tiklaydigan turlari. Iqtisodiy va sotsial geografiyada ko'pincha turizm va dam olish deb ataladigan va sayyohlar hamda dam oluvchilarga xilma-xil xizmat ko'rsatadigan faoliyat turlari.

**RAYON** (*fransuzcha*) — muayyan ko'rsatkichlar: iqtisodiy, tabiiy-geografik, ma'muriy ko'rsatkichlar asosida ajratilgan hudud. Binobarin, iqtisodiy rayon deganda iqtisodiy-geografik o'rni, ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro bog'langanligi va mutanosibliigi darajasi bilan ajralib turadigan hudud tushuniladi.

**SILIKAT G'ISHT** — ohak bilan kvars qumi aralashmasidan tayyorlanadigan devorbop g'ovak material.

**SUV TA'MINOTINING AYLANMA TIZIMI** — suvdan noto'g'ri foydalanishning oldini olish uchun joriy qilinadi. Suv qayta ishlangach (sovitilgach, tozalangach) yana korxonaga beriladi va suv havzasidagi suvdan esa kamaygan suvning o'rnini to'ldirib turish uchungina foydalaniladi.

**SUZIB YURUVCHI NASOS STANSIYASI** — qirg'og'ini tez o'zgartirib turadigan daryo, kanal yoki ko'lda nasos stansiyasi maxsus qayiqchaga o'rnatiladi. Suv sathining o'zgarishidan qat'i nazar, suv zarur balandlikka bir maromda ko'tarilaveradi. Quyi Amudaryoda ko'p qo'llaniladi.

**SIYOSIY GEOGRAFIK O'RIN** — mamlakatlarning o'z ittifoqchilari va dushmanlariga nisbatan, uning xavfsizligiga tahdid qiluvchi turli xil harbiy bloklarga va h.k. nisbatan tutgan o'rni. Ba'zan bu atama geostrategik mavqe tushunchasi bilan almashtiriladi.

**TRANZIT** (*lotincha*) — yuk yoki yo'lovchilarning oraliqdagi stansiya, rayon, davlat orqali o'tishi. Tranzit so'zi yuk qaytadan ortiladigan yoki yo'lovchilar boshqa transportga tushadigan, yoki boshqa tomonga ketadigan stansiyaning bildirish uchun ham ishlatiladi.

**TRANSPORT TUGUNI** — bir necha transport yo'llari tutashgan joy.

**TOVAR** — bozorda oldi-sotdi orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli.

**FERROQOTISHMALAR** (*lotincha*) — temirning boshqa metallar bilan qotishmasi bo'lib, bunday qotishmalardan po'latga ma'lum bir sifat berish uchun foydalaniladi.

**FITOMELIORATIV TADBIR** — yerni o'simliklar vositasida qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli qilish. Cho'llarning o'simlik qoplamini tiklash.

**FRACT** — suv yo'lida yuk tashish haqi. Bu haq yukning og'irligi, qancha masofaga tashilishi, hajmi kemada tashilgan vaqt miqdori jihatidan hisoblab chiqiladi. Mamlakat chetga sotadigan tovarlarini o'z flotida tashib, chet el valyutasida qo'shimcha katta mablag' olishi mumkin. Agar sotilgan mollarni chet el kemalarida tashilsa, u ko'p mablag' sarflashga majbur bo'ladi.

**SHAHAR JOYLAR** — shaharlar va shaharchalar, ular: a) aholining soniga, b) aholining mashg'uloti turiga qarab ajratiladi. Bu belgilar turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi.

**EKSTENSIV** (*lotincha*) — ekstensiv xo'jalik mablag' va mehnat kam sarflanadigan, yaxshi mexanizatsiyalashmagan, fan-texnika taraqqiyoti muvaffaqiyatlaridan kam foydalanadigan xo'jalik.

**EMIGRATSIYA** (*lotincha*) — kishilarning o'zi tug'ilgan yoki uzoq vaqt yashagan mamlakatdan ko'chib ketishi. Muhojirlar emigrantlar deyiladi.

**YUK O'TKAZISH SUR'ATI** — temir yo'llarda foydalanish intensivligi ko'rsatkichi. 1 km yo'lga to'g'ri keladigan yuk oboroti (t/km) bilan o'lchanadi.

**YALPI MAHSULOT** — korxonada yoki butun mamlakat ma'lum vaqt (yil, oy) mobaynida ishlab chiqargan va pulda ifodalangan jami mahsulot.

**YARIM FABRIKAT** — qo'shimcha ishlov beriladigan buyumlar (sellyuloza, kalavaip, po'lat quymlar).

**QIYIN ERIYDIGAN VA O'TGA CHIDAMLI METALL** — volfram va molibden aralashmasidan tayyorlangan, yemirilmaydigan qotishma.

**QUYOSH PECHI** — (*gelioqurilma*) — quyosh haroratini jamlovchi qurilma. Bunda harorat 3500—3800°C gacha ko'tarilishi mumkin.

**QISHLOQ AHOLISI** — qishloq joylarda yashaydigan, lekin qishloq xo'jaligidan boshqa sohada (ko'pincha yon-beridagi shaharda) ishlaydigan aholi.

**HOSILDORLIK** — 1 ga ekin maydonidan olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotini sentner hisobida o'lchanadigan miqdori.

## MUNDARIJA

### Kirish

1-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nimani o'rgatadi .....	3
--	---

### **O'zbekiston iqtisodiyotining umumgeografik ta'rifi**

#### Geografik o'rni

<del>2-§. O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy-geografik o'rni .....</del>	<del>6</del>
3-§. Siyosiy-ma'muriy bo'linishi .....	11

#### Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar

4-§. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari .....	13
5-§. Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyot- dagi ahamiyati .....	17

#### O'zbekiston aholisi

6-§. Aholi soni va zichligi .....	29
7-§. Aholi tarkibi .....	35
8-§. Inson omili va undan foydalanish .....	39
9-§. Aholi manzilgohlari .....	43

#### **O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari**

10-§. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekiston xalq xo'jaligi .....	49
11-§. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lida .....	53

#### **O'zbekistonning tarmoqlararo majmualari**

12-§. Sanoatning tarmoqlararo majmualari geografiyasi .....	56
13-§. Agrosanoat majmuasi .....	59

Dehqonchilik .....	62
Chorvachilik .....	72
14-§. Yoqilg'i — energetika — kimyo majmuasi .....	75
Yoqilg'i sanoati .....	78
Elektroenergetika .....	83
Kimyo sanoati .....	89
2 15-§. Metallurgiya majmuasi .....	92
Qora metallurgiya .....	92
Rangli metallurgiya .....	94
1 16-§. Mashinasozlik majmuasi .....	96
3 Mashinasozlikning taraqqiyoti .....	99
17-§. Binokorlik materiallari majmuasi .....	101
18-§. Xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari majmuasi .....	104
Yengil sanoat .....	104
Oziq-ovqat sanoati .....	110
Xizmat ko'rsatish geografiyasi .....	114
Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari .....	116
19-§. Transport geografiyasi .....	117
Zamonaviy transport turlari .....	122
20-§. Milliy iqtisodiyot tarmoqlari geografiasining umumiy masalalari .....	125

## **O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari va viloyatlari ta'rifi**

### **O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish va iqtisodiy rayonlashtirish**

21-§. Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent viloyati) .....	135
22-§. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni .....	152
Sirdaryo viloyati .....	155
Jizzax viloyati .....	159
23-§. Farg'ona iqtisodiy rayoni .....	163
Andijon viloyati .....	169
Farg'ona viloyati .....	173
Namangan viloyati .....	179
24-§. Samarqand iqtisodiy rayoni (Samarqand viloyati) .....	183
25-§. Buxoro — Navoiy iqtisodiy rayoni .....	190
Buxoro viloyati .....	194
Navoiy viloyati .....	197
26-§. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni (Qashqadaryo viloyati) .....	201
27-§. Surxondaryo iqtisodiy rayoni (Surxondaryo viloyati) .....	208

28-§. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni .....	213
Xorazm viloyati.....	218
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.....	222
„O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari va viloyatlari ta’rifi“ bo‘limini umumlashtiruvchi takrorlash .....	229
29-§. O‘zbekistonning rayonlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari .....	230
<b>Ilovalar</b> .....	232
Tushuncha va atamalarning qisqacha izohi .....	247

ZIYOVUDDIN MUHIDDINOVICH AKROMOV,  
PAYOZ G'YOSOVICH MUSAYEV

**O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY  
GEOGRAFIYASI**

**8-sinf uchun darslik**

2 - n a s h r i

*Toshkent — „Mehnat“ — 2002*

Tahririyat mudiri *A. Madrahimov*  
Muharrir *F. Ismoilova*  
Badiiy muharrir *H. Qutlugov*  
Texnik muharrir *N. Sorokina*  
Musahhiha *F. Temirxo'jaeva*

Diapozitivdan bosishga ruxsat etildi. 20.03.2002 y. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ , Tayms harfida ofset usulida bosildi. Kegli 11,5 shponsiz. Shartli b.t. 16,0. Shartli kr.-ott. 64,25. Nashr. t. 15,6. 1-zavod 50 000 nusxa. Buyurtma №19. Bahosi 1380 so'm.

„Mehnat“ nashriyoti. 700129 Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Shartnoma №82—2001.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi huzuridagi Toshkent kitob-jurnal fabrikasi. Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1.

A43

**Akromov Z. M., Musayev P. G'.**

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: 8-sinf uchun darslik. 2-nashri—T.: „Mehnat“, 2002.—256 b.

L. Mu'llipdosh.

BBK 65.04ya721